10. Rahimova, M. Sh. (2022). Sun'iy intellekt va ta'lim psixologiyasi: imkoniyatlar va xavflar. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
11. Jalolova, Z. M. (2021). Raqamli muhitda yoshlarning emotsional barqarorligini rivojlantirish yo'llari. Farg'ona: FDU nashriyoti.
12. To'xtayeva, G. S. (2023). O'quv faoliyatida diqqatni boshqarishning psixologik mexanizmlari. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.

*Qo‘chkorova Sevara O‘ktamboyevna,
O‘zbekiston Milliy universiteti Psixologiya mutaxassisligi
2-bosqich magistranti*

TALABALARNING ICHKI DUNYOSI VA MA’NAVİY QADRIYATLARI

Annotatsiya. Zamonaviy jamiyatda shaxsning ma’naviy va ruhiy kamolotini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jamiyatning taraqqiyoti, intellektual salohiyati va ma’naviy yuksalishi, avvalo, yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ruhiy holatiga bevosita bog‘liqdir. Talabalarning ma’naviy qadriyatlarini shakllantirish ularning ichki dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Bu orqali maqsad sari intiluvchan, vatanparvar va irodali shaxslarni tarbiyalash mumkin. Mazkur maqolada talabalarning ichki dunyosi hamda ma’naviy qadriyatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘z-o‘zini anglash, fikr tarbiyasi, ijtimoiy yetuklik, konstruktiv, stress, hissiyot, status, mas’uliyat, ehtiyojlar iyerarxiyasi.

ВНУТРЕННИЙ МИР СТУДЕНТОВ И ИХ ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ

Аннотация. В современном обществе развитие духовного и психологического совершенства личности признаётся одной из основных целей. Прогресс общества, его интеллектуальный потенциал и духовное возвышение напрямую зависят, прежде всего, от мировоззрения, ценностей и психологического состояния молодёжи. Формирование духовных ценностей у студентов способствует обогащению их внутреннего мира. Через этот процесс возможно воспитание целеустремлённой, патриотичной и волевой личности. В данной статье анализируются внутренний мир студентов, а также факторы, влияющие на формирование их духовных ценностей.

Ключевые слова: самопознание, воспитание мышления, социальная зрелость, конструктивность, стресс, эмоции, статус, ответственность, иерархия потребностей.

THE INNER WORLD OF STUDENTS AND THEIR SPIRITUAL VALUES

Abstract. In modern society, the development of an individual’s moral and psychological maturity is recognized as one of the main objectives. The progress of society, its intellectual potential, and spiritual advancement are directly dependent on the worldview, values, and psychological state of the younger generation. The formation of students’ moral values contributes to the enrichment of their inner world. Through this process, it becomes possible to cultivate goal-oriented, patriotic, and strong-willed individuals. This article analyzes the inner world of students and examines the factors influencing the formation of their spiritual values.

Keywords: self-awareness, cultivation of thinking, social maturity, constructiveness, stress, emotions, status, responsibility, hierarchy of needs.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda [1].

“Har bir millat, har bir xalq o‘z ma’naviyatini, uning qadriyatini bilsa va asrab-avaylasa, unday millatning, unday davlatning kelajagi buyuk bo‘lishi muqarrar”. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” kitobida “Ma’naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon- e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir” deya ta’kidlaganlar [3].

Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kilganlaridek: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”.

“Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan. Ma’lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to‘qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv

jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti. Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir” [2].

Talabalik – inson hayotidagi eng faol va mas'uliyatli davrdir. Bu davrda yoshlar nafaqat kasbiy bilimlarni egallaydi, balki o'z ichki dunyosini boyitadi, hayotga, mehnatga, insonlarga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Ma'naviy barkamollikka intilgan talaba har bir ishda halollik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini o'z hayot mezoniga aylantiradi.

Psixologiya fanida talabalik davri “ijtimoiy yetuklikka tayyorgarlik bosqichi” sifatida qaraladi. Shu davrda inson shaxsiy identifikatsiya, hayotiy yo'lni tanlash va ma'naviy-axloqiy qarorlar qabul qilish bosqichini boshdan kechiradi. Ichki dunyo bu shaxsning sub'yektiv kechinmalari, hissiyotlari, fikrlari, orzulari va qadriyatlar tizimidan iborat murakkab ichki makon. Talabalik yoshi aynan ushbu ichki dunyo shakllanadigan davr hisoblanadi. Bu paytda yoshlar mustaqil fikrlashni o'rganadilar, hayotiy qarorlarni o'zlari qabul qila boshlaydilar va bu jarayon psixologik barqarorlikni talab etadi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, shaxsning o'zini anglash darajasi uning ma'naviy qadriyatlarga sodiqligi bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, o'zini qadrlaydigan talaba boshqalarni ham qadrlay oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ma'naviy kamolot insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi ruhiy, axloqiy va madaniy yetuklikka erishish jarayonidir. Bu tushuncha qadimdan mavjud bo'lib, tarixiy rivojlanish davomida turli talqinlarga ega bo'lgan. Bugungi kunda ma'naviy kamolot nafaqat shaxsning o'zini anglash va o'zini takomillashtirish jarayoni, balki jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy prinsiplarni amalga oshirish sifatida qaraladi. Ma'naviy kamolot shaxsning ichki o'sishi, axloqiy va ruhiy jihatdan yanada mukammal bo'lishiga yordam beradi. Psixologiyada ma'naviy kamolot shaxsning o'z-o'zini anglash va rivojlantirish jarayoni sifatida qaraladi. Abraham Maslouning “Ehtiyojlar iyerarxiyasi”da ma'naviy kamolot yuqori darajadagi o'zini o'zi amalga oshirish va shaxsiy yaxshilanish bilan bog'liq. Maslou piramidasida eng yuqori pog'ona “o'zini o'zi ro'yobga chiqarish” bosqichi bo'lib, bu ma'naviy kamolotning psixologik asosini tashkil etadi. Talabalar bilim, ijodkorlik va o'z imkoniyatlarini namoyon etish orqali ushbu bosqichga erishadilar.

K. Yung shaxsning ichki “Men”ini kashf etishi va o'zini anglash orqali ruhiy butunlikka erishish ma'naviy yuksalishning asosiy bosqichidir, deb hisoblaydi. Viktor Franklning “Logoterapiya” nazariyasida ma'naviy kamolotning asosiy psixologik mexanizmlarini izohlashda muhim ahamiyat kasb etadi [8]. Frankl ta'kidlaganidek, inson o'z hayotida ma'no topa olganida, uning ruhiy barqarorligi va ma'naviy rivojlanishi ta'minlanadi. Bu konsepsiyani talabalarga bog'lasak; agar talaba bilim olish jarayonida o'z faoliyatining ma'nosini anglasa, u o'z ma'naviy kamolotini yanada tezroq rivojlantiradi.

Talabalarining ma'naviy kamolotini o'rganishda yana bir psixologik yondashuv emotsional intellekt nazariyasidir. D. Goleman (1995) tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya, shaxsning ma'naviy yetukligi uning hissiyotni boshqarish qobiliyatiga chambarchas bog'liqdir [7]. Hissiyotlarini boshqara oladigan talaba ijtimoiy munosabatlarda barqaror bo'ladi, boshqalarga empatiya ko'rsatadi va bu orqali o'z ma'naviy olamini boyitadi. Talabaning ichki dunyosi o'z-o'zini anglash, o'z hissiyotlarini idrok etish va tahlil qilish jarayonida shakllanadi. Bu jarayon to'g'ridan-to'g'ri emotsional intellektning asosiy komponenti — o'z emotsiyalarini anglash bilan bog'liqdir.

Talabaning ichki dunyosi ma'naviyatni idrok etuvchi maydon, ma'naviy qadriyatlar esa uni yo'naltiruvchi kuchdir. Ruhiy muvozanatga ega, ichki dunyosi uyg'un talaba o'z xatti-harakatini ongli ravishda boshqaradi, hissiyotlarini tahlil qila oladi, boshqalarga nisbatan empatiya bilan qaraydi. Bunda psixologik jihatdan muhim omillar — o'zini boshqarish, ijobiy fikrlash, vijdon, sabr va halollik kabi fazilatlar asosiy rol o'ynaydi. Ichki dunyosida barqarorlikka ega bo'lgan talaba tashqi bosimlarga bardosh bera oladi, stress holatlarida konstruktiv yechim topa oladi. Talabalarining ichki dunyosi va ma'naviy qadriyatlari shaxsiy yetuklikning ajralmas qismlari hisoblanadi. Ichki dunyo insonning ruhiy boyligi, ma'naviy qadriyatlar esa shu boylikni yo'naltiruvchi ma'naviy kompasdir. Psixologik nuqtayi nazardan, ma'naviy qadriyatlarga tayanib yashovchi talaba o'z hayot maqsadini anglaydi, jamiyatga foydali, mas'uliyatli, ruhiy jihatdan sog'lom shaxs sifatida kamol topadi.

Natijalar va muhokama. Olib borilgan tadqiqotimizda 50 nafar talaba sinaluvchilarning qo'lga kiritgan natijalarining qayta ishlangan ma'lumotlari asosida tavsiflovchi statistik ma'lumotlar va talqinni batafsil bayon qilingan.

M. Rokich testi insonning hayotiy qadriyatlarini tizimini va ularning iyerarxiyasini aniqlaydi. U ikkita shkaladan iborat:

1. Terminal qadriyatlar - shaxs intiladigan hayotiy maqsadlari (masalan, baxt, sevgi, erkinlik, muvaffaqiyat).

2. Instrumental qadriyatlar - bu maqsadlarga erishish vositalari (masalan, halollik, mas’uliyat, o’zini o’zi boshqarish).

Har bir ishtirokchi 1 dan 18 gacha qiymatlarni baholaydi. Statistik tahlil uchun natijalar odatda har bir shkala bo’yicha o’rtacha ballga aylantiriladi (o’rtacha daraja qanchalik past bo’lsa, ahamiyati shunchalik yuqori bo’ladi).

1-jadval.

M. Rokich Hayotiy qadriyatlar metodikasi tavsiflovchi statistika (hayot maqsadlari)

№	Hayotiy qadriyatlar	O’rtacha rang	SD	Ahamiyatlilik qiymati	Sharh
1	Baxtli oilaviy hayot	4,1	2,0	Juda yuqori	Dominant qiymat, barqaror munosabatlarga e’tiborni aks ettiradi
2	Sevgi	5,0	2,2	Yuqori	Hissiy soha muhim, uyg’unlikka intilish
3	Salomatlik	5,2	1,8	Yuqori	Jismoniy va ruhiy farovonlik qadriini yuqori darajada anglash
4	Moddiy farovonlik	6,8	2,5	O’rtacha	Pragmatik, lekin asosiy emas
5	Ishga jalb qilish	7,0	2,3	O’rtacha	Mehnat orqali o’zini-o’zi anglashning o’rtacha qiymati
6	Do’sstlik	7,4	2,1	O’rtacha	Ijtimoiy aloqalarni saqlash
7	O’ziga ishonch	7,6	2,2	O’rtacha	O’zini-o’zi hurmat qilish, shaxsiy barqarorlik
8	Erkinlik	8,0	2,8	O’rtacha	Mustaqillik va shaxsiy avtonomiya
9	Ijtimoiy e’tirof	8,3	2,9	O’rtacha	Hurmat va obro’ga intilish
10	Shaxsiy rivojlanish	8,6	2,5	O’rtacha	O’z-o’zini rivojlantirishga intilish
11	E’tirof	9,0	2,6	O’rtacha	Intellektual faollik
12	Boshqalarning baxti	9,4	2,4	O’rtachadan past	Hamma ham altruistik munosabatga ega emas.
13	O’yin-kulgi	10,1	3,1	Past	Kam dam olish va bo’sh vaqtning ikkinchi darajali bo’lishi
14	Tabiat va san’at go’zalligi	10,4	2,9	Past	Estetik soha kamroq ustuvor ahamiyatga ega
15	Ijodkorlik	10,6	2,8	Past	Hamma ham o’zini ijodiy namoyon qilishga kuchli ehtiyojga ega emas.
16	Boshqa odamlarning baxti	10,9	2,7	Past	O’rtacha ijtimoiy yo’nalish
17	Faol hayotiy pozitsiya	11,0	3,0	Past	Faoliyatning qiymati zaif
18	Xursandchilik	11,2	2,9	Past	Past gedonistik qadriyatlar zaif

Terminal qadriyatlar qiymatlari bo’yicha quyidagicha talqinni amalga oshirish mumkin: -talabalarda insonparvarlik va oilaviy qadriyatlar (baxtli oila, sevgi, salomatlik) ustunlik qiladi. O’z-o’zini rivojlantirish va o’rganish qadriyatlar o’rta o’rinlarni egallaydi, bu kasbiy o’sish jarayonida talabalar uchun xosdir; moddiy va gedonistik qadriyatlar pastroq bo’lib, qoniqishning tashqi manbalariga emas, balki ichki ongli ravishda e’tiborga olinishini ko’rsatadi. Qadriyat asosiy mohiyati: insonparvarlikka yo’naltirilgan, barqaror shaxsiy ustuvorlik tizimiga ega.

Shkalalar bo’yicha umumlashtirilgan sharhga binoan, hayotiy qadriyatlar (maqsadlar) $\bar{X} = 7.9$ ni ko’rsatdi. Gumanistik va ma’naviy-axloqiy yo’nalishlarning ustunligini bildiradi. Vositaviy qadriyatlar (vosita) $\bar{X} = 6.8$ Axloqiy va kommunikativ fazilatlar ustunligini ko’rsatadi.

Rokich metodikasining (1973) asl ko’rinishida qadriyatlarining ikki turini aniqladi:

Terminal (hayotiy qadriyatlar) – bu mavjudlikning yakuniy maqsadlari, ya’ni inson erishmoqchi bo’lgan narsalar haqidagi g’oyalar.

Instrumental (maqsadga erishish uchun vosita) – bu yakuniy maqsadlarga erishish uchun zarur bo’lgan shaxsiy xususiyatlar va xatti-harakatlar namunalari.

2-jadval.

Vositaviy qadriyatlar uchun tavsiflovchi statistika (hayot maqsadlari)

№	Vositaviy qadriyat	O'rtacha rang	SD	Ifoda darajasi	Sharh
1	Halollik	4,0	1,9	Juda yuqori	Asosiy axloqiy munosabat
2	Mas'uliyat	4,3	2,0	Juda yuqori	Professional o'zini o'zi anglashning muhim vositasi
3	Muvofiqlik	5,0	2,3	Yuqori	Boshqalarga nisbatan ijobiy munosabat, hamdardlik
4	O'z-o'zini nazorat qilish	5,4	2,2	Yuqori	Yuqori hissiy barqarorlik, o'zini o'zi boshqarish
5	Tolerantlik	5,8	2,4	O'rtacha	Bag'rikenglik, boshqalarni qabul qilish
6	Yaxshi xulq-atvor	6,0	2,3	O'rtacha	Hurmatga savozor xulq-atvor, me'yorlarga rioya qilish
7	Mustaqillik	6,4	2,5	O'rtacha	Qaror qabul qilishda o'rtacha mustaqillik
8	Ta'lim	6,5	2,4	O'rtacha	Kompetentsiyalarni rivojlantirishga intilish
9	Maqsadlilik	6,7	2,6	O'rtacha	Maqsadga erishishga intilish
10	Keng fikrlilik	7,0	2,6	O'rtacha	Muloqotga tayyorlik va ochiqlik
11	Ishda samaradorlik	7,2	2,8	O'rtacha	Pragmatizm, natijalarga yo'naltirilganlik
12	Adolat	7,4	2,5	O'rtacha	Axloqiy tamoyillarga o'rtacha sodiqlik
13	Aniqlik	8,1	2,9	O'rtachadan past	Talabalar uchun o'rtachadan past
14	Fikrlarni himoya qilishda jasorat	8,4	3,1	O'rtachadan past	Ijtimoiy ishonch past
15	Mustaqillik	8,6	2,8	O'rtachadan past	Bog'liq xulq-atvorga moyillik
16	Mehnatsevarlik	8,8	2,6	O'rtachadan past	Aniq rasmiy intizomning kamroq ko'rinishi
17	Ratsionalizm	9,0	3,0	Past	Impulsivlikka moyillik
18	Irodaning mustahkamligi	9,2	2,9	Past	Qaror qabul qilishda ishonchning yetarli emasligi

Keyinchalik (Shvarts, Karandashev, Leontev, Shvalb va boshqalar adaptatsiyasida) Rokichning qadriyatlarni omilli tahliliga asoslanib, yuqori semantik bloklar aniqlana boshladi: Gumanistik bag'rikenglik, altruizm, rahm-shafqat, ehson, adolat; “boshqalar baxti”, “dunyo tinchligi” hamda instrumental “halollik”, “mehribonlik” kabi terminal qadriyatlarining natijalari bo'lgan o'z-o'zini rivojlantirish ijodkorlik, o'z-o'zini bilish, mustaqillik, rivojlanish, hayotning mazmuni; “qiziqarli ish”, “shaxsiy rivojlanish” va vositaviy “mas'uliyat”, “qat'iylik” kabi terminal qiymatlarning natijalari shakllandi. Keyingi tahlillarda insonparvarlik va o'z-o'zini rivojlantirish qadriyatlari deb yuritiladi.

3-jadval.

Omilli tahlil asosida insonparvarlik va o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlariga guruhlashtirish

Qadriyatlar	Ta'riflari	Kelib chiqishi
Insonparvarlik	Bag'rikenglik, altruizm, rahm-shafqat, ehson, adolat	“boshqalarning baxti”, “dunyoda tinchlik” + vositaviy “halollik”, “mehribonlik” kabi hayotiy qadriyatlarining hosilalari
O'z-o'zini rivojlantirish	Ijodkorlik, o'z-o'zini bilish, mustaqillik, rivojlanish, hayotning mazmuni	Hayotiy qadriyatdan olingan “qiziqarli ish”, “shaxsiy rivojlanish” va vositaviy “mas'uliyat”, “maqsadlilik”

O'rtacha qiymat ($\bar{X}=23,4$; $SD=4,8$) o'quvchilar odatda o'z hayotlarida ma'no ko'rishlarini va o'z qadriyatlarini bilishlarini, biroq ba'zilar hayotiy ustuvorliklarini izlash va qayta baholash davrini boshdan kechirishlarini ko'rsatadi.

Hayotda ma'no borligi – Talabalar faol shaxsiy va professional o'z-o'zini hayot yo'lini belgilash bilan bog'liq davrni boshdan kechirmoqdalar.

Hayotning ma'nosini izlash – O'rtachadan yuqori ball ($\bar{X}=26,1$; $SD=5,2$) talabalarining o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini bilishga bo'lgan kuchli intilishlarini aks ettiradi. Bu yoshlarga xos: ular shaxsiy o'ziga xoslikni izlaydilar, dunyoqarash va hayot yo'l-yo'riqlarini rivojlantiradilar.

4-jadval.

Hayot mazmuni metodikasi (MLQ) uchun tavsiflovchi statistika

Shkala	O'rtacha	SD	Min	Max	Daraja	Sharh
Hayotda ma'no borligi	23.4	4.8	12	30	O'rtacha	Aksariyat talabalar hayotining mazmuni borligini his qilishadi, lekin ular har doim ham o'z maqsadlarini aniq ifodalay olmaydilar.
Hayotda ma'no izlash	26.1	5.2	14	34	O'rtachadan yuqori	Talabalar o'zlarining maqsadlari, qadriyatlar va o'rinlari haqida faol fikr yuritadilar va shaxsiy ma'noni qidiradilar.

Hayotda ma'no izlash - hayotda ma'no borligi $26.1 - 23.4 = 2.7$, Talabalar o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan dinamik istaklarini ifodalaydi, bu hayot ma'nolarining paydo bo'layotgan tuzilishini ko'rsatadi. Ular hayotiy maqsadlarni faol ravishda izlaydilar, bu yoshlik (18-22 yosh) uchun tabiiydir. Shu bilan birga, ko'pchilik ta'lim, shaxslararo munosabatlar va shaxsiy o'sish muhimligini allaqachon tan oladi. "Ma'no izlash"ning "ma'no borligi"dan ustunligi o'z-o'zini rivojlantirish uchun yuqori motivatsiya va ekzistensial o'sish potentsialidan dalolat beradi.

Hayotdagi ma'no metodi natijalariga ko'ra, talabalar hayotda ma'no borligining o'rtacha darajasini va ma'no izlashning yuqori darajasini namoyish etadilar. Bu kasbiy rivojlanish davriga xos bo'lgan faol o'zini-o'zi belgilash jarayonlarini ko'rsatadi. Natijalar shaxsiy o'sish va mazmunli hayotiy maqsadlar uchun ichki potentsial mavjudligini ko'rsatadi, bu kelajakdagi kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatning ijobiy bashorati hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Bugungi yoshlar tez o'zgarayotgan axborot asrida yashamoqdalar. Turli g'oyalar, madaniyatlar ta'sirida o'z yo'lini yo'qotmaslik uchun talaba ma'naviy tayanchga ega bo'lishi kerak. Halollik, vijdon, do'stlik, mehr-shafqat kabi qadriyatlar uning kundalik qarorlarida, o'qishga bo'lgan munosabatida, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyatida ham aks etishi zarur. Talabaning ichki dunyosi va ma'naviy qadriyatlar bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, ma'naviy qadriyatlar shaxsning o'zini anglash, ruhiy barqarorlik va ijtimoiy moslashuv jarayonlarining asosi hisoblanadi.

Ma'naviy qadriyatlarga ega talaba o'z hayot maqsadini aniq belgilaydi, ijtimoiy javobgarlik va ma'suliyatni his etadi, ruhiy bosimlarga bardosh bera oladi, jamiyatda ijobiy o'rnak va o'z o'rniga ega bo'la oladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarining faqat intellektual emas, balki psixologik va ma'naviy rivojlanishiga ham e'tibor qaratish zarur. Zero, aqliy jihatdan yetuk, o'z statusiga ega, ichki dunyosi boy, ma'naviy qadriyatlarga ega talaba rivojlanyotgan jamiyatning poydevoridir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26 martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha yig'ilishidagi nutqi.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent-2008.
4. Nishonova Z.T. va boshq. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn]: darslik/Toshkent: 2018. — 600 b.
5. G'oziyev E. "Ontogenez psixologiyasi". Darslik. Toshkent-2020.
6. Шматько, Ольга Евгеньевна "Развитие духовно-личностных качеств студентов-психологов в условиях специально организованного обучения". Текст диссертации и автореферата по ВАК РФ 19.00.07, кандидат психологических наук
7. Goleman D. "Emotional Intelligence". New York Press, 1995.
8. Франкл, В. Е. (1992). Смысл жизни: Логотерапия и экзистенциальный анализ. Москва: Прогресс.

Каланходжаева Камилахон Ботирходжаевна,
и.о. доцента кафедры “Педагогика и психология” Института технологии,
менеджмента и коммуникации, г.Ташкент

ВЛИЯНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРОФИЛЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ АСИММЕТРИИ НА ПРЕОБЛАДАНИЕ КОМПОНЕНТОВ СИГНАЛЬНЫХ СИСТЕМ

Аннотация. В статье представлены результаты исследования взаимосвязи индивидуального профиля функциональной асимметрии студентов с соотношением сигнальных систем. Приведены результаты эмпирического исследования на выборке, которую составили 340 респондентов (241 девушка и 99 юношей), с разных направлений образования. В соответствии с целью исследования были использованы следующие методики: методика определения индивидуального профиля функциональной асимметрии К.Б. Кадырова в авторской модификации, опросник диагностики соотношений двух сигнальных систем Кадырова Б.Р. По результатам статистического анализа было выявлено, что у девушек и у юношей процессы саморегуляции, воли, самооценки регулируются противоположными полушариями по моторным пробам – у юношей – левым, у девушек – правым. При этом за аналитическое мышление у юношей отвечают нейрофизиологические механизмы правого полушария, у девушек – левого.

Ключевые слова: первая сигнальная система, вторая сигнальная система, нервная система, психическая деятельность, функциональная асимметрия мозга, индивидуальный профиль асимметрии.

FUNKSIONAL ASIMMETRIYANING INDIVIDUAL PROFILI SIGNAL TIZIMLARI KOMPONENTLARINING USTUNLIGIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarining funksional asimmetriya individual qiyofasini va signal tizimlari namoyon bo'lishi orasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganish natijalari taqdim etilgan. Turli ta'lim yo'nalishlaridan 340 nafar talaba (241 nafar qizlar va 99 nafar yigitlar) ishtirokidagi empirik tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi metodikalardan foydalanilgan: K.B. Qodirovning funksional asimmetriyaning individual profilini aniqlash metodikasi mualliflik modifikatsiyasida, B.R.Qodirovning ikki signal tizimi namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash metodikasi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, qizlar va yigitlarda o'z-o'zini boshqarish, iroda, o'z-o'zini baholash jarayonlari motor sinovlari bo'yicha qarama-qarshi yarim sharlar tomonidan boshqariladi - yigitlarda chap, qizlarda o'ng. Shu bilan birga, o'g'il bolalarda analitik fikrlash uchun o'ng yarim sharning neyrofiziologik mexanizmlari, qizlarda esa chap yarim sharning neyrofiziologik mexanizmlari javobgardir.

Kalit so'zlar: birinchi signal tizimi, ikkinchi signal tizimi, asab tizimi, psixik faoliyat, funksional asimmetriya, individual asimmetriya qiyofasi.

INFLUENCE OF THE INDIVIDUAL PROFILE OF FUNCTIONAL ASYMMETRY ON THE PREDOMINANCE OF SIGNAL SYSTEM COMPONENTS

Abstract. The article presents the results of a study on the relationship between the individual profile of functional asymmetry of students and the ratio of signal systems. The results of an empirical study on a sample of 340 respondents (241 girls and 99 boys) from various fields of education are presented. According to the research objective, the following methods were used: K.B. Kadyrov's method for determining the individual profile of functional asymmetry in the author's modification, B.R. Kadyrov's questionnaire for diagnosing the relationship between two signal systems. Based on the statistical analysis results, it was revealed that in girls and boys, the processes of self-regulation, willpower, and self-esteem are regulated by opposite hemispheres according to motor tests - left hemispheres in boys and right hemispheres in girls. In this case, the neuro-physiological mechanisms of the right hemisphere in boys and the left hemisphere in girls are responsible for analytical thinking.

Keywords: first signal system, second signal system, nervous system, mental activity, functional asymmetry of brain, individual asymmetry profile.

Введение. На современном этапе развития общества качество подготовки профессиональных кадров на этапе вузовского образования диктуется социальным заказом. В связи с этим возрастают требования к профессионально важным и значимым качествам, которые могли бы обуславливать дальнейшую успешность в их деятельности. В данном вопросе большой интерес представляет для нас изучение физиологических основ психических явлений [2], а именно влияние функциональной асимметрии на преобладание сигнальных систем.

Сама проблема взаимодействия парных систем и доминирования одного из анализаторов является наиболее обсуждаемой в современной нейропсихологии, поскольку в подавляющем большинстве случаев именно в таких системах имеет место возникновение психического представительства и регулярного действия в поведении человека. В этом случае латерализация, то есть выделение ведущего полушария, играющего особую роль в выполнении психических функций у человека, – уже психологическая проблема, нуждающаяся в постоянном изучении [3].

Также известно, что первая и вторая сигнальные системы характеризуются работой нервной системы и связанной с ней психической деятельностью. Исходя из этого мы склонны считать, что существуют различия в управлении психическими процессами у мужчин и у женщин, что в свою очередь, приводит к различиям в протекании процессов сигнальных систем в головном мозге [1, 2].

Методы. В рамках рассматриваемой темы было проведено эмпирическое исследование, в котором приняли участие студенты 1-4 курсов в количестве 340 человек (241 девушка и 99 юношей), обучающихся по разным направлениям профессионального обучения. Из них с Национального университета Узбекистана им. Мирзо Улугбека – 54 человека; с Ташкентского педиатрического медицинского института – 79 человек; с Государственного института искусства и культуры Узбекистана – 39 человек; с Национального Института искусства и дизайна им. К. Бехзода – 56 человек; с филиала МГУ имени М. В. Ломоносова в г. Ташкенте – 60 человек; с Ташкентского Государственного университета востоковедения – 52 человека.

Поставленная задача решалась путём использования следующих методик: методика определения индивидуального профиля функциональной асимметрии К.Б. Кадырова в авторской модификации, которая представляет собой 12 функциональных проб на определение ведущей руки, ноги, уха и глаза, а также на определение индивидуального профиля функциональной асимметрии. А также опросник диагностики соотношений двух сигнальных систем Кадырова Б.Р., который выявляется по следующим показателям: 1) динамических особенностей (активности и саморегуляции); 2) эмоциональности и воли; 3) процессов — памяти, воображения, мышления. Рассчитывался также суммарный показатель выраженности первой, второй сигнальной системы и их соотношение в виде «коэффициента сигнальности». Для статистической обработки данных использовали критерии г Спирмена.

Результаты исследования и их обсуждение. С целью выявления взаимосвязи между особенностями соотношения двух сигнальных систем и индивидуальным профилем функциональной асимметрии был проведён сравнительный анализ показателей шкал опросника соотношения двух сигнальных систем Б.Р. Кадырова с каждой из 12 проб по критерию U Манна-Уитни, отдельно у юношей и у девушек. Результаты сравнительного анализа показали, что по отдельным шкалам существует связь с предпочтением левой либо правой стороны и выявлены значимые различия. Необходимо отметить, что по данной методике наименьший показатель означает большую величину, наименьший показатель – большую.

По данным таблицы 1 можно констатировать, что юноши, у которых правый большой палец оказывается сверху при переплетении пальцев рук, обладают повышенным уровнем активности ($U=887,5$; $p<0.05$), саморегуляции ($U=925$; $p<0.05$), воли ($U=889,5$; $p<0.05$) и самооценки ($U=919$; $p<0.05$). При этом у тех, кто предпочитают левый большой палец, развито воображение ($U=931,5$; $p<0.05$).

Таблица 1.

Сравнение показателей шкал Опросника соотношения двух сигнальных систем Б.Р. Кадырова по результатам функциональной пробы «Переплетение пальцев рук» у юношей (критерий U Манна-Уитни)

Шкалы (группа юношей)	Переплетение пальцев рук (средние ранги)		U	p
	Левый большой палец (n=47)	Правый большой палец (n=52)		
Активность	57,1	43,6	887,5	0,019*
Воображение	43,8	55,6	931,5	0,041*
Саморегуляция	56,3	44,3	925	0,037*
Воля	57,1	43,6	889,5	0,02*
Самооценка	56,4	44,2	919	0,033*

Примечание: * $p<0.05$

Полученные данные, скорее всего, свидетельствуют о том, что за такие характеристики личности как активность, саморегуляция, воля и самооценка преимущественно отвечают отдельные анатомические структуры левого полушария, тогда как воображение связано с нейрофизиологическими механизмами правого полушария, обеспечивающими доминирование левого большого пальца.

По пробе “Поза Наполеона” юноши, у которых левый локоть оказывался сверху при скрещивании рук на груди, были отмечены повышенные показатели по шкалам “воображение” ($U=923$, $p<0.05$), “аналитическое мышление” ($U=874$, $p<0.05$) и “Уровень аналитико-синтетической деятельности” ($U=940,5$, $p<0.05$), что, по-видимому, свидетельствует о том, что данные интеллектуальные процессы главным образом взаимосвязаны с нейрофизиологическими механизмами правого полушария, обеспечивающими преобладание левого локтя (смотрите таблицу 2).

Таблица 2.

Сравнение показателей шкал Опросника соотношения двух сигнальных систем Б.Р. Кадырова по результатам функциональной пробы «Поза Наполеона» у юношей (критерий U Манна-Уитни)

Шкалы (группа юношей)	Поза Наполеона (средние ранги)		U	p
	Левый локоть (n=49)	Правый локоть (n=50)		
Воображение	43,8	56	923	0,034*
Аналитическое мышление	42,8	57	874	0,014*
Уровень аналитико-синтетической деятельности	44,2	55,7	940,5	0,046*

Примечание: * $p<0.05$

Учитывая тот общеизвестный факт, что аналитическое мышление преимущественно связано с функциональной активностью левого полушария, с одной стороны, и полученные нами несколько отличные результаты корреляционного анализа, с другой стороны, можно предположить, что, аналитическое мышление можно рассматривать как значительно более сложный психический процесс, и нельзя однозначно сказать, что за такую многоуровневую и многоаспектную мыслительную деятельность отвечает только одно полушарие. Предположительно, что за реализацию способностей к аналитическому мышлению несут ответственность также и нейрофизиологические структуры правого полушария, способствующие доминированию левого локтя.

По остальным функциональным пробам значимых различий в преобладании того или иного сенсомоторного органа в соотношении двух сигнальных систем выявлено не было. Отсюда следует вывод, что, по-видимому, нейрофизиологические механизмы, обеспечивающие преобладание левого или правого органа по данным функциональным пробам не связаны с индикаторами сигнальных систем.

Тем не менее, исходя из полученных результатов, мы имеем основание говорить о том, что мозговые механизмы сенсомоторной асимметрии парных органов всё же осуществляют регулирование некоторых психических процессов. По полученным данным, у юношей-студентов за активность, саморегуляцию, волю, самооценку отвечают мозговые центры левого полушария, а воображение, аналитическое мышление, АСД являются функциями правого полушария.

В довершение к результатам сравнительного анализа соотношения двух сигнальных систем и функциональных проб, мы также провели сравнение шкал опросника Б.Р. Кадырова и уровня предпочитаемой стороны по ведущей руке, ноге, уху и глазу по Н критерию Краскела-Уоллиса.

При проведении у девушек сравнительного анализа показателей шкал опросника соотношения двух сигнальных систем Б.Р. Кадырова с каждой из 12 функциональных проб по U критерию Манна-Уитни, был выявлен высокий уровень аналитического мышления ($U=6066$; $p<0.05$) у тех, кто при переплетении пальцев рук ставил правый большой палец сверху (таблица 3). Полученные результаты соотносятся с общеизвестными положениями о том, что процессы аналитического мышления осуществляются за счёт нейрофизиологических механизмов, находящихся в правой части головного мозга.

Таблица 3.

Сравнение показателей шкалы «Аналитическое мышление» по результатам функциональной пробы «Переплетение пальцев рук» у девушек (критерий U Манна-Уитни)

Шкалы (группа девушек)	Переплетение пальцев рук (средние ранги)		U	p
	Левый большой палец (n=133)	Правый большой палец (n=108)		
Аналитическое мышление	129,4	110,7	6066	0,038*

Примечание: * $p < 0.05$

Что касается функциональной пробы “Бурные аплодисменты”, то у девушек, предпочитающих ставить левую ладонь сверху, были выявлены значимые различия по шкалам “Саморегуляция” ($U=3779$; $p < 0.05$), “Воля” ($U=3634,5$; $p < 0.01$), “Самооценка” ($U=3696,5$; $p < 0.05$), “Второсигнальность” ($U=3798,5$; $p < 0.05$), “Уровень аналитико-синтетической деятельности” ($U=3861,5$; $p < 0.05$). Полученные данные указывают на то, что у девушек индикаторы второй сигнальной системы в большей степени регулируются левосторонними мозговыми центрами, что, на наш взгляд, зависит от половой принадлежности (смотрите таблицу 4).

Таблица 4.

Сравнение показателей шкал Опросника соотношения двух сигнальных систем Б.Р. Кадырова по результатам функциональной пробы «Бурные аплодисменты» у девушек (критерий U Манна-Уитни)

Шкалы (группа девушек)	Бурные аплодисменты (средние ранги)		U	p
	Левая кисть (n=50)	Правая кисть (n=191)		
Саморегуляция	101,1	126,2	3779	0,023*
Воля	98,2	127	3634,5	0,009**
Самооценка	99,4	126,6	3696,5	0,014*
Второсигнальность	101,5	126,1	3798,5	0,026*
Уровень аналитико-синтетической деятельности	102,7	125,8	3861,5	0,037*

По остальным функциональным пробам, а также по индивидуальному профилю функциональной асимметрии значимых различий между предпочтениями левых и правых органов у девушек по шкалам сигнальных систем обнаружено не было, что может свидетельствовать о том, что по данным функциональным пробам в предпочтении того или иного сенсомоторного органа нет значимой связи с показателями сигнальных систем.

Обобщая полученные данные, представляется интересным тот факт, что у девушек и у юношей процессы саморегуляции, воли, самооценки, регулируются противоположными полушариями по моторным пробам – у юношей левым, у девушек правым. При этом за аналитическое мышление у юношей отвечают нейрофизиологические механизмы правого полушария, у девушек – левого (смотрите таблицу 5).

Таблица 5.

Распределение компонентов второй сигнальной системы по полушариям у юношей и девушек

Юноши	Девушки
<i>Правое полушарие</i>	<i>Правое полушарие</i>
аналитическое мышление	саморегуляция воля самооценка
<i>Левое полушарие</i>	<i>Левое полушарие</i>
саморегуляция воля самооценка	аналитическое мышление

Заключение. Полученные данные могут быть причиной того, что локализация мозговых центров управления психическими процессами у мужчин и у женщин могут отличаться между собой, что может обуславливать различие в регулировании процессами сигнальных систем.

Литература:

1. Анохина А. С., Токарева О. А. Психофизиологические основы эмоционального интеллекта // Проблемы современного педагогического образования. Сер.: Педагогика и психология. – Сборник научных трудов: – Ялта: РИО ГПА, 2018. – Вып. 58. – Ч. 2. – С. 311-314.
2. Бурковская Е. Л. Эмоциональный интеллект и его взаимосвязь с функциональной межполушарной асимметрией // Вестник магистратуры. 2019. № 10-2 (97). - С. 50-52.
3. Галюк Н.А. Феномен асимметрии зрительного восприятия у человека // Вестник ТГПУ. 2006. Выпуск 2 (53). Серия: Психология. – С. 5-9.

Qodirova Madina Elmurod qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-kurs magistranti
madinaqodirova750@gmail.com
Orcid:0009-0001-3028-1654

TALABALARNING IJTIMOYILASHUVIDA FUQAROLARGA MOS BO'LMAGAN DEVIANT XULQ-ATVORNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNI NAZORAT QILISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola talabalarning ijtimoiylashuv jarayonida ko'zga tashlanayotgan fuqarolarga mos bo'lmagan deviant xulq-atvorning (huquqbuzarliklar, ma'naviy qadriyatlardan chekinish, jamiyatga zid harakatlar va boshqalar) kelib chiqish sabablarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda deviant xulq-atvorning shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy va pedagogik omillari keng ko'lamda o'rganiladi. Maqolada deviant xulq-atvorning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha takomillashtirilgan ma'naviy-huquqiy va ijtimoiy nazorat mexanizmlari, jumladan, profilaktika, va reintegratsiya yo'nalishidagi zamonaviy usullar hamda vositalar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari talabalarda huquqiy madaniyatni, ma'naviy immunitetni kuchaytirish va jamiyatga mos xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, deviant xulq-atvor, diskriminatsiya, korreksiya ma'naviy-huquqiy tarbiya, ijtimoiy nazorat, profilaktika, rehabilitatsiya, huquqiy madaniyat, ma'naviy immunitet, jamiyatga moslashuv.

ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ, НЕ СООТВЕТСТВУЮЩЕГО НОРМАМ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА, В ПРОЦЕССЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЕГО КОНТРОЛЯ

Аннотация. Данная научная статья посвящена научно-теоретическому и практическому анализу причин девиантного поведения (преступлений, отклонения от духовных ценностей, антиобщественных действий и т.д.), не отвечающего гражданским нормам, наблюдаемого в процессе социализации обучающихся. В исследовании широко изучаются личностные, социально-экономические, семейные и педагогические факторы девиантного поведения. В статье предлагаются усовершенствованные нравственно-правовые и социально-контрольные механизмы профилактики и борьбы с девиантным поведением, включающие современные методы и инструменты в сфере профилактики и реинтеграции. Результаты исследования служат для разработки эффективных подходов, направленных на укрепление правовой культуры, духовного иммунитета и формирование социально приемлемого поведения у обучающихся.

Ключевые слова: социализация, девиантное поведение, дискриминация, коррекция, нравственно-правовое воспитание, социальный контроль, профилактика, реабилитация, правовая культура, нравственный иммунитет, адаптация к обществу.

IDENTIFYING THE CAUSES OF DEVIANT BEHAVIOR UNSUITABLE FOR CITIZENS IN STUDENT SOCIALIZATION AND IMPROVING MECHANISMS FOR ITS CONTROL

Abstract. This scientific article is devoted to the scientific-theoretical and practical analysis of the causes of deviant behavior (crimes, deviation from spiritual values, anti-social actions, etc.) that is not suitable for citizens, which is observed in the process of socialization of students. The study extensively studies the personal, socio-economic, family and pedagogical factors of deviant behavior. The article proposes improved moral-legal and social control mechanisms for preventing and combating deviant behavior, including modern methods and tools in the areas of prevention and reintegration. The results of the study serve to develop effective approaches aimed at strengthening legal culture, spiritual immunity and forming socially appropriate behavior in students.

Keywords: socialization, deviant behavior, discrimination, correction, moral and legal education, social control, prevention, rehabilitation, legal culture, moral immunity, adaptation to society.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, globallashtirish jarayonlari yosh avlod, xususan, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida yangi murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Talaba yoshlar hayotining eng faol, o'zgaruvchan va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan davrini boshdan kechiradi. Bu davrda shaxsning dunyoqarashi shakllanadi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Shu bilan birga, bu davr ko'pincha qiyinchiliklar, izlanishlar va ba'zan jamiyat uchun mos bo'lmagan, ya'ni deviant xulq-atvor shakllarining namoyon bo'lishi bilan ham tavsiflanadi.

Talabalarning ijtimoiylashuvida deviant xulq-atvorning shakllanishi nafaqat shaxsning o'ziga, balki butun jamiyat uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Huquqbuzarliklar, narkomaniya, alkogolizm, diniy ekstremizmga moyillik, axloqsizlik, jamiyat me'yorlariga zid harakatlar kabi ko'rinishdagi deviantlik oqibatlarini salbiy bo'lib, ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammoning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish va uning oldini olish hamda nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari ham aynan talaba-yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy va ma'naviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu maqolada talabalarning ijtimoiylashuv jarayonida namoyon bo'ladigan deviant xulq-atvorning sabablari chuqur tahlil qilinadi va ularga qarshi kurashish hamda profilaktika bo'yicha samarali ma'naviy-huquqiy va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari ko'rsatiladi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Deviant xulq-atvorning ijtimoiy-pedagogik mohiyati va talabalardagi ko'rinishlari. Deviant xulq-atvor (lotincha “deviatio” – chetlanish) – bu ijtimoiy me'yorlar, qoidalar va qadriyatlardan chetlanishni anglatadi. Pedagogik va sotsiologik nuqtayi nazardan, deviant xulq-atvor shaxsning ijtimoiy moslashuvining buzilishi, jamiyatga zid harakatlari sifatida qaraladi. Talaba yoshlar hayotida deviantlik quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Huquqbuzarliklar. O'g'irlik, zo'ravonlik, firibgarlik, tartibsizliklar keltirib chiqarish, qonunga xilof harakatlarda ishtirok etish va boshqalar. Ma'naviy qadriyatlardan chekinish. Axloqsizlik, giyohvandlik, alkogolizm, diniy ekstremizmga moyillik, ma'naviy-axloqiy me'yorlarga bepisandlik. Ijtimoiy faollikning salbiy yo'nalishi. Jamiyatga foydasi tegmaydigan, zararli faoliyat bilan shug'ullanish (masalan, vandalizm, tartibsizliklar). Ta'lim jarayonidan chekinish. Darslarni qoldirish, o'qishdan bo'yin tovlash, o'quv muassasasi qoidalarini buzish.

Deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablarini ko'p omilli ekanligini hisobga olgan holda, ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin. Shaxsiy omillar, psixologik xususiyatlar. Temperamentning o'ziga xosligi, haddan tashqari hissiyotga beriluvchanlik yoki aksincha, hissiyotlarni bostirish, o'zini nazorat qila olmaslik, agressivlik, o'z-o'zini past baholash, shaxsiy o'ziga xosliklarni shakllantira olmaslik. Biologik omillar. Irsiyat, organizmdagi gormonal o'zgarishlar (ayniqsa, o'smirlik davrida), jismoniy va aqliy rivojlanishdagi nuqsonlar. Miyadagi patologik o'zgarishlar: Ba'zi xulq-atvor buzilishlari miyada sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ammo bu holatlar odatda alohida tibbiy muolajani talab qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va oilaviy omillar.

Oiladagi salbiy muhit: Ota-onalar o'rtasidagi nizolar, janjallar, oiladagi zo'ravonlik, qatag'on yoki haddan tashqari erkinlik, ota-onalarning tarbiya uslubidagi nomuvofiqlik, e'tiborsizlik, oiladagi muammolarni hal eta olmaslik. Nosog'lom oilaviy muhit. Ota-onaning o'zida huquqiy madaniyatning pastligi, spirtli ichimliklar iste'moli, giyohvandlik, qonunga zid harakatlarda ishtirok etganligi. Kam ta'minlanganlik, moddiy qiyinchiliklar, ishsizlik, nochorlik, iqtisodiy beqarorlik talabalarda stress, tushkunlik va jamiyatga nisbatan norozilikni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa deviant yo'llarga ravona bo'lishga sabab bo'lishi mumkin. Ijtimoiy noxushlik va diskriminatsiya (lotincha-discriminatio – “farqlash”) – davlat, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini cheklash yoki kamsitish). Talabalarning ijtimoiy muhitda kamsitilishga uchraganligi, ularning ijtimoiy hayotga kirishishida to'siqlarga duch kelishi. Jamiyatdagi salbiy ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalar: Korrupsiya, qonun ustuvorligining sustligi, ma'naviy qadriyatlarining qadrsizlanishi va boshqalar talabalarning jamiyatga nisbatan ishonchini susaytiradi. Pedagogik va ta'limiy omillar. Ta'lim muassasasidagi muhit. O'qituvchilarning professional mahorati pastligi, talabalarga nisbatan e'tiborsizlik, jamoada ijtimoiy-psixologik noxushlik, o'zaro hurmatning yo'qligi. Tarbiyaviy ishlarning samarasizligi. Ma'naviy-huquqiy tarbiya jarayonining formalizm (lot.shakl, forma) shaxsga yo'naltirilmaganligi, talabalarning faolligini ta'minlay olmasligi. O'quv dasturlarining umumiy xarakteri. Talabalarning individual ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olmaslik. Bo'sh vaqtni samarali tashkil eta olmaslik. Talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun imkoniyatlar yaratilmaganligi, bu esa ularni ko'pincha salbiy ta'sirga olib keluvchi guruhlariga tortishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari va internetning salbiy ta'siri. Axloqdan

yiroq, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlar, noto'g'ri ma'lumotlar ta'sirida qolish. Ma'naviy-huquqiy va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarbligi.

Deviant xulq-atvorning oldini olish va unga qarshi kurashishda nazorat mexanizmlari muhim rol o'ynaydi. Ushbu mexanizmlar ikki asosiy yo'nalishda rivojlanishi lozim.

Profilaktika: Deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar. Bu yo'nalishda ma'naviy immunitetni, huquqiy madaniyatni, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va oila hamda ta'lim muassasalarida tarbiya ishlarini kuchaytirish kabi yo'nalishlar muhimdir. Aralashuv va nazorat. Deviant xulq-atvor namoyon bo'lgan holatlarda o'z vaqtida aralashuv, huquqiy choralar qo'llash, shaxsni tuzatish va jamiyatga qaytarish (reabilitatsiya va reintegratsiya) jarayonlarini samarali tashkil etish.

Hozirgi kunda mavjud nazorat mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

- > Tizimlilik va uzluksizlik. Nazorat va profilaktika ishlarini tizimli va uzluksiz olib borish.

- > Ilmiy-amaliy yondashuv. Deviant xulq-atvorning sabablarini aniqlashda ilmiy metodlardan foydalanish va aniqlangan muammolarga amaliy yechimlar topish.

- > Interdisiplinar hamkorlik. Pedagoglar, psixologlar, huquqshunoslar, sotsiologlar, tibbiyot xodimlari va jamoat tashkilotlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish.

- > Shaxsga yo'naltirilganlik. Har bir talabaning individual xususiyatlarini va muammolarini hisobga olgan holda yondashuvlarni qo'llash.

- > Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Profilaktika va nazorat ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Takomillashtirilgan ma'naviy-huquqiy va ijtimoiy nazorat mexanizmlari. Talabalarning ijtimoiylashuvida deviant xulq-atvorning oldini olish va unga qarshi kurashishda quyidagi mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish. Ma'naviy immunitetni rivojlantirish. Oliy o'quv yurtlarida “Ma'naviyat va ma'rifat” bo'limlarining faoliyatini jonlantirish, talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish. Yuksak ma'naviy namunalarga ega bo'lgan shaxslar (fan, madaniyat, sport namoyandalari) bilan uchrashuvlar tashkil etish. Badiiy adabiyot, kino va teatr orqali ijobiy axloqiy g'oyalarni targ'ib qilish. “Vatanparvarlik darslari”, “Oila qadriyatlari” kabi mavzularda muntazam tadbirlar o'tkazish. Huquqiy madaniyatni oshirish. Oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga huquqiy fanlar (Konstitutsiyaviy huquq, Ma'muriy huquq, Jinoyat huquqi asoslari, Oila huquqi va boshqalar)ni chuqurroq integratsiya qilish. “Huquqiy savodxonlik”, “Konstitutsiyaga rioya etamiz” kabi mavzularda interaktiv seminarlar, viktorinalar, huquqiy insholar tanlovlari o'tkazish. Yuridik klinikalarni tashkil etish orqali talabalarga bepul yuridik maslahatlar berish, ularning huquqiy muammolarini hal qilishga ko'maklashish. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, sudya va prokurorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish. Sport, to'garaklar faoliyatini kuchaytirish, talabalarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish.

Salomatlik haftaliklari, “Giyohvandlikka yo'q deymiz” shiori ostidagi tadbirlar, alkogolizm va uning oqibatlarini haqida ma'lumot beruvchi seminarlar tashkil etish. Psixologik xizmat ko'rsatish markazlarining faoliyatini kengaytirish, talabalarga psixologik yordam ko'rsatish. Oila tarbiyasini qo'llab-quvvatlash. Ota-onalar uchun huquqiy-pedagogik maslahatlar tashkil etish, ularga farzand tarbiyasida duch keladigan muammolar bo'yicha ko'maklashish. Oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish. Ijtimoiy-iqtisodiy omillarni yumshatish. Talabalar uchun stipendiya, ijodiy va sport yo'nalishidagi grantlar miqdorini oshirish, moddiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish. Yoshlar uchun bandlikni ta'minlash bo'yicha tadbirlarni kuchaytirish, kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish.

Nazorat mexanizmlarini takomillashtirish. O'quv muassasalarida “Deviant xulq-atvor profilaktikasi markazlari”ni tashkil etish: Bu markazlar quyidagi funksiyalarni bajarishi lozim. Deviant xulq-atvorga moyil talabalarni aniqlash va ularga individual yondashuv asosida yordam ko'rsatish. Talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi nizolarni hal etishda vositachilik qilish. Psixologik va huquqiy maslahatlar berish. Ota-onalar va tegishli davlat organlari bilan hamkorlikda ishlash. Monitoring (kuzatish, nazorat qilish) tizimini yaratish. Talabalarning o'quv jarayoni va ijtimoiy faolligini doimiy monitoring qilish, ularning xulq-atvoridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash. Bu tizimda ma'naviy-huquqiy tarbiya bo'yicha olib borilgan tadbirlarning samaradorligini ham baholash kiritilishi lozim. Reabilitatsiya va reintegratsiya dasturlari. Deviant xulq-atvorga ega bo'lgan talabalarni jamiyatga qaytarish, ularda ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish. Bunga quyidagilar kiradi. Psixologik treninglar va maslahatlar. Huquqiy tushuntirishlar va huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha tadbirlar.

Jamiyatda faol rol o'ynashga undovchi ijtimoiy loyihalarda ishtirokini ta'minlash. Kasbiy yo'naltirish va bandlikka ko'maklashish. Huquqni muhofaza qilish organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish. Deviant xulq-atvorning jiddiy shakllari (huquqbuzarliklar, ekstremizm) bilan bog'liq holatlarda huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish. Yoshlar siyosati va ijtimoiy rivojlanish sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

Muhokama. Zamonaviy texnologiyalar va vositalar. Deviant xulq-atvorning oldini olish va nazorat qilishda zamonaviy texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). Onlayn platformalar va mobil ilovalar. Huquqiy maslahatlar, ma'naviy-axloqiy mavzularda ma'lumotlar, onlayn treninglar va testlar taqdim etuvchi platformalar yaratish. Ijtimoiy tarmoqlar. Profilaktik targ'ibotlar olib borish, “devianlikka yo'q” mavzusida aksiyalar tashkil etish, ijtimoiy muammolar bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirish. “Aqlli” monitoring tizimlari: Talabalarning umumiy xulq-atvori va xavfli tendensiyalarni aniqlashda yordam beradigan dasturiy ta'minotlar. O'yin texnologiyalari. Huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan kompyuter o'yinlari, virtuallik orqali huquqiy vaziyatlarni modellash, multimedia va interaktiv usullar, ma'naviy-huquqiy mavzularda ta'sirchan roliklar, animatsion filmlar, virtual muzeylar va ko'rgazmalar yaratish. Massiv onlayn kurslar (MOOCs): Deviant xulq-atvorning sabablari, oldini olish yo'llari, huquqiy madaniyatni oshirish mavzularida keng auditoriya uchun mo'ljallangan onlayn kurslar taklif etish.

Tadqiqot natijalari. E.G'. G'oziyev, R.A. G'aniyeva, Z.T. Nishonova, A.V. Mudrik, E.V. Zmanovskaya singari mualliflar deviant xulq-atvor omillarini tahlil qilgan. Xususan, E.V. Zmanovskayaning “Девиантное поведение личности” (2004) asarida deviant xulqning sabablari orasida oilaviy, ijtimoiy-madaniy, pedagogik va shaxsiy-psixologik omillar foiz nisbati bilan keltiriladi (taxminan 40–30–20 foizli nisbatga yaqin). O'zbekiston olimlaridan esa bu nisbatlar R.A. G'aniyeva va Z.T. Nishonovalarning talabalarda ijtimoiy og'ishish muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarida ham tilga olinadi.

➤ E.V. Zmanovskaya (2004) ta'kidlaganidek, deviant xulq-atvor shakllanishiga oilaviy omillar taxminan 40%, ta'lim muhitiga oid omillar 30%, shaxsiy-psixologik xususiyatlar esa 20% atrofida ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, OAV va internetning salbiy ta'siri ham deviansiyani kuchaytiruvchi omil sifatida qayd etilgan. Shu sababli deviant xulq atvorni o'z vaqtida korreksiya qilish, profilaktika ishlarini olib borish judayam muhim. Va bu bo'yicha tizimli va uzluksiz ishlar tahlilini olib borish lozim. Bu kabi ishlar quyidagicha:

> Oliy ta'lim muassasalarida “Deviant xulq-atvor profilaktikasi va ma'naviy-huquqiy nazorat bo'limlari”ni tashkil etish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

> O'quv jarayoniga “Huquqiy madaniyat asoslari”, “Psixologik xavfsizlik” kabi fanlarni chuqur integratsiya qilish.

> O'qituvchi va talabalarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan muntazam treninglar va seminarlar tashkil etish.

> Har bir talaba bilan individual ishlash tizimini yo'lga qo'yish, ularning ijtimoiy-psixologik holatini doimiy kuzatish.

> Deviant xulq-atvorga moyil talabalarga psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish.

> Ota-onalar, jamoat tashkilotlari va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish.

> Deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirib joriy etish.

> Ma'naviy-huquqiy tarbiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish.

Xulosa. Talabalarning ijtimoiylashuvida fuqarolarga mos bo'lmagan deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari ko'p qirrali bo'lib, ularga shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy va pedagogik omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammoning samarali yechimi uchun ma'naviy-huquqiy va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini tizimli ravishda takomillashtirish zarur. Profilaktik ishlar, o'z vaqtida amalga oshirilgan intervensiya, rehabilitatsiya va reintegratsiya jarayonlari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarda huquqiy madaniyatni, ma'naviy immunitetni kuchaytirish va ularni jamiyatga mos, faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
5. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
6. Sharipov Sh.S. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2018.
7. Ahmadjonov O.A. O‘smirlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi: nazariy-metodik asoslar. – Toshkent: Adabiyotlar jamg‘armasi, 2019.
8. To‘ychiyev A.Yu. Yoshlar ijtimoiylashuvida huquqiy madaniyatni shakllantirishning nazariy-metodik muammolari. – Toshkent: Adabiyotlar jamg‘armasi, 2020.
9. Nurmonov A.A. Deviant xulq-atvor: kelib chiqish sabablari va oldini olish choralari. “Ma’naviyat va huquq”, 2021.
10. Rahmonov R.R. Talabalar orasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasining psixologik jihatlari. // “Ta’lim va tarbiya”, 2022.

Rahimova Nigora Shuhrat qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika tarixi va nazariyasi 2-kurs magistranti
nigorarakhimova750@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0001-9310-2959>

DEVIAANT XULQ-ATVORNING MOHIYATI, TURLARI VA NAMOYON BO'LIQ SHAKLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada deviant xatti-harakatlarning mohiyati va namoyon bo'lish shakllari muhokama qilinadi. Birinchidan, deviant xatti-harakatlarning o'zi nima va uning qanday turlari borligi haqida gapiramiz. Deviant xulq-atvorning asosiy turlari (huquqbuzarlik, giyohvandlik, alkogolizm, zo'ravonlik, o'z joniga qasd qilish va boshqalar) va ularning namoyon bo'lish shakllari batafsil ko'rib chiqiladi. Deviant xulq-atvoriga olib keladigan omillar, jumladan, ijtimoiy, psixologik va biologik sabablar ham tahlil qilinadi. Maqolada deviant xatti-harakatlarning oldini olish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lgan nazariy xulosalar keltirilgan. Maqola sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar, ijtimoiy ishchilar va ushbu muammoga qiziqqan barcha mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: deviant, jismoniy tajovuz, og'zaki tajovuz, huquqbuzarlik, ijtimoiy izolyatsiya, o'z joniga qasd qilish, vandalizm, salbiy va ijobiy xatti-harakatlar.

THE ESSENCE, TYPES AND FORMS OF MANIFESTATION OF DEVIAANT BEHAVIOR

Abstract. This article discusses the essence and forms of manifestation of deviant behavior. First, we will talk about what deviant behavior itself is and what types it has. The main types of deviant behavior (delinquency, drug addiction, alcoholism, violence, suicide, etc.) and their forms of manifestation are discussed in detail. The factors leading to deviant behavior, including social, psychological and biological causes, are also analyzed. The article presents theoretical conclusions that serve as the basis for developing scientific and practical recommendations for the prevention of deviant behavior. The article is intended for sociologists, psychologists, educators, social workers and all specialists interested in this problem.

Keywords: deviant, physical aggression, verbal aggression, delinquent behavior, social isolation, suicidal, vandalism, negative and positive behavior.

СУЩНОСТЬ, ВИДЫ И ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность и формы проявления девиантного поведения. Во-первых, обсуждается, что представляет собой девиантное поведение, и какие его виды существуют. Подробно анализируются основные типы девиантного поведения (правонарушения, наркомания, алкоголизм, насилие, суицид и другие) и формы их проявления. Также исследуются факторы, приводящие к девиантному поведению, включая социальные, психологические и биологические причины. В статье представлены теоретические выводы, которые послужили основой для разработки научных и практических рекомендаций по профилактике девиантного поведения. Статья предназначена для социологов, психологов, педагогов, социальных работников и всех специалистов, интересующихся данной проблемой.

Ключевые слова: девиант, физическая агрессия, вербальная агрессия, правонарушение, социальная изоляция, суицид, вандализм, негативное и позитивное поведение.

Kirish. Deviant xulq-atvor shunday xatti-harakatki, unda muayyan jamiyat yoki guruh tomonidan qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va qoidalaridan chetga chiqib ketiladi. "Deviant" so'zining o'zi esa "chetga chiqish", "og'ish" degan ma'nolarni bildiradi. Deviant xulq-atvor har doim jamiyatning madaniy, ijtimoiy normalari va tarixiy qadriyatlari bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, ba'zi xalq vakillarida normal holat hisoblangan xatti-harakatlar boshqa bir jamiyatda deviant xulq hisoblanishi mumkin, bu esa ularning qadriyatlari va urf-odatlariga bog'liq. Umr davomida faqatgina bir marta sodir etilgan xatti-harakatlar ham yoki uzluksiz ravishda sodir etib kelinadigan harakatlar ham kiritilishi mumkin.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Deviant xulq-atvor juda ham keng tushuncha hisoblanadi, shunga ko'ra u bir necha turlarga bo'linadi. Eng keng tarqalgan turlari quyidagilardan iborat:

1. *Ijobiy deviant xulq-atvor:* O'z nomidan ma'lum bo'lib turganidek ijobiy deviant xulq-atvor jamiyat tomonidan yaxshi qabul qilingan va jamiyat rivoji uchun hissa qo'shadi. Ular ma'qullangan xatti-harakatlar.

Masalan, ixtirochilik, fidokorona harakatlar, alturistik xatti-harakatlar bunga misol bo'la oladi. Bunday xatti-harakatlar jamiyat rivojiga xizmat qiladi.

2. *Salbiy deviant xulq-atvor*: Jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga zid bo'lgan, salbiy oqibatlariga olib keladigan xatti-harakatlar. Bu deviant xulq-atvorning eng keng tarqalgan turi bo'lib, u jamiyatga zarar yetkazadi. Quyida salbiy deviant xulq-atvorning asosiy shakllari keltirilgan.

Salbiy deviant xulq-atvor quyidagi turlarga bo'linadi. Birinchisi huquqbuzarlik, ya'ni delikvent xulq-atvor. Delikvent xulq-atvoriga qonun buzilishi bilan bog'liq xatti-harakatlar kiritiladi. O'g'irlik, vandalizm, zo'ravonlik, giyohvandlik kabi xatti-harakatlar shular jumlasidandir. Bu jamiyatda tartibsizlik va jinoyatchilikning oshishiga olib keladi. Ikkinchisi aqliy deviant xulq-atvor ruhiy kasalliklar, nevrozlar, psixopatiyalar va boshqa ruhiy buzilishlar bilan bog'liq xatti-harakatlar. Bunday turdagi xatti-harakatlar odamning o'ziga va atrofdagilarga zarar yetkazishi mumkin.

Giyohvandlik va alkogolizm: Giyohvand moddalar va alkogolga oid bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish bilan bog'liq xatti-harakatlar. Bu kabi bog'liqlik avvalo sog'liq bilan bog'liq muammolarga, shuningdek, bir qancha oilaviy nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

Suitsidal xulq-atvor: O'z joniga qasd qilish yoki qasd qilishga urinish, joniga qasd qilish bilan bog'liq xatti-harakatlar. Bu shaxsiy fojia bo'lib, jamiyat uchun ham katta yo'qotishdir.

Jinsiy deviant xulq-atvor: Jamiyat tomonidan qabul qilingan jinsiy me'yorlarga zid bo'lgan xatti-harakatlar. Voyaga yetmaganlar bilan jinsiy aloqa qilish, zo'rlash kabi xatti-harakatlar shular jumlasidandir.

Deviant xulq-atvorning turli shakllari ham jamiyatda uchrab turadi. Quyida ulardan ba'zilarini sanab o'tamiz.

Verbal agressiya: So'z bilan haqoratlash, do'q-po'pisa qilish, ya'ni so'z orqali bo'ladigan bezorilik. Verbal agressiya jamiyat orasida ko'p uchrab turadi. Fizik agressiya: fizik agressiyada fizik harakatlar, ya'ni urish, tepish kabi zo'ravonlik harakatlari kiritiladi.

Ijtimoiy izolyatsiya: Ijtimoiy izolyatsiya bu jamiyatdan o'zini ajratish, odamlardan va ular bilan muloqot qilishdan qochish.

Qochish: Maktabdan, uyidan qochish, ishdan qochish.

O'ziga zarar yetkazish: O'z tana a'zosiga biror bir vosita orqali ataylab zarar yetkazish. Misol uchun tananing biror qismini kesish yoki kuydirish kabilar.

Vandalizm: Mulkka zarar yetkazish, buzish.

Giyohvandlik va alkogolizm: Giyohvand moddalar va alkogol iste'mol qilish.

Deviant xulqning shu kabi shakllari bo'lib ijtimoiy muhitni, yoshni va jinsni hisobga olgan holda turli shaklda uchrashi mumkin. Deviant xulq-atvor muammosini hal qilish uchun uning mohiyatini, turlarini va namoyon bo'lish shakllarini to'g'ri tushunish, profilaktika choralarini ko'rish va ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish zarur.>>>

Ijobiy deviant xulq-atvor - bu jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqadigan, lekin jamiyat uchun ijobiy oqibatlarga olib keladigan xatti-harakatlar. Bu xatti-harakatlar mavjud tizimni yaxshilashga, yangi imkoniyatlar yaratishga va jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.>>>

Ijobiy deviant xulq-atvorning asosiy xususiyatlari: Ijobiy deviant xulq-atvor jamiyat tomonidan ma'qul deb topilgan xatti-harakatlarga mos kelmaydi.

Ijobiy oqibatlar bu xatti-harakatlar jamiyatga foyda keltiradigan, mavjud muammolarni hal qiladigan va yangi imkoniyatlar yaratadigan oqibatlardir.

Ijtimoiy qadriyatlarga moslik: ba'zi ijobiy deviant xulq deb hisoblangan xatti harakatlar ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqsa-da, ular ijtimoiy qadriyatlarga zid hisoblanmaydi, aksincha ularni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Ijobiy deviant xulq-atvorning innovatsion xususiyati ham mavjud bo'lib, u yangi innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Salbiy deviant xulq-atvor - bu muayyan jamiyat yoki guruh tomonidan qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va qoidalarga zid bo'lgan xatti-harakatlar bo'lib, jamiyatga yoki shaxsning o'ziga zarar yetkazadi. Bunday xatti-harakatlar jamiyatda tartibsizlik, beqarorlik va ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ko'rinib turganidek, bugungi texnologiya o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan zamonda deviant xulq atvorli o'smirlarning sni ortib bormoqda va uni oldini olish va kuchsizlantirish biz pedagoglar uchun juda ham qiyin vazifaga aylanib bormoqda. Zamon, texnologiya rivojlangan va hayot osonlashgan sari deviativ xulq ham o'z ta'sirini ko'rsatib atrofga o'zining ildizini chuqur sochmoqda. Albatta, biz buni oldini olmog'imiz va buning uchun kerakli chora-tadbirlarni ko'rmog'imiz lozim. Chunki kelajak mana shu yoshlar qo'lida, ular kelajak rivoji uchun o'z hissalarini qo'shmoqlari va vatanimizni kelajakda yanada buyuk davlatga aylantirmoqlari lozim. Kelajakka yetuk kadrlarni tayyorlash uchun esa biz pedagoglar, ota-onalar va hatto jamiyat ham katta mas'uliyatni o'z zimmlariga olmoqlari va bu bilan kurashishlari lozim. Yuqorida biz deviant xulq-atvorning turlari, shakllari,

xususiyatlari va kelib chiqish sabablari bilab gaplashib o'tgandik. Keling endi uni oldini olish va ildizini yo'q qilish usullarini ko'rib chiqamiz. Avvalo, biz uning oldini olish yo'llarini ko'rib chiqishimiz lozim. Birinchi bo'lib televediniye haqida gaplashsak. Ba'zan biz ijtimoiy tarmoqlarda va hatto televideniye ham deviativlikka ochiqdan ochiq jalb qiluvchi ba'zi reklamalarni va teledasturlarning ko'rsatilayotganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, ba'zi kanallarda spirtli ichimliklarning reklama qilinayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bundan tashqari youtube, facebook va Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan bir qancha verbal va fizik aggressiyni o'z ichiga olgan videolarni ko'rishimiz mumkin. Ular hatto ko'p sonli va kuzatuvchilar tomonidan ko'p martalab tomosha qilingan. Bu kabi ijtimoiy tarmoqlarda chiqqan ochiq zo'ravonlikka, giyohvandlikka, ichkilikbozlik, buzuqlik va boshqa jinoyatlarga yo'l ochib beruvchi turli xil yot g'oyali tasvirlarni ko'rishimiz mumkin. Albatta, shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, bu vositalar biz uchun ijobiy tomonga ham xizmat qilishi mumkin. Faqatgina biz to'g'ri foydalana bilishimiz va farzandlarimizga jamiyat tomonidan ma'qullangan saytlarnigina namoyish qiluvchi, ularni nazorat qiluvchi dasturlardan foydalanishimiz kerak. Shuningdek, biz ularni to'g'ri deb topilgan manbalarni kuzatishlari va o'qib o'rganishlarini chuqur anglatishimiz lozim. Ijtimoiy tarmoqlarda va televideniye hayotdan olisngan va yaxshi yomonni ajratib to'g'ri yo'lga yetaklovchi qisqa metrajli filmlarnamoyish etilmoqda va albatta ushbu mazmundagi filmlarning ximzati ham biz uchun katta. Shuningdek, televideniye bizga millatimizning ijtimoiy va ma'daniy qadriyatlarini anglatishga yordam beradi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. O'smirlarda deviantlikni oldini olishning usullaridan yana biri ularning qiziqishlari bilan jiddiy shug'ullanishdir. Kimdir sportga, kimdir raqsga, yana kimdir texnologiyaga va boshqa sohalarga qiziqadi. Biz uchun qiziqishlarni to'g'ri aniqlay bilish va bu qobiliyatlarni yoshlikdan rivojlantirish muhimdir. Biz farzandlarimizni to'g'ri yo'naltirishimiz lozim. Hatto kompyuter sohasiga qiziquvchi yoshlarda ham dasturchilik, kompyuter savodxoniy yoki kompyuter ustasi kabi qobiliyatlarni rivojlantirishimiz mumkin. Ular o'z qiziqishlari bilan band bo'lishlari jarayonida biz ularni ruhlantirib motivatsiya berib turishimiz lozim. Masalan, turli xil musobaqalarni tashkil etib yoshlar o'rtyasida raqobatbardoshlik paydo qilish va bu orqali rivojlanishga erishish, shuningdek, ota onalar bolalarini har bir yutuqlari uchun rag'batlantirib ularni yanada yuqori darajadagi rivojlanishni ko'rishlari mumkin.

Yetuk farzandlarni rivojlantirishning yana bir xususiyatlaridan biri bu yoshlarning fikrini inobatga olish va ularning jamiyatda, sinfda va oilada o'z o'rnini bor ekanligini anglatish va buni yaratish. Ba'zi oilalarda bolalarning fikri inobatga olinmaydi va ularga fikr bildirish uchun ruxsat berilmaydi. Ba'zida fikr bildirishsa tanbeh eshitishadi va noto'g'ri ekanligini bildirib tahqirlashadi va ba'zi pedagoglarda ham shunday xislat mavjud. Bu esa keyinchalik ularni o'z fikrini bildirishiga yo'l qo'ymaydigan ichki hisni paydo qiladi va ularning dunyoqarashini cheklab qo'yadi. Buning oldini olish uchun biz bolalik davrlaridan boshlab ularning shaxsiy fikrlari bilan qiziqishimiz va tez tez fikr bo'lishish orqali ularning dunyoqarashini rivojlantirishimiz lozim. Shuningdek jamiyatda tenglikni va ijtimoiy tarbiyani saqlash ham deviant xulq atvorning oldini olish uchun muhim.

Farzandlarning xulqida yaxshi o'rnak bo'lish ham muhim ahamiyatga ega, chunki qush uyasida ko'rganini qiladi degan naql bejiz emas. Otaning ichkilikka va boshqa yomon odatlariga berilganini ko'rgan farzand ham undan o'rnak oladi. Otasi unga ichlikni va chekishni o'rgatadi. Shuning uchun avvalo ota-ona o'zini tuzatishi lozim. Shuningdek, ba'zi ustozlar ham o'quvchilariga o'zlarining yuksak bilim darajalari va tahsinga loyiq xulqlari bilan o'rnak bo'lishadi. O'quvchilari ularning bu xususiyatlarini ko'rib ularga o'xshashga harakat qilishadi va ularga bo'lgan havas bu uchun motivatsiya bo'ladi deb hisoblayman. Shu kabi profilaktik (ya'ni yomon oqibatlarga olib boruvchi ishlarni oldini oluvchi harakatlar) ishlarni olib borish farzandlarimizdan deviant xulq-atvorning yiroq bo'lishiga yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog'i zarur. Shu sababli yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini bilishi, qonunni hurmat qilishi, ularga so'zsiz bo'ysunishi madaniyatiga ega bo'lishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir. Deviant xulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga yetmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tashkiliy ta'sir ko'rsatishdir.

Huquqiy tarbiyani oldini olish imkoniyatlari tiyishning boshqa vositalariga qaraganda ancha samaraliroqdir. Chunki huquqiy profilaktika choralari odatda, birmuncha kechikadi va qilmish sodir etilgandan keyin amal qila boshlaydi. Oldini olish bilan bog'liq huquqiy choralar — ishlashi uchun u bolaning ongiga qo'yilishi, uning e'tiqodi, tajribasining bir qismiga aylanishi kerak. Buni aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan erishish mumkin. Har qanday jamiyatda doimiy e'tiborga muhtoj odamlar mavjud. Bular o'z navbatda jismoniy, ruhiy hamda ijtimoiy rivojlantirishida chetga chiqishi,

og‘ishi bor bo‘lgan odamlar hisoblanadi. Ular doim guruh bo‘lib ajralishga, jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan bo‘ladi.

Bunday insonlarga nisbatan devyatsiya yoki deviant xulq-atvor so‘zlari ko‘p ishlatiladi. Devyatsiya deb jamiyatda o‘rnatilgan huquqiy, ijtimoiy, axloqiy qoida va me‘yorlariga mos kelmaydigan xatti-harakat va xulq-atvorlarga aytiladi. Odatda deviant xulq-atvor o‘spirinlik davrida yuzaga keladi. O‘spirinlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkab davr hisoblanadi. Uni yana o‘tish davri ham deb ataladi. Kattalar bu davrda bolalarga e‘tiborli bo‘lishlari, o‘smirlarni tarbiyalash usullarini to‘g‘ri tanlash va ulardan foydalanishlari kerak bo‘ladi. O‘smir psixologiyasi haqida ma‘lumotga ega emaslik, oilada tarbiyaning noto‘g‘ri usuldan foydalanish, bola va ota-onalar o‘rtasida konfliktli holatlarni yuzaga kelishi natijada munosabatlarga shikast yetadi. Oiladagi salbiy, beshafqat muhit ma‘lum turdagi o‘smirlardagi qo‘pollik, yovvoyilik, sovuq munosabat kabi illatlarni paydo bo‘lishiga zamin yaratadi hamda ularda atrofda qilargalarga nisbatan qarama-qarshi ruhda harakatlanib, tajovuzkorona buzuvchilar sifatini namoyon qilishadi.

Muhokama. Bola baxtli, mustahkam va sog‘lom oilada muloqot qilsa, u o‘ziga va atrof-muhitga ishongan, atrofda madaniyat me‘yorlarini adolatli qabul qiladigan, odobli shaxs sifatida shakllanib boradi. Bola o‘z kelajagiga ma‘lum bir tarzda yo‘naltiriladi. O‘smirlar o‘rtasidagi huquqbuzarlik bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorga ega bo‘lgan yoshlarning ko‘pchiligi disfunktsional oilalarda tarbiyalangan.

Deviant xulq-atvor tushunchasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganib chiqilgan. Ular bu haqida o‘z fikrlarini bildirib tadqiqot ishlarini olib borishgan. Quyida ularni o‘rganib chiqishimiz mumkin.

XVII-XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me‘yor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq o‘rganishdi. Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R. Merton ishlab chiqqan ta‘limot sotsiologiyada yetakchi o‘rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiya g‘oyasini rivojlantirib, deviant xulq-atvorga quyidagicha ta‘rif berib o‘tadi: Deviant xulq-atvor jamiyatda e‘lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari va mavjud imkoniyatlarning bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir” degan fikrlarni ilgari surgan. Jamiyatda o‘rnatilgan ijtimoiy me‘yorlardan chetga chiqqan holatlarini o‘rganuvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari O‘zbekistonda istiqbol sharofati bilangina o‘rganila boshladi.

Xulosa. Deviant xulq-atvorning turli ko‘rinishlarini mamlakatimiz olimlari o‘z adqiqot obyektlari doirasida keng o‘rganganlar. Respublika faylasuflari X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilovlar “Shaxs tarbiyasida ma‘naviy-axloqiy tarbiya ta‘siri masalalari”, sotsiolog M. Usmonaliyev “Jinoyatchilikning umumiy jihatlar hamda o‘smirlar jinoyatchiligi masalalari”, psixolog olimlar G‘.B.Shoumarav, N.A.Sog‘inov, S.A.Axunjanova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonaliyev, B.M.Umarovlar “O‘z joniga qasd qilish va jinoyatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari”, pedagog olimlar O.Musurmonova, D.J.Sharipovalarning “Oilada barkamol shaxs tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari”ni olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar sirasiga kiritish mumkin.

Shunday qilib, deviant xulq-atvor tushunchasi uning namoyon bo‘lish shakllari va turlari shulardan iborat bo‘lib u jiddiy kurashish talab etiladigan hodisadir. Unga qarshi kurashish uchun esa oila, jamiyat va maktab hamkorlikda birdek harakat qilishi lozim. Zero, yurt kelajagi barchamizga bog‘liq va yoshlar tarbiyasi barchamiz uchun birdek muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Дюркгейм Э. Самоубийство: социологический этюд / Э. Дюркгейм. — СПб.: Союз, 1998. — 496 с.
2. Мертон Р. Социальная теория и социальная структура / Р. Мертон: пер. с англ. — М.: АСТ, 2006. — 873 с.
3. Кудрявцев В. Н. Социальные отклонения: введение в общую теорию / В. Н. Кудрявцев. — М.: Юридическая литература, 1984. — 176 с.
4. Змановская Е. В. Девиантология: психология отклоняющегося поведения: учеб. пособие / Е. В. Змановская. — М.: Академия, 2003. — 288 с.
5. Клейберг Ю. А. Психология девиантного поведения: учебное пособие / Ю. А. Клейберг. — М.: Сфера, 2001. — 160 с.
6. Гишинский Я. И. Социология девиантного поведения / Я. И. Гишинский. — СПб.: Питер, 2004. — 384 с.
7. Реан А. А. Психология личности. Социализация, поведение, общение / А. А. Реан. — СПб.: Прайм-Еврознак, 2006. — 416 с.

8. Бандура А. Теория социального научения / А. Бандура; пер. с англ. — СПб.: Евразия, 2000. — 320 с.
9. Усмоналиев М. У. Ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликнинг ижтимоий омиллари / М. У. Усмоналиев. — Тошкент: Фан, 2007. — 152 б.
10. Шоумаров Ғ. Б. Ўсмирлар ҳуқ-атвори психологияси / Ғ. Б. Шоумаров. — Тошкент: Ўқитувчи, 2004. — 180 б.

Sharipov Alisher Nuriddinovich,

Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'SMIR O'QUVCHILARDA IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smir o'quvchilarda irodaviy sifatlarni rivojlantirish jarayonining psixologik-pedagogik mexanizmlari tahlil etiladi. Shaxsning irodaviy xususiyatlarini shakllantirishda oila, maktab va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri, shuningdek, ta'lim jarayonida motivatsiya, o'zini boshqarish va maqsadga yo'naltirilganlikning ahamiyati yoritiladi. Maqolada o'smirlik davriga xos psixologik o'zgarishlar, irodaviy sifatlarning shakllanish bosqichlari hamda ularni rivojlantirishda integrativ yondashuvning roli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: irodaviy sifatlari, o'smir o'quvchilar, shaxs rivojlanishi, psixologik mexanizmlar, motivatsiya, o'zini boshqarish, integrativ yondashuv, ta'lim jarayoni.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ-ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье анализируются психолого-педагогические механизмы развития волевых качеств у учащихся подросткового возраста. Подчеркивается взаимодействие семьи, школы и социальной среды в формировании волевых качеств личности, а также значение мотивации, саморегуляции и целеполагания в образовательном процессе. Обосновываются психологические изменения, характерные для подросткового возраста, этапы формирования волевых качеств и роль интегративного подхода в их развитии.

Ключевые слова: волевые качества, учащиеся подросткового возраста, развитие личности, психологические механизмы, мотивация, саморегуляция, интегративный подход, образовательный процесс.

MECHANISMS FOR DEVELOPING WILL-POWERING QUALITIES IN ADOLESCENT STUDENTS

Abstract. This article analyzes the psychological and pedagogical mechanisms of the process of developing volitional qualities in adolescent students. The interaction of family, school and social environment in the formation of a person's volitional characteristics is highlighted, as well as the importance of motivation, self-control and goal-orientation in the educational process. The article substantiates the psychological changes characteristic of adolescence, the stages of formation of volitional qualities and the role of an integrative approach in their development.

Keywords: volitional qualities, adolescent students, personality development, psychological mechanisms, motivation, self-control, integrative approach, educational process.

Kirish. Irodaning namoyon bo'lishida shaxsning irodaviy sifatlari, ya'ni iroda kuchi va turli vaziyatlarda yoki muammoli vaziyatlarda irodaviy xatti-harakatlar haqida gapirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu holatda "irodaviy sifatlari" tushunchasining o'zi ham, ushbu sifatlarning aniq to'plami ham anchagina noaniqligicha qolmoqda. Shuningdek, ba'zi bir olimlarni ushbu tushunchalarning haqiqatdan ham mavjudligiga shubha bilan qarashiga sabab bo'lmoqda. Bunga bir qancha darsliklardagi (K.M.Gurevich (1956); P.A.Rudik (1974)) irodaviy holatni yoki iroda sifatlarni tushuntirishga bag'ishlangan bo'limlar yaqqol misol bo'lishi mumkin.

Ularda iroda kuchi haqida ham, irodaviy sifatlari haqida ham umumiy fikrlar yoki an'anaviy fikrlar aytilganligi bilan cheklanganligini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunga qadar irodaviy faollikni bildiruvchi tushunchalarni ajratishda yoki identifikatsiya qilishda katta qiyinchiliklar mavjud. Ota-onasidan o'ziga yoqib qolgan kitobni hozirning o'zida sotib olib berishlarini talab qilayotgan o'smir o'zida qat'iylik xususiyatlarini namoyon etadimi yoki qattiq turishliknimi? Intizomlilik va tashabbuskorlik har doim ham iroda kuchini xarakterlaydimi? Nima uchun psixologlarda qat'iyatlilik albatta dadillik bilan birga aytib o'tiladi? Axloqiy va irodaviy sifatlari o'rtasidagi chegara qayerda? Barcha irodaviy sifatlari ham axloqiymi? Shu va yana boshqa bir qator savollar fanda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham qiziqish uyg'otadi. Chunki irodaviy aks ettirishlar diagnostikasining metodlari hamda konkret bir irodaviy sifat taraqqiyotining pedagogik metodlari ushbu muammolar yechimiga bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili. V.A.Ivannikov o‘z ishlaridan birida ta’kidlashicha, barcha irodaviy sifatlar turli asosga ega bo‘lishlari mumkin va ular fenomenologik jihatdan bir butun irodaga umumlashadilar. Jumladan, “...tahlillarning ko‘rsatishicha, – deb yozadi u, – barcha ushbu sifatlar boshqa manbalar asosida yuzaga keladi va shu tufayli ular faqatgina iroda bilan bog‘liq emas. Demak, shu asosda ular irodaning o‘ziga xos belgilari roliga da’vo qila olishmaydi.” Bundan tashqari, inson bir vaziyatda irodaviy sifatlarini namoyon etsa, boshqa bir vaziyatda ularning yo‘qligini aks ettiradi. Shu bois, V.A.Ivannikov irodaviy sifatlar degan tushunchani aytib o‘tgan holda ular psixik voqelikni aks ettirishini rad etmagan. Ammo bir necha yildan so‘ng V.A.Ivannikov o‘z pozitsiyasini o‘zgartirdi. V.A.Ivannikov va Y.V.Eydman ishida endi shunday fikr ta’kidlangan ediki, unga ko‘ra irodaviy xulq-atvorning xususiy (vaziyatli) xarakteristikasi sifatida irodaviy sifatlar hamda irodaviy xulq-atvorning doimiy xarakteristikasi sifatida irodaviy sifatlar, ya’ni xuddi shaxslilik xususiyatlari sifatida mavjud ekan. Shu xususda mualliflar quyidagicha fikr bildirishadi: “...agar insonda barcha ish va xulosalarda o‘zining haq ekanligi to‘g‘risida, o‘zining har qanday ishning uddasidan chiqish qobiliyati to‘g‘risida, mustahkam tasavvurlar shakllangan bo‘lsa, ya’ni unda barqaror o‘z imkoniyatlarini yuqori baholash va intiluvchanlikning yuqori darajasi kuzatilsa, u holda bu inson vaziyatni real nazorat qilishidan qat’i nazar xulq-atvorida qat’iylik va boshqa irodaviy sifatlarini tez-tez namoyon etaveradi. Agarda bu barqaror tuzilmalar insonning real imkoniyatlari bilan quvvatlangan bo‘lsa, unda irodaviy sifatlar haqida nafaqat xulq-atvorning xususiy xarakteristikalari sifatida, balki uning invariantlari, ya’ni shaxslilik xususiyatlari sifatida fikr yuritishi mumkin”. Bu pozitsiya avvalroq V.I.Selivanov bildirib o‘tgan fikrlarga yaqindir.

Dadillik haqida gapirganda, u shuni ta’kidlagan ediki, shaxs dadillik sifatiga ega bo‘lmasdan turib, psixik holatlar darajasida dadillikni namoyon etishi mumkin hamda “dadillik boshqa irodaviy sifatlar kabi, u yoki bu konkret vaziyat bilan bog‘liq bo‘lmaganda shaxs xususiyati hisoblanadi; muvaffaqiyatga erishish uchun asosli tavakkalchilikni talab etadigan barcha vaziyatlarda esa shaxs xulq atvorining muhimlashgan uslubi bo‘lib qoladi. ”Iroda kuchining vaziyatli aks ettirishlari mavjudligi irodaviy sifatlar diagnostikasida ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Axir qandaydir irodaviy sifatning ifodalanaganligi haqida xulosa qilayotganimizda, albatta, insonning qiyinchiliklarni qanchalik muvaffaqiyatli uddalayotganligini hisobga olamiz. Ammo ushbu muvaffaqiyatlilik har doim ham irodaviy xatti-harakatlarga bog‘liq bo‘lvermaydi.

Agar har doim ham bog‘liq bo‘lmasa, unda irodaviy boshqaruvning xarakteristikasi sifatida namoyon bo‘layotgan irodaviy sifat ixtiyoriy boshqaruv xarakteristikasi – motivatsiya bilan o‘rin almashmasmikan? Shuningdek, ushbu holatda qandaydir qiyinchilikni yengib o‘tishdagi irodaviy xatti-harakat hissasini qanday aniqlash mumkin? Masalan, jasorat ko‘rsatish dadillik irodaviy sifati bilan ham, insonning holati bilan ham tushuntirilishi mumkin. Ko‘pgina tashqi qahramonona harakatlar insonning dadil, jasurligidan emas, vaziyatning chorasizligi, affekt ta’sirida amalga oshiriladi. Insonning nafaqat ayni paytdagi holati, balki u tomonidan ushbu vaziyatning qadr-qimmatini baholashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bir holatda charchoqdan qat’i nazar, iroda kuchini namoyon etsa, boshqa holatda vaziyatning unga ahamiyati yo‘qligini inobatga olib, iroda kuchini namoyon qilmaydi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. P.I.Ivanov iroda kuchini irodaning sifatlarini bilan bir narsa sifatida ta’rif etadi. Uning aytishicha, iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi butun irodaviy jarayonlarda ko‘rinadi. Iroda kuchi, avvalo, intilishlarda ko‘rina boshlaydi; biz kuchli hamda kuchsiz intilish xohishlarni farqlaymiz. Iroda kuchi yana tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorning mustahkamligida ko‘rinadi. Yuksak g‘oyaviy tamoyillarga asoslangan ongli qat’iyat va sabotlilik kuchli iroda belgilaridandir; qat’iyatsizlik, ikkilanish, qabul qilingan qarorning bajarila olishiga shubha bilan qarashlik va sabotsizlik kuchsiz iroda belgilaridandir. Iroda kuchi qat’iyatlilikda ifodalanadi. Qat’iyat qarorning bajarilishiga to‘la ishonch va qarshilik hamda qiyinchiliklar qanchalik katta bo‘lmasin uni, albatta, amalga oshirishga otlanishdir. Jazm o‘ziga o‘zi buyruq berishdir. Vijdoniy burch talabi yoki yuksak maqsadni amalga oshirish tufayli odamning kerak bo‘lib qolgan paytda o‘lim bilan hayot o‘rtasidan bironasini darhol tanlab ola bilishida ko‘rinadigan jazm, kuchli iroda dalilidir.

A.I.Visotskiy “qat’iylik” deb atagan qattiq tura olish xususiyatini o‘rgana turib, sinaluvchilarni eksperimentda qo‘yilgan vazifani hal etishni davom ettirishga majbur etadigan bir qator ichki sabablarni aniqlagan: qiziqish bo‘lishi; boshqalardan yomon bo‘lmaslikka intilish; ushbu vazifani hal eta olishini o‘ziga isbotlashga intilishi; masalaning yechimiga aniq bir tizim bo‘yicha ishlash orqali anglagan holda yondashuv. Bunda ushbu sabablar turli sinaluvchilarda xilma-xil bo‘lganligidan ushbu sabablarni qo‘zg‘atuvchi kuch har xilligi muammosi paydo bo‘ladi.

Sinaluvchilarni iroda kuchini namoyon etishga nima majbur qiladi: shaxsning doimiy xarakteristikasi sifatida muvaffaqiyatga intilish motivimi yoki vaziyatli omil boshqa sinaluvchilar bilan musobaqalashish ishtiyoqimi? Shu tariqa bir irodaviy xatti-harakat yoki irodaviy xulq-atvor xarakteristikasi sifatida vaziyatli irodaviy aks ettirishlarni – irodaviy sifatlarining shaxs xususiyati sifatida o‘xshashligi hamda irodaviy

sifatlarning vaziyatli namoyon bo'lishi va irodaviy sifatlarning turli vaziyatlarda o'ziga xos namoyon bo'lishi o'rtasida farq qilish lozim. Psixologlar o'rtasida irodaviy sifatlarning mohiyati, tarkibi, miqdori va klassifikatsiyasi masalasi bo'yicha sezilarli fikrlar qarama-qarshiligi mavjud. Ba'zi bir mualliflar shaxsning irodaviy sifatlari haqida gapirayotganida birdaniga boshqa so'z birikmasi – “iroda sifati”ga murojaat qilishi va shu orqali o'zlari bilmagan holda irodani shaxs tushunchasiga tenglashtirishadi. Bir qarashda bu o'zgarishda hech bir jiddiy muammo yo'qdek, aslida esa bu holat ma'lum bir nazariy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Misol uchun, V.A.Ivannikov yozadiki, “irodaviy sifatlarning mohiyati va o'ziga xos belgilarini ajratib o'tmagan holda ularni irodaga taaluqli deb topish yetarlicha asoslanmagan hisoblanadi, ushbu xususiyatlar orqali irodaning tabiatini tushunishga yondashuv esa, biz uchun yopiq bo'lib qoladi.

“Shu kitobning boshqa nashrida V.A.Ivannikov yana shuni ta'kidlab o'tadiki, “insonning irodaviy sifatlari ostida o'ziga xos tuzilma – irodani ko'ra olishga intilishi hozircha qandaydir ahamiyatli isbot-dalillar bilan tushuntirib berilmagan. Aksincha, har bir irodaviy sifatning mustaqilligi hamda ularning shakllanishini bir-biriga bog'liq emasligi haqida ma'lumot beruvchi ko'pgina faktlar mavjud. Ushbu faktlar irodaning barcha irodaviy sifatlarni integral tuzilmasi sifatida mavjudligiga shubha bilan qarashga majbur etadi”. Darhaqiqat, irodani tor doirada, ya'ni irodaviy sifatlari yoki irodaviy quvvatning namoyon bo'lishi sifatida qarash, “irodaviy sifat” tushunchasining ma'nosini tushunish uchun “iroda” tushunchasini tushunishimiz kerak, degan xulosaga kelish mumkin. Lekin savol tug'iladi: nima uchun bu sifatlari irodaviy sifatlari deb ataladi?

Bunday yondashuvlar doirasida biz javob bera olmaymiz. Shunday ekan, irodaviy sifatlarning mavjudligini aks ettirganligi uchun shunday atalmagan, balki irodaviy sifatlari irodaning mavjudligini namoyon etganligi uchun shunday nomlangan, chunki bu sifatlari ixtiyoriy, insonning shaxsiy istagi bo'yicha, uning o'ziga buyrug'i orqali namoyon bo'ladi. Aynan iroda kuchi (irodaviy xatti-harakat) namoyon bo'lishining ixtiyoriyligi barcha irodaviy sifatlarni bir umumiylikka – iroda kuchiga birlashtiradi, biroq irodani ixtiyoriy boshqaruv sifatida tushunish nafaqat irodaviy boshqaruvning, balki ixtiyoriy xulq-atvor xususiyatlarini ham irodaviy sifatlari qatoriga kiritishimizga imkon beradi. Chunki faqatgina irodaviy boshqaruvga ko'pgina irodaviy xatti-harakatlar ishlatiladigan spetsifikaga egadir. Bu holat irodaviy sifatlarni klassifikatsiya qilishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Psixologiya bo'yicha darsliklarda “irodaviy sifat” tushunchasiga, odatda, ta'rif berilmasligi bejizga emas, shekilli. Ushbu tushunchaga berilgan faqatgina ikkita ta'riflovchi, tushuntiruvchi va bitta to'g'ridan to'g'ri ta'rifni topishga muvaffaq bo'ldik. “Umumiy psixologiya” darsliklarida (1986) shaxsning irodaviy sifatlari shaxs uchun xos bo'lgan irodaviy aktlarni amalga oshirish usullarining muayyanligi va barqarorligi sifatida ta'riflanadi. Bu xususiyat uning irodaviy tabiatiga qarab, irodaviy xulq-atvor uslubiga ko'proq mos keladi. Umuman olganda, bu foydali ta'rif ba'zi tuzatishlarni talab qiladi. Birinchi navbatda buning sababi shundaki, irodaviy sifatlari ixtiyoriy boshqaruvni qanchalik aks ettirsa, keskin irodaviy xatti-harakatlar bilan bog'liq irodaviy boshqaruvni shunchalik namoyon etadi. Bundan tashqari, irodaning aniq bir namoyon bo'lishi irodaviy xatti-harakatlarning nafaqat sifatini, balki darajasini aks ettiradi. Nihoyat, har bir irodaviy sifatning mohiyatini, o'z ta'rifini aniqlashtirmaydi.

Binobarin, B.N.Smirnov tomonidan berilgan ta'rifning turlicha talqin qilinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida uni quyidagicha ifodalash mumkin: irodaviy sifatlari – bu yengib o'tiladigan qiyinchiliklarning xarakteri bilan shartlangan konkret bir o'ziga xos sharoitlarda namoyon bo'ladigan irodaviy boshqaruv xususiyatlaridir. Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, iroda kuchi namoyon bo'ladigan aniq bir sharoitlarning o'ziga xosligi faoliyat turi bilan emas, yengib o'tiladigan qiyinchiliklarning xarakteri bilan shartlangan. Bundan kelib chiqadiki, turli sohalaridagi o'smirlarda ushbu irodaviy sifatlari o'quvchilarning tarkibida emas, faqatgina ularning namoyon bo'lishida farq bo'lishi mumkin. Adabiyotlarda irodaviy sifatlarning mohiyati turlicha ta'riflanadi. Ba'zilar bu irodaning namoyon bo'lishi deyilsa, boshqalarida – bu inson qobiliyati deyiladi. Yana bir fikrga ko'ra, bu turli qiyinchiliklarni yengib o'tish ko'nikmasi, o'zini boshqarish usuli va shu kabilar. Agar, misol uchun, irodaviy sifatlari – bu ko'nikma bo'lsa, unda insonni shu ko'nikmalarga o'rgatsa bo'ldi, shundan keyin u barcha qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli yengib o'tishni boshlaydi. Biroq amaliyotning ko'rsatishicha, bu haqiqatdan yiroq.

A.S.Puni fikricha, irodaviy sifat strukturasi, iroda strukturasi mos keladi hamda intellektual va axloqiy komponentlarni, shuningdek, to'siqlarni yengib o'tish ko'nikmasini o'zida mujassamlashtiradi. U irodaviy sifatlarni qobiliyatlar sifatida gapirib o'tishni ma'qul ko'rmagan. Umumlashtirib aytganda irodaviy sifatlari mohiyatini turlicha tushunish, turli mualliflarning bu sifatlarni turli tuzilmalarini ajratishlari bilan bog'liq. Har qanday sifatni, shu jumladan, irodaviy sifatlarni ham, insonning mavjud imkoniyatlari fenotipik xarakteristikasi sifatida tug'ma va orttirilgan qorishmasi sifatida ko'rib chiqamiz. Tug'ma komponent sifatida tug'ma layoqatlar bilan shartlangan holda qobiliyat ishtirok etsa, ontogenezda orttirilgan komponent sifatida esa inson tajribasi, ya'ni uning o'zini-o'zi stimullashtirish bilan bog'liq bo'lgan malaka va bilimlari;

shakllangan muvaffaqiyatga erishish motivi, qiyinchiliklar oldida bo‘yin egmaslikka nisbatan shakllangan irodaviy sifatlar muhim rol o‘ynaydi.

Xorijlik olimlardan D.Guldning fikricha, 12-14 yoshli o‘smirlarda ba‘zi irodaviy sifatlar, jumladan, sabr-toqatga yuqori baho beriladi. Keyinchalik, 15 yoshga kelib, bunday baholash darajalari sezilarli darajada o‘zgaradi. Chunki o‘quvchi-o‘smirlarda qat‘iyatlilik, mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik kabi sifatlar 15 yoshga yetganda yaxshi anglanadi.

Dastlab, o‘smir o‘quvchilarda irodaviy sifatlarini tarbiyalash, axloqiy fazilatlarini shakllantirishdan boshlanib, ular o‘smirning g‘oyalari, tushunchalari, qarashlari va e‘tiqodlari, ko‘nikma va odatlari tizimi kabilarni qamrab oladi. G.V.Bezverxnyaning ta‘kidlashicha, o‘smir o‘quvchilarning axloqiy jihatdan tarbiyalash bo‘yicha, amalga oshiriladigan eng muhim tadbirlar quyidagilarga ajratiladi :

- ta‘lim sohasidagi tizimli suhbatlar, o‘qitish tarixiga oid ma‘ruzalar, buyuk ustozlar hayotiga oid hikoyalar;

- ta‘limiy film va videolarni namoyish etish;
- maktab darslik va adabiyotlarini o‘qish;
- taniqli olimlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish;
- o‘smir o‘quvchilarni jamoat ishlariga jalb etish;
- o‘quvchilar jamoasining an‘analarini mustahkamlash va hokazo.

Mazkur fikrlarga qo‘shimcha ravishda I.K.Gunajokov o‘smir o‘quvchilarni irodaviy sifatlarini rivojlantirishning eng muhim dolzarb vazifalariga quyidagilarni kiritadi:

- ta‘limda muvaffaqiyatga erishish va yuqori o‘zlashtirishga erishish uchun o‘smir o‘quvchilarni imkon qadar irodasini rivojlantirish talab etilishi;
- munosabat jarayonida o‘z hissiy holatini boshqara olishga o‘rgatish;
- o‘smir o‘quvchilarda maqsadga erishish, qat‘iyatlilik va dadillik, chidamlilik va o‘zini tuta bilish, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi sifatlarini tarbiyalash;

- o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning bilim olish ko‘nikmalarini takomillashtirish, ularning maxsus irodaviy sifatlarini rivojlantirish, ma‘naviy-irodaviy rivojlanishini muvaffaqiyatli tashkil etish va boshqalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Demak, o‘smir o‘quvchilarning irodaviy jihatdan rivojlantirish nafaqat ta‘lim samaradorligini oshirish, balki ta‘lim sohasiga oid bilim darajasini takomillashtirishni ham qamrab olishi maqsadga muvofiq sanaladi. V.M.Abramovning yozishicha, o‘smir o‘quvchilarda ma‘naviy va irodaviy sifatlarini tarbiyalash ishlarida keng ko‘lamli usullar qo‘llaniladi:

- ishontirish;
- majburlash;
- qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich yengish;
- raqobatbardoshlik usuli va hokazo.


Ushbu keltirilgan usullardan maqsadli foydalanish, o‘smir o‘quvchilarni qattiq intizomga o‘rgatish bilan birga, ularni o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lishga, maqsadlarga erishishda qat‘iyatlilikka, qiyinchiliklarni yengishda chidamlilikka, shuningdek, o‘ziga ishonch, jasorat, kollektivizm tuyg‘usi, g‘alaba qozonish istagi kabi irodaviy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirga qadar etnopsixologik muhitda ta‘lim va tarbiya psixologiyasi sohasida tadqiqot predmetlarini o‘rganishning integrativ blokli-chizmasi aytarlicha ishlab chiqilmagan. Aksariyati yosh psixologiyasi va psixodiagnostika sohalari doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, mutaxassislar, asosan, sohalararo ma‘lumotlar almashinuvi qoidasiga amal qiladilar. Irodaviy sifatlar mohiyatan, umumpsixologik xarakterga ega bo‘lsa-da, uni faqat shu yo‘nalish doirasida o‘rganish yetarli emas. Ushbu masala nafaqat xorij psixologiyasida, balki milliy psixologiyada ham bahsbop mavzu sifatida tan olinmoqda. Biroq tadqiqotchilar uchun masalaning ikkinchi jihati mavjud bo‘lib, tanlangan muammo bo‘yicha, eng maqbul psixodiagnostik metodikalarni tanlab olish va keyingi tadqiqotlar uchun, imkoniyatlarga tavsif berish, eng asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Uchinchidan, o‘smirlarda irodaviy sifatlar shakllanishini va rivojlanishini pedagogik va psixologik jihatdan o‘rganish, irodaviy tayyorgarlikni asoslovchi psixologik omillar, ixtiyoriy harakatlar, bilim olishga bo‘lgan qobiliyat va funksional holatlar mohiyatini tekshirishni ham nazarda tutadi. Chunki ilmiy mulohaza o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarga yo‘naltirilgan irodaviy sifatlarining shakllanishi haqida ketmoqda. Shu bois, muammoni amaliy jihatdan o‘rganishning integrativ blokli-chizmasini yaratish ham o‘ta muhim masalalardan biri sifatida qaraladi. Ya‘ni tadqiqot doirasida o‘rganilayotgan muammoni zamonaviy yechimini topishga xizmat qiladigan tizimni yaratish dolzarb hisoblanadi. Bu mexanizm o‘smirlar irodaviy sifatleri bilan bir qatorda:

- motivatsion sohasiga;
- intellektual sohasiga
- qadriyatlar sohasiga;

- shaxslararo munosabatlarda sohasiga;
- kognitiv sohasiga;
- funksional holatiga;
- birlamchi va ikkilamchi irodaviy sifatlar turiga;
- o'smirlar ilhom beruvchi yuksak hislar sohasiga;
- bilish jarayonlari imkoniyatiga;
- individual tipologik xususiyatlar sohasiga;
- dars mashg'ulotlarining tashkil etilganlik holati kabilarga mos rivojlanishi maqsadga muvofiqdir.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ya'ni o'smir o'quvchilar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday ilmiy-metodologik izlanishlarni amalga oshirishda, o'ziga xos mezon mavjud bo'lib, amalga oshirilayotgan tadqiqot doirasida tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan va o'zining amaliy ahamiyati bilan muhim bo'lgan integrativ bloklarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.



O'smirlarda irodaviy sifatlarni rivojlantirishning integrativ blokli chizmasi quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

1-blok. O'smir shaxsini fiziologik jihatdan rivojlantirish:

- bosh miya tuzilmasini barqarorlashtirish;
- nerv tolalarini assosiativlik xususiyatini rivojlantirish;
- markaziy nerv sistemasi faoliyatini nazorat qilish va takomillashtirish;

2-blok. O'smirlarni ijtimoiy omillar ta'sirida shakllantirish:

- shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish;
- muloqotda barqarorlikni shakllantirish;
- sinf jamoasi o'rtasida munosabatlar yaxshi kechishini ta'minlash;
- ijtimoiy muhitga yuksak moslashuvchanlikni ta'minlash;
- oila a'zolari bilan muomala jarayonini me'yoriy kechishi.

3- blok. O‘smirning psixologik jihatdan rivojlantirish:

- psixik jarayonlarning o‘zaro uyg‘un kechishini rivojlantirish;
- motivatsion sohani shakllantirish;
- psixosomotik buzilishlarning oldini olish;
- hissiy barqarorlikni ta‘minlash;
- individual xususiyatlarni ijtimoiy me‘yorlar asosida tarkib toptirish va boshqalar.

Xulosa. Olib borilgan mualliflik tadqiqot ishi doirasida bloklar o‘rtasidagi integrativ bog‘lanishlar uyg‘unligi o‘smir shaxsida bir vaqtning o‘zida irodaviy sifatlarni barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi va ta‘lim faoliyatiga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda ertangi kun egalari bo‘lgan yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashda irodaviy sifatlarning o‘rni beqiyos ekanligi ayni haqiqatdir. Shunday ekan, o‘smirlarni jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning psixologik jihatdan har tomonlama barkamol shakllanishiga e‘tibor qaratish eng muhim va ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Берн Эрик. Лидер и группа О структуре и динамике орг. групп. Пер. с англ. А.А. Грузберга Екатеринбург Литур., 2000. – 317 с.
2. Селиванов, В.И. Проблемы психологии воли / В.И. Селиванов. – Рязань: 2-изд. Наука. 2013 – 310 с.
3. Быков С.В. Социально-психологическая регуляция ответственности личности: Дис... д-ра психол. наук. -Казань, 2006. -С.316. 23-26 с.
4. Иванников В.А. Психологические механизмы волевой регуляции / В.А. Иванников. Изд. 2-е, испр. и доп. М.: Изд-во УРАО, 1998. – 144 с.
5. Батыршина А.Р. Мазилев В.А. Историческая представленность категорий «Воля» и «Волевая регуляция» в отечественных учебниках психологии. Ярославский педагогический вестник, 2 (4), 2014. – С. 214-222.

Sidiqova Dilora Shavkatovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA GERMENEVTIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarni tayyorlashda hermenevtik yondashuvning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hermenevtik yondashuvda tinglab tushunish o'qishdan ham muhimroq jarayon sifatida qaraladi. Chunki har bir so'z, nutq, ohang, tana harakati, kontekst va muhit talabani anglash darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar nafaqat o'zlari uchun, balki kelajakdagi o'qituvchilari uchun ham bu jarayonni anglab yetishlari zarur.

Kalit so'zlar: hermenevtik yondashuv, kasbiy faoliyat, ijodiy yondashuv, anglash, tushunish, o'qitish samaradorligi.

ЗНАЧЕНИЕ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В данной статье представлена информация о значении герменевтического подхода в подготовке будущих учителей начальной школы. В герменевтическом подходе понимание на слух рассматривается как более важный процесс, чем чтение, потому что каждое слово, речь, тон, движение тела, контекст и окружающая среда влияют на уровень понимания ученика. Поэтому учащимся, обучающимся в системе начального образования, необходимо понимать этот процесс не только для себя, но и для своих будущих учеников.

Ключевые слова: герменевтический подход, профессиональная деятельность, творческий подход, осознание, понимание, эффективность обучения.

THE IMPORTANCE OF THE HERMENEUTIC APPROACH IN THE TRAINING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS

Abstract. This article provides information about the importance of the hermeneutic approach in the training of future elementary school teachers. In the hermeneutic approach, listening comprehension is seen as a more important process than reading. Because every word, speech, tone, body movement, context and environment affect the student's level of understanding. Therefore, it is necessary for students studying in primary education to understand this process not only for themselves, but also for their future students.

Key words: hermeneutic approach, professional activity, creative approach, awareness, understanding, teaching effectiveness.

Kirish. Mamlakatimizda kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglarning kasbiy faoliyati sifati hamda malakasini uzluksiz oshirish bo'yicha keng islohotlar olib borilishi natijasida kasbiy faoliyatga tayyorlash yuzasidan bir qator o'ziga xos ishlar amalga oshirildi. Bu borada kasbiy faoliyatni shakllantirishning mazmunli tizimini yaratish, matnni tushunish va sharhlash ko'nikmalarini rivojlantirish asosida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mezon va parametrlarini aniqlashtirishning prognostik modellarini ishlab chiqildi.

Ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirishda ta'lim muassasalarida ijodiy yondashuvdan foydalanish, ijodkorlikni rivojlantirishning didaktik ta'minotini yaratish, pedagogik yondashuvning talablarini inobatga olgan holda kasbiy pedagogik faoliyatni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda esa bo'lajak o'qituvchilarni hermenevtik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish imkoniyatini kengaytirdi. Xususan, bugungi ilmiy-texnika inqilobi davrida tushunmaslik muammosi keng ahamiyat kasb etdi. Tushunish kerak bo'lgan material hajmi ortdi, binobarin pedagogik faoliyatda matnning tushunish zarur bo'lgan qirralari ko'paydi. Ta'lim va tarbiya mazmunini yanada rivojlantirishda hermenevtik yondashuvning nazariy metodologik asoslarini shakllantirish va uni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan integratsion tizimning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish zaruriyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Hermenevtika inson tafakkuri, nutqi va tafsiri bilan bog'liq qadimiy fanlardan biri bo'lib, hozirgi zamon ta'lim jarayonida chuqur semantik va muloqotga asoslangan

metod sifatida o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Ushbu fan dastlab diniy matnlarni, keyinchalik esa adabiy, madaniy va ijtimoiy matnlarni anglash, izohlash va talqin qilish zaruratidan kelib chiqqan. Zamonaviy Germenevtika esa bu doirani kengaytirib, bilim olish, tushunish va kommunikatsiyani to'liq qamrab oluvchi yondashuvga aylangan. Shuningdek, germenevtik yondashuv o'quvchining passiv qabul qiluvchilikdan faol talqin qiluvchi shaxsga aylanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bunday jarayonda o'quvchi o'z fikrini shakllantiradi, o'rgangan bilimlariga o'z pozitsiyasidan yondashadi. Bu esa tanqidiy fikrlash, refleksiya va tahliliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, germenevtik yondashuv o'z tabiatiga ko'ra, zamonaviy o'qituvchidan chuqur fikr yurita olishni, talabani esa o'qilgan yoki eshitilgan matnni faqat anglab qolmasdan, uni shaxsiylashtira olishni talab etadi.

Germenevtik yondashuvda tinglab tushunish o'qishdan ham muhimroq jarayon sifatida qaraladi. Chunki har bir so'z, nutq, ohang, tana harakati, kontekst va muhit talabaning anglash darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar nafaqat o'zlari uchun, balki kelajakdagi o'quvchilari uchun ham bu jarayonni anglab yetishlari zarur. Buning uchun esa, ular germenevtik tafakkur doirasida treninglar, dars mashg'ulotlari, muhokama va interpretatsiya faoliyatlari orqali o'rgatilishi kerak.

Germenevtika shaxsning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, unga bilimni o'ziga xos tarzda talqin qilish imkonini beradi, o'qituvchining aytganlarini so'zsiz qabul qilishdan ko'ra, unga savol berish, tahlil qilish, shubha qilish, yangicha yondashuvni shakllantirishga undaydi. Ayniqsa, bugungi informatsion jamiyat sharoitida har bir matnni, xabarni, axborotni ongli anglash, uni tanqidiy fikrlash asosida tushunish zarurati ortib bormoqda. Bu esa germenevtik yondashuvni nafaqat dolzarb, balki zarur ta'lim metodikasiga aylantirmoqda. Bundan tashqari, germenevtik yondashuv pedagogik psixologiyada ham katta ahamiyatga ega. O'quvchi yoki talabani anglash, uning ichki dunyosi, motivatsiyasi, shaxsiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va psixologik holatini hisobga olgan holda o'qitish samaradorligini oshiradi. Bu uslubda dars jarayoni ko'proq muloqotga asoslanadi — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bir yoqlama emas, balki o'zaro anglashuv va fikr almashinuvi orqali bilim hosil qilinadi. Natijada bilimlar sun'iy ravishda yodlash emas, balki shaxsiy anglash va ichki talqin asosida o'zlashtiriladi. Germenevtik ta'limot o'zining boy tarixiy ildizlari, keng qo'llanilishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati bilan pedagogik-psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishiga aylangan. U o'quvchi va talabaning shaxsiy individualligini hisobga olgan holda, bilim olish va uni anglash jarayonini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ushbu ta'limot nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliy-pedagogik nuqtayi nazardan ham nihoyatda muhim va dolzarb sanaladi.

Shuningdek, germenevtik yondashuvning amaliy metodlari talabaning o'zaro muloqotdagi ishtirokini kuchaytiradi. Masalan, darsda talabalarga biror matn berilib, uni anglab tushunish, savollar yaratish, taxmin qilish, parallel matnlar bilan solishtirish, o'z hayoti yoki voqealar bilan bog'lash, so'z va gaplarga yangi talqin berish kabi faoliyatlar orqali chuqur anglash hosil qilinadi. Bunday yondashuv orqali talabalar o'z fikrini aniq va asosli tarzda ifodalashga o'rganadi. Psixologik jihatdan olib qarganda, germenevtik yondashuv o'z-o'zini tushunish (introspektiv anglash), boshqalarni tushunish (empatiya asosida) va muloqot orqali anglash (interaktiv germenevtika) bosqichlarini qamrab oladi. Bu esa o'z navbatida pedagogik faoliyatda eng muhim ko'nikmalardan biri – pedagogik empatiya, pedagogik refleksiya va faol eshitish qobiliyatini shakllantiradi.

Germenevtik yondashuv boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining anglash va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda eng zamonaviy va samarali metodlardan biridir. Bu yondashuv orqali talaba bilim oluvchidan bilim yaratuvchiga, matnni o'quvchidan matnni talqin qiluvchi, tushunuvchi va shaxsiylashtiruvchi shaxsga aylanishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, uni kelajakdagi raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi, empatik va kommunikativ o'qituvchiga aylantirishda katta poydevor bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun anglash va tinglab tushunish ko'nikmalarining shakllanishi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Germenevtik yondashuvning maqsadi matndagi o'ziga xos niqoblangan haqiqat mazmunini ochishga yo'naltirilgan. Chunki, yuqorida aytilganidek, germenevtikaning tadqiqot obyekti – shaklan tugallanmagan inson mehnati va ijodi mahsulidir. Faqat bir ma'noga, talqinga ega ilmiy matn germenevtika uchun tadqiqot obyekti bo'la olmaydi. Germenevtika yaxlit fan emas. Biroq, u pedagogik fanlar metodologiyasi sifatida qamrovi jihatidan ko'plab sohalarida amal qilish xususiyatiga ega. Chunki u ayrim empirik yoki nazariy metodlar kabi faqat bir yo'nalish, bir qolipga tayanmaydi: zamon va makonga nisbatan germenevtika o'z tadqiqot obyektlarini ham, yondashuvlarini ham oson o'zgartiradi. Shu xususiyati bilan uni fanlararo metodologiya deyish maqsadga muvofiq. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan mutaxassis o'z kasbiy faoliyat jarayonida tushunish va tushuntirishga intiladi. Shu ma'noda inson borlig'i immanent tarzda germenevtikdir. Germenevtika bu - tushunish va tushuntirish san'ati. Bu shunday

san’atki, u insonning yashashan’anasi, hayotiy qadriyat va ideallari, dunyoqarashida aks etadi. Inson o’zi tushunganicha borliqda yashaydi va o’z imkoniyatiga ko’ra borliqni tushuntiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim tashabbuslarida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun germevntik yondashuvdan foydalanish mumkin. O’qituvchilar talabalarni matnlarni sharhlashga, turli nuqtayi nazarlarni muhokama qilishga va o’z xulosalarini shakllantirishga undashlari mumkin. Germevntik yondashuv kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda, badiiy adabiyotni chuqurroq va ko’p qatlamli idrok etishni targ’ib qilishda muhim rol o’ynaydi. Bu nafaqat muallifning niyatlarini tushunishga, balki o’quvchida matnlar va madaniy hodisalarni tanqidiy tushunish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Yondashuvlarning farqlovchi jihatlar

№	Yondashuv nomi	Farqlovchi ko’rsatkichlar
1.	Integrativ yondashuv	Fanlararo bog’lanishni nazarda tutuvchi yondashuv hisoblanadi.
2.	Aksiologik yondashuv	Inson hayotini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasiga asoslangan yondashuv
3.	Kompetentli yondashuv	Kasbiy pedagogik ijodkorlikni rivojlantiruvchi yondashuv
4.	Animatsion yondashuv	Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan animatsiyalar asosidagi yondashuv
5.	Faoliyatli yondashuv	Tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritadigan tarbiya tizimini o’z ichiga olgan yondashuv
6.	Sinergetik yondashuv	Pedagogga tarbiya jarayonini noxiziqli harakat sifatida tushunib, tarbiya tizimlari ochiqqligini, ahamiyat kasb etuvchi tasodifiylarni tan olish shartini qo’yadigan yondashuv.
7.	Psixoterapevtik yondashuv	Art-terapiya va uning turlari, hayotiy muammolarni hal etishning maxsus tashkillashtiruvchi shakliga asoslangan yondashuv
8.	Akmeologik yondashuv	Shaxsni shakllantirish, bu ilmiy tartib bilan ilmiy o’zlashtirishga asoslangan yondashuv
9.	Kognitiv-pragmatik yondashuv	Ta’limni inson omili bilan bog’lab o’rgatadigan, individuallik insonparvarlik, foydalilik, o’z-o’zini namoyon etishga asoslangan yondashuv
10.	Germevntik yondashuv	Ta’lim oluvchining kechinmalari, uning xotiralari, orzu-istaklari, fantaziyalari bilan olib boriluvchi ish sifatida tashkil etiluvchi yondashuv

Olingan natijalar va ularning tahlili. Germevntik yondashuv – bu matnlarni chuqur tahlil qilish usuli bo’lib, u matnning ma’nosini to’g’ridan-to’g’ri tushunishdan ko’ra, uning mazmunini yoritishga, chuqur ma’nosini ochishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, til va adabiyot darslarida samarali usuldir, chunki u o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni o’zgartirishga, shaxsiy o’sishni rivojlantirishga va madaniy onglilikni oshirishga yordam beradi.

Germevntik ta’limotda o’qituvchi — bilim beruvchi emas, balki bilim ochuvchi sifatida namoyon bo’ladi. Ya’ni, u talaba uchun bilimni ochish, unga yo’l ko’rsatish, kontekstlar orasidagi bog’liqlikni ko’rsatish orqali anglashning faollashuviga xizmat qiladi. Aynan shu orqali tinglab tushunish ham passiv jarayon emas, balki faol va maqsadli faoliyatga aylanadi. Talaba matnni faqat eshitib yoki o’qibgina qolmaydi, balki uni o’z ma’naviy-madaniy doirasi ichida talqin qiladi. Germevntik metodlar yordamida tashkil etilgan dars jarayonlarida talabalar turli qarama-qarshi fikrlarni eshitadi, ularni solishtiradi, har bir fikrning asoslanishini tushunishga harakat qiladi va eng muhimi — o’z pozitsiyasini shakllantiradi. Bu jarayon esa ularning anglash ko’nikmalarini sifat jihatidan o’zgartiradi. Bunday darslar talabalarning mustaqil tafakkurini kuchaytiradi, nutqiy faolligini oshiradi, faol tinglovchi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Talabalarning tinglash, tushunish ko’nikmalarini rivojlantirishda germevntik ta’limotdan foydalanish texnologiyalarini takomillashtirishda germevntik bilimlar evolyusiyasini tahlil qilish asosida bo’lajak boshlang’ich ta’lim o’qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligi hamda tafakkurlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlarini aniqlangan va talabalarning ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning uslubiy asosi sifatida germevntik yondashuvning mohiyati yoritilgan.

Xulosa. Germenevtik yondashuvdan foydalanish asosida talabalarda tinglash, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti o’rganishdagi birinchi mahorat qobiliyatidir. Bu germenevtik yondashuv asosida talabalarni tinglash, anglash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali turli didaktik ta’minotlardan foydalanish mumkin.

Dastlab tinglash vaqtida o’qituvchi mavzuni o’rganishi va matnning lingvistik tarkibini baholashi tinglovchilarni tinglash uchun mo’ljallangan matnni tushunish uchun zarur bo’lgan asosiy bilimlarni yoki talabalarning mavjud bo’lgan bilimlarni faollashtirishi mumkinligini bilishi mumkin. Talabalarni tinglashlari kerak bo’lgan matnning turi, ular qanday rol o’ynashi va tinglayotganlari maqsadlarni tushunish uchun guruh yoki hamkorlikdagi ish uchun imkoniyatlar yaratib berish, fon o’qitish yoki sinf muhokamasi faoliyati juda muhimdir. Namunaviy tinglash faoliyati: rasmlarga, xaritalarga, diagrammalarga yoki grafikalariga qarab, so’zlar yoki grammatik tuzilmalarni ko’rib chiqish, kerakli narsalarni o’qish, semantik tarmoqlarni yaratish, tinglash matni, faoliyat yo’nalishlari yoki yo’riqnomalarini o’rganish, rahbarlik qilish amaliyotini bajarish, ta’lim maqsadidagi tinglash faoliyati, tinglash maqsadi va talabalar malakasi darajasi shular jumlasidandir. Tinglash faoliyati mashqlari matnga bevosita aloqadordir va talabalar tinglash vaqtida uni eshitib turishadi.

Adabiyotlar:

1. Xoshimova N. “Germenevtik yondashuvning lingvistik asoslari”. – Samarqand, 2021. – B. 91–96.
2. Krotkov D. “Germenevtik metodlar va ta’lim”. – Moskva, 2017. – B. 100–105.
3. To’xtasinov A. “Talabaning anglash qobiliyatini rivojlantirishda interaktiv yondashuvlar”. – Farg’ona, 2023. – B. 62–68.
4. Qosimova D. Germenevtika va til o’qitish metodikasi: nazariy va amaliy asoslar. – T.: TDPU, 2020. – 198 b.
5. Allayarova S. Badiiy ijod germenevtikasi –T.: Universitet, 2011. 29.
6. Allayarova S.N. Falsafiy germenevtikaning metodologik jihatlar. Fals.fan. nomz. diss.–T.: Universitet, 2010.
7. Kaziyeva T. “Germenevtik yondashuvdan foydalanish asosida talabalarda tinglash, anglash qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti”/ Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2022-yil 44-47-betlar.

To'rahonova Barno Tursunboy qizi,

Andijon davlat pedagogika instituti Maxsus pedagogika kafedrasida dotsenti v.b.

ZAMONAVIY MAKTAB TA'LIMIDA O'SMIRLAR SHAXSINING AXLOQIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI RIVOJLANISH DINAMIKASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy maktab ta'limi sharoitida o'smir yoshdagi o'quvchilarning axloqiy-psixologik xususiyatlari, ularning shakllanishi va rivojlanish dinamikasi tahlil qilingan. O'smirlik davrida shaxsning axloqiy qadriyatlari, mas'uliyat hissi, empatiya va o'zini anglash darajasi maktab muhitidagi pedagogik va psixologik omillar ta'sirida qanday shakllanishi ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda o'smirlarning axloqiy rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy-madaniy muhitning roli hamda o'qituvchi va ota-onalarning ta'siri muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy maktab, o'smir shaxsiyati, axloqiy xususiyatlar, psixologik rivojlanish, ta'lim jarayoni va pedagogik ta'sir.

СПЕЦИФИКА ДИНАМИКИ РАЗВИТИЯ МОРАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКОВ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ

Аннотация. В статье анализируются морально-психологические особенности личности подростков в условиях современного школьного образования. Раскрыта динамика формирования нравственных ценностей, чувства ответственности, эмпатии и самосознания подростков под влиянием педагогических и психологических факторов школьной среды. Особое внимание уделено этапам морального развития, роли социокультурной среды, а также влиянию учителей и родителей на личностное становление подростков.

Ключевые слова: современная школа, личность подростка, моральные качества, психологическое развитие, образовательный процесс, педагогическое влияние.

SPECIFIC FEATURES OF THE DYNAMICS OF MORAL AND PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF ADOLESCENTS' PERSONALITY IN MODERN SCHOOL EDUCATION

Abstract. This article analyzes the moral and psychological characteristics of adolescents within the context of modern school education. It examines the dynamics of moral value formation, sense of responsibility, empathy, and self-awareness as influenced by pedagogical and psychological factors of the school environment. The study highlights the stages of moral development, the role of the socio-cultural context, and the impact of teachers and parents on the personal growth of adolescents.

Keywords: modern school, adolescent personality, moral qualities, psychological development, educational process, pedagogical influence.

Kirish. Zamonaviy maktab ta'limi o'smirlarning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'smirlarning axloqiy va psixologik xususiyatlari ularning ijtimoiy, hissiy va intellektual rivojlanish jarayonida asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli, pedagogik jarayonda o'smirlarning shaxsiy axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va ularning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Ularning asosiy maqsadi – maktab ta'limini sifat jihatidan yaxshilash, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy va axloqiy rivojlanishini ta'minlashdir. Jumladan, so'nggi yillarda:

- bosqichma-bosqich innovatsion dasturlarni joriy etish orqali o'quv jarayoni interaktiv va amaliy yo'nalishga ega bo'lishi;
- ta'lim standartlarini modernizatsiya qilish va o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish;
- raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng kiritish, masalan, elektron darsliklar, interaktiv platformalar va onlayn monitoring;
- pedagoglarning malakasini oshirish, zamonaviy pedagogik metodlar va psixologik yondashuvlarni o'qituvchilarga joriy etish;

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish kabi choralar amalga oshirilmoqda.

Bu islohotlar o'smirlarning shaxsiy axloqiy va psixologik xususiyatlarini rivojlantirishda ta'limning ijobiy ta'sirini oshirishga, ularni zamonaviy jamiyatning talablariga mos shakllantirishga xizmat qiladi. Shu

sababli, hozirgi kunda olib borilayotgan pedagogik va psixologik tadqiqotlar maktab ta'limidagi shaxsiy rivojlanish jarayonlarini yanada chuqurroq o'rganish va samarali strategiyalar ishlab chiqishga asos bo'ladi.

O'smirlik davri – shaxsiyatning murakkab va tezkor rivojlanish bosqichi bo'lib, bu davrda hissiy sezgirlik, empatiya, ijtimoiy muloqot, mas'uliyat va axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlari shakllanadi. Zamonaviy maktab ta'limi esa nafaqat bilim berish, balki o'smirlarning shaxsiy va axloqiy rivojlanishini ta'minlaydigan ijtimoiy-madaniy muhit yaratishga qaratilgan.

Maqolada o'smirlarning shaxsiy axloqiy va psixologik xususiyatlarining rivojlanish dinamikasining o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, pedagogik ta'sir va ta'lim jarayonida qo'llaniladigan tarbiyaviy yondashuvlar o'smirlarning axloqiy-psixologik rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda individual yondashuv va shaxsga mos tarbiyaviy strategiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, zamonaviy maktab ta'limida o'smirlarning shaxsiy axloqiy va psixologik xususiyatlarini rivojlantirish masalasi nafaqat ta'lim sifati, balki ijtimoiy barqarorlik va kelajak avlodning ma'naviy salomatligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. O'smirlarning shaxsiy axloqiy va psixologik xususiyatlarining rivojlanish dinamikasini aniqlash uchun empatiya, axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy muloqot ko'rsatkichlari asosiy tadqiqot obyekti sifatida tanlandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – zamonaviy maktab ta'limida o'smirlarning axloqiy psixologik xususiyatlari rivojlanishining o'ziga xos jihatlari aniqlashdir.

Mazkur tadqiqot obyekti 150 nafar 13–17 yoshdagi o'smirlar tashkil etdi. Ishtirokchilar maktablar va sinflar bo'yicha teng taqsimlangan bo'lib, jinsga qarab tahlil qilindi. Bu maqolada quyidagi Merabian va Epsteinlar tomonidan “Empatiya darajasini aniqlash metodikasi o'smirlarning hissiy sezgirliigi va boshqalar holatini tushunish qobiliyatini baholash[1]. Axloqiy qarorlar qabul qilish testi – turli vaziyatlar bo'yicha o'smirlarning axloqiy tanlovlarini tahlil qilish. Ijtimoiy muloqot ko'rsatkichlarini o'rganish – sinf ichidagi va sinfdan tashqari vaziyatlarda o'smirlarning muloqot va ijtimoiy hamkorlik darajasini kuzatish.

Ma'lumotlarni yig'ishda so'rovnomalalar, testlar va kuzatuvlardan foydalangan. Olingan ma'lumotlar chastotali tahlil va foizlar yordamida jinslar bo'yicha taqsimlandi va empatiya darajasi, axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati va ijtimoiy muloqot ko'rsatkichlari orasidagi bog'liqlik o'rganildi [2].

L.Kolberg - axloqiy rivojlanish nazariyasida uch darajali (konventsiyadan oldingi, an'anaviy, konventsiyadan keyingi) va oltita bosqich orqali axloqiy fikrlash qanday rivojlanishini tushuntiradi. Ushbu nazariya o'smirlar axloqiy qaror qabul qilishini tahlil qilish uchun keng qo'llaniladi[3]. L. Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi insonning axloqiy tafakkuri bosqichma-bosqich murakkablashib borishini ilmiy asosda izohlab beradi. Uning fikricha, shaxsning axloqiy qarorlari nafaqat ijtimoiy normalarga, balki ichki e'tiqod va qadriyatlarga tayanadi. Muallif tomonidan ajratilgan uch daraja-konventsiyadan oldingi, an'anaviy va konventsiyadan keyingi bosqichlar-o'smirlarning axloqiy tafakkuri va qadriyat tizimining o'sish dinamikasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, o'smirlik davrida axloqiy ongning an'anaviy darajadan konventsiyadan keyingi darajaga o'tish jarayoni mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va empatiya ko'nikmalarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, Kolberg nazariyasi zamonaviy maktab ta'limida o'quvchilarning axloqiy fikrlash darajasini baholash va ularni ijtimoiy-psixologik rivojlantirish jarayonida samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

J.Piaje - kognitiv rivojlanish nazariyasida axloqiy tushunchalar kognitiv bosqichlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatgan (masalan, bolaning niyatlarga va natijalarga qarashi yoshi bilan o'zgaradi). J.Piajening ishlari maktab muhitida axloqiy fikrlashning kognitiv asoslarini tushunishda muhim[3]. J.Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi shaxsning axloqiy tafakkuri uning aqliy yetukligi bilan chambarchas bog'liq ekanini isbotlaydi. Olimning fikricha, bola dastlab axloqiy me'yorlarni tashqi nazorat va jazo orqali o'zlashtiradi, biroq kognitiv rivojlanish jarayonida u o'z xatti-harakatlarining ma'nosi va niyatini anglay boshlaydi. J.Piaje axloqiy fikrlashning evolyutsion xususiyatini tahlil qilib, bolalarning “geteronom” (tashqi qoida va avtoritetga bo'ysunuvchi) axloqdan “avtonom” (shaxsiy mas'uliyat va tushunishga asoslangan) axloqqa o'tishini ko'rsatgan. Shu sababli, muallif ta'lim jarayonida o'quvchilarning faqat tashqi intizomni emas, balki mustaqil fikrlash, empatiya va ichki e'tiqod asosida harakat qilishini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. J.Piajening g'oyalari zamonaviy maktab psixologiyasi uchun axloqiy rivojlanishning kognitiv poydevorini belgilab beradi.

A.Bandura - ijtimoiy o'rganish va ijtimoiy-kognitiv nazariyasida o'smirlar atrofdagi model (ota-ona, o'qituvchi, tengdoshlari) xatti-harakatlarini kuzatib, imitatsiya va mustahkamlash orqali axloqiy xulqni o'zlashtirishini ta'kidlagan. Maktab va tarbiyaviy muhitlar uchun amaliy natijalar beradi[4]. Bandura nazariyasi o'smirlarning axloqiy xulqi atrofdagi modellardan kuzatish va imitatsiya orqali shakllanishini ko'rsatadi. U maktab va tarbiyaviy muhitlarda o'quvchilarni faqat jazolar orqali emas, balki model va

mukofot mexanizmlari orqali tarbiyalashning samarali ekanini ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, Bandura yondashuvi axloqiy tarbiya va ijtimoiy o’zaro ta’sir jarayonlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

E.Erikson - psixosotsial rivojlanish nazariyasida o’smirlarda “identifikatsiya vs ro’l chalkashligi” bosqichi individual qadriyatlar va axloqiy orientatsiyalar shakllanishida muhim ekanini ko’rsatadi. Marcia identifikatsiya statuslari orqali o’smirlarning axloqiy-axloqiy qaror qabul qilishdagi farqlarini tushuntiradi[5]. Eriksonning nazariyasiga ko’ra, o’smirlar davrida “identifikatsiya va ro’l chalkashligi” bosqichi shaxsning individual qadriyatlari va axloqiy oriyentatsiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Marcia esa o’smirlarning identifikatsiya statuslari orqali axloqiy qaror qabul qilishdagi farqlarni tushuntiradi, bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy axloqiy rivojlanishini aniqlashda foydalidir.

E.Turiel - axloqiy, konvetsional va shaxsiy domenlarni ajratib, o’smirlar qaysi qoidalarini ijtimoiy sharoitlar va qaysilarini axloqiy tamoyillar asosida baholashini o’rganadi — bu maktabda nizolar va tartib masalalarini tushunish uchun foydali[6]. Turiel o’smirlarning axloqiy rivojlanishini ijtimoiy-domen yondashuvi orqali tushuntiradi. U axloqiy, konvetsional va shaxsiy domenlarni ajratib, qaysi qoidalar ijtimoiy sharoitlar asosida, qaysilari esa axloqiy tamoyillar asosida baholanishini o’rganadi. Bu yondashuv maktabdagi nizolar, tartib va xulq-atvor masalalarini tushunishda va o’quvchilarning axloqiy qarorlarini tahlil qilishda foydalidir.

J.Haidt — Axloqiy poydevorlar nazariyasida odamlar axloqiy qarorlarni turli “poydevorlar” (mas’uliyat, adolat, sadoqat va boshq.) orqali qabul qiladi; bu yondashuv maktab pedagogikasida axloqiy tarbiya va muloqot usullarini qayta ko’rib chiqishga yordam beradi[7]. Haidtning axloqiy poydevorlar nazariyasiga ko’ra, odamlar axloqiy qarorlarini turli poydevorlar — mas’uliyat, adolat, sadoqat, poklik va hokimiyatga hurmat orqali qabul qiladi. Bu yondashuv maktab pedagogikasida o’quvchilarning axloqiy tarbiyasi va muloqot usullarini yanada samarali shakllantirishga yordam beradi.

D.Narvaez — xarakter va axloqiy tarbiya, maktablarda axloqiy va xarakter ta’limi bo’yicha tadqiqotlar; samarali maktab amaliyotlari va axloqiy/fe’l-atvor tarbiyasi borasida ishlaydi[8]. Narvaez maktablarda o’smirlarning axloqiy va xarakter rivojlanishini chuqur o’rganadi. U axloqiy tarbiya va fe’l-atvorni shakllantirishda nevrobiologik, evolyutsion va birinchi hayotiy tajribalarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Shu yondashuv maktablarda samarali axloqiy va xarakter tarbiyasini tashkil etish va o’quvchilarning ichki axloqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalidir.

J.Smetana va boshqa ijtimoiy-domen tadqiqotchilari — ota-ona- o’smir nizolari, shaxsiy huquq va ijtimoiy avtoritet munosabatlarini o’rganib, maktab va oilaning o’smir axloqiy rivojlanishiga ta’sirini tadqiq qilganlar[10]. Smetana va boshqa ijtimoiy-domen tadqiqotchilari o’smirlarning ota-ona bilan nizolari, shaxsiy huquqlari va ijtimoiy avtoritet bilan munosabatlarini o’rganadi. Ularning tadqiqotlari maktab va oilaning o’smirlarning axloqiy rivojlanishiga ta’sirini, shuningdek, ijtimoiy va shaxsiy domenlar o’rtasidagi farqlarni tushunishda muhimdir.

Amaliy tadqiqotchilar va so’nggi ishlar (maktab axloqiy ta’limi) — 2010-2020-yillarda maktabda axloqiy tarbiya, diniy-ma’rifiy ta’sir va kontekstga bog’liq programmalar haqida ko’plab amaliy tadqiqotlar chiqdi; bu ishlar o’smirlarning axloqiy o’sishida atrof-muhit, o’qituvchilar va dasturlar rolini ko’rsatadi. (misollar: maktabda axloqiy ta’limni joriy etish bo’yicha maqolalar va sistematik sharhlar).

Natijalar tahlili. Tadqiqotimizda psixologik va pedagogik tadqiqotlar standartlariga mos keladi. Tadqiqot jarayonida o’smirlarning shaxsiy va axloqiy xususiyatlari rivojlanishini aniqlash uchun ilgari o’tkazilgan milliy va xorijiy tadqiqotlar natijalari asos sifatida ishlatildi [3].

**Merabian va Epsteinlar tomonidan “Empatiya darajasini aniqlash” metodikasi
orqali natijalar tahlili N=150**

Empatiya darajasi	O’g’il (n=75)	Qiz (n=75)	Jami (n=150)
Past	15 (20%)	5 (6.7%)	20 (13.3%)
O’rtacha	40 (53.3%)	30 (40%)	70 (46.7%)
Yuqori	20 (26.7%)	40 (53.3%)	60 (40%)
Jami	75 (100%)	75 (100%)	150 (100%)

O’g’il bolalar orasida ko’pchilik (53.3%) empatiya darajasi o’rtacha bo’lib, bu ularning boshqalar his-tuyg’ularini tushunish va hissiy javob berish qobiliyati barqaror darajada ekanini ko’rsatadi. Past daraja (20%) esa ba’zi o’g’illarda hissiy sezgirlikning cheklanganligini bildiradi. Yuqori daraja (26.7%) esa hissiy sezgirlik va boshqalarga nisbatan empatiya qobiliyati rivojlangan o’smirlarni aks ettiradi.

Qiz bolalar orasida yuqori empatiya darajasi (53.3%) ko’pchilikni tashkil qiladi, o’rtacha daraja 40%, past daraja esa 6.7% ni tashkil etadi. Bu qiz bolalarning boshqalarning his-tuyg’ularini sezish va ularga moslashish qobiliyatining o’g’illarga nisbatan kuchli ekanligini ko’rsatadi. Qiz bolalar hissiy sezgirlik va

empatiya jihatidan o'g'illarga qaraganda ustun. O'g'il bolalarko'proq o'rtacha darajada, ya'ni hissiy sezgirlik ularning shaxsiy va ijtimoiy faoliyatida cheklangan bo'lishi mumkin.

**Merabian va Epsteinlar tomonidan “Empatiya darajasini aniqlash metodikasi
orqali natijalar tahlili N=150**

Qaror qabul qilish darajasi	O'g'il (n=75)	Qiz (n=75)	Jami (n=150)
Past	10 (13.3%)	4 (5.3%)	14 (9.3%)
O'rtacha	45 (60%)	25 (33.3%)	70 (46.7%)
Yuqori	20 (26.7%)	46 (61.4%)	66 (44%)
Jami	75 (100%)	75 (100%)	150 (100%)

Past darajadagi o'g'il bolalar (13.3%) axloqiy qarorlarni qabul qilishda muayyan qiyinchiliklarga ega. O'rtacha darajadagi o'g'il bolalar (60%) esa axloqiy qarorlarni qisman, lekin barqaror qabul qilmoqda. Yuqori darajadagi o'g'il bolalar (26.7%) axloqiy prinsiplar asosida qaror qabul qilish qobiliyatiga ega.

Qiz bolalar orasida yuqori daraja (61.4%) ko'pchilikni tashkil qiladi, bu ularning axloqiy qarorlarni mustaqil va ongli ravishda qabul qilishga moyilligini bildiradi. O'rtacha daraja 33.3%, past daraja esa 5.3% ni tashkil qiladi. Qiz bolalar axloqiy qaror qabul qilish va mas'uliyat jihatidan o'g'illarga qaraganda sezilarli ustunlikka ega. O'g'il bolalaresa qaror qabul qilishda ko'proq o'rtacha va past darajalar bilan namoyon bo'ladi, bu ularning axloqiy mas'uliyatni shakllantirishda qo'shimcha pedagogik ta'sirni talab qilishi mumkin. Qiz bolalar hissiy sezgirlik va axloqiy qaror qabul qilish jihatidan ustun. O'g'il bolalarko'proq o'rtacha darajada, past daraja esa ba'zi o'smirlarda mavjud. Natijalar zamonaviy maktab ta'limida shaxsiy va axloqiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda jinsiy farqlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari zamonaviy maktab ta'limida o'smirlarning shaxsiy axloqiy va psixologik xususiyatlarining rivojlanishida jinsiy farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Qizlar hissiy sezgirlik, empatiya va axloqiy qaror qabul qilish jihatidan o'g'illarga qaraganda ustunlikka ega bo'lib, boshqalarning his-tuyg'ularini sezish va ularga moslashishda yuqori qobiliyat namoyon qiladi. O'g'illar esa ko'proq o'rtacha darajaga ega bo'lib, ayrim hollarda past empatiya va axloqiy qaror qabul qilish darajasi kuzatiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy maktab ta'limi o'smirlarning shaxsiy, axloqiy va psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Pedagogik yondashuvlar, tarbiyaviy strategiyalar va individual e'tibor o'smirlarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tavsiyalar:

1. Individual yondashuvni kuchaytirish: O'smirlarning shaxsiy xususiyatlari, jinsiy farqlari va empatiya darajasini hisobga olgan holda pedagogik va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.
2. Axloqiy va hissiy tarbiyani rivojlantirish: O'quv jarayonida axloqiy qarorlar qabul qilishni mustahkamlovchi vazifalar, treninglar va rolli o'yinlardan keng foydalanish.
3. Ijtimoiy muhitni qo'llab-quvvatlash: Sinf va maktab ichidagi ijtimoiy-muloqot faoliyatini rivojlantirish, o'smirlarni guruh ishlarida faol ishtirok etishga rag'batlantirish.
4. Psixologik maslahat va yordam: O'smirlarning hissiy va axloqiy rivojlanishini kuzatish va zarur hollarda psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash.
5. Pedagogik malakani oshirish: Maktab pedagoglari uchun empatiya, hissiy sezgirlik va axloqiy rivojlanish bo'yicha maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish.

Adabiyotlar:

1. Merabian A., & Epstein N. (1972). A measure of emotional empathy. // Journal of Personality, 40(4), 525–543.
2. Kolberg L. (1981). Essays on Moral Development: Vol. I. The Philosophy of Moral Development. San Francisco: Harper & Row.
3. Piage J. (1972). The psychology of the child. New York: Basic Books.
4. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
5. Erikson, E. H. (1950). Childhood and Society. New York: W. W. Norton & Company.
6. Turiel, E. (1983). The Development of Social Knowledge: Morality and Convention. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Haidt, J. (2001). The emotional dog and its rational tail: A social intuitionist approach to moral judgment. // Psychological Review, 108(4), 814–834.
8. Narváez, D. (2008). Triune ethics: The neurobiological roots of our multiple moralities. New Ideas in Psychology, 26, 95–119.

UO'K 152.26.004.28(045)

Tosheva Mohinur Yusupovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
tosheva.mokhinur@mail.ru

Tolipov Muhammadjon Odilovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti
muhammادتolipov@gmail.com

O'SMIRLARNING STRESSGA QARSHI KURASHISH STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY VA MAKTAB MUHITINING ROLI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlik davrida stressga qarshi kurashish strategiyalarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida oila va maktab muhitining o'zaro aloqasi, ularning o'smir psixologiyasiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari turadi. Muallif stressga qarshi kurashishning emotsional va muammo yo'naltirilgan strategiyalarini ko'rib chiqadi hamda bu strategiyalarni shakllantirishda ota-onalarning qo'llab-quvvatlovi, maktabdagi psixologik xizmatlar va o'qituvchilar rolining ahamiyatini asoslaydi. Shuningdek, maqolada oilaviy va maktab muhitining integratsiyalashuvi orqali o'smirlarning psixologik barqarorligini ta'minlashga oid amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik, stress, kurashish strategiyalari, oilaviy muhit, maktab muhiti, psixologik qo'llab-quvvatlash.

РОЛЬ СЕМЕЙНОЙ И ШКОЛЬНОЙ СРЕДЫ В ФОРМИРОВАНИИ У ПОДРОСТКОВ СТРАТЕГИЙ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ СТРЕССУ

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование стратегий преодоления стресса в подростковом возрасте. Основное внимание уделяется взаимодействию семейной и школьной среды, а также их положительному и отрицательному влиянию на психологическое состояние подростков. Автор анализирует эмоционально-ориентированные и проблемно-ориентированные стратегии совладания со стрессом, подчёркивая важность поддержки со стороны родителей, школьных психологов и педагогов. В статье также представлены практические рекомендации по обеспечению психологической устойчивости подростков за счёт интеграции семейной и школьной среды.

Ключевые слова: подростки, стресс, стратегии преодоления, семейная среда, школьная среда, психологическая поддержка.

THE ROLE OF FAMILY AND SCHOOL ENVIRONMENTS IN DEVELOPING ADOLESCENTS' STRESS COPING STRATEGIES

Abstract. This article examines the factors influencing the development of stress-coping strategies in adolescence. The focus is placed on the interaction between family and school environments and their positive or negative impacts on adolescent psychological well-being. The author analyzes both emotion-focused and problem-focused coping strategies and highlights the importance of parental support, school psychological services, and teacher involvement in shaping these strategies. The article also provides practical recommendations to enhance adolescents' psychological resilience through the integration of family and school support systems.

Keywords: adolescence, stress, coping strategies, family environment, school environment, psychological support.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda o'smirlarning psixologik salomatligi masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, globalashtirilgan axborot muhitida yoshlarning stress holatlariga duchor bo'lishi tez-tez uchrab turadigan holatga aylangan. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'smirlik davri — bu nafaqat jismoniy, balki hissiy va ijtimoiy rivojlanish nuqtayi nazaridan ham murakkab davrdir [1]. Ushbu bosqichda yuzaga keladigan stress omillariga nisbatan moslashuv va ularga qarshi kurashish strategiyalarining shakllanishi, ko'p jihatdan oila va maktab muhitiga bog'liqdir. Psixologik adabiyotlarda stress — tashqi yoki

ichki omillarga organizmning moslashish reaksiyasi sifatida talqin qilinadi. O‘smirlar uchun stress manbalari sifatida oila ichidagi nizolar, akademik bosim, tengdoshlari bilan munosabatlardagi qiyinchiliklar va o‘z-o‘zini anglash muammolari misol bo‘la oladi. Shuning uchun ham o‘smirlar orasida stressga qarshi kurashish strategiyalarining shakllanishi va ularning samaradorligini aniqlash — zamonaviy psixologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotda aynan shu yo‘nalishga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, o‘smirlarning stressga qarshi kurashish mexanizmlarini aniqlashda ularning eng yaqin ijtimoiy muhitlari — oila va maktabning ta‘siri markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki bu ikki muhit o‘smirning hissiy holati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy identiteti shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Oila — bu birlamchi sotsial institut bo‘lib, undagi muloqot madaniyati, tarbiyaviy yondashuv va hissiy qo‘llab-quvvatlov darajasi o‘smirning stressga qanday munosabatda bo‘lishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.[2] Maktab esa o‘smirning kundalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muhit bo‘lib, u yerda o‘qituvchi, sinfdoshlar, psixologik xizmat va umumiy ijtimoiy atmosfera stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda muhim omil sifatida ishtirok etadi.[3]

Mavzuning ilmiy yangiligi shundaki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda odatda oila va maktab omillari alohida o‘rganilgan bo‘lsa, ushbu maqolada ular kompleks yondashuv asosida, o‘zaro integratsiyalashgan tarzda tahlil qilinadi. Bu yondashuv stressga qarshi kurashish strategiyalarini yanada chuqurroq tushunish va ularni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur ilmiy maqolaning asosiy maqsadi — o‘smir yoshdagi shaxslarning stress holatlariga nisbatan individual va ijtimoiy jihatdan samarali kurashish strategiyalarini shakllantirishda oilaviy va maktab muhitining o‘rnini aniqlash, ushbu omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish, shuningdek, psixologik jihatdan sog‘lom muhit yaratish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot orqali oilaviy qo‘llab-quvvatlov, ota-onalarning muloqot uslubi, maktab psixologik xizmati, o‘qituvchining pozitsiyasi va tengdoshlar bilan munosabatlar kabi omillarning o‘smirlarning stressga qarshi kurashish uslublariga ko‘rsatadigan ta‘siri ilmiy asosda ochib beriladi.

O‘smir yoshdagi shaxslarning stress holatlariga nisbatan individual va ijtimoiy kurashish strategiyalarini shakllantirishda oila va maktab muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ko‘plab psixolog olimlar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Jumladan, **L. S. Vygotskiy**ning sotsiokultural nazariyasida insonning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va muloqot tizimi orqali shakllanishi ta‘kidlanadi. Olimning fikricha, o‘smirning stressga bardoshlilik ham bevosita oila, maktab va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatda rivojlanadi. Shunday ekan, qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhit o‘smirning ruhiy barqarorligini mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi.

Shuningdek, **R.S. Lazarus**ning kognitiv-emotsional yondashuvi ham bu masalaga ilmiy asos yaratadi. Uning “stress va coping” nazariyasiga ko‘ra, stress holatini boshqarish shaxsning vaziyatni qanday idrok etishiga va unga qanday javob qaytarishiga bog‘liq. Agar o‘smir o‘z muammolarini ijobiy baholashni o‘rgansa va unga qarshi konstruktiv strategiyalarni qo‘llay olsa, stress tajriba manbaiga aylanishi mumkin. Bu jarayonda ota-onaning mehr bilan yondashuvi, o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovi va maktab psixologik xizmatining faoliyati muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, **Diana Baumrind**ning ota-onalik uslublari nazariyasida ham stressga qarshi kurashishning ijtimoiy ildizlari ochib beriladi. Unga ko‘ra, demokratik tarbiya uslubida voyaga yetayotgan o‘smirlar o‘ziga ishonchli, ijtimoiy faol va stressli vaziyatlarda barqaror bo‘ladi. Aksincha, avtoritar yoki beparvo tarbiya uslublari o‘smirning emotsional muvozanatini buzib, ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda oilaviy qo‘llab-quvvatlov, o‘qituvchi pozitsiyasi va sog‘lom psixologik muhit muhim ijtimoiy omillar sifatida qaralishi lozim.

O‘smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalari turlari

№	Strategiya turi	Tavsifi	Namunalari (o‘smirlarda)
1	Emotsional-yo‘naltirilgan	Stress sababini bartaraf etmasdan, hissiy holatni yumshatishga qaratilgan strategiyalar.	Musiqqa tinglash, yig‘lash, do‘st bilan dardlashish
2	Muammo-yo‘naltirilgan	Stress sababini aniqlab, uni hal qilishga qaratilgan faol yondashuvlar.	Vaqtni rejalashtirish, maslahat so‘rash, muammoni tahlil qilish
3	Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi	Atrofdagilardan emotsional yoki amaliy yordam izlash strategiyasi.	Ota-onaga murojaat qilish, o‘qituvchi bilan suhbat

№	Strategiya turi	Tavsifi	Namunalari (o'smirlarda)
4	Kognitiv qayta baholovchi	Voqeaга ijobiy yoki neytral baho berish orqali stressni kamaytirish.	“Bu vaqtinchalik holat”, “Men bundan saboq olaman” deb o'zini tinchlantirish
5	Qochish yoki inkor etish	Stress manbasidan uzoqlashish yoki mavjud muammoni tan olmaslik.	Internetga sho'ng'ish, yolg'izlikni afzal ko'rish, muammoni inkor qilish

Tadqiqot metodologiyasi va natijalari. Tadqiqotning obyekti – o'smirlik yoshidagi shaxslar bo'lib, bu davrda shaxsning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy identifikatsiyasi jarayonlari jadallashadi. O'smirlarning ruhiy-psixologik holati, atrof-muhit bilan munosabati va psixologik himoya mexanizmlari tadqiqot markazida turadi.[4]

Tadqiqot predmeti — o'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalari va ularning shakllanish jarayoniga ta'sir etuvchi oilaviy hamda maktab muhitiga oid psixologik, pedagogik va sotsial omillar tizimidir. Unda o'smirlarning stress holatlariga nisbatan namoyon qiladigan xatti-harakatlari, tanlov qiladigan kurashish uslublari, emotsional reaktivligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlovga bo'lgan ehtiyoji tahlil qilinadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan kompleks tarzda foydalanildi:

Ilmiy adabiyotlar tahlili – stress nazariyasi, o'smirlik psixologiyasi, oilaviy va maktab muhitining ta'siri haqidagi nazariy manbalar o'rganildi.

Kuzatuv – o'smirlarning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlaridagi stress reaksiyalari va emotsional javoblari tabiatiga e'tibor qaratildi.

So'rovnoma – o'smirlarga, ularning ota-onalari va o'qituvchilariga mo'ljallangan psixologik so'rovlar orqali amaliy ma'lumotlar yig'ildi.

Statistik tahlil – yig'ilgan ma'lumotlar matematik-statistik metodlar asosida (foiz, korrelyatsiya tahlili, o'rtacha qiymat) qayta ishlanib, ularning o'zaro bog'liqligi baholandi.

Psixologik diagnostika – o'smirlarning stress darajasi, kurashish uslublari va hissiy barqarorligi maxsus test va metodikalar (masalan, Lazarusning “Coping strategies” testlari, Spielberg-Khanin shkalasi) orqali aniqlandi.

Natijalar tahlili. Ushbu tadqiqot doirasida o'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalari va ularga oilaviy hamda maktab muhiti tomonidan ko'rsatiladigan psixologik ta'sir omillari o'rganildi. Tadqiqotda 100 nafar o'smir ishtirok etdi, ulardan 55 nafari qizlar, 45 nafari o'g'il bolalar bo'lib, ularning yoshi 13 dan 16 yoshgacha bo'lgan. Tadqiqotda kuzatuv, so'rovnoma, psixologik testlar va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'smirlar orasida stress holatlariga nisbatan turlicha kurashish strategiyalari qo'llanilishi kuzatildi. Quyidagi jadvalda ushbu strategiyalarning nisbiy taqsimoti ko'rsatilgan:

Strategiya turi	Ishtirokchilardagi ulushi (%)
Emotsional-yo'naltirilgan	31%
Muammo-yo'naltirilgan	22%
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi	18%
Kognitiv qayta baholovchi	15%
Qochish yoki inkor etish	14%

Eng ko'p uchragan strategiya bu emotsional-yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, ko'pchilik o'smirlar hissiy holatini yumshatish uchun musiqa tinglash, yig'lash yoki do'st bilan suhbatlashish kabi usullarga murojaat qilgan. Bu esa o'smirlar orasida konstruktiv (ijobiy) strategiyalar hali to'liq shakllanmaganligini ko'rsatadi. Oilaviy muhit omillarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ota-onasining hissiy qo'llab-quvvatlashini muntazam his etuvchi o'smirlar ko'proq muammo-yo'naltirilgan va ijtimoiy strategiyalarni qo'llagan (67%). Aksincha, nazoratga asoslangan yoki sovuqqon tarbiyaviy uslub mavjud bo'lgan oilalarda o'smirlarning 70% destruktiv strategiyalarni tanlagani qayd etildi. Maktab muhitining ta'siri ham muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Psixologik xizmat faoliyati yo'lga qo'yilgan maktablarda o'qiyotgan o'smirlar ko'proq psixolog yoki o'qituvchilar bilan muammolarni muhokama qilgan va faol strategiyalarni qo'llagan (60% dan ortig'i). Muloqot past bo'lgan maktablarda esa o'quvchilar ko'proq qochish, inkor etish yoki o'zini yakkalashga moyil bo'lgan.

Oila va maktab muhitining integratsiyasi mavjud bo‘lgan o‘smirlar esa eng sog‘lom va muvozanatli strategiyalarni qo‘llagan bo‘lib, bu ularning stressga nisbatan psixologik chidamliligi yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, bunday o‘smirlar odatda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, muammolarni tahlil qilish va ijobiy yechim topishda faolroq bo‘lgan. Ular stressli vaziyatlarda impulsiv yoki tajovuzkor xatti-harakatlardan ko‘ra, mantiqiy fikrlash va ijtimoiy yordam so‘rash strategiyalarini afzal ko‘rgan. Integratsiyalashgan oilaviy va maktab muhitida o‘smir o‘zini himoyalangan, qadrlangan va tushunilgan deb his qiladi, bu esa o‘z navbatida uning emotsional barqarorligini oshiradi. Shuningdek, o‘qituvchi, psixolog va ota-onaning birgalikdagi yondashuvi o‘smir shaxsining o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Shu asosda aytish mumkinki, oila va maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik o‘smirlarning stressga qarshi kurashish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Umuman olganda, natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki:

Sog‘lom oilaviy muloqot va hissiy yaqinlik — konstruktiv stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantiradi. Maktabdagi psixologik xizmat va o‘qituvchining qo‘llab-quvvatlovi — o‘smirni ijtimoiy moslashuvchan qiladi. Destruktiv strategiyalar ko‘proq beqaror psixologik muhit natijasi sifatida yuzaga chiqadi [5].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davri inson hayotidagi eng nozik va stressga moyil bosqichlardan biridir. Bu davrda yuzaga keladigan psixologik bosimlarga qarshi kurashishning samarali strategiyalarini shakllantirishda oila va maktab muhitining ta’siri beqiyosdir [6].

Oilaviy muhitda ota-onalarning emotsional qo‘llab-quvvatlovi, ochiq va sog‘lom muloqot, barqaror psixologik atmosfera o‘smirning ichki resurslarini faollashtirib, sog‘lom stressga qarshi kurashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Maktab muhitida esa o‘qituvchi va psixologlarning yondashuvi, tengdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘smirning psixologik barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi [7].

Oilaviy va maktab omillarining uyg‘unligi o‘smirning psixologik sog‘lomligi, ijtimoiy moslashuvi va o‘zini anglash jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.[8] Shuning uchun stress profilaktikasi va unga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda kompleks yondashuv zarur. Shu sababli, tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, o‘smirlarning stressga qarshi kurashish qobiliyatini shakllantirishda oila va maktabning birgalikdagi ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning ijobiy muloqoti, emotsional qo‘llab-quvvatlovi hamda o‘qituvchi va psixologlarning to‘g‘ri yondashuvi o‘smir shaxsining ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi. Bunday muhitda voyaga yetayotgan o‘smir ijtimoiy jihatdan moslashgan, o‘zini qadrlaydigan va muammolarga konstruktiv yondasha oladigan shaxs sifatida shakllanadi. Shu bois oilaviy va maktabiy omillarni uyg‘unlashtirgan holda stress profilaktikasi dasturlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Selye, H. (1976). *The Stress of Life*. New York: McGraw-Hill.
2. Lazarus, R.S., & Folkman, S. (1984). *Stress, Appraisal, and Coping*. Springer.
3. G‘ofurov, K. (2019). *Yosh davrlari psixologiyasi*. Toshkent.
4. Nuraliyeva, D. (2021). O‘smirlarning psixologik muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari. // *Psixologiya va hayot*, 2(15), 44–49.
5. Baumrind, D. (1967). Child care practices anteceding three patterns of preschool behavior. // *Genetic Psychology Monographs*, 75(1), 43–88.
6. Тошева М.Ю. Состояние изучения проблемы подросткового стресса в зарубежной психологии. // *Вестник интегративной психологии*. Ярославль. -№31, 2024. – С. 370-375. ISBN: 978-5-9527-02-16-5.
7. Tosheva M.Y. 11-15 yoshli o‘smirlarda stressga barqarorlikni ta’minlashning psixologik omillari. // *Pedagogik mahorat*. – Buxoro. №10, 2023, -B. 113-116. ISBN: 2181-6833.
8. Tosheva M.Y. O‘smirlarda stress namoyon bo‘lishining nazariy-metodologik asoslari. // *Psixologiya*. – Buxoro. - №1, 2024. – B. 236-241. ISBN: 2181-5291.

UO'K 159.9



Toyirova Shahlo Izatovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi
toyirova@mail.ru

O'SMIRLIK YOSHI EGIZAKLARDA PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR BILAN BOG'LIQ MOTIVATSION RIVOJLANISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Maqolada o'smir yoshidagi egizaklarda kuzatiladigan psixologik o'zgarishlar dinamikasidagi farqlarni tahlil qilish orqali motivatsion muammolar tahlil qilinadi. O'smir egizaklarning psixologik jihatlardagi farqlarni o'rganishda shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi FPI metodikasini o'tkazilib amaliy tahlil qilindi. Ushbu ilmiy maqolada o'smir yoshdagi egizaklarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini tasniflash bilan birgalikda aynan Monozigota va Dizigotalik shakliga ko'ra o'zaro farqlanuvchi determinantlarini aniqlab olishga qaratilgan. Mazkur maqolada nafaqat o'smirlik davridagi regressiv rivojlanish hamda motivatsion jarayonlarni balki egizaklarning bir-biridan farqlanuvchi psixologik xususiyatlarni determinantlar sifatida tahlil etib borishimizni ifodalaydi. O'quv jarayoni bilan bog'liq motivatsion jarayonlarning namoyon bo'lish sifatleri ko'rib chiqilgan. Egizaklarda bir-biridan farqlanuvchi psixologik xususiyatlarga ta'sir etuvchi omillar maqolaning mazmun mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: farqlanish, omil, mexanizm, refleksiv xarakter, ochiqlik-oshkoralik, korrelyatsiya, gen, psixodiagnostik, tajovuzkorlik, ekstraversiya-intraversiya, monozigota, dizigota.

PROBLEMS OF MOTIVATIONAL DEVELOPMENT RELATED TO PSYCHOLOGICAL CHANGES IN ADOLESCENT TWINS

Abstract. This article explores motivational issues by analyzing the differences in the dynamics of psychological changes observed in adolescent twins. When studying the differences in psychological aspects of adolescent twins, the FPI methodology, which studies personality traits, was studied and practically analyzed. In this article, we analyze not only regressive development and motivational processes in adolescence, but also the psychological characteristics of twins that differ from each other as determinants. The qualities of manifestation of motivational processes associated with the educational process are considered. Factors influencing the distinct psychological characteristics of twins serve to reveal the content and essence of the article.

Keywords: differentiation, factor, mechanism, reflexive character, openness-openness, correlation, gene, psychodiagnostic, aggression, extraversion-introversion, monozygote, dizygote.

ПРОБЛЕМЫ МОТИВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ПСИХОЛОГИЧЕСКИМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ У БЛИЗНЕЦОВ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация. В данной статье исследуются мотивационные проблемы посредством анализа различий в динамике психологических изменений, наблюдаемых у близнецов подросткового возраста. При изучении различий в психологических аспектах близнецов-подростков была изучена и практически проанализирована методика FPI, изучающая особенности личности. В данной статье мы анализируем не только регрессивное развитие и мотивационные процессы в подростковом возрасте, но и различные психологические характеристики близнецов в качестве детерминант. Рассмотрены качества проявления мотивационных процессов, связанных с учебным процессом.

Факторы, влияющие на различающиеся психологические особенности близнецов, способствуют раскрытию сущности и содержания статьи.

Ключевые слова: дифференциация, фактор, механизм, рефлексивный характер, открытость-разоблачение, корреляция, ген, психодиагностика, агрессия, экстраверсия-интроверсия, монозигота, дизигота.

Kirish. Kundalik hayotimizda egizaklar va ularning tengdoshlari o'rtasidagi bog'liqlik tomonlarini tasniflab boramiz. Masalan: monozigota egizaklardagi faollik darajasi kattasiga nisbatan kichigida yuqori

ko'rsatgichni, muloqatchanlik xususiyati esa dizigota egizaklarda bu holat qarama-qarshi ko'rsatgichni ko'rsatadi. Olib borilgan ko'pgina tadqiqotlarga ko'ra, o'smir egizaklarning tengquri bilan shaxslararo munosabatlari mazmuni o'smir egizak bo'lmaganlarning shaxslararo munosabatlaridan farq qiladi. Bu farqlar shunda ko'rinadiki, egizaklar uchun eng past ko'rsatgich ya'ni o'zini ichki nazorat qilish, o'zini qabul qilish darajasining pastligi, boshqalar boshqa o'smirlarga nisbatan pastdir. Ular uchun muammoga yo'naltirilgan shaxs va muammodan tezroq qochish va yuqori toifa o'zini emotsional diskomford his qilishga olib keladi. Bularning barchasi ularning tengqurlari bilan munosabatlarda kamroq moslashuvchan bo'lishadi, bu shundan dalolat beradiki ularga boshqalarga nisbatan ota-onalar, psixologlar, ijtimoiy pedagoglar tomonidan ko'proq e'tibor va yordamga muhtoj.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Egizaklarda tengqurlari bilan munosabatlarda moslashuvchanlikni rivojlantirish uchun, atrof muhit bilan yaxshi muloqot o'rnatishi va barkamol rivojlanishi uchun alohida dasturlar ishlab chiqish kerak. Ikki egizak o'rtasidagi munosabatlar o'ziga xosdir va bu mulohazalarning turli jihatlari, ular mavjud bo'lganda ayniqsa dolzarb bo'ladi ikkalasining o'sishi va rivojlanish vaqtidagi katta farqlar mavjud bo'lib, ular o'zlarining shaxsiy shaxsiyatlarini rivojlantirish ma'nosida bir-biridan ajralib turishlari kerak, manfaatlar va mustaqillik, shu bilan birga bir-birining rishtalari va bilimlarini saqlab qolish qo'llab-quvvatlash va albatta ishtirok etishda. Ushbu oxirgi jihat dizigotiklar uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi balog'atga etish vaqtining nomutanosibligi tufayli jismoniy jihatdan bir-biridan ajralib turadigan egizak juftliklar. Yaxshiyamki, tashvishlarning aksariyati egizaklarning o'sishi bilan bog'liq bo'lib, ular tez-tez yetib boradi o'smirlik ularning eng katta darajasi, o'tkinchi bo'ladi, pirovardida kattalar jismoniy hajmi va uchun ishlash qoniqarli ekanligini isbotlaydi. Biroq, bu o'tgan yillar xabardorlikni talab qiladi va hissiy stressni engillashtirish va oldini olish uchun qo'llab-quvvatlash va tushuntirish majburiyati vaqti-vaqti bilan doimiy psixologik oqibatlar [2].

Egizaklar juftligini ko'pincha psixologlar 3 toifaga bo'lishadi "jufti bir-biriga bog'langan egizaklar", "yorqin individ juftligi", "bir-biridan ajralib turuvchi juftlik".

Egizaklar muammosi har bir soha uchun alohida o'rganilishi kerak bo'lgan tadqiqotning dolzarb masalasi sifatida qarab kelinadi. Egizaklardagi motiv bilan bog'liq ijtimoiy, kognitiv, hissiy va madaniy omillar muhim ahamiyatga ega bo'lib tadqiqotchilardan A.R. Luriya bu hodisani "juftlikda hayotning o'ziga xos shakli" deb atagan. Egizaklarning intellektual rivojlanishi va o'quv motivatsiyasini o'rganish shaxs shakllanishida biologik va ijtimoiy omillar nisbatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Egizaklarning o'quv faoliyatida intellekt va motivatsion jarayonlarning o'zaro bog'liqligi masalasi ta'lim jarayonini tashkil etish uchun nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

O'smirlik davri ko'pchilik egizaklar uchun mojaroli o'tadi, u ularning alohidaligini ko'rsatishi bilan bog'liq. Psixologlar bir tuxumdonli egizaklarga 18-20 yoshlarda munosabatni yaxshilashi yoki kuchayishini aytishadi, har xil tuxumdonlar esa buning aksi. Egizaklar, ayniqsa, tashqi o'xshashligi juda yuqori bo'lgan monozigotlar o'z sherigiga o'zlarining oyna tasviri sifatida qarashga shunchalik odatlanib qolishadiki, ular qo'sh egizakning nomiga xuddi o'zlari kabi oson va tez-tez javob berishadi. Ba'zan ular o'zlarini bitta umumiy nom bilan atashadi, ular o'zlarining shaxsiy xususiyatlari va xususiyatlarini egizak sherigiga bog'laydilar va o'ta og'ir holatlarda ular o'zlari va egizak sheriklari bilan sodir bo'lgan voqealarni aralashtirishlari mumkin. Bularning barchasi bitta tug'ilgan bolalar bilan solishtirganda egizaklarni individuallashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Maktabda o'quvchi o'smir yoshdagi egizaklar ko'pincha psixologik rivojlanish va shaxslararo muloqotlarga kirishish jarayonida «odatdagi» tengdoshlaridan orqada qoladilar. Bu ularning umumiy intellektual rivojlanishida hamda ijtimoiylashuv jarayonining dinamiklik kasb etishini yanada ortda qolishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalar juda erta egizaklarni to'laqonli muloqot hamkorlari sifatida ko'rishni boshlaydilar va ko'pincha ularni o'zlariga qoldiradilar. Bir-birlari bilan muloqot qilishda egizaklar faqat ikkalasi uchun tushunarli tilni rivojlantiradilar, bunda imo-ishoralar, yuz ifodalari va boshqa og'zaki bo'lmagan muloqot vositalari ustunlik qiladi. Ko'pincha, hatto ota-onalar ham ularni tushunmaydilar. Egizaklar ko'p shu tarzda muloqot qilishsa, ular bir-biriga shunchalik bog'lanib qoladilar va go'yo boshqalardan o'ralib qolishadi. Keyinchalik, o'smirlik va ilk o'spirinlik davrida, egizaklar o'rtasidagi nizo munosabatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan bunday haddan tashqari o'ziga xosliklar destruktiv shaxslararo nizolarga zamin yaratishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. O'smirlik davrini o'rganuvchi ko'pchilik olimlar agressiya, emotsional qo'zg'alishni, jahl chiqqan holatlarda balog'atga yetmagan bolalarda psixologik muammolar qanday namoyon bo'lishiga ko'proq e'tibor qaratadilar. Chunki bu yoshda ularda hayot tajribalari yetarli bo'lmaydi, lekin boshqalar tomonidan tan olinishga va mustaqil bo'lishga intiladilar. O'smirlik davri insonni bolalikdan -yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi inson ontogenetik rivojlanishining eng xarakterli davrlaridan biridir. Bu davr

psixologik pedagogik adabiyotlarda «o‘tish davri», «og‘ir davr», «inqiroz davri», kabi iboralar bilan ataladi. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o‘qish paytlariga to‘g‘ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davr oralig‘ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. Shuni hisobga olgan holda aytish mumkinki, o‘smirlik davri ayrim bolalarda (aksariyat hollarda qiz bolalarda) 9-10 yoshlardan boshlanib, yana boshqalarida 16-17 yoshlargacha davom yetishi mumkin. O‘smirlik davrning og‘ir, murakkab davr ekanligi ko‘plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlar: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o‘zgaradi.

O‘smirlik davrida o‘qish bilan bog‘liq muammolar keyingi o‘ringa tushadi, chunki bunday vaqt egizaklar o‘rtasidagi munosabatlarning eng nozik payti hisoblanadi. O‘ziga va atrofdagilarga bo‘lgan munosabatlarning o‘zgarishi har bir egizak juftining o‘zi shaxs sifatida tushunish talabi vujudga keladi, egizagi va boshqa insonlardan farq qiluvchi sifatlarining borligidan. Juftlik ichida o‘z sifatlarini ta’kidlash tendensiyasi paydo bo‘ladi: urush, har xil kiyim, bir biridan yuz o‘girish. Ammo monozigota egizaklarida o‘zaro bog‘liqlik va to‘satdan ayriliqda ko‘rinadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Odamlar bir-biridan ularning genetik xususiyatlari va atrof-muhit o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir tufayli farqlanadi. Genlar va atrof-muhit ta’sirini alohida-alohida ajratib bo‘lmaydi, lekin ularni populyatsiya darajasida egizak tadqiqotlar orqali ajratish mumkin.

Ushbu tadqiqotimizdan maqsad aynan o‘smir yoshdagi egizaklarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini tasniflash bilan birgalikda aynan Monozigota va Dizigotalik shakliga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi determinantlarini aniqlab olishga qaratilgan. Mazkur tadqiqotimiz orqali nafaqat o‘smirlik davridagi regressiv rivojlanish jarayonlarni, balki egizaklarning bir-biridan farqlanuvchi psixologik xususiyatlarni determinantlar sifatida tahlil etib borishimizni ifodalaydi.

Tadqiqotimizni o‘tkazish davomida o‘smir yoshdagi egizaklarning shaxsiylik xususiyatlarini o‘rganishni, ularning individual xususiyatlarini aniqlab olishga qaratilgan metodikalardan keng foydalanildi. Olingan natijalar asosida o‘smir yoshdagi egizaklarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etib va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Quyidagi o‘tkazilgan metodikalardan birini **Shaxs xususiyatlarini o‘rganuvchi FPI metodikasining egizaklar tipiga ko‘ra tahlili (Mann-Uitni – U mezon)** orqali egizaklarning bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlarini yaqqol ko‘rsatib berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shkalalar	O‘rtacha rang		Statistik qiymat	
	Monozigotali (n=84)	Dizigotali (n=64)	U	P
Asabiylashganlik	83,47	64,80	2067,000	0,008**
P-o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tajovuzkorlik	85,51	62,05	1891,000	0,001***
SH-ruhiy siqilish	86,34	60,93	1819,500	0,000***
U1-serjahlilik, jizzakilik	63,33	91,86	1705,000	0,000***
U-muloqotchanlik	89,59	56,57	1540,500	0,000***
V1-og‘irlik, vazminlik	66,40	87,73	1969,500	0,003**
UP-o‘ta tajovuzkorlik	70,26	82,55	2301,000	0,083
USH-tortinchoqlik	80,11	69,30	2355,500	0,126
IX-ochiqlik, oshkoralik	84,41	63,53	1986,000	0,003**
X ekstraversiya-intraversiya	83,74	64,42	2043,000	0,006**
X1-ta’sirchanlik, o‘zgaruvchanlik	86,98	60,08	1765,000	0,000***
XP-mardlik, nazokatlilik	79,72	69,83	2389,000	0,163

Izoh: ** $p \leq 0,01$, *** $p \leq 0,001$

O‘smir yoshdagi monozigotali va dizigotali egizaklarning shaxsiy xususiyatlari o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlarni tadqiq etish maqsadida olingan navbatdagi psixodiagnostik vositalar tahliliga ko‘ra, asabiylashganlik shklasida ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar kuzatilgan bo‘lib ($U=2067,000$, $p < 0,01$), monozigotali egizak o‘smirlar, dizigotali o‘smir egizaklarga qaraganda emotsional-hissiy bo‘yoqdorligi yuqori bo‘lishi aniqlandi. Ushbu jihatni, ularning bir-biriga tashqi qiyofasi juda “ikki tomchi suvdek” o‘xshashligi, shuningdek, bir-birlarining va boshqalarning kamchiliklariga ayovsiz ravishda e’tibor

ko'rsatishlarining oqibati deb baholashimiz mumkin. A.Gesell tadqiqotlariga ko'ra, temperament belgilari kabi asosiy xususiyatlar tashqi muhit ta'sirida o'zgarishi mumkinligiga ishora bergan. Tarbiya va irsiyat shaxsga uning tuzilishida chuqur o'zgarishlarsiz sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, tug'ilishdan boshlab dizigotik egizaklar affektiv munosabatda farqlanadi: yig'lashga moyillik, tinchlanish qobiliyati, tabassum qilishga tayyorlik va boshqalar. Bumsman va Van Baalning izlanishlariga asoslanib, go'daklik davridagi bolalar o'rtasidagi genetik farqlar axborotni qayta ishlash imkoniyatlari cheklanganligi sababli funksional farqlar bilan bog'liq bo'lib, bola ulg'aygan sari yaqqol namoyon bo'ladi, degan fikrni ilgari surdilar.

O'z-o'zidan paydo bo'ladigan tajovuzkorlik ko'rsatkichi bo'yicha ham ahamiyatli farqlar kuzatilib ($U=1891,000$, $p<0,01$), monozigotali egizaklarda agressiv xulq-atvoriga moyillik digizotali egizaklarga qaraganda yuqoriroq bo'lishi mumkinligi ma'lum bo'ladi. Tadqiqotlardan olingan natijalarni tahlil qilish chog'ida ham o'smir yoshdagi egizaklarda bir-biridan uzoqlashish kuzatilib, mazkur hodisa ulardagi ichki agressivlik darajasini ortishiga olib keluvchi faktorlar biri bo'lib rol o'ynar ekan. Biz tarafdin olingan tadqiqot natijalari tahlilida esa, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan tajovuzkorlik o'smir egizaklarda ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga keluvchi “men” komponentidagi “tan olish va tan oldirish” ehtiyojining ehtiyojlar iyerarxiyasida ustuvorlik kasb etganligi bilan ham izohlanadi.

Shuningdek, olingan psixodiagnostik metodikmizning deyarli 70% shkala ko'rsatkichlari bo'yicha ahamiyatli va ishonch darajasidagi farqlar aniqlanib, xususan, ruhiy siqilish ($U=1819,500$, $p<0,001$), serjahlilik ($U=1705,000$, $p<0,001$), muloqotchanlik ($U=1540,500$, $p<0,001$), og'irlik, vazminlik ($U=1969,500$, $p<0,001$), ochiqlik-oshkoralik ($U=1986,000$, $p<0,01$), ekstraversiya-intraversiya ($U=2043,500$, $p<0,01$), ta'sirchanlik-o'zgaruvchanlik ($U=1765,000$, $p<0,001$) shular jumlasidandir.

Xulosa. Ruhiy siqilish shkalasi bo'yicha monozigotali egizaklarda o'rtacha ko'rsatkich 86,34 ni, dizigotali egizaklarda 60,93 ni tashkil etib, bir xil tashqi ko'rinish, bir xil jinsga mansub egizaklarda ruhiy siqilish, hodisalarni tez o'ziga qabul qilish ko'rsatkichi yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ladi. Mazkur farqni egizaklardagi himoya mexanizmlarining bir-biriga o'ta bog'langanligi ta'sirida o'zaro yuqish effekti ko'pligidan bir xil ko'rinish, bitta urug'dondan hosil bo'lgan egizak o'smirlarda tashqi ta'sirlarga tez beriluvchanlik oqibatida ruhiy tushkunlikka tushish ehtimolining ko'pligi bilan ham izohlashimiz mumkin. Ulardagi bir-biriga doimiy bog'liqlik, hayotiy strategiyalarni ham birga qurish tamoyili bitta egizak hafa bo'lsa, ikkinchiga ham xafa bo'lishi kerakligini ta'kidlovchi mexanizm sifatida refleksiv xarakter kasb etishi natijasida sodir bo'ladi.

Yuqorida o'tkazilgan metodikadagi natijalarga muvofiq egizaklarning o'smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlarning ta'siri muammosi hamda ularning o'zaro farqlanuvchi psixologik determinantlari biologik, ijtimoiy -madaniy rivojlanish mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq.

Adabiyotlar:

1. Морозова Т.Б. Формирование направленности личности близнеца-подростка как социально-педагогическая проблема в системе дополнительного образования, М.: 2011 г.
2. Twin and Triplet Psychology A professional guide to working with multiples. Edited by Audrey C.Sandbank London and New York First published, 1999.
3. Тойирова Л. И., Тойирова Ш. И. Психологические проблемы подростков-близнецов в учебном процессе обучения в школе // “Негізі» атты халықаралық білім беру онлайн-конференциясының материалдары. – 2019. – С. 113.
4. Тойирова Ш. Ўзбек oilalarida egizak farzandlarni tarbiyalashdagi ўziga xos psixologik muammodar // Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 122-125.
5. Izatovna T. L., Izatovna T. S. Psychodiagnostic bases of the study of twins in psychology // E-Conference Globe. – 2021. – С. 98-104.
6. Izatovna T. S. The influence of psychogenetic factors on the upbringing of twins in Uzbek families // Research Jet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – T. – №. 05. – С. 297-303.
7. Izatovna T. L. Influence of human factors on the upbringing of bliznets in uzbek families in the process of training // Research Jet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – T. 2. – №. 05. – С. 286-292.
8. Тойирова Л. Эгизаклар ривожланиш босқичларидаги ўзига хос психологик хусусиятлар // Oriental Art and Culture. – 2020. – №. I (2). – С. 126-130.

UO'K 152.26.004.28(045)

Tosheva Mohinur Yusupovna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
tosheva.mokhinur@mail.ru

Matyokubova Zilola Zeripbayevna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti
bzsajp@gmail.com

O'SMIRLARDAGI STRESS HOLATINING O'ZGARISHIGA TA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlik davrida uchraydigan stress holatlarining psixologik sabablari va ularning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ichki omillar ilmiy tahlil qilingan. Emotsional barqarorlik, o'ziga baho, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi psixologik xususiyatlarning stress darajasiga ta'siri empirik tadqiqot asosida o'rganilgan. Maqolada stressga qarshi kurashish strategiyalari va amaliy tavsiyalar ham keltirilgan. Tadqiqotda o'smirlarning stress darajasini, psixologik xususiyatlarini (emotsional barqarorlik, o'z-o'zini baholash, ijtimoiy moslashuv darajasi) aniqlash hamda stressga qarshi kurashish uslublarini o'rganish maqsadida bir qator psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: o'smirlik, stress, psixologik xususiyatlar, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, o'ziga baho, koping-strategiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЕ СТРЕССОВОГО СОСТОЯНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические причины стрессовых состояний в подростковом возрасте и внутренние факторы, влияющие на их изменение. Исследуется влияние таких психологических характеристик, как эмоциональная устойчивость, самооценка и социальная адаптация на уровень стресса у подростков. Также представлены стратегии преодоления стресса и практические рекомендации. В исследовании использовался ряд психодиагностических методик для определения уровня стресса и психологических особенностей подростков (эмоциональной устойчивости, самооценки, уровня социальной адаптации), а также для изучения стратегий совладания со стрессом.

Ключевые слова: подростки, стресс, психологические особенности, эмоциональная устойчивость, социальная адаптация, самооценка, копинг-стратегии.

PSYCHOLOGICAL FEATURES THAT AFFECT THE CHANGE IN STRESS STATE IN ADOLESCENTS

Abstract. This article explores the psychological causes of stress in adolescence and the internal factors influencing its fluctuations. The study analyzes the impact of psychological traits such as emotional stability, self-esteem, and social adaptability on stress levels in adolescents. The paper also includes coping strategies and practical recommendations for stress management. The study used a number of psychodiagnostic methods to determine the stress level and psychological characteristics of adolescents (emotional stability, self-esteem, level of social adaptation), and to study stress coping strategies.

Keywords: adolescence, stress, psychological traits, emotional stability, social adaptation, self-esteem, coping strategies.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida o'smirlar hayoti tobora murakkablashib, ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'paymoqda. Ayniqsa, stress holati o'smirlik davrida tez-tez uchraydigan, turli psixologik, ijtimoiy va biokimyoviy omillar bilan bog'liq bo'lgan murakkab holat hisoblanadi. Ushbu davr shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo'lib, o'z-o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy moslashuv jarayonlarining faol kechishi bilan xarakterlanadi [1].

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir o'smir stressli holatlarga turlicha munosabat bildiradi. Bunga ularning individual psixologik xususiyatlari — temperament, emotsional barqarorlik, moslashuvchanlik darajasi, o'zini baholash darajasi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlov bilan bog'liq omillar ta'sir

ko'rsatadi. Shu bois, o'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalarini o'rganish, ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda psixologik yordam ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.[8]

Ushbu maqolada o'smirlardagi stress holatining psixologik mexanizmlari, unga ta'sir qiluvchi individual xususiyatlar, shuningdek, stressga bardoshlilik darajasini oshirish bo'yicha tavsiyalar tahlil qilinadi. Maqola nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy psixologiyada ham muhim bo'lgan masalalarni yoritishga qaratilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Stress — bu inson organizmining tashqi yoki ichki omillarga javoban ko'rsatadigan psixofiziologik reaksiyasi bo'lib, u shaxsning ruhiy muvozanatini buzishi mumkin. H. Selye stressni "organizmning har qanday talabga moslashuv reaksiyasi" deb ta'riflagan va uni eustress (ijobiy) hamda distress (salbiy) shakllarida ajratgan [2].

Psixologiyada stress ko'pincha hissiy va kognitiv buzilishlar bilan kechadi. L. Lazarusning kognitiv baholash nazariyasiga ko'ra, stress holati individning voqeani qanday baholashi va unga qanday javob berishiga bog'liqdir [3]. Bu yondashuvga ko'ra, stressga bo'lgan reaksiya subyektiv xarakterga ega: bir vaziyat ba'zilar uchun stressli, boshqalar uchun esa odatiy holat bo'lishi mumkin.

O'smirlik — bu o'tish davri bo'lib, fiziologik o'sish, jinsiy yetilish va psixologik mustaqillik uchun tayyorgarlik bilan tavsiflanadi. Bu davrda quyidagi psixologik jarayonlar keskin faollashadi:

O'zini anglash va identifikatsiya qilish (shaxs kimligini izlash);

Emotsional o'zgaruvchanlik (tebranishlar, kayfiyatning tez-tez almashishi);

Ijtimoiy ta'sirchanlik (do'stlar, tengdoshlar fikriga kuchli e'tibor);

Konfliktlarga moyillik (ota-onalar va o'qituvchilar bilan qarama-qarshiliklar).

Psixolog A. G. Kovalev o'smirlik davrini "psixologik krizislar fazasi" deb ta'riflagan, bu esa stress holatining ko'payishiga sabab bo'ladi [4].

Stress holatining intensivligi va unga o'smirlarning munosabati ko'plab psixologik omillar bilan bog'liq:

1. Temperament: Ekstravert o'smirlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlovga ega bo'lishi sababli stressni yengilroq kechiradi, introvertlar esa ichki kechinmalarni yashirin saqlashga moyildirlar.

2. O'zini baholash: Past o'zini baholashga ega o'smirlar o'zlarini ijtimoiy muhitda noqulay his qilishadi, bu esa stress holatini kuchaytiradi.

3. Emotsional intellekt: Yuqori emotsional anglash va boshqaruv qobiliyatiga ega o'smirlar muammolarni oqilona hal qila oladi.

4. Moslashuvchanlik: Stressga moslasha oluvchi o'smirlar yangi holatlarga tezda ko'nika oladi, bu esa stress darajasini pasaytiradi.[10]

O'smirlardagi stress darajasi faqat tashqi omillar bilan emas, balki bir qator ichki shaxsiy xususiyatlar bilan ham bog'liq bo'ladi:

Psixologik xususiyat	Stressga ta'siri
Emotsional barqarorlik	Past bo'lsa — stressga chidamsizlik kuchayadi
O'ziga baho	Past baho — ichki konfliktlar, o'zini ayblash
Ijtimoiy moslashuvchanlik	Past daraja — izolyatsiya, yolg'izlik
Tashqi va ichki lokus nazorati	Ichki lokusga ega bo'lganlar stressga bardoshliroq [5]

Ko'plab tadqiqotlar (masalan, R. Lazarus, A. Bandura, M. Zeigarnik) shuni ko'rsatadiki, shaxsning stressga qarshi kurashish uslubi, ya'ni koping-strategiyalari ham stress darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Passiv strategiyalar (masalan, muammodan qochish) o'smirlarni depressiv holatlarga olib kelishi mumkin, faol strategiyalar esa stressni yengishda yordam beradi [6].

O'smirlarning stressga bardoshlilikini oshirish uchun quyidagi usullar muhim hisoblanadi:

1. Psixologik treninglar: Emotsiyalarni boshqarish, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

2. Ota-ona va pedagogik qo'llab-quvvatlash: Ijoiy muloqot, ishonchli munosabatlar va mehr-muhabbat orqali stress darajasini kamaytirish.

3. Sport va kreativ faoliyatlar: Jismoniy faollik va san'at orqali ichki zo'riqishni kamaytirish.

4. Psixoterapiya: Zarur hollarda professional yordam (kognitiv-behavioral terapiya va boshqalar).[9]

Qo'llanilgan metodlar. Ushbu tadqiqot Qarshi shahridagi 10- umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-8-sinf o'quvchilari o'rtasida olib borildi. Tadqiqotda jami 120 nafar o'smir (60 nafar o'g'il bola va 60 nafar qiz bola) ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlab olingan bo'lib, ulardan tadqiqotda qatnashishga ixtiyoriy rozilik olingan. Tadqiqot etik mezonlarga rioya qilingan holda o'tkazildi, ya'ni barcha ma'lumotlar maxfiy saqlanib, faqat ilmiy maqsadlarda tahlil qilindi.

Tadqiqotda o'smirlarning stress darajasini, psixologik xususiyatlarini (emotsional barqarorlik, o'z-o'zini baholash, ijtimoiy moslashuv darajasi) aniqlash hamda stressga qarshi kurashish uslublarini o'rganish maqsadida bir qator psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi. Stress darajasini baholash uchun Derogatisning SCL-90-R (qisqartirilgan shakli) testi qo'llanildi. Bu metodika yordamida respondentlarning umumiy psixologik stress holati, tashvish va ichki taranglik darajasi o'lchandi.


O'smirlarning o'ziga bo'lgan bahosini aniqlashda Dembo – Rubinshteyn tomonidan ishlab chiqilgan “O'z-o'zini baholash testi” dan foydalanildi. Emotsional barqarorlikni baholash uchun esa G. Ayzenkning “Shaxsiy so'rovnoma” qo'llanilib, unda neyrotizm ko'rsatkichi asosiy mezon sifatida tahlil qilindi. Shu bilan birga, Rodgers – Dymond metodikasi asosida ijtimoiy moslashuv darajasi ham o'rganildi. Ushbu metodika shaxsning ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatini, ichki va tashqi qarama-qarshiliklar bilan kurashish uslubini aniqlashga imkon berdi.

Olingan natijalarga ishlov berishda zamonaviy statistik usullar, jumladan, o'rtacha arifmetik qiymat, dispersiya, standart og'ish, Pearsonning korrelyatsiya koeffitsienti va Student t-testi qo'llanildi. Tahlillar SPSS 22.0 statistik dasturi orqali amalga oshirildi. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta'minladi.

Natijalar tahlili. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'smirlarning stress darajasi ularning psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.

SCL-90-R test natijalariga ko'ra, respondentlarning 28,3 foizida yuqori stress holati, 43,4 foizida o'rta darajadagi stress, 28,3 foizida esa past darajadagi stress holatlari kuzatildi. Bu esa shuni anglatadiki, har uch o'smirdan birida stress darajasi tashvish uyg'otadigan darajada yuqori.

**O'quvchilarning SCL-90-R Testiga Ko'ra
Stress Darajasi Taqsimoti**



Dembo–Rubinshteyn test natijalari o'smirlarning o'z-o'zini baholash darajasida ham muayyan tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Past o'zini baholagan ishtirokchilarda yuqori stress darajasi ($r = -0,57$; $p < 0,01$) aniqlangan bo'lib, bu o'zini past qadrlash stressga nisbatan zaiflikni oshiruvchi omil ekanini tasdiqlaydi.

EPI testiga ko'ra, emotsional barqarorligi past bo'lgan (neyrotizm ko'rsatkichi yuqori) respondentlar stress holatlariga nisbatan sezuvchanroq bo'lishgani aniqlandi. Korrelatsion tahlil natijasida emotsional barqarorlik bilan stress darajasi o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjudligi ($r = -0,62$; $p < 0,01$) aniqlandi. Ya'ni, emotsional jihatdan beqaror o'smirlar stressni og'irroq qabul qiladilar va unga chidamsizroq bo'ladilar.

Rodgers – Dymond metodikasi asosida o'rganilgan ijtimoiy moslashuv darajasi ham stress holatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Past ijtimoiy moslashuvga ega bo'lgan o'smirlar o'zini yakkalashga, ijtimoiy izolyatsiyaga moyil bo'lib, bu ularning stress darajasini oshirgan ($r = -0,49$; $p < 0,05$).

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smirlar davrida stress holatining psixologik omillar bilan bevosita bog'liq ekanini isbotladi. Tadqiqotda olingan empirik ma'lumotlar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Stress holati o'smirlar orasida keng tarqalgan bo'lib, respondentlarning 70 foizidan ortig'ida o'rta yoki yuqori darajadagi stress darajasi kuzatildi. Bu esa o'smirlarning kundalik hayotida stress omillari doimiy mavjudligini ko'rsatadi.

O‘z-o‘zini baholash darajasi past bo‘lgan o‘smirlar yuqori stress holatiga ko‘proq moyillik bildiradilar. O‘ziga nisbatan salbiy munosabat va ishonchsizlik ichki ziddiyatlar va psixologik noqulayliklarga olib keladi.

Emotsional barqarorlik darajasi o‘smirlarning stressga bo‘lgan chidamliligida muhim rol o‘ynaydi. Emotsional jihatdan beqaror (neyrotik) o‘smirlar stress holatlarini keskinroq boshdan kechiradilar.

Ijtimoiy moslashuv darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar ijtimoiy izolyatsiyaga moyil bo‘lib, ular orasida yuqori stress ko‘rsatkichlari qayd etildi. Bu esa ijtimoiy integratsiya darajasi bilan ruhiy salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi.[7]

Stressga qarshi kurashish uslublari (koping-strategiyalar) stress darajasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Faol, konstruktiv yondashuvlar stressni yengishga yordam bergan bo‘lsa, passiv strategiyalar (muammodan qochish, inkor qilish) stressning kuchayishiga sabab bo‘lgan.

Adabiyotlar:

1. Селье Г. Стресс безопасен, если управлять им. – М.: Прогресс, 1982. – 213 б.
2. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, appraisal and coping. – New York: Springer, 1984. – 456 p.
3. Zeigarnik B.V. Patopsixologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – 242 b.
4. Kovalev A.G. Shaxs psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1988. – 301 b.
5. Айзенк Г.Ю. Структура личности и индивидуальные различия. – М.: Прогресс, 1985. – 285 с.
6. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.
7. Дембо Т. & Рубинштейн С.Я. Самооценка личности: методическое руководство. – М.: Академический проект, 1990. – 128 с.
8. Rodgers C., Dymond R. A study of self-concept and adjustment. – New York: American Psychological Association, 1954. – 326 p.
9. Erkaev A.A. O‘smirlik psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 160 b.
10. Tosheva M.Y., Odilovich T.M. Psychosocial stressors and coping strategies among Adolescents in Uzbekistan: a quantitative analysis bilgi çeşmesi 1(9), 49-54 <https://turkishjournals.-org/index.php/BC/article/download/223/209>

Umidullayeva Marjona Ulug‘bek qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

IJTIMOY IDENTIFIKATSIYA INQIROZI - JINOYATCHILIKKA MOYILLIK KELIB CHIQUISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy identifikatsiya inqirozining shaxsda jinoyatchilikka moyillikni shakllantirishdagi psixologik mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy identifikatsiya darajasining pastligi shaxsning o‘zini jamiyatdan begonalashtirishiga, o‘zini past baholash va agressiv tendensiyalarning kuchayishiga olib keladi. Shaxsning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov tizimi zaiflashganda, u ijtimoiy me‘yorlardan chetlashish holatiga tushadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijtimoiy identifikatsiya darajasi bilan jinoyatchilikka moyillik o‘rtasida teskari korrelyatsiya aniqlangan ($r = -0.62$, $p < 0.01$).

Kalit so‘zlar: ijtimoiy identifikatsiya, inqiroz, jinoyatchilikka moyillik, begonalashuv, o‘zini baholash, agressivlik, psixodiagnostika, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov, ijtimoiy rol, shaxs, ijtimoiy moslashuv, psixokorreksiya.

КРИЗИС СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ – ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ВОЗНИКНОВЕНИЕ СКЛОННОСТИ К ПРЕСТУПНОСТИ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические механизмы влияния кризиса социальной идентификации на формирование склонности к преступности. Установлено, что низкий уровень социальной идентификации способствует отчуждению личности, снижению самооценки и росту агрессивных тенденций. Недостаток социальной поддержки усиливает вероятность отклоняющегося поведения. Корреляционный анализ показал обратную зависимость между уровнем социальной идентификации и склонностью к преступности ($r = -0.62$, $p < 0.01$).

Ключевые слова: социальная идентификация, кризис, преступность, отчуждение, самооценка, агрессивность, социальная поддержка, личность, девиантное поведение.

SOCIAL IDENTIFICATION CRISIS – PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE EMERGENCE OF CRIMINAL INCLINATION

Abstract. This article analyzes the psychological mechanisms through which social identification crisis contributes to criminal inclination. Findings indicate that a low level of social identification leads to alienation, decreased self-esteem, and increased aggression. Weak social support networks further intensify the likelihood of deviant behavior. The study identified a negative correlation between social identification and criminal inclination ($r = -0.62$, $p < 0.01$).

Keywords: social identification, crisis, criminal inclination, alienation, self-esteem, aggression, social support, personality, deviant behavior, psychosocial adaptation.

Kirish. Hozirgi davr insoniyat taraqqiyotining murakkab bosqichiga – globallashuv, texnologik rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarning keskin o‘zgarish davriga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu jarayon shaxsning o‘zini jamiyatda anglash, ijtimoiy tizimda o‘z rolini topish va ijtimoiy identifikatsiya qilish ehtiyojini kuchaytirmoqda. Insonning kimligi, ijtimoiy guruhlariga mansubligi, milliy, diniy, madaniy yoki kasbiy identifikatsiyasi uning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvining eng muhim komponentlaridan biridir. Shu sababli, ijtimoiy identifikatsiya jarayonidagi uzilish yoki inqiroz inson ruhiyatida chuqur psixologik iz qoldirib, turli og‘ishgan xulq-atvor shakllariga, jumladan, jinoyatchilikka moyillikni keltirib chiqarishi mumkin. Psixologiyada “ijtimoiy identifikatsiya” tushunchasi shaxsning o‘zini ma’lum ijtimoiy guruh bilan bog‘lash jarayonini anglatadi. Bu jarayon orqali inson “Men kimman?”, “Men kimlar bilan birgaman?” degan savollarga javob topadi va shu asosda o‘zining ijtimoiy “Men” konsepsiyasini shakllantiradi. Agar bu jarayon muvaffaqiyatli kechsa, shaxsda ijobiy o‘zini anglash, ijtimoiy mas’uliyat va moslashuv hissi shakllanadi. Ammo bu jarayon izdan chiqsa yoki jamiyat tomonidan shaxsning ijtimoiy o‘rni tan olinmasa, ijtimoiy identifikatsiya inqirozi yuzaga keladi. Bunday inqiroz o‘zini yakkalanib qolgan, qadsiz, begona yoki rad etilgan deb his qiluvchi shaxslarda ko‘proq kuzatiladi.

Zamonaviy sotsiopsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy identifikatsiya inqirozining ortida ijtimoiy adolatsizlik, ishsizlik, oilaviy ziddiyatlar, jamiyatda kamsitilish, axborot muhitining beqarorligi kabi omillar turadi. Bularning barchasi shaxsda ijtimoiy g‘azab, norozilik, agressiya va destruktiv xulqni

shakllantiradi. Aynan shu hissiy va kognitiv beqarorlik shaxsni ijtimoiy me'yorlardan og'ish, ya'ni jinoyatga moyil bo'lish holatiga olib keladi.

Psixologik nuqtayi nazardan, jinoyatchilikka moyillik — bu shunchaki qonunbuzarlik emas, balki shaxsning ichki psixologik inqirozining tashqi ifodasi hisoblanadi. **E. Erikson** tomonidan ilgari surilgan “identifikatsiya inqirozi” nazariyasiga ko'ra, inson o'zini jamiyatda kim sifatida ko'rishi va shu rol ni bajarishdagi muvaffaqiyatsizlik — ijtimoiy muvozanatni buzadi. **A. Bandura** esa ijtimoiy o'rganish nazariyasida jinoyatchilikni o'rganilgan xulq deb talqin qiladi, ya'ni shaxs atrofidagi ijtimoiy model va tajribalar asosida destruktiv yo'lni tanlaydi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha qabul qilingan normativ hujjatlar ham ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Chunki har qanday jinoyatning ildizida faqat ijtimoiy omillar emas, balki chuqur psixologik va identifikatsion muammolar yotadi. Demak, ijtimoiy identifikatsiya inqirozini o'z vaqtida aniqlash va psixoprofilaktika tadbirlarini yo'lga qo'yish nafaqat alohida shaxs, balki jamiyat barqarorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy identifikatsiya muammosi psixologiya fanining ijtimoiy, klinik va shaxsiy yo'nalishlarida ko'p yillardan buyon tadqiq etilib kelmoqda. Mazkur masalani yoritishda G. Tajfel, J. Turner, E. Erikson, A. Adler, E. Fromm, A. Bandura kabi yetakchi psixologlar nazariyalari asosiy metodologik manba sifatida qaraladi. Ularning asarlarida shaxsning o'zini anglash, guruhga mansublik hissi, begonalashuv, ijtimoiy o'rganish va destruktiv xulq motivlari bir-biriga bog'liq holda tahlil qilingan.

1. Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi (G. Tajfel va J. Turner).

G. Tajfel (1978) va J. Turner (1986) tomonidan ishlab chiqilgan **ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi** shaxsning ijtimoiy muhitdagi o'rnini tushuntirishda asosiy paradigma hisoblanadi. Ularning fikricha, inson o'zini ma'lum ijtimoiy guruh bilan identifikatsiya qilish orqali ijtimoiy “Men” konsepsiyasini shakllantiradi. Shaxsning o'zini qaysi guruhga mansub deb bilishi uning qadriyatlarini, o'zini baholash darajasi va xulq-atvor strategiyalariga bevosita ta'sir qiladi. Tajfelning tajribalarida aniqlanishicha, insonlar ko'pincha o'z guruhini “biz” deb ideallashtirib, “ular”ga nisbatan qarama-qarshi emotsional munosabatni namoyon etadilar. Shu jihatdan, agar shaxs o'zini hech bir ijtimoiy guruhga mansub deb his qilmasa yoki jamiyat uni rad etsa, unda ijtimoiy beqarorlik va begonalashuv paydo bo'ladi. Bu holat ijtimoiy me'yorlardan og'ish, tajovuzkorlik va hatto jinoyatchilik shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

2. Identifikatsiya inqirozi nazariyasi (E. Erikson).

E. Erikson (1959) tomonidan ilgari surilgan “Psixosotsial rivojlanish nazariyasi” shaxs hayotidagi identifikatsiya jarayonining ahamiyatini chuqur ochib bergan. Uningcha, inson rivojlanishining har bir bosqichida ijtimoiy rol ni o'zlashtirish bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi. Ayniqsa o'smirlilik davrida “Men kimman?” degan savolga javob topishdagi muvaffaqiyatsizlik shaxsda identifikatsiya inqirozini keltirib chiqaradi. Erikson bu holatni “ichki yo'nalishni yo'qotish” deb ataydi. Agar shaxs o'zining jamiyatdagi rolini aniqlay olmasa, u “axloqiy vakuum” holatiga tushib qoladi — ya'ni, yaxshi va yomon, qonuniy va noqonuniy xatti-harakatlar o'rtasidagi chegarani yo'qotadi. Bu holat jinoyatchilikka moyillikni kuchaytiruvchi psixologik zamin sifatida talqin etiladi.

3. Kamlik kompleksi va kompensatsiya nazariyasi (A. Adler).

A. Adler (1937) shaxs psixologiyasida “kamlik kompleksi” (inferiority complex) tushunchasini ilgari surib, insonning ijtimoiy faolligi va xulq motivlarini tahlil qilgan. Adlerga ko'ra, o'zini boshqalardan past, qadrsiz yoki e'tiborsiz his qilgan inson o'z ichki noaniqligini kompensatsiya qilish uchun turli yo'llarni tanlaydi. Ba'zilar bu kamlikni ijobiy faoliyat (ijod, bilim, sport) orqali bartaraf etsa, boshqalar uni tajovuzkor yoki jinoyatkor xulq orqali qoplashga intiladi. Demak, ijtimoiy identifikatsiya inqiroziga uchragan, o'zini “jamiyatda keraksiz” deb bilgan shaxs jinoyatchilik orqali “qudrat” yoki “ta'sir” tuyg'usini qayta tiklashga urinadi.

4. Begonalashuv va destruktiv energiya nazariyasi (E. Fromm).

E. Fromm (1941) o'zining “Erkinlikdan qochish” asarida insonning jamiyatdagi begonalashuvi va ruhiy izolyatsiyasi natijasida yuzaga keladigan destruktiv xulqni chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, inson o'zini jamiyatda qabul qilinmagan, izolyatsiyalangan deb his qilsa, ichki bo'shliqni tajovuzkorlik orqali to'ldirishga urinadi. Bu holat ko'p hollarda jinoyatchilik, vandalizm yoki zo'ravonlik shaklida namoyon bo'ladi. Fromm ta'kidlaganidek, jinoyat — bu shunchaki huquqiy og'ish emas, balki ijtimoiy tizimda o'z o'rnini topa olmagan shaxsning psixologik noroziligidir.

5. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi (A. Bandura).

A. Bandura (1977) tomonidan ishlab chiqilgan “ijtimoiy o'rganish nazariyasi” jinoyatchilik xulqini shakllantiruvchi muhim mexanizmlarni tushuntiradi. Unga ko'ra, inson o'z xatti-harakatlarini bevosita tajriba emas, balki boshqalarni kuzatish va ularga taqlid qilish orqali o'rganadi. Shaxs qaysi ijtimoiy guruhni

“model” sifatida qabul qilsa, o’sha guruh xulqini o’zlashtiradi. Agar shaxsning identifikatsiya obyekti jinoyatchi yoki antisotsial guruh bo’lsa, u o’sha guruh qadriyatlarini normal holat deb biladi. Bu jarayonni Bandura “model orqali o’rganish” (model learning) deb atagan. Shu tariqa, ijtimoiy identifikatsiya inqirozi jinoyatchilikka olib keluvchi muhim mexanizmga aylanadi.

Yuqoridagi nazariyalar umumiy xulosani tasdiqlaydi:

Ijtimoiy identifikatsiya inqirozi shaxsning o’zini anglash jarayonida uzilishlar keltirib chiqaradi, bu esa o’z navbatida deviant yoki jinoyatchi xulqning psixologik manbai sifatida namoyon bo’ladi. Erikson ichki “Men” inqiroziga urg’u bersa, Tajfel ijtimoiy guruh bilan bog’liqlikni, Fromm esa begonalashuvni asosiy sabab sifatida ko’rsatadi. Adler kamlik hissining kompensatsiyasini, Bandura esa ijtimoiy modelning rolini ta’kidlaydi. Shu bois jinoyatchilikni tushuntirishda faqat ijtimoiy-iqtisodiy emas, balki chuqur psixologik va identifikatsion omillarni hisobga olish zarur.

Muhokama va natijalar. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — ijtimoiy identifikatsiya inqirozining shaxsda jinoyatchilikka moyillikni shakllantirishdagi psixologik omillarini aniqlash va ularning o’zaro bog’liqligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo’ldi:

1. Ijtimoiy identifikatsiya darajasini o’lchash va uning psixologik ko’rsatkichlarini aniqlash;
2. O’zini baholash, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash va agressivlik darajasi o’rtasidagi bog’liqlikni o’rganish;
3. Ijtimoiy identifikatsiya inqiroziga uchragan shaxslar orasida jinoyatchilikka moyillikni psixologik mezonlar asosida baholash;
4. Olingan natijalar asosida ijtimoiy-psixologik profilni ishlab chiqish.

Tadqiqot Qarshi shahri hududida 18 yoshdan 35 yoshgacha bo’lgan **120 nafar respondent** ishtirokida o’tkazildi. Ularning 60 nafari jinoyat sodir etgan shaxslar (jazoni ijro etish muassasalarida qayta ijtimoiylashtirish bosqichida bo’lganlar), 60 nafari esa shartli nazorat guruhi sifatida tanlangan ijtimoiy faol yoshlar (talabalar, ishchi-xodimlar)dan iborat bo’ldi. Jinsiy nisbat 70 erkak va 50 ayolni tashkil etdi. Respondentlar ijtimoiy holati, ma’lumoti va oilaviy ahvoli bo’yicha turlicha toifalarga mansub bo’lishi tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida **miqdoriy va sifatli psixodiagnostik metodlar** majmuasidan foydalanildi. Asosiy o’lchov vositalari quyidagilardan iborat:

№	Metodika nomi	Maqsadi	Muallif
1	Rosenberg o’zini baholash shkalasi (Self-Esteem Scale)	Shaxsning o’zini qadrlash va o’z “Men”iga munosabat darajasini o’lchash	M. Rosenberg (1965)
2	Ijtimoiy identifikatsiya testi (Social Identity Scale)	Shaxsning guruhga mansublik hissi va ijtimoiy integratsiya darajasini baholash	G. Tajfel, J. Turner (1986)
3	Buss–Durkee agressivlik diagnostikasi	Agressiv va destruktiv tendensiyalarni aniqlash	A. Buss, A. Durkee (1957)
4	Ijtimoiy qo’llab-quvvatlov shkalasi (Social Support Scale)	Shaxsning ijtimoiy aloqalaridagi qo’llab-quvvatlovni baholash	Sarason (1983)
5	So’rovnomalar “Jinoyatchilikka moyillikni baholash testi”	Shaxsning ijtimoiy me’yorlarga nisbatan munosabatini va qonunbuzarlikka nisbatan tolerantlik darajasini aniqlash	Modifikatsiyalangan versiya (muallif tomonidan tuzilgan)

Shuningdek, respondentlarning demografik ma’lumotlari, oilaviy muhit, ta’lim darajasi va ijtimoiy munosabatlari haqidagi qo’shimcha ma’lumotlar **biografik so’rovnomalar** orqali yig’ildi.


Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. *Diagnostik bosqich* – respondentlarga test va so’rovnomalar o’tkazildi, dastlabki kuzatuvlar qayd etildi.
2. *Analitik bosqich* – olingan ma’lumotlar SPSS 26.0 dasturi yordamida qayta ishlanib, korrelyatsion va dispersiya tahlili usullari qo’llandi.
3. *Tahliliy bosqich* – o’zaro bog’liqlik va regressiya koeffitsiyentlari aniqlanib, nazariy model bilan taqqoslandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy identifikatsiya darajasi past bo'lgan shaxslar orasida jinoyatchilikka moyillik yuqori darajada kuzatilgan. Korrelyatsion tahlil natijasida $r = -0,62$ ($p < 0.01$) koeffitsiyent aniqlanib, bu ikki o'zgaruvchi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Ya'ni, shaxs o'zini jamiyat bilan qanchalik kam identifikatsiya qilsa, u shunchalik qonunbuzarlikka moyil bo'ladi.

Rosenberg shkalasi natijalariga ko'ra, o'zini past baholovchi shaxslarning 68% ida yuqori darajadagi agressivlik tendensiyasi aniqlangan. Buss–Durkee metodikasi bo'yicha “fizik agressiya” va “dushmanlik” ko'rsatkichlari aynan shu guruhda yuqori bo'lgan. Bu esa Adlarning “kamlik kompleksi” nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlov past bo'lgan respondentlar (do'stlar, oila, hamjamiyat bilan aloqa zaif) orasida jinoyatchilikka moyillik 2,5 baravar ko'p aniqlangan. Bu Frommning “begonalashuv” g'oyasini tasdiqlaydi — ya'ni, inson ijtimoiy aloqalarini yo'qotgan sari destruktiv energiya ichkaridan tashqariga yo'naltiriladi.

Tahlillar asosida quyidagi psixologik model shakllantirildi:



Bu model shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikka moyillik faqat ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasi emas, balki shaxsning identifikatsion, emotsional va kognitiv tizimlarida yuzaga kelgan muvozanat buzilishining psixologik oqibatidir.

Xulosa. Ijtimoiy identifikatsiya inqirozi — shaxsning o'zini jamiyatda kim sifatida ko'rishi, o'z rolini aniqlashi va tegishlilik hissining buzilishi natijasida yuzaga keladigan ichki psixologik muvozanatsizlikdir. Bu holat shaxsda o'zini past baholash, ishonchsizlik, begonalashuv va agressivlik kabi salbiy hissiyotlarni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy identifikatsiya darajasi bilan jinoyatchilikka moyillik o'rtasida teskari korrelyatsiya ($r = -0,62$) mavjud. Bu shuni anglatadiki, shaxs o'zini jamiyat bilan qanchalik kam identifikatsiya qilsa, jinoyatchilikka shunchalik ko'proq moyil bo'ladi.

O'zini past baholash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlovning yetishmasligi jinoyatchilikka olib keluvchi psixologik zanjirning muhim bo'g'inlari sifatida namoyon bo'ldi.

Shaxsning agressivlik darajasi va ijtimoiy begonalashuvi o'rtasida bevosita bog'liqlik aniqlanib, bu Fromm, Adler va Bandura nazariyalarini amalda tasdiqladi.

Profilaktik chora-tadbirlar sifatida quyidagilarni taklif etish mumkin:

Yoshlar orasida ijtimoiy identifikatsiyani shakllantiruvchi psixologik treninglar va seminarlar o'tkazish;

Jinoyatchilik xavfi yuqori guruhlar bilan ishlovchi psixologlar uchun maxsus “reidentifikatsiya” dasturlarini joriy etish;

Oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilik orasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov tizimini mustahkamlash;

Shaxsda ijobiy “Men” konsepsiyasini shakllantirishga qaratilgan individual psixokorreksion metodlarni qo‘llash.

Shunday qilib, ijtimoiy identifikatsiya inqirozini erta aniqlash va uni psixologik yo‘l bilan bartaraf etish — jamiyatda jinoyatchilikning oldini olishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Shaxsning o‘zini jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida his qilishi, o‘z “Men”iga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishi jinoyatchilikning psixologik ildizlarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Adler, A. (1937). Understanding Human Nature. Oxford: Greenberg.
2. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
3. Erikson, E. H. (1959). Identity and the Life Cycle. New York: International Universities Press.
4. Fromm, E. (1941). Escape from Freedom. New York: Farrar & Rinehart.
5. Tajfel, H., & Turner, J. C. (1986). The Social Identity Theory of Intergroup Behavior. Chicago: Nelson-Hall.

UO'K 37.015.3:159.955

*Usmonova Oydin Sherali qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
oydinusmonova66@gmail.com*

TANQIDIY TAFAKKURNING SHAKLLANISHIDA B.BLUM TAKSONOMIYASINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada olim Benjamin Blum taksonomiyasi, uning komponentlari, tanqidiy tafakkur shakllanishidagi asosiy ahamiyatlaridan biri ekanligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan bo'lib, pedagogika amaliyotidagi qo'llanilish usullari ham batafsil yoritilgan. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning yangi, innovatsion metodlarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan ta'lim modellarini yaratish hamda Blum taksonomiyasining zamonaviy tahrirlarini mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi lozim.

Kalit so'zlar: tafakkur, tanqidiy fikrlash, aqliy operatsiyalar, Blum taksonomiyasi, baholash, xulosa chiqarish, dalillash, isbotlash, tafakkur turlari.

ЗНАЧЕНИЕ ТАКСОНОМИИ Б. БЛУМА В ФОРМИРОВАНИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье представлена информация о таксономии учёного Бенджамина Блума, её компонентах и её значении в формировании критического мышления, а также подробно описаны методы её применения в педагогической практике. Дальнейшие исследования в этой области должны быть направлены на разработку новых, инновационных методов развития критического мышления, создание образовательных моделей, интегрированных с цифровыми технологиями, и адаптацию современных версий таксономии Блума к местной системе образования.

Ключевые слова: мышление, критическое мышление, мыслительные операции, таксономия Блума, оценка, вывод, рассуждение, доказательство, типы мышления.

THE IMPORTANCE OF B. BLOOM'S TAXONOMY IN THE FORMATION OF CRITICAL THINKING

Abstract. This article presents information about the taxonomy of scientist Benjamin Bloom, its components, and its importance in the formation of critical thinking, and also describes in detail the methods of its application in pedagogical practice. Future research in this area should aim to develop new, innovative methods for developing critical thinking, create educational models integrated with digital technologies, and adapt modern versions of Bloom's Taxonomy to the local education system.

Keywords: thinking, critical thinking, mental operations, Bloom's taxonomy, evaluation, inference, reasoning, proof, types of thinking.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida inson tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish eng muhim maqsadlardan biri hisoblanadi. XXI asrda tezkor axborot oqimi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida shunchaki ma'lumotni yod olish emas, balki uni tahlil qilish, baholash, umumlashtirish va amalda qo'llash ko'nikmalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, tanqidiy tafakkur shaxsning fikrlash jarayonida ongli, dalillarga tayangan, muammoga har tomonlama yondasha oladigan, o'z fikrini asoslab ifodalaydigan qobiliyat sifatida shakllanadi.

Tanqidiy tafakkur faqat bilimga ega bo'lish emas, balki o'sha bilimni ijodiy va tahliliy asosda qo'llay bilishdir. Pedagogik amaliyotda tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalasi turli metod va yondashuvlar orqali izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, amerikalik psixolog va pedagog olim Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim maqsadlari taksonomiyasi o'quvchilarda tafakkur jarayonlarini tizimli rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalari va raqamli tafakkur davrida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri-yoshlarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdir. XXI asrda jamiyat rivojlanishining asosiy mezonlari inson kapitali, ya'ni bilim, tafakkur va intellektual salohiyat darajasi bilan belgilanmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Shu sababli ta'lim jarayonida an'anaviy yod olishga asoslangan yondashuv o'z ahamiyatini yo'qotib, o'rni o'quvchini faol fikrlashga, tahlil qilishga, baholashga va yangilik yaratishga yo'naltiruvchi metodlar kirib kelmoqda. Shunday metodlardan biri bu Benjamin Blum

taksonomiyasidir. B. Blum tomonidan XX asrning oʻrtalarida ishlab chiqilgan bu nazariya oʻquv jarayonini tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish imkonini beradi. Taksonomiya bilimlarni oʻzlashtirishni faqat faktlarni eslab qolish emas, balki ularni tushunish, amalda qoʻllash, tahlil qilish, yaratish va baholash jarayonlari orqali chuqurlashtirishni koʻzda tutadi. Bu esa oʻquvchi yoki talabaning tafakkur darajasini asta-sekin yuksaltiradi hamda uni ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston taʼlim tizimida ham kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitish metodlari tobora muhim oʻrin egallamoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yangi Oʻzbekiston – yangicha tafakkur egalari mamlakati” gʻoyasi bugungi taʼlim siyosatining markazida turibdi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, B. Blum taksonomiyasi nafaqat pedagogik nazariya, balki zamonaviy taʼlim jarayonini tashkil etishda muhim metodik asos sifatida ahamiyat kasb etadi.

Tanqidiy tafakkur- bu shaxsning maʼlumotni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, asosli xulosalar chiqarish, shuningdek, har qanday fikrni tanqidiy baholay olish qobiliyatidir. Tanqidiy tafakkurga ega shaxs faqat bilimni oʻzlashtiribgina qolmay, uni tahlil qiladi, asoslaydi va yangi gʻoyalarni ilgari suradi. Demak, taʼlimda tanqidiy tafakkurni shakllantirish shaxsni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan, masʼuliyatli inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, B. Blum taksonomiyasi asosidagi yondashuv tanqidiy tafakkur rivojining metodik poydevori sifatida alohida ilmiy qiziqish uygʻotadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, u tanqidiy tafakkur va B. Blum taksonomiyasining oʻzaro uzviy aloqasini aniqlaydi hamda ularning taʼlim jarayonidagi amaliy ahamiyatini yoritadi. Chunki hozirgi davrda oʻqituvchi faqat bilim manbai emas, balki talabani oʻylashga, tahlil qilishga, savol berishga va xulosa chiqarishga yoʻnaltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda esa B. Blum taksonomiyasi oʻzining bosqichli tuzilmasi bilan muhim metodik yordamchi vazifasini bajaradi. Blum taksonomiyasi oʻqituvchi va talabaga oʻquv jarayonini bosqichma-bosqich rejalashtirish, bilimlarni faqat eslab qolishdan emas, balki ularni tushunish, tahlil qilish, sintezlash va baholashgacha olib chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti va qoʻllanilgan metodlar. Tanqidiy tafakkur va uning taʼlim jarayonidagi oʻrni soʻnggi oʻn yilliklarda dunyo ilm-fanida eng faol oʻrganilayotgan masalalardan biridir. Gʻarb va Sharq olimlarining tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, tanqidiy fikrlash shaxsning bilish jarayonida asosiy intellektual koʻnikma sifatida namoyon boʻladi.

Benjamin Blum va uning ilmiy jamoasi 1956-yilda chop etgan *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals* asarida taʼlim maqsadlarini tizimlashtirib, oʻquvchilarni oʻqitish jarayonida fikrlash darajalarini aniqlash uchun universal model yaratgan. Keyinchalik Anderson va Krathwohl (2001) tomonidan taksonomiya yangilangan boʻlib, unda “sintez” bosqichi “yaratish” bosqichi bilan almashtirilgan. Bu esa taʼlimning ijodiy va tanqidiy yoʻnalishlarini yanada kuchaytirdi. Xorijiy tadqiqotlarda esa Blum taksonomiyasining tanqidiy tafakkurga taʼsiri turli yoʻnalishlarda tahlil qilingan. Wegerif (2011) taʼlimda dialogik yondashuv orqali talabalarning yuqori darajadagi fikrlash bosqichlariga koʻtarilishini taʼkidlaydi.

Lorencová va boshqalar (2019) tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlarda esa taksonomiya asosida tuzilgan topshiriqlar tanqidiy fikrlashning tahlil, baholash va ijodiy qaror qabul qilish komponentlarini samarali rivojlantirishi isbotlangan. Avvalo, qoʻllanilgan metodlar haqida fikrimizni dalillashimiz muhim hisoblanadi. Masalan, *nazariy tahlil metodi* yordamida B. Blum taksonomiyasiga oid ilmiy manbalar, xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari oʻrganildi. Bu metod orqali tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bilan bogʻliq konseptual yondashuvlar, tushuncha va kategoriyalar tizimlashtirildi.

Taqqoslash va qiyosiy tahlil metodi asosida Blum taksonomiyasi darajalari (bilish, tushunish, qoʻllash, tahlil, sintez va baholash) tanqidiy fikrlash bosqichlari bilan solishtirildi. Natijada, har bir darajaning talabalarda tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishdagi oʻziga xos roli aniqlab berildi. Shuningdek, *empirik metodlar* – kuzatish, suhbat va soʻrovnoma oʻtkazish usullaridan foydalanildi. Bu jarayonda pedagogika yoʻnalishidagi talabalarning tanqidiy tafakkur darajasi, ularning Blum taksonomiyasi asosida tashkil etilgan taʼlim jarayoniga munosabati oʻrganildi. *Tajriba-sinov metodi* orqali tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda Blum taksonomiyasi darajalariga tayangan holda dars mashgʻulotlari namunaviy tarzda tashkil etildi. Sinov jarayonida oʻqitishning kognitiv bosqichlari – “bilishdan baholashgacha” boʻlgan faoliyat turlari boʻyicha talabalar ishtiroki tahlil qilindi. *Statistik va matematik tahlil metodlari* yordamida tajriba natijalari qayta ishlanib, ularning ishonchligi aniqlangan.

Maʼlumotlar asosida tanqidiy tafakkurni shakllantirishda Blum taksonomiyasining samaradorligi ilmiy asosda baholandi. *Pedagogik modellashtirish metodi* esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan taʼlimiy modelni ishlab chiqishda qoʻllanildi. Ushbu model oʻquvchi va talabaning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich faollashtirishga yoʻnaltirilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Blum taksonomiyasi dastlab 1956-yilda ishlab chiqilib, kognitiv (bilish), affektiv (emotsional) va psixomotor (harakat) sohalaridagi taʼlim maqsadlarini tizimlashtirishga qaratilgan edi. Ularning ichida ayniqsa kognitiv soha tanqidiy tafakkur bilan bevosita bogʻliq boʻlib, “bilish –

tushunish – qo‘llash – tahlil – sintez – baholash” kabi ketma-ketlikda tafakkur faoliyatining chuqurlashib borish darajasini aks ettiradi. Har bir bosqichda o‘quvchi yoki talaba bilimni yanada murakkab aqliy operatsiyalar orqali qayta ishlaydi, bu esa tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarda ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident qarorlari va ta’lim konsepsiyalarida “mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarni amalda qo‘llay oladigan, innovatsion tafakkurga ega shaxsni tarbiyalash” ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu jihatdan, Blum taksonomiyasi asosida o‘qitish metodikasini tashkil etish nafaqat o‘quvchilarni bilish faoliyatini faollashtiradi, balki ularning tanqidiy, tahliliy va refleksiv fikrlash salohiyatini oshiradi. Mazkur maqolada Blum taksonomiyasining nazariy asoslari va u orqali tanqidiy tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik jarayonda bu modeldan samarali foydalanishning metodik imkoniyatlari, o‘qituvchining o‘rni va o‘quvchilarning fikrlash darajasini baholash mezonlari ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tadqiqotning maqsadi – ta’lim jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda Blum taksonomiyasining amaliy ahamiyatini ko‘rsatish, uni zamonaviy didaktik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Mavzuning dolzarbligi shundaki, ko‘plab o‘qituvchilar hali ham ta’lim jarayonida reproduktiv (yodlashga asoslangan) yondashuvdan to‘liq voz kecha olmagan. Natijada o‘quvchilar bilimni chuqur tahlil qila olmaydi, yangi vaziyatlarda uni ijodiy qo‘llashda qiynaladi.

Blum taksonomiyasi esa ta’limni faqat bilim berish emas, balki fikrlashni o‘rgatish jarayoniga aylantirishga xizmat qiladi. Aynan shu jihat tanqidiy tafakkurni shakllantirishda ushbu yondashuvning ahamiyatini oshiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Blum taksonomiyasi nafaqat o‘quv maqsadlarini belgilashda, balki tanqidiy tafakkurni shakllantirish strategiyasini ishlab chiqishda ham muhim vosita hisoblanadi. Har bir bosqich o‘quvchini yuqoriroq tafakkur darajasiga olib chiqadi:

1. **“Bilish”** bosqichi — faktlarni o‘zlashtirish;
2. **“Tushunish”** — ma’lumotni izohlash va talqin qilish;
3. **“Qo‘llash”** — bilimni amaliy vaziyatda tatbiq etish;
4. **“Tahlil”** — sabab-oqibatni aniqlash, muammolarni bo‘lish;
5. **“Sintez (yaratish)”** — yangi g‘oyalar va yechimlar taklif qilish;
6. **“Baholash”** — dalillar asosida qaror qabul qilish.

Shu tariqa, tahlil qilingan adabiyotlar asosida aytish mumkinki, Blum taksonomiyasi tanqidiy tafakkur rivojlanishining nazariy-metodik poydevorini tashkil etadi. U o‘quvchi tafakkurini chuqurlashtirish, bilimni ongli tahlil asosida o‘zlashtirish va yangicha fikrlashga undash imkonini beradi. Bundan foydalangan holda biz ilmiy tadqiqotimizda kichkina tajriba o‘tkazishga muvaffaq bo‘ldik. Ya’ni Blum taksonomiyasini qo‘llab o‘quv mashg‘ulotini olib borgan talabalar bilan olib borilmagan guruh o‘rtasida farqlar mavjud ekanligiga guvoh bo‘lasiz. Quyida ushbu tadqiqotning natijalarini jadvalda ko‘rish mumkin. (1-jadvalga qarang)

1-jadval.

Blum taksonomiyasini qo‘llanilgan o‘quv mashg‘ulotida olib borilgan tajriba ishlari

№	Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (25 ta)	Eksperimental guruhi (25)	Farq (%)
1	Bilimni eslab qolish darajasi	68%	84%	+16
2	Tushunish va izohlash qobiliyati	64%	86%	+22
3	Qo‘llash (amaliy vaziyatlarda bilimni ishlatish)	59%	83%	+24
4	Tahlil qilish va solishtirish ko‘nikmasi	55%	81%	+26
5	Yaratish (ijodiy fikrlash) darajasi	48%	78%	+30
	O‘rtacha natija	58,8 %	82,4 %	+23,6

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, B. Blum taksonomiyasi asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalar bilim, tahlil va ijodiy fikrlash darajasining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, tahlil qilish va yaratish bosqichlarida sezilarli o‘sish kuzatilgan (+26 % va +30 %). Bu natijalar tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarining shakllanishida Blum taksonomiyasi samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda B. Blum taksonomiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim metodikasining samaradorligi amaliy tajriba orqali tekshirildi. Tadqiqotda jami 50 nafar respondent-25 nafardan iborat **nazorat va eksperimental guruhlar** ishtirok etdi. Nazorat guruhida an’anaviy o‘qitish uslublari qo‘llanilgan bo‘lsa, eksperimental guruhda o‘quv jarayoni B. Blum taksonomiyasining bosqichlari-bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez (yaratish)

va baholash asosida tashkil etildi. O'tkazilgan tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Jadval tahlilidan ko'rinish turibdiki, eksperimental guruh natijalari barcha ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lgan. Xususan, bilimni eslab qolish darajasi 16 foizga, tushunish va izohlash qobiliyati 22 foizga, amaliy qo'llash ko'nikmalari esa 24 foizga oshgan. Eng katta o'sish tahlil qilish (26%) va yaratish (30%) bosqichlarida qayd etilgan. Bu esa shuni ko'rsatadiki, Blum taksonomiyasi asosida tashkil etilgan o'quv faoliyati nafaqat bilimni o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki talabalar tafakkurining yuqori bosqichlarini- tahliliy, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, talabalar mustaqil xulosa chiqarish, muammolarga tanqidiy yondashish va ijodiy yechim topish qobiliyatlarida ham sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Natijada, o'tkazilgan eksperiment tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda B. Blum taksonomiyasi samarali metodik asos ekanligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida talabalarning faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va o'z fikrini asoslab berish malakasini kuchaytirishga yordam beradi.

Xulosa. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Blum taksonomiyasining bosqichlari tanqidiy tafakkurning asosiy komponentlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil etiladi. Ya'ni, “tahlil” bosqichi-tanqidiy savollar qo'yish va sabab-oqibat aloqalarini aniqlash; “sintez” bosqichi-yangi g'oyalarni yaratish; “baholash” bosqichi esa-asosli xulosa chiqarish va qaror qabul qilish jarayonlarini qamrab oladi. Shu tarzda taksonomiya nafaqat o'quv maqsadlarini rejalashtirish, balki tanqidiy tafakkurni shakllantirishning samarali pedagogik modeli sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, B. Blum taksonomiyasi zamonaviy ta'limda shaxs tafakkurini chuqurlashtirish, bilimni amaliyot bilan bog'lash va o'quvchini faol, tahlilchi hamda tanqidiy fikrlash subyekt sifatida shakllantirishning ilmiy-metodik asosi hisoblanadi.

Shu bois, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishni maqsad qilgan har bir pedagog o'z faoliyatida Blum taksonomiyasidan samarali foydalanishi zarur. Bugungi globallashuv davrida insondan faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish emas, balki ularni tahlil qilish, yangi g'oyalar yaratish va mustaqil fikr yuritish talab etiladi. Shu boisdan ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri-talabalarda *tanqidiy tafakkur* ko'nikmalarini shakllantirishdir. Mazkur maqolada B. Blum taksonomiyasi nazariyasining aynan shu jarayondagi o'rni va amaliy ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari, o'tkazilgan eksperiment va ilmiy tahlillar Blum taksonomiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining samaradorligini yaqqol namoyon etdi.

B. Blum taksonomiyasi — bu o'qitish jarayonida bilim olishni bosqichma-bosqich tashkil etuvchi tizim bo'lib, u o'quvchini oddiy yod olishdan tortib, murakkab tahlil va ijodiy faoliyatga olib chiqadi. Aynan shu tizim asosida tashkil etilgan darslar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki u o'quvchini o'ylash, tahlil qilish, taqqoslash, asoslash va baholash faoliyatlariga jalb etadi. Tadqiqot davomida o'tkazilgan tajriba jarayonida 50 nafar respondent ikki guruhga — nazorat va eksperimental guruhlariga bo'lindi. Eksperimental guruhda darslar Blum taksonomiyasi bosqichlari asosida olib borildi. Natijada, eksperimental guruh ishtirokchilari nazorat guruhiga nisbatan 23,6 foiz yuqori natijalarni ko'rsatdilar. Ayniqsa, tahlil qilish (+26%) va yaratish (ijodiy fikrlash) (+30%) bosqichlarida sezilarli o'sish kuzatildi. Bu natijalar Blum taksonomiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita ekanligini amalda isbotladi. Tanqidiy tafakkur o'z mohiyatiga ko'ra insonning bilim, tajriba va fikrni qayta ko'rib chiqish, ularni tahlil qilish, mantiqan asoslash va baholash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shuning uchun B. Blum taksonomiyasi o'qituvchi va talabani aynan shu jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. O'qituvchi endi faqat ma'lumot beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, muammoli vaziyatlar yaratuvchi, tahlilni boshqaruvchi shaxsga aylanadi. Talaba esa tayyor bilimni emas, fikrlash jarayonining o'zini o'zlashtiruvchi subyektga aylanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Blum taksonomiyasi asosidagi o'qitish:

- Talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv hamda muammoni hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi;

- Bilimni chuqurroq tahlil qilish, asosli xulosa chiqarish va amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi;
- Ta'lim jarayonini faol, o'quvchiga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi;
- O'qituvchi va talaba o'rtasida interfaol muloqotni mustahkamlaydi.

Bu natijalar O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunida belgilangan asosiy g'oyalar — shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlaydigan, yangilikka intiluvchan avlodni tarbiyalash maqsadlariga to'liq mos keladi. Shu ma'noda, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda Blum taksonomiyasidan foydalanish-milliy ta'lim tizimida sifatli o'zgarishlar qilishning samarali metodik yo'nalishi hisoblanadi.

Shuningdek, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi faoliyatida Blum taksonomiyasining har bir bosqichini to'g'ri rejalashtirish, o'quv topshiriqlarini puxta tuzish va baholash mezonlarini aniq belgilash tanqidiy tafakkurning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim jarayonida bloomsimon yondashuvni keng qo'llashni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, B. Blum taksonomiyasi tanqidiy tafakkurni shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asosini tashkil etadi. U o'quv jarayonida bilim olishni faollashtiradi, tahliliy fikrlashni kuchaytiradi va

talabalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun mazkur yondashuvni pedagogik amaliyotda keng qo'llash nafaqat o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga, balki butun ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kelgusida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning yangi, innovatsion metodlarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan ta'lim modellarini yaratish hamda Blum taksonomiyasining zamonaviy tahrirlarini mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Bloom, B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain*. New York: David McKay Company.
2. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman.
3. Ennis, R. H. (1991). *Critical Thinking: A Streamlined Conception*. // *Teaching Philosophy*, 14(1), 5–24.
4. Paul, R., & Elder, L. (2006). *The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools*. Foundation for Critical Thinking.
5. Brookfield, S. (2017). *Becoming a Critically Reflective Teacher* (2nd ed.). San Francisco: Jossey-Bass.
6. Wegerif, R. (2011). *Dialogic Education: For the Internet Age*. London: Routledge.
7. Lorencová, H., Jarošová, E., Avgitidou, S., & Dimitriadou, C. (2019). *Critical Thinking Practices in Teacher Education Programs: A Comparative Perspective*. *Thinking Skills and Creativity*, 31, 391–404.
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. Piaget, J. (1972). *The Psychology of the Child*. New York: Basic Books.
10. Xodjiyeva, F. O. (2017). O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish va uning muhim jihatlari. // *Zamonaviy ta'lim ilmiy-amaliy jurnali*, №5, 45–49.
11. G'oziyev, E. (2019). *Psixologiya: tafakkur va shaxs rivoji*. Toshkent: Fan nashriyoti.

Utamuradova Gulchexra Norboyevna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

OILADA BOLALAR XARAKTERIDA MA'NAVİY-AXLOQIY XISLATLARINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola oilada bolalar xarakterida ma'naviy-axloqiy xislatlarining shakllanishiga bag'ishlangan. Jamiyat va davlatning ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalarini aniqlaydilar, shaxsning ma'naviy va axloqiy asoslarini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslaydilar va yosh avlodning ma'naviy va axloqiy tarbiyasi bo'yicha tadqiqotlarni tahlil qilgan. Oilada bolalarga yo'naltirilgan yondashuv bilan uyg'un ma'naviy va axloqiy tarbiyalash mumkin. Maqolada oilada bolalar xarakterining ma'naviy-axloqiy xislatlari va shaxs ma'naviy shakllanishiga to'sqinlik qiladigan bir qator muammolar aniqlangan.

Kalit so'zlar: xarakter, oila, ma'naviyat, axloq, shaxs, ma'naviy, axloqiy, ta'lim, ma'naviy axloqiy tarbiya, axloqiy sifatlar, shaxsning ichki dunyosi, dunyoqarash, xulq-atvor, psixologik xizmat.

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ ХАРАКТЕРА ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

Аннотация. Статья посвящена формированию духовно-нравственных качеств характера детей в семье. Авторы выделяют приоритетные задачи общества и государства в сфере образования, обосновывают их значение в формировании духовно-нравственных основ личности, анализируют исследования, посвящённые духовно-нравственному воспитанию подрастающего поколения. Гармоничное духовно-нравственное воспитание возможно в семье с детско-ориентированным подходом. В статье обозначен ряд проблем, препятствующих формированию духовно-нравственных качеств характера детей и духовному становлению личности в семье.

Ключевые слова: характер, семья, духовность, нравственность, личность, духовный, нравственный, воспитание, духовно-нравственное воспитание, нравственные качества, внутренний мир личности, мировоззрение, поведение, психологическая служба.

THE FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES OF CHILDREN'S CHARACTER IN THE FAMILY

Abstract. This article examines the development of children's spiritual and moral character traits within the family. The authors identify the priority objectives of society and the state in the field of education, substantiate their importance in shaping the spiritual and moral foundations of the individual, and analyze research on the spiritual and moral education of the younger generation. Harmonious spiritual and moral education is possible in a family with a child-centered approach. The article identifies a number of challenges that hinder the development of children's spiritual and moral character traits and the spiritual development of individuals within the family.

Keywords: character, family, spirituality, morality, personality, spiritual, moral, education, spiritual and moral education, moral qualities, inner world, worldview, behavior, psychological services.

Kirish. Xarakter borasidagi ta'limotlar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xususan, Arastu va Aflotun kishi xarakterini basharasiga qarab aniqlashni taklif qilgan edilar. Ularning xarakterologiyasi asosi qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik g'aroyib faraz yotardi. Axloqiy sifatlar – bu shaxsning ichki dunyosi va dunyoqarashini, xulq-atvor me'yorlari haqidagi mulohazalarini aks ettiruvchi, ma'lum darajada uning ma'naviy rivojlanish darajasini baholashga yordam beradigan xarakter xususiyatlari majmuidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish bo'yicha belgilangan 100 maqsadning 70 – *Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish deb nomlangan bo'limida* "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash" belgilab qo'yilgan [1].

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, taraqqiy etish yo'lida jadallik bilan davom etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan barcha qonun va qarorlar, farmon va

farmoyishlar, avvalambor, mana shu yurt, xalq hamda kelajak egalari bo'lgan yoshlarning farovon hayot kechirishlari uchunligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning taraqqiy etishi, xalqimizning farovon hayot kechirishida yoshlarning bilimi, dunyoqarashi va tarbiyasi alohida o'rin tutadi.

Kishi qancha yoshga kirmasin, to hayotdan ko'z yumguncha tarbiyaga, odobga, axloqqa muhtojdir. Bilimli, ilmiy odam bo'lishi mumkin, ammo odamning odob-axloqi talab darajasida bo'lmasligi mumkin. Shaxs xarakterining ma'naviy-axloqiy jihatini odob-axloq tashkil etadi.

Xarakter ijtimoiy muxit ta'sirida tarkib topib, shaxsning atrofida voqelik va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatda ifodalanadigan, uning muayan sharoitlardagi xatti xarakatlarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yigindisi xisoblanadi.

Shaxs xarakterining axloqiy-ma'naviy xususiyatlari orqali uning dunyoqarashi hamda ijtimoiy muxitda milliy o'zligiyai anglashiga baho beriladi. Bu esa o'z navbatida psixologik portretning eng murakkab jabhalaridan xisoblanadi. Bugungi kunda oilada bolalar xarakterining ma'naviy-axloqiy xislatlarining shakllantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganligi. Xarakter va uning ma'naviy-axloqiy xislatlari shakllanishi xususiyatlari, ilmiy-nazariy, amaliy asoslarini xorij va hamdo'stlik mamlakatlari psixologlari tadqiq etgan. Sharq allomalari Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalarning asarlarida ham xarakterning ma'naviy-axloqiy xislatlari va ularni shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

Shaxsning shakllanishi va xarakter xususiyatlari muammosi – sobiq ittifoq psixologiyasi fanining eng muhim muammolaridan biri sanalgan. Shaxsning individual xususiyatlaridan xarakter va qobiliyatlarning o'zaro aloqasi muammosini yechishga nazariy yondashish birinchi marta rus olimi B.G.Ananey tomonidan "Xarakter va qobiliyat rivojlanishidagi o'zaro aloqalar haqida" nomli asarida amalga oshirildi. Uning nazariy fikrlari o'z vaqtida V.N.Myasishev ishlarida o'z rivojlanishini topdi. I.S.Straxov esa xarakterni irodaviy sifatlar orqali aniqlash nazariyasiga o'z munosabatini shunday tasvirlaydi:

"Bunday izohlashning ilmiy zarurligini baholash orqali shuni ta'kidlash joizki, ya'ni irodaning turgan o'rni xarakterning zaruriy qismidir" – deb ko'rsatadi. Rus olimi A.G. Kovalevning fikricha, iroda – ongning amaliy tomoni hisoblanadi va ongli ravishda tatbiq qilishda namoyon bo'ladi. A.N.Leontev xarakterni insonning individual xususiyatlari deb tushuntirdi. Psixolog olimlardan R.Menton, K.Xorni, E.Fromm, Krechmer, Sheldon, Kettell, Feofrast kabilar xarakter xususiyatlarini har tomonlama o'rganishgan. Hamdo'stlik mamlakatlari psixolog olimlaridan A.A.Bodalev, V.N.Myasihev, V.V. Davidov, A.G. Kovalev kabilar.

Shuningdek, o'zbekistonlik olimlar ta'limotida xarakter va uning xususiyatlari muammosi o'rganilishi tahlili aynan xarakter muammosi bilan professorlar E.G.G'oziyev, M.G.Davletshin, V.A.Tokareva, M.M.Mamatov kabilar shug'ullanganlar. Xarakter muammo bo'yicha V.A.Tokareva, M.M.Mamatovlar qiyosiy tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Oilada bolalar xarakterining ma'naviy-axloqiy xislatlarining shakllanishi jarayonini o'rganish. Xarakterning ma'naviy-axloqiy xislatlari va shaxs ma'naviy shakllanishi diagnostikasini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish.

Oila tarbiyasidagi bolalar xayotini tugri uyushtirish, ularni vaktidan tugri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim.

Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus Abu Ali Ibn Sino Tadbir al-manozil nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchiga va oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalariga keng o'rin berilgan. Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylikka namuna bo'lmog'i kerak. Oilada farzand tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirish, deb hisoblagan.

Shunday qilib, oila ta'lim maktabi, bilim, ko'nikma, hayot tajribasi va dunyoviy donolikni bir avloddan ikkinchi avlodga o'tkazuvchi maktabdir M. M. Kovalevskiy o'z essasida shunday ta'kidlaydi: "Oila bolalar uchun eng yaxshi maktabdir: faqat u yosh avlodga shaxsiy namuna bilan ta'sir o'tkazish va shu bilan ularda ham aql-zakovat, ham axloqiy tuyg'ularni rivojlantirishning o'rnini bosuvchi qobiliyatga ega..." [2]

Oila bolalarda axloqiy tarbiya va axloq asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, S. L.Soloveyichikning so'zlariga ko'ra, "ta'lim-bu axloqiy hayotga o'rgatish, ya'ni axloqiy vositalarga o'rgatishdir. Bolalarni tarbiyalashda biz ularga o'z maqsadlariga faqat axloqiy vositalardan foydalangan

holda erishishni o'rgatamiz. "Kimning hisobidan?" degan savol bilan belgilangan axloq inson uchun mumkin bo'lgan harakatlar va ishlarning pastki chegarasini bildiradi; axloq talablaridan o'tib bo'lmaydi." [3]

Axloq - bu vijdon ruxsat bergan narsaning chegarasi. Ammo yuqori chegara yo'q; yuqoriga ma'naviyat, u cheksizdir. Inson boshqa odam uchun qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lganlardan tashqari har qanday tanlovga ega. Agar axloqiy tarbiya bo'lsa, bola atrofda muhitdan madaniy xulq-atvor qoidalarini o'zlashtiradi, ota-onasining o'rniga ergashadi. Agar axloq bo'lsa, deyarli, albatta, ma'naviyat bo'ladi; agar axloq bo'lmasa, hech narsa bo'lmaydi, ta'lim bo'lmaydi" Shunday qilib, bola hayotidagi birinchi va asosiy ijtimoiy guruh sifatida oila shaxsning axloqiy qadriyatlarini, ko'rsatmalari va e'tiqodlari uchun asos yaratadi.

V.A. Suxomlinskiyning fikricha, "ta'lim - bu bolani bilim, ko'nikma va tajriba bilan asta-sekin boyitishdir; bu ongni rivojlantirish va yaxshilik va yomonlikka munosabatni shakllantirish, jamiyatda qabul qilingan axloqiy asoslarga zid bo'lgan barcha narsalarga qarshi kurashga tayyorgarlikdir"

Shunday qilib, V.A.Suxomlinskiyning fikriga ko'ra, axloqiy tarbiyaning mohiyati shundaki, o'rganilgan axloqiy qadriyatlar har bir o'quvchining shaxsiyatining bir qismiga aylanishi va xulq-atvor me'yorlariga aylanishi kerak. O'qituvchi shuningdek, mafkura, gumanizm, fuqarolik mas'uliyati, mehnatsevarlik, olijanoblik va o'zini o'zi boshqarish kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi [4].

Oilada bolalar xarakterining ma'naviy-axloqiy xislatlarining shakllanishi diagnostikasini tadqiq etishda qo'llanilgan psixologik metodikalar, tahliliy ma'lumotlar, psixologik treninglarni qo'llash yuzasidan ishlab chiqiladigan ma'lumotlar, amalga oshiriladigan tadqiqot natijalari ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi, psixologik xizmat, amaliy psixologiya, differensial psixologiya kabi psixologiya sohalarini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi

Olingan natijalar va ularning tahlili. O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqloq rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq an'analari yotadi. O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlaridan unumli foydalanish har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Abdulla Avloniy aytganidek: «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot; yo najot, yo xalokat; yo saodat - yo falokat masalasidir».

Kishining butun hayoti davomida uning xarakteri tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar ota-onasiga, yaqin kishilariga va kattalarga o'xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish-turishlari, dasturxon atrofida o'zini tutishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklar va jonivorlarga munosabatlarini kuzatadilar.

Ota-onalar va o'qituvchilar, umuman katta yoshdagilar hammasi o'zlariga ham e'tibor bilan qarashlari, o'zlarida ijobiy xarakter xislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim. Bola o'z yaqinlari, ular uchun muhim bo'lgan odamlar, ular singdirgan tamoyillarga amal qilishlarini ko'rishi kerak. Shundagina ular bu qadriyatlarni tabiiy deb qabul qiladilar va o'z hayotlarida ularga amal qiladilar. Oila hissiy aql va hamdardlikni rivojlantiradigan sevgi va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratadi, bu esa uni kelajak avlodlar uchun ma'naviy va axloqiy qadriyatlarining muhim manbaiga aylantiradi.

Bolalarda ijobiy, irodaviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalab yetkazmoq uchun ota-onalar va tarbiyachilarning o'zlari bunday sifatlarga ega bo'lishlari lozim. Xarakterning o'sishida tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashning roli katta. O'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi.

Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta ma'suliyatli vazifa ota-onalar, o'qituvchilar va bolalar bog'chasi tarbiyachilari zimmasiga tushadi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog bolaning temperamenti ijobiy va salbiy tomonlarini yaxshi bilishi lozim. Agar o'quv - tarbiyaviy ishlarda shaxsning ijobiy sifatlarini shakllantirishga, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan kuch-quvvatni safarbar etish zarurati bo'lsa, unda rag'batlantirish usulini qo'llash kerak bo'ladi. Agar vazifa mavjud kamchiliklarni tuzatish bilan bog'liq bo'lsa, ayniqsa bola o'z xulq-atvorini tuzatishga intilmasa yoki anglamasa, umuman bunga qarshilik ko'rsatsa, jazolash usullarni bunday holda qo'llanilishi o'rinli bo'ladi.

Ammo bolada o'ziga bo'lgan ishonchsizlik tuyg'usi bo'lsa, o'z-o'zini past baholashda hamda muvaffaqiyatga ishonchsizlikda rag'batlantirish ustunlik qilishi kerak. O'z-o'zini baholash holati yuqori bo'lganda, juda o'ziga ishongan taqdirda aksincha, jazolash usuli qo'llaniladi.

Ular o'rtasidagi moslik darajasi yosh bilan, bolani mustaqillikka intilishidagi e'tirozga bog'liq xolda o'zgarishi mumkin. Kanchalik e'tirozlar ko'p bo'lsa, bolaning o'z xohish irodasi va istagida yo'l qo'yilgan kamchiliklariga shunchalik qat'iy jazo qo'llanilishi lozim.

Vaholanki, bolalardagi mustaqillikka intilishdagi e'tirozlar o'smirlik davrida keskin namoyon bo'la boshlar ekan, bu yoshda ularga bo'lgan munosabat qattiqqo'llik bilan ifodalanishi kuzatiladi.

Bolalarni tarbiyalash jarayonida rag‘batlantirish va jazolash usullarining xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi baholash pedagogik stimul bo‘lib xizmat qiladi: yaxshi baho rag‘batlantirishni bildiradi, yomon baho esa jazolashni o‘taydi. Shuni inobatga olish kerakki, baholashning yuqori va past ko‘rsatkichlari har doim ham o‘rta ko‘rsatkichlar singari stimullashtiruvchi kuchga ega bo‘lavermaydi.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakterining tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta‘sir ko‘rsatadi. Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar ota-onasiga, yaqin kishilarga va kattalarga o‘xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish-turishlari, dasturxon atrofida o‘zini tutishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklarga va jonivorlarga munosabatlarini ko‘rsatadilar. Ota-onalar va o‘qituvchilar, umuman katta yoshdagilar hammasi o‘zlariga ham e‘tibor bilan qarashlari, ijobiy xarakter xislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim.

Xarakterning ma‘naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o‘stirishdan, uning salbiy tomonlarini yo‘qotishdan va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy hislatlari bilan almashtirish orqali amalga oshirish mumkin.

Xarakterning salbiy tomonlarini susaytirish, ijobiy tomonlarini tarbiyalab yetkazmoq uchun tarbiyalanuvchining o‘z temperamentini o‘zi idora qilishiga o‘rgatish zarur. Xarakterning ma‘naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda kishining o‘z temperamenti idora qila bilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘quvchilarga quyidagi mashqlarni berishni maqsadga muvofiq deb bildik. Mashq «Ta‘qiqlangan meva».

Maqsad: Oilada, o‘zbek madaniy turmushida ta‘qiqlangan xulq-atvor holatlari motivlarini aniqlash.

Materiallar: Quti, «mumkin emas» deb yozilgan ikkita tablichka.

O‘yinning borishi: O‘yin 25 minutgacha davom etadi.

1. Boshlovchi qutini xona o‘rtasiga qo‘yadi va uning ikki tomoniga «mumkin emas» degan yozuvlarni qo‘yadi, ushbu yozuv hamma qatnashchilarga ko‘rinib turishi kerak.

Quticha kun boshlanishidanoq xona o‘rtasiga qo‘yilgani ma‘qul, natijada ishtirokchilarning qiziqishi ortadi, o‘yinning asosiy qismiga o‘tish osonlashadi. Boshlovchi o‘yin boshlanishida ishtirokchilarning qiziqishlarini oshirishi mumkin («ha, endi, bir qiziq narsa yashirilgan-da», «Keyin ko‘rapsizlar», «Bir narsa bor-da» kabi so‘zlar bilan), lekin qutiga qaramaslik haqidagi ta‘qiq o‘z kuchida turishi kerak. Ko‘p hollarda ba‘zi bolalar o‘zlarini tiya olmay quti ichiga qarashga urinishadi va ta‘qiqni buzishadi. So‘ngra boshlovchi ushbu mashq bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy qismga o‘tadi va guruhga quyidagicha yo‘riqnoma beradi:

«Xona o‘rtasida kun boshidanoq chiroyli quti turibdi, uning xususiyati shundaki uning ichiga qarash mumkin emas. Bu qutiga nisbatan Sizda biron qiziqish uyg‘ongan bo‘lsa kerak. Kelinglar kimning ichida nima kechayotganligini tahlil qilib ko‘raylik. O‘z kechinmalaringiz haqida aytib beringlar».

Tahlil.

1. Boshlovchi ishtirokchilardan ular nega o‘zini shu xilda tutganligini so‘raydi, ularning harakatlaridagi asosiy sababni aniqlashga harakat qiladi. Ta‘qiq haqidagi qoidani buzish qanchalik qiyin bo‘lganligi haqida so‘raydi, o‘zini tiyib turish oson yoki qiyin kechganligi haqida bilishga urinadi.

2. O‘yin yakuni sifatida odamlar nega taqiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishlari, oilaviy hayotga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishlarining sabablari aniqlanadi. Ushbu yakuniy xulosalar kichik guruhlarda ham ishlab chiqilishi mumkin.

Mashq “Shior” mashg‘uloti

Maqsad: Mashg‘ulot orqali har bir guruh a‘zolarida trening mashg‘ulotlaridan keyin shiorlari ostida qatnashish holati shakllanadi. Shuningdek, ular har bir mashg‘ulotning oxirida shu shiorlarini rivojlanlantirib boradilar, ya‘ni har biriga aniq va ravshan hayotiy yo‘llanma berib boradilar.

Yo‘riqnoma: Qadimda shunday odat bo‘lgan edi, qaerni darvozasiga botirlarning avlodlari timsoli yoki shiori, ya‘ni qaerni egasining rahbarlik g‘oyalari yoki maqsadlari tasvirlanadi.

Biz timsol chizmaymiz, lekin shior ustida o‘ylab ko‘ramiz. Har bir guruh a‘zosi hayotiy muammoni butun dunyo va o‘ziga munosabatini bildiruvchi, o‘z shiorini qolipga solishi kerak.

Shiorni qolipga solishga 5-7 daqiqa vaqt beriladi. So‘ngra qatnashuvchi-lar navbati bilan o‘z shiorlarini o‘qiy boshlaydilar va lozim bo‘lsa tushuntirib beradilar. (Mashg‘ulot 30 daqiqa davom etadi). Biz nuqsonlarni iloji boricha tezroq yo‘qotishga harakat qilamiz. Shaxs xarakterining ma‘naviy-axloqiy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olib borgan psixodiagnostik tadqiqotlarimiz va psixokorreksion ishlarimiz natijalarini qiyosiy tahlil qilish natijasida shaxs ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar, psixologik trening mashg‘ulotlari o‘zining samarasini beradi. O‘zgarishlar ayniqsa, psixologiya ta‘lim yo‘nalishi talabalarida, “Adolatlilik”, “Rostgo‘ylik”, “Xushmuomalalik”, “Halollik”, “Rostgo‘ylik” shkalalari bo‘yicha ijobiy o‘sish kuzatildi. Shuning uchun ma‘naviy va axloqiy tarbiya tizimli jarayon bo‘lib, asta-sekin va maqsadli ravishda rivojlanib borishi, oila kelajak avlodlarga ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarini yetkazishda muhim rol o‘ynaydi, bolalar sevgi, hurmat, mas‘uliyat va adolat kabi asosiy

axloqiy tamoyillar va qadriyatlarni o'rganadigan birinchi va asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Ota-onalar farzandlari uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi: ularning xatti-harakatlari va boshqalarga bo'lgan munosabati bolaning axloqiy e'tiqodlarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Maxsus tashkil etiladigan psixologik rivojlantiruvchi mashg'ulotlar shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish maqsadlarida ham qo'llash mumkin degan xulosaga keldik. Shaxs xarakterining ma'naviy-axloqiy xislatlarining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, bir tomondan ta'lim tarbiya muhitiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, shaxsning individual xususiyatlariga va shaxslararo munosabatlariga bog'liqdir.

-Shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishiga talabalik yillarida alohida e'tibor qaratish.

-Pedagoglar, tyutorlar uchun talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash.

-Shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllantirishda individual va guruhviy psixologik treninglarni qo'llashni takomillashtirib borish va amaliyotga joriy etish.

Oilaviy rishtalar oila va jamiyatga tegishlilik tuyg'usini mustahkamlashga yordam beradi, bu esa asosiy shaxsiy ehtiyojni qondiradi. Kattalarga hurmat oilada ma'naviy va axloqiy tarbiyaning muhim elementi bo'lib, ota-onalar, bobo-buvilar va boshqa keksa oila a'zolariga hurmat orqali ifodalanadi. Bu munosabat an'analar va tajribalarni o'tkazishga va ijtimoiy madaniy meros manbai sifatida avlodlararo uzluksizlikni saqlashga yordam beradi. Bolalarni oila tarixi va an'analari bilan tanishtirish yosh avlodga milliy qadriyatlarning vorislari sifatidagi rolini tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. Ковалевский М.М. Очерк происхождения и развития семьи и собственности. - СПб., 1895. - 95 с.
4. Соловейчик С.: Педагогика для всех. - М.: АСТ, 2018. - 384 с.
5. Сухомлинский В.А. «Избранные педагогические сочинения. Педагогика». Т. 2. - М.: Педагогика, 1980. - 384 с.

Xamdamova Mohlaroyim Nurxo'ja qizi,
O'zbekiston Milliy universiteti Psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti

O'SMIRLARDA QAYG'UNI YENGISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. O'smirlik inson hayotidagi o'tish davri bo'lib, jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishning murakkab bosqichidir. Bu davrda shaxsda o'zlikni anglash, mustaqillikka intilish, ijtimoiy maqomni shakllantirish kabi muhim jarayonlar kechadi. Shu bilan birga, ushbu davr turli psixologik inqirozlar, emotsional silkinishlar, o'ziga nisbatan ishonchsizlik va qayg'u holatlarining kuchayishi bilan ham ajralib turadi. Qayg'u inson psixikasi uchun tabiiy va muqarrar kechinma bo'lsa-da, uni qanday qabul qilish va yengish har bir yosh bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, o'smirlar uchun qayg'uni yengish mexanizmlari nafaqat psixologik, balki ijtimoiy moslashuv va shaxsiy yetilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqolada o'smirlik davrida qayg'uni yengishning psixologik xususiyatlari, omillari va amaliy yondashuvlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: stress holatlar, ichki ziddiyatlar, depressiya, xavotir, suitsid, alternativ fikrlar, terapevtik yondashuvlar, moslashuv darajasi, empatiya, shaxslararo munosabatlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ ПЕЧАЛИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. Подростковый возраст является переходным этапом в жизни человека, характеризующимся сложным процессом физического, эмоционального и социального развития. В этот период происходят важные процессы, такие как осознание собственной идентичности, стремление к независимости и формирование социального статуса. Вместе с тем, подростковый возраст сопровождается различными психологическими кризисами, эмоциональными потрясениями, неуверенностью в себе и усилением чувства печали. Хотя печаль является естественным и неизбежным эмоциональным переживанием для психики человека, способы её восприятия и преодоления зависят от возрастных особенностей личности. Особенно важно, что у подростков механизмы преодоления печали играют ключевую роль не только в психологической устойчивости, но и в процессе социальной адаптации и личностного становления. В данной статье рассматриваются психологические особенности, факторы и практические подходы к преодолению печали в подростковом возрасте.

Ключевые слова: стрессовые состояния, внутренние конфликты, депрессия, тревожность, суицид, альтернативное мышление, терапевтические подходы, уровень адаптации, эмпатия, межличностные отношения.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF OVERCOMING GRIEF IN ADOLESCENTS

Abstract. Adolescence is a transitional stage in human life characterized by complex physical, emotional, and social development. During this period, individuals undergo key processes such as self-identification, striving for independence, and the formation of social status. At the same time, adolescence is often marked by various psychological crises, emotional upheavals, low self-esteem, and heightened experiences of sadness. Although sadness is a natural and inevitable emotional response for the human psyche, the way it is perceived and managed varies across different stages of life. For adolescents in particular, the mechanisms for coping with sadness play a crucial role not only in their psychological resilience but also in their social adaptation and personal development. This article explores the psychological characteristics, contributing factors, and practical approaches to coping with sadness during adolescence.

Keywords: stressful conditions, internal conflicts, depression, anxiety, suicide, alternative thinking, therapeutic approaches, level of adaptation, empathy, interpersonal relationships.

Kirish. O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. "Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas" ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi.

O'smirlik — bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi,

hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bu bosqichlar o'smirlik yoshini ikki xil davrga — kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi.

Birinchi bosqichda o'smir o'zini "bola"lardan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansubligini ta'kidlamogchidek bo'ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikallari hisoblanadi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bolishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'proq qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatimiz psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, Sh.R.Baratov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Z.T.Nishonova, R.Z.Jumayev, G.A.Bogdalova, R.Toshimov, M.Mamatov, E.M.Muxtorov, N.G'.Kamilova, N.I.Xalilova, N.T.Norqulova, D.M.Anvarova, B.M.Umarov, G.Z.Tojiboeva, F.F.Rasulova, G.I.Sattorova, G.Q.To'laganova, D.R.Abdumajidova, X.X.Jabborov, O.S.Qodirov va boshqalar ilmiy jihatdan o'smirlik yoshidagi emotsional holatlari, salbiy xususiyatlari, ijtimoiy adaptatsiya jarayonlari hamda o'smirlarning ota-onalari bilan bo'lgan munosabatlarni o'rganish maqsadida izlanishlar olib borishgan.

O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va o'zgaruvchan bosqichlardan biridir. Bu davrda jismoniy, emotsional, ijtimoiy va psixologik jihatdan sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Shuning uchun o'smirlar ko'pincha turli stress holatlari, ichki ziddiyatlar va qayg'uli holatlarga duch kelishadi. Qayg'u esa o'z navbatida emotsional muvozanatni izdan chiqarishi, depressiv holatlarga olib kelishi mumkin.

Psixologik nuqtayi nazardan, qayg'u yaqin insonni yo'qotish, muvaffaqiyatsizlik, rad etilish, nomaqbul ijtimoiy munosabatlar kabi holatlarga javoban yuzaga keluvchi tabiiy emotsional reaksiya hisoblanadi. O'smirlar bu kabi holatlarga kattalarga nisbatan ko'proq sezgir bo'ladilar, chunki ular hanuz to'liq shakllanmagan shaxs sifatida ijtimoiy tajribaning yetishmasligi, emotsional beqarorlik va o'zlikni anglash jarayonining kuchayishi bilan ajralib turadilar. Qayg'u holati o'smirlar orasida keng tarqalgan emotsional reaksiyalardan biri bo'lib, uni noto'g'ri boshqarish depressiya, xavotir, ijtimoiy yakkalanish va hatto o'z joniga qasd qilish kabi xavfli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'smirlik davridagi qayg'u turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Jumladan:

- Ijtimoiy omillar- do'stlar bilan mojarolar, maktabdagi muvaffaqiyatsizliklar, oila muammolari, ota-onaning ajrashuvi.
- Shaxsiy omillar- past o'zini baholash, o'ziga ishonchsizlik, o'zlikni anglash inqirozi.
- Gormonal o'zgarishlar- bu davrda gormonal tizimda yuz beradigan keskin o'zgarishlar emotsional beqarorlikni kuchaytiradi, bu esa qayg'u va tushkunlik holatlariga moyillikni oshiradi.

Kubler-Ross modeliga ko'ra, qayg'u besh bosqichda kechadi: inkor etish, g'azab, kelishuv, tushkunlik va qabul qilish. O'smirlar bu bosqichlarni o'zgacha kechiradilar. Ba'zilarida bu bosqichlar aniq ko'zga tashlansa, boshqalarida ularning kechishi yashirin bo'lishi mumkin. Ayrim o'smirlar qayg'uga ichki o'zgarishlar (tushkunlik, yakkalanish), boshqalari esa tashqi agressiv reaksiya (qarshilik, rad etish, tajovuzkorlik) orqali javob beradilar.

Rivojlanish psixologiyasiga ko'ra, o'smirlik davri "identifikatsiyaga qarshi rol chalkashuvi" bosqichidir. Bu davrda o'smirlar o'z "Men"ini izlaydi, o'zini oilasi, tengdoshlari va jamiyat oldida qanday tutishini aniqlashga urinadi. Ushbu murakkab psixologik fon qayg'uli holatlarga sezgirlikni oshiradi. Ayniqsa, identifikatsiya jarayonida yuzaga kelgan ichki ziddiyatlar yoki ijtimoiy inkor etilish o'smir ruhiyatida qayg'uni chuqurlashtiradi. Bundan tashqari, nevrobiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlikda miya prefrontal korteksi (qaror qabul qilish va emotsiyalarni boshqarish uchun mas'ul) hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Bu esa qayg'uli holatga javoban impulsiv yoki noadekvat xatti-harakatlar bilan ifodalanishi mumkinligini tushuntiradi.

Psixolog Gross tomonidan ilgari surilgan "Emotsional regulatsiya nazariyasi"ga ko'ra, odamlar ikki asosiy strategiyadan foydalanadi:

- Kognitiv qayta baholash (reinterpretation)- voqea yoki holatga ijobiyroq yoki neytral yondashish orqali emotsional ta'sirini kamaytirish.

- Ekspressiv bostirish (suppression)- emotsiyani his qilish bilan birga uni tashqi muhitdan yashirish yoki inkor etish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlar ko'pincha qayta baholash strategiyasidan ko'ra, bostirish strategiyasiga tayanadi. Bu esa ularning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir etadi, chunki emotsiyalarni bostirish ularni butunlay yo'q qilmaydi, aksincha, ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi.

Qayg'uni yengish — o'smirning psixologik moslashuv darajasi, emotsional intellekti, shaxslararo aloqalar sifati va ijtimoiy qo'llab-quvvatlov mavjudligiga bevosita bog'liq. Quyidagi xususiyatlar bu jarayonda muhim rol o'ynaydi:

- O'smirning emotsiyalarini idora qila olish qobiliyati qayg'uni yengishda muhim omildir.


- Ota-ona, do'stlar va ustozlarning hissiy yordami qayg'uni yengillashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

- O'smirning voqeani qanday talqin qilishi (masalan, uni vaqtinchalik deb qabul qilishi) stress darajasiga ta'sir ko'rsatadi.


- Ijoiy o'z-o'zini baholash, hayotiy maqsadlar mavjudligi, muammolarni hal qilish qobiliyati — bular qayg'uni yengishga yordam beruvchi ichki psixologik omillardir.

Zamonaviy amaliy psixologiyada o'smirlarda qayg'uni yengish uchun terapevtik yondashuvlar samarali hisoblanadi. Kognitiv-harakat terapiyasi (CBT) yondashuvi o'smirlarga salbiy fikr doiralarini aniqlash, ularni ijobiyroq alternativ fikrlar bilan almashtirish imkonini beradi. CBT orqali o'smirlar “men hech narsaga yaramayman” kabi avtomatik fikrlarni tan olib, ularni qayta baholashni o'rganadilar. CBT nazariyasiga ko'ra, insonning his-tuyg'ulari va xulq-atvori bevosita uning fikrlash tarziga bog'liq. Qayg'uli holatlarda inson o'z boshidan kechirayotgan voqealarni noto'g'ri talqin qilishi, salbiy avtomatik fikrlar orqali o'zini aybdor yoki ojiz deb his qilishi mumkin. CBT ana shu salbiy fikrlash sxemalarini aniqlab, ularni mantiqiy, real va ijobiy fikrlar bilan almashtirishga qaratilgan. Kognitiv-harakat terapiyasi o'smirlar orasida qayg'uni yengishda samaradorligi ilmiy asoslangan, empirik sinovlardan o'tgan va amaliy jihatdan qulay bo'lgan psixoterapevtik yondashuvdir. CBT o'smirlarga o'z his-tuyg'ularini tushunish, salbiy fikrlar ustidan nazorat o'rnatish va sog'lom xatti-harakatlarni shakllantirish imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Ishimizning eksperiment bosqichida biz Xollning “Emotsionall intellekt” metodikasi tanlab oldik. Sinaluvchilarimizdan olingan natijalarning miqdor va sifat tahlilini SPSS dasturidan foydalanib tahlil qildik. O'smir yoshdagi bolalar tanlab olindi. Tadqiqotimizda jami 73 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Shahar va qishloq bolalarining tavsiflovchi ma'lumoti quyidagi diagrammada ifodalangan. (1-rasm)



Jami ishtirok etgan respondentlarning 35 nafari shahar 38 nafari qishloq o'smir bolalar hisoblanadi. (1-rasm).



Jami ishtirok etgan respondentlarning 33 nafari o'smir qizlar 40 nafari o'smir bolalar hisoblanadi. (2-rasm).

N. Xollning emotsional intellektni o'lchash testi, u beshta shkaladan iborat. Ular: Emotsional bilimdonlik, O'z emotsiyalarini boshqarish, O'z-o'zini dalillovchi, Empatiya, O'zga insonlarning kechinmalarini sezuvchi deb nomlangan shkalalardan iborat.

N. Xollning emotsional intellektni o'lchash testi

Tavsiflovchi statistikasi

Shkalalar	N	Minimal	Maksimal	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Ektsses
Emotsional bilimdonlik	73	1,00	14,00	7,9589	2,93654	,052	,119
O'z emotsiyalarini boshqarish	73	1,00	14,00	7,9726	2,93907	,038	,108
O'z-o'zini dalillovchi	73	2,00	14,00	7,9452	2,93868	,065	,111
Empatiya	73	1,00	13,00	7,9315	2,94547	,076	,086
O'zga insonlarning kechinmalarini sezuvchi	73	1,00	14,00	7,9589	2,93654	,052	,119

N. Xollning Emotsional intellektni o'lchash testi metodikasi Emotsional bilimdonlik shkalasida sinaluvchilarimizning aksariyati o'zlarining Minimal ball 1,00ni, maksimal ball 14,00ni, o'rtacha qiymat 7,9589ni va standart og'ish 2,93654qiymatni berdi. $7,9589 \pm 2,93654$. ($A=,052$; $E=,119$). Asimetriya va ekstsess qiymatlari meyorida ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'z emotsiyalarini boshqarish shkalasida sinaluvchilarimizning aksariyati o'zlarining Minimal ball 1,00ni, maksimal ball 14,00ni, o'rtacha qiymat 7,9726 ni va standart og'ish 2,93907 qiymatni berdi. $7,9726 \pm 2,93907$. ($A=,038$; $E=,108$). Asimetriya va ekstsess qiymatlari me'yorida ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'z-o'zini dalillovchi rag'batlashtirish shkalasida sinaluvchilarimizning aksariyati o'zlarining Minimal ball 2,00ni, maksimal ball 14,00ni, o'rtacha qiymat 7,9452 ni va standart og'ish 2,93868 qiymatni berdi. $7,9452 \pm 2,93868$. ($A=,065$; $E=,111$). Asimetriya va ekstsess qiymatlari me'yorida ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Empatiya shkalasida sinaluvchilarimizning aksariyati o'zlarining Minimal ball 1,00ni, maksimal ball 13,00ni, o'rtacha qiymat 7,9315ni va standart og'ish 2,94547 qiymatni berdi. $7,9315 \pm 2,94547$. ($A=,076$; $E=,086$). Asimetriya va ekstsess qiymatlari me'yorida ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zga insonlarning kechinmalarini sezuvchi shkalasida sinaluvchilarimizning aksariyati o'zlarining Minimal ball 1,00ni, maksimal ball 14,00ni, o'rtacha qiymat 7,9589ni va standart og'ish 2,93654qiymatni berdi. $7,9589 \pm 2,93654$. ($A=,052$; $E=,119$). Asimetriya va ekstsess qiymatlari me'yorida ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. O'smirlik davrida qayg'u shunchaki emotsional holat emas, balki shaxsning rivojlanishida muhim bosqichdir. To'g'ri yondashuv orqali qayg'uni yengish o'smirning ruhiy barkamolligini ta'minlashi, hayotiy muammolarni hal qilishda kuchli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun, o'smirlarga nisbatan empatik, ilmiy asoslangan va tizimli psixologik yondashuvlar zarurdir. Qayg'uni

yengishga oid strategiyalarni o‘rgatish nafaqat o‘smirning hozirgi, balki kelajakdagi ruhiy barqarorligini mustahkamlovchi vositadir.

Adabiyotlar:

1. Erikson, E. H. (1959). Identity and the Life Cycle. New York: International Universities Press.
2. Blakemore, S.-J., & Choudhury, S. (2006). Development of the adolescent brain: Implications for executive function and social cognition. // Journal of Child Psychology and Psychiatry, 47(3-4), 296–312.
3. Gross, J. J. (1998). The emerging field of emotion regulation: An integrative review. // Review of General Psychology, 2(3), 271–299.
4. Garnefski, N., Kraaij, V., & Spinhoven, P. (2002). Manual for the use of the Cognitive Emotion Regulation Questionnaire. Lisse: Swets & Zeitlinger.
5. G‘oziyev E. “Ontogenez psixologiyasi”. Darslik. Toshkent-2020.
6. Muxamedova D., Salomova G. “Psixologik tadqiqotlar ma’lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari”. Darslik. Toshkent-2020.

UO‘K 159.923.2

Xudayberganov Azizbek Obidjonovich,
 Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
 mustaqil tadqiqotchisi
 x.azizbek@urdu.uz

YOSHLARNING IJTIMOY VOQELIKKA MUNOSABATIDA SHAXSIY XUSUSIYATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik ongi va shaxsiy xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik sotsiologik va psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asosida fuqaroviy faollik, ijtimoiy ong, shaxsiyat va qadriyatlar nazariyalari, jumladan, Besh omilli shaxsiyat modeli (FFM) qo‘llanilgan. Tadqiqotda yoshlarning ijtimoiy faolligiga ta’sir etuvchi ichki (shaxsiy xususiyatlar, qadriyatlar) va tashqi (ijtimoiy-madaniy, maktab va mahalla muhitlari) omillar tizimli o‘rganilgan. Empirik tadqiqotda 150 nafar 15–25 yosh oralig‘idagi respondentlar ishtirok etib, G.Yu. Ayzenk temperament testi hamda shaxsiy xususiyatlar va faollik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion tahlil asosida aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ekstraversiya, kelishuvchanlik va vijdonlilik shaxsiy xususiyatlari yuqori bo‘lgan yoshlarda ijtimoiy faollik darajasi ancha yuqori ekanligi aniqlangan ($r=0.72$). Neyrotizm esa ijtimoiy faollikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan. Shuningdek, gender bo‘yicha tahlil ayollarning ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlari erkaklarga nisbatan biroz yuqoriligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ijtimoiy faollik, shaxsiy xususiyatlar, ekstraversiya, gender farqlari, yosh xususiyatlari, fuqarolik jamiyati.

ЗНАЧЕНИЕ ЛИЧНОСТНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЁЖИ К СОЦИАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь социальной активности молодёжи, гражданского сознания и личностных особенностей с социологической и психологической точек зрения. В теоретической основе исследования использованы теории гражданской активности, социального сознания, личности и ценностей, включая модель личности из пяти факторов (FFM). В исследовании системно изучены внутренние (личностные особенности, ценности) и внешние (социально-культурные, школьная и общественная среда) факторы, влияющие на социальную активность молодёжи. В эмпирическом исследовании приняли участие 150 респондентов в возрасте от 15 до 25 лет; связь между личностными особенностями и показателями активности определялась с помощью корреляционного анализа на основе теста темперамента Г.Ю. Айзенка. Согласно результатам исследования, у молодёжи с высокими показателями экстраверсии, доброжелательности и сознательности уровень социальной активности значительно выше ($r=0.72$). Нейротизм отмечен как фактор, отрицательно влияющий на социальную активность. Также анализ по половому признаку показал, что показатели социальной активности женщин несколько выше, чем у мужчин.

Ключевые слова: молодёжь, социальная активность, личностные характеристики, экстраверсия, гендерные различия, возрастные характеристики, гражданское общество

THE IMPORTANCE OF PERSONAL CHARACTERISTICS IN THE ATTITUDE OF YOUTH TO SOCIAL REALITY

This article analyzes the interrelationship between youth social activity, civic consciousness, and personality traits from sociological and psychological perspectives. The theoretical basis of the study includes theories of civic engagement, social consciousness, personality, and values, specifically applying the Five-Factor Model (FFM) of personality. The research systematically examines internal factors (personality traits, values) and external factors (socio-cultural environment, school and community settings) influencing youth social activity. The empirical study involved 150 respondents aged 15 to 25. The relationship between personality traits and activity indicators was identified through correlational analysis based on G.Yu. Eysenck's temperament test. According to the results, youth with higher levels of extraversion, agreeableness, and conscientiousness demonstrate significantly higher social activity levels (r

= 0.72). Neuroticism was identified as a factor negatively affecting social activity. Additionally, gender analysis showed that women's social activity indicators were slightly higher compared to men's.

Keywords: youth, social activity, personal characteristics, extraversion, gender differences, age characteristics, civil society.

Kirish. Yoshlar faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir. Yoshlar faolligi deb, uning hayotini boshqarish bilan, bog'liq bo'lgan va qadriyatlarining namoyon bo'lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyadagi ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko'rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o'rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

Bugun jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar va tub islohotlar jarayoni fuqarolik jamiyati institutlari deya ta'riflanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalaridan ham ijtimoiy faollikni talab etmoqda. Xo'sh, ijtimoiy faollik o'zi nima? Ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi bo'lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat'iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo'shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo'lgan harakatini tushunish mumkin. Mana shu jarayonda u o'zini shaxs va fuqaro sifatida namoyon qiladi. Bugun yurtdoshlarimizning ijtimoiy faollashayotganini ko'rib turibmiz. Ijtimoiy tushkunlik, o'zgarishlarga, islohotlarga loqaydlik davri o'tdi, yurtdoshlarimizda tashabbusni, yangilikka bo'lgan intilishlarni guvohimiz. "Ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy faollikni kuchaytirib yubordi", degan mazmundagi fikrlarni ham mavjud.

Lekin ijtimoiy faollik bilan ijtimoiy tarmoqlardagi faollik o'rtasida katta farq bor. Ijtimoiy tarmoqlardan turib o'zining subyektiv fikrlarini ulashib, kechayotgan voqea-hodisalarga faqat va faqat negativ munosabat bildirib o'tirish, bu hali ijtimoiy faollik degani emas. Har qanday ijtimoiy hodisaga nimadir sabab bo'ladi, nimadir turtki beradi. Ijtimoiy faollik ham o'z-o'zidan sodir bo'ladigan jarayon emas. Ijtimoiy faollik tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uning atrofidagi ijtimoiy dunyo bilan faol muloqot qilishga tayyor bo'lgan, o'z huquq va burchlarini anglagan, mustaqil fikrlaydigan va jamoat ishlarida ishtirok etishga tayyor bo'lgan shaxslarning mavjudligini talab qiladi (Jumayev, 2020, 45-bet).

Fuqaroviylik va fuqaroviy ongni o'rganishdan asosiy maqsad fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqaroviy faollikni o'rganishdan iborat. Zero fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol bo'lgan fuqarolar bilan barpo etiladi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili. Fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va mustahkamlash uchun eng muhim omil - bu fuqarolarning ijtimoiy faolligidir, ya'ni ularning ixtiyoriy ravishda jamoat tashkilotlariga a'zoligi, qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi va o'z ijtimoiy majburiyatlarini anglashi (Xolboyeva, 2021, 78-bet). Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlarini va mavjud muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi. Demak, biz yoshlarimizda fuqaroviy ongni shakllantirishimiz kerak. "Fuqarolik ongi jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlar yo'lida fuqarolar o'rtasida kelishuv bo'lishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro'y beradigan turli ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida fuqarolik ongi o'zgarib boradi va fuqarolik to'g'risidagi g'oyalar taraqqiyotida o'z aksini topadi (Putnam, 2000; Dalton, 2008)". Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlar yo'lida fuqarolar o'rtasida kelishuv bo'lishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro'y beradigan turli ijtimoiymadaniy omillar ta'sirida fuqaroviy ong o'zgarib boradi va fuqaroviylik to'g'risidagi g'oyalar taraqqiyotida o'z aksini topadi. Yoshlarni fuqaroviy ongi qanchalik rivojlangan bo'lsa ular jamiyatdagi ijtimoiy faolligi shunchalik faollashadi.

Mahalliy va maktab hayotida faol bo'lgan yoshlar o'zlarini jamiyatning ajralmas qismi sifatida ko'ra boshlaydilar. Flanagan va Bundick (2011) ta'kidlashicha, bunday faollik yoshlarning psixologik farovonligini oshirib, ularga shaxsiy va ijtimoiy resurslarni taqdim etadi, bu esa norozilik harakatlariga qo'shilish istagini sezilarli darajada kamaytiradi. O'z maktabi, mahallasi va jamiyati hayotiga faol aralashgan yoshlarning noroziligi juda kam namoyon bo'lib, buning o'rniga sezilarli foyda ko'rayotgani haqida dalillar ko'payib bormoqda. O'smirlik davrida tizimli faoliyatga jalb qilishning potensial afzalliklari yaxshi hujjatlashtirilgan

bo'lsa-da, ishtirokning yuqori darajalari bilan qanday individual xususiyatlar bog'liqligi haqida kam ma'lumot mavjud. Maktab va jamoatchilik faoliyatida ishtirok etish ijobiy rivojlanishning ham qisqa, ham uzoq muddatli ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi haqida yaxshi dalillar mavjud (masalan, Barber, Eccles, & Stone, 2001; Youniss, McLellan va Yates, 1997).

Yoshlarning tashkil etilgan tadbirlarda faol ishtirok etishi ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy tadqiqotlar tasdiqlaydi. Fredricks va Eccles (2006) ta'kidlashicha, bunday faollik nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki o'z-o'zini hurmat qilish, qiyinchiliklarni yengish qobiliyati, yetakchilik fazilatlar va jismoniy salomatlik kabi ko'rsatkichlar bilan mustahkam bog'liqlikni namoyon etadi. Bu shuni ko'rsatadiki, yoshlarni turli jamoat tadbirlariga jalb qilish orqali ularning har tomonlama rivojlanishini samarali rag'batlantirish mumkin. Ijtimoiy xulq-atvorning rivojlanishi va o'zaro bog'liqligi (ya'ni boshqalarga foyda keltirish uchun mo'ljallangan xatti-harakatlar) bo'yicha tadqiqotlar so'nggi o'ttiz yil ichida faol tadqiqot sohasi bo'lib kelmoqda (Eisenberg & Fabes, 1998). So'nggi so'rovlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy yo'naltirilganlikka jalb qilinishida keng farqlar mavjud (Hall, McKeown, & Roberts, 2004).

Adabiyotlarga ko'ra, ba'zi odamlar tizimli faoliyat bilan shug'ullanishni tanlashi, boshqalari esa tanlamasligining sabablari turli omillar, jumladan, gender, ijtimoiy sinf va shaxsiyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin (Verba et al., 1995). Bu omillar bir-biri bilan murakkab o'zaro ta'sirda bo'lib, yakuniy qatnashish qarorini shakllantiradi. Ijtimoiy psixologiya va shaxs nazariyotchilari xususiyatlar va motivlarning o'zaro ta'sirini o'rganish orqali ijtimoiy xulq-atvor haqidagi tushunchamizni oshirishni taklif qilishdi. Shunday qilib, shaxs xususiyatlari va qadriyatlar o'smirlarning ijtimoiy yo'nalishi va jamiyat hayotiga jalb etilishining turli jihatlari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Shaxsiy xususiyatlar ijtimoiy xulq-atvorni tushunishda muhim o'lchov hisoblansa-da, ularning ta'siri cheklangan bo'lishi mumkin. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxs xususiyatlari va ijtimoiy xatti-harakatlar o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha nisbatan kamtarona miqyosda bo'ladi (Roberts et al., 2007).

Bu shuni anglatadiki, yoshlarning ijtimoiy voqelikka munosabatini tushunish uchun shaxsiyatni atrof-muhit, madaniy va ijtimoiy omillar bilan birgalikda ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar kelishuvchanlik va ko'ngillilik o'rtasida sezilarli ijobiy munosabatlarni topdilar (masalan, Smith & Nelson, 1975). Biroq shu paytgacha o'smirlar proijtimoiy xulq-atvorining boshqa shakllarida shaxs xususiyatlarining roliga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam o'tkazilgan. Ushbu tadqiqotning maqsadi shaxsning ikki jihati - xususiyatlar va shaxsiy qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishdan iborat. Xususiyatlar - bu "fikrlash, his-tuyg'ular va harakatlarning izchil namunalari ko'rsatish tendensiyalaridagi individual farqlarning o'lchovidir" (McCrae, & Costa, 1990, p. Qadriyatlar - bu odamlar hayotida yo'naltiruvchi tamoyillar bo'lib xizmat qiladigan istalgan, mavhum, transsituativ maqsadlarning kognitiv tasavvurlari (Schwartz, 1992). Tadqiqotning nazariy asosini tushuntirish uchun avvalo "shaxsiyat" tushunchasini aniqlash muhimdir.

Bu sohada yetakchi olimlar shaxsiyatni quyidagicha ta'riflaydilar: "Shaxsiyat - bu individualning o'ziga xos bo'lgan, turli vaziyatlarda va vaqt o'tishi bilan nisbatan barqaror bo'lib qoladigan, xatti-harakatlarning shakllanishi va namoyon bo'lishini belgilovchi psixofiziologik tizimdir" (Larsen & Buss, 2017, 4-b). Shu sababli, yoshlarning ijtimoiy voqelikka munosabatidagi farqlarni tushunishda ularning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish asosiy ahamiyatga egadir. So'nggi o'n yilliklarda besh omilli model (FFM; McCrae va John, 1992) shaxsni o'rganish uchun umume'tirof etilgan asosga aylandi. Shaxs ijtimoiy xulq-atvoriga ikki yo'l bilan ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, shaxs xususiyatlari tanlov bilan bog'liq muayyan vaziyatda ma'lum natijalarni afzal ko'rishni belgilaydi (Kaplan, 2003). Ushbu psixologik nuqtayi nazar shuni ko'rsatadiki, odamlar o'zlarining ijtimoiy xulq-atvorlarini shaxsiy afzalliklari va qadriyatlariga asoslanib, ularga o'z harakatlari uchun individual mas'uliyat yuklaydilar. Ikkinchidan, shaxs xususiyatlari odamlar uchun qaysi vaziyatlar jozibali ekanligini aniqlaydi, chunki odamlar odatda o'z shaxsiyatiga mos keladigan vaziyatlarni tanlaydilar (Buss, 1987).

Masalan, Devis va boshqalar (1999) boshqalarga ko'proq hamdard bo'lgan odamlar ularga g'amxo'rlik qilish kabi tashvishlarni ifoda etish imkonini beradigan ko'ngilli ishlarda qatnashishni tanlaydilar va hamdardlikni bostirishni talab qiladigan ishlardan qochadilar. Shaxsiyat shaxsning xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi isbotlangan (Barrick, & Mount, 1991). Shaxsning individual xususiyatlari va o'ziga xos mezonlari o'rtasidagi bog'liqlik xususiyatlar ekstraversiya, kelishuvchanlik, vijdonlilik, nevrotizm va tajribaga ochiqlikdan iborat bo'lgan shaxsning besh omilli modelida (FFM) tavsiflangan nazariy jihatdan dolzarb o'zgaruvchilar bilan bog'langanda eng katta bo'lgan (Digman, 1990; Judge va Ilies, 2002). Shaxsning o'smirlarning tizimli faoliyatdagi ishtiroki bilan bog'liqligi tabiati haqida ko'p munozaralar mavjud, garchi tadqiqotlarning aksariyati ko'ngillilikka qaratilgan bo'lsa-da. Snayder (1993) global shaxsiyat dispozitsiyalari ba'zi odamlarning nima uchun ko'ngillilik bilan shug'ullanishini va boshqalarning nima uchun faol bo'lmasligini tushuntirishga yordam berishi mumkinligini taklif qiladi. Ba'zi tadqiqotchilar

shaxsning ko'ngillilikka deyarli ta'siri yo'qligini ta'kidlaydilar (Wilson, 2000). Masalan, kattalar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotda Rohs (1986) moslashuvchanlik va qat'iyatlilik xususiyatlarining xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga ko'ngillilik bilan hech qanday aloqasi yo'qligini aniqladi. Boshqa tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, shaxs ko'ngilli bo'lish qaroriga va ko'ngillilikda qat'iyatlilikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi (masalan, Elshaug, & Metzger, 2001; Penner, 2002). Shaxsiyat, shuningdek, kim ko'ngilli xatti-harakatlar bilan shug'ullanishini, ular qanchalik ko'ngilli bo'lishini va qancha vaqt ishtirok etishini tushuntirish uchun ishlatilgan (Devis va boshqalar, 1999; Penner va Finkelshteyn, 1998).

Ko'ngillilar ko'proq aqlli va tasavvurga ega bo'lishadi (Spitz, & MacKinnon, 1993), ko'ngilli bo'lmaganlarga qaraganda past darajadagi tashvish bilan ajralib turishadi va ko'proq ekstravert xususiyatlarga ega (Herzog, & Morgan, 1993). Ko'ngillilar o'zlarini bir xil vazifalar bilan shug'ullanadigan haq to'lanadigan ishchilarga qaraganda yoqimliroq shaxslar deb ta'riflaydilar (Elshaug, & Metzger, 2001). Shu paytgacha o'smirlar proijtimoiy yo'nalganligining boshqa shakllarida shaxs xususiyatlarining roliga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam o'tkazilgan. Ba'zi tadqiqotlar donorlar va ko'ngillilarning odatiy psixologik xususiyatlarini, masalan, empatik tashvish, istiqbolni qabul qilish, ijtimoiy qadriyatlarga yo'nalganlik, kelishuvchanlik, ekstraversiya, hissiy barqarorlik, o'z-o'zini samaradorlik va o'z-o'zini hurmat qilish kabilarni o'rganadi (Cohen, Vigoda, & Samorly, 2001; Smit, 1994).

Oldingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy xulq-atvorning bir nechta misollari, xususan, ko'ngillilik va hamkorlik, kelishuvchanlik bilan bog'liq (Graziano & Tobin, 2009). Shuningdek, shaxsiyatga oid adabiyotlarda ekstraversiya "ijobiy emotsionallik" sifatida tavsiflanib, u g'ayratli, ijtimoiy jihatdan aqlli va samimiy kabi fazilatlar to'plamini o'z ichiga oladi (McCrae & John, 1992). Demak, yuqori darajadagi kelishuvchanlik va ekstraversiya xususiyatlariga ega bo'lgan yoshlarning ijtimoiy voqelik bilan faol o'zaro munosabatda bo'lishlari va ijtimoiy tadbirlarda qatnashish ehtimoli sezilarli darajada yuqori. O'zlarini ko'proq yoqimli deb ta'riflaydigan odamlar, o'zlarini kamroq yoqimli deb ta'riflaydiganlarga qaraganda, ijtimoiy muammolarda hamkorlik qilish ehtimoli ko'proq (Ben-Ner et al., 2004). Shunday qilib, ekstravert odamlarning faolligi va muloqotchanligi ijtimoiy ishtirokga olib keladi, chunki ular qanday jamoaviy harakat bo'lishidan qat'i nazar, "biror narsani qilishni va tashkil etishni yoqtirishadi." Bundan tashqari, oldingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, masalan, ijtimoiy ishtirok nevrotizm bilan salbiy bog'liq (Lin, 2001). Values, as defined by Williams (1979, p. 20), manfaatlar, istaklar, maqsadlar, ehtiyojlar va afzal ko'rish standartlariga ishora qiladi.

Qadriyatlar kognitiv, affektiv va xulq-atvor jihatlariga ega. Binobarin, qadriyatlar xatti-harakatlarni tanlash uchun mezon bo'lib xizmat qiladi va ular hukmlar va afzal ko'rishlar uchun mezon bo'lishi mumkin. Inson qadriyatlari hayotdagi maqsadlar, xulq-atvor tamoyillari va ustuvorliklariga nisbatan individual farqlarni tushuntiruvchi kognitiv tuzilmalar sifatida ta'riflangan (Renner, 2003). Empirik tadqiqotlarda qadriyatlarning 10 ta toifasi aniqlangan: hokimiyat, yutuq, gedonizm, simulyatsiya, o'z-o'zini yo'naltirish, universalizm, xayrixohlik, an'ana, muvofiqlik va xavfsizlik (Schwartz, 1992). Bu turlar xulq-atvor, odamlar yoki hodisalar bilan bog'liq o'ziga xos munosabatlar sifatida qaraladi (Bilsky, & Schwartz, 1994). Shunday qilib, asosiy shaxsiy qadriyatlar odamlar o'z hayotlarida yetakchi tamoyillar sifatida muhim deb hisoblaydigan keng qamrovli maqsadlarni anglatadi (masalan, an'ana, xayrixohlik, gedonizm). O'smirlar ko'ngilliligi bo'yicha tadqiqotlar odatda ko'ngillilar ishtiroki uchun bir nechta sabablarni aniqlaydi (Clary et al., 1998; Eley, & Kirk, 2002) altruistik va shaxsiy manfaatlarni aks ettiradi va o'smirlar ko'ngillilik xizmatini odatda "imkoniyat" sifatida ko'rishadi. Bu imkoniyat, garchi ko'p jihatdan o'z manfaati yo'lida foydalanilsa-da, shaxsning shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettirishi mumkin.

Agar biz "qadriyatlar"ni nisbatan barqaror va doimiy e'tiqodlar va shaxsiy xatti-harakatlarni ko'rsatadigan shaxs xususiyati deb hisoblasak, unda shaxsning qadriyatlari uning ijtimoiy xulq-atvor va yaxshi fuqarolik tendensiyasini bashorat qilishi mumkin (Serow, 1991). Shaxs xususiyatlari va qadriyatlarini bir necha mexanizmlar bog'laydi. Rokkas va boshqalar (2002) xususiyatlar va qadriyatlar turli xil xatti-harakatlarni bashorat qilish uchun muhim ekanligini ta'kidlaydilar. "G'amxo'r" o'smirlar va jamoatchilik ishtiroki bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda Xart va Fegli (1995) jamoatchilik faoliyatida faol ishtirok etganlar va ishtirok etmaganlarni tavsiflovchi o'z-o'zini tushunish va ijtimoiy fikrlashdagi farqlarni o'rganadilar. "G'amxo'r" o'smirlar o'zlarini taqqoslash namunasidagilarga qaraganda axloqiy, g'amxo'rlik xususiyatlari va maqsadlaridan foydalangan holda tasvirlash ehtimoli ko'proq edi.

Avvalgi tadqiqotlar (Pancer et al., 2007) shuni ko'rsatdiki, jamoat ishlariga jalb qilish yoshlarda ijobiy moslashuv va rivojlanish natijalari bilan bog'liq. Pancer et al. (2007) tadqiqotida Faol, Yordamchi va Javob beruvchi sifatida aniqlangan yoshlar, Ishtiroksiz deb topilgan yoshlarga qaraganda, optimizm, o'z-o'zini hurmat qilish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning sezilarli darajada yuqori darajalarini namoyish etdilar. Biroq, juda jalb qilingan va jalb qilinmagan o'smirlar o'rtasida shaxsiy xususiyatlar va shaxsiy qadriyatlar o'rtasidagi farq nima ekanligi noma'lum bo'lib qolmoqda. Bizning maqsadimiz shaxs xususiyatlari va

shaxsiy qadriyatlar o'smirlik davrida jamiyat ishtirokiga qanday hissa qo'shishini o'rganish edi; masalan, biz o'smirlik davrida shaxs xususiyatlari, qadriyatlari va jamiyat hamda maktab hayotidagi ishtiroki o'rtasidagi asosiy munosabatlarni sinab ko'rishga qiziqdik. Snayder (1993), Costa, & McCrae (1992); Goldberg (1992), Barrick, & Mount (1991) ekstraversiya, tajribaga ochiqlik va kelishuvchanlik o'z tengdoshlari va past darajadagi vijdonlilik va nevrotizmga nisbatan jamoat ishlariga juda jalb qilingan yoki jalb qilingan o'smirlarda ko'proq bo'lishi kerak deb taxmin qilishgan (H1). Shvarsning (1994) natijalariga asosanib, biz (H2) jamiyat va maktab faoliyati bilan ko'proq shug'ullanadigan o'smirlarda asosiy shaxsiy qadriyatlarning yuqori darajalarini topishini kutamiz.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy voqelikka munosabatini shakllantirishda shaxsiy xususiyatlar va fuqarolik ongi o'rtasida murakkab o'zaro bog'liqlik mavjud. Besh omilli shaxsiyat modeli (FFM) asosida ekstraversiya, kelishuvchanlik va vijdonlilik kabi xususiyatlar yoshlarning ijtimoiy faollik darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va yoshlarning unga integratsiyasi ularning shaxsiy qadriyatlar tizimi, ijtimoiy-madaniy omillar va atrof-muhit bilan uzviy bog'liq holda amalga oshadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab va mahalla hayotida faol ishtirok etadigan yoshlar nafaqat o'zlarining psixologik farovonligini oshirishadi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham hissa qo'shadilar. Biroq, shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlik nisbatan kam miqyosda bo'lib, bu holat yoshlarning ijtimoiy munosabatlarini tahlil qilishda shaxsiyatni atrof-muhit, madaniy va ijtimoiy omillar bilan kompleks ko'rib chiqish zarurligini taqozo etadi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda shaxsiy xususiyatlar, qadriyatlar tizimi va tashqi omillarning o'zaro ta'sir mexanizmlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Natijalar tahlili. *Tadqiqot guruhining shaxsiy xususiyatlari tahlili.* Tadqiqotda qatnashgan 150 nafar yoshlar (15-25 yosh) orasida G.Yu. Ayzenk testi asosida quyidagi natijalar olingan:

1-jadval.

Respondentlarning temperament turlari bo'yicha taqsimlanishi

Temperament tipi	Soni	Foiz
Ekstravertlar	68	45.3%
Introvertlar	52	34.7%
Neyrotiklar	30	20.0%

Tadqiqot guruhidagi yoshlar orasida eng katta qismini ekstravertlar (45.3%) tashkil etadi, bu degani har ikki yoshdan biri ijtimoiy jihatdan faol, ochiq-oshkor va tashqi dunyoga qiziqish bildiradi. Introvertlar 34.7% ni tashkil etib, bu guruhdagi har uchinchi yosh o'ziga qarashli va ichki dunyosiga berilganlik xususiyatlariga ega. Neyrotiklar esa 20.0% bilan eng kichik guruhni tashkil qiladi.

Ekstravert yoshlar - bu guruhning yuqori foizda bo'lishi (45.3%) yoshlar orasida ijtimoiy faollikning keng tarqalganligidan dalolat beradi. Ekstravertlar odatda yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlovchi, ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etuvchi va o'zgarishlarga ochiq bo'lishadi.

Introvert yoshlar - bu guruh nisbatan katta foizni egallashi (34.7%) shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik yoshlarda chuqur o'ylash, rejalashtirish va individual ishlash uslubi ustunlik qiladi.

Neyrotik yoshlar - eng kichik guruh bo'lishiga qaramoh (20.0%), ularning mavjudligi ayrim yoshlarda hissiy beqarorlik, stressga chidamsizlik va ijtimoiy muammolarga nisbatan sezgirlik kabi xususiyatlar kuzatilishini ko'rsatadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, ekstravert yoshlar ijtimoiy faollik ko'rsatkichlari bo'yicha introvert va neyrotik guruhlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarga erishgan.

Shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy faollik o'rtasidagi bog'liqlik

2-jadval. Shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy faollik o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari

Shaxsiy xususiyat	Ijtimoiy faollik	Jamoat tadbirlarida ishtirok	Ko'ngillilik faoliyati
Ekstraversiya	0.72	0.68	0.65
Kelishuvchanlik	0.61	0.58	0.71
Vijdonlilik	0.59	0.63	0.55
Neyrotizm	-0.48	-0.52	-0.41
Tajribaga ochiqlik	0.45	0.39	0.42

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy faollik o'rtasida sezilarli statistik bog'liqlik mavjud. Quyidagi asosiy xulosalarni keltirish mumkin:

Ekstraversiya eng kuchli ijobiy bog'liqlikka ega bo'lib, bu xususiyat yoshlarning ijtimoiy faolligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Kelishuvchanlik ayniqsa ko'ngillilik faoliyatida yuqori samaradorlikka olib keladi, chunki bu xususiyat boshqalarga yordam berish va ularning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan.

Vijdonlilik esa barqaror va ishonchli ijtimoiy faollikni ta'minlaydi, bu xususiyat majburiyatlarni bajarish va mas'uliyatni anglash bilan bog'liq. Neyrotizm barcha turdagi ijtimoiy faollikni sezilarli darajada pasaytiradi, chunki hissiy beqarorlik yangi vaziyatlardan qo'rqish va ijtimoiy baholanishdan xavotir olishga olib keladi.

Korrelyatsiya tahlili shuni ko'rsatadiki, ekstraversiya va ijtimoiy faollik o'rtasida eng kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = 0.72$). Neyrotizm esa ijtimoiy faollik bilan salbiy korrelyatsiyaga ega.

Gender va ijtimoiy faollik o'rtasidagi bog'liqlik

3-jadval. Gender va ijtimoiy faollik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Erkaklar (n=80)	Ayollar (n=70)
O'rtacha ijtimoiy faollik darajasi	68.2%	72.5%
Jamoat tadbirlarida o'rtacha ishtirok	4.2 tadbir/oy	5.1 tadbir/oy
Ko'ngillilik soati (haftalik)	3.5 soat	4.8 soat

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ayollar erkaklarga nisbatan ijtimoiy faollikning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha biroz yuqori natijalarga ega.

Ayollar va erkaklar o'rtasidagi eng sezilarli farq ko'ngillilik faoliyatida kuzatilgan (1.3 soat), bu ayollarning boshqalarga g'amxo'rlik qilish va yordam berishga bo'lgan kuchliroq moyilligini ko'rsatadi.

Yosh guruhlari bo'yicha farqlar

4-jadval. Yosh guruhlari bo'yicha ijtimoiy faollik

Yosh guruhi	Ijtimoiy faollik indeksi	Faol ishtirokchilar foizi
15-18 yosh	62.3%	45.2%
19-22 yosh	75.8%	68.7%
23-25 yosh	71.4%	61.9%

19-22 yoshli yoshlar eng yuqori ijtimoiy faollik darajasiga ega ekanligi aniqlandi.

Ijtimoiy faollik indeksi: 75.8% (eng yuqori)

Faol ishtirokchilar foizi: 68.7% (eng yuqori)

Izoh: Bu yosh oralig'idagi yoshlar odatda oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan yoki yangi kasbiy faoliyatni boshlayotgan bo'ladi. Ularning yuqori ijtimoiy faolligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Mustaqillik istagi - o'z qarorlarini mustaqil qabul qilish va jamiyatda o'z o'rnini topish

Ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi - yangi do'stlar, ustozlar va kasbiy aloqalar orttirish

Shaxsiy qadriyatlarning shakllanishi - hayotiy pozitsiyani anqlash va uni amalga oshirish.

Yosh guruhlari bo'yicha ijtimoiy faollikning dinamikasi yoshlik davrining har bir bosqichida o'ziga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlar mavjudligini ko'rsatadi, bu esa yoshlar siyosatini shakllantirishda individual yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ijtimoiy voqelikka munosabati ularning shaxsiy xususiyatlari, genderi va yoshiga bog'liq holda murakkab shakllanadi. Quyidagi asosiy nuqtalarni alohida ta'kidlash mumkin:

1. Shaxsiy xususiyatlarning kompleks ta'siri

Eng yuqori ijtimoiy faollik ekstravert, kelishuvchan va vijdonli yoshlarda kuzatilgan. Bu xususiyatlar bir-birini quvvatlovchi va kuchaytiruvchi xarakterga ega:

- Ekstraversiya - ijtimoiy aloqalarni izlash va yangi tajribalarga ochiqlik
- Kelishuvchanlik - boshqalar bilan hamkorlik qilish va ularning ehtiyojlarini inobatga olish
- Vijdonlilik - majburiyatlarni bajarish va mas'uliyatni anglash

2. Gender va yosh o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Eng yuqori ijtimoiy faollik 19-22 yoshli ayol yoshlarda kuzatilishi quyidagi omillarning kombinatsiyasi bilan izohlanadi:

- Rivojlanish psixologiyasi - bu yosh shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy o'zini-o'zi anglashning eng faol davriga to'g'ri keladi

• Gender sotsializatsiyasi - an'anaviy ravishda ayollarga ko'proq ijtimoiy va g'amxo'rlik fazilatlari tarbiyalanadi

• Ijtimoiy imkoniyatlar - oliy ta'lim muassasalarida qatnashish yangi ijtimoiy tarmoqlar va loyihalarga kirish imkoniyatini beradi

3. Differensial yondashuvning amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalari yoshlar bilan ishlashda quyidagi differensial yondashuvlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi:

Yosh guruhlari bo'yicha:

- 15-18 yosh - asosiy e'tibor ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va jamoaviy ishlarga o'rgatish
- 19-22 yosh - ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish
- 23-25 yosh - kasbiy va ijtimoiy faoliyatni uyg'unlashtirish

Shaxsiy xususiyatlar bo'yicha:

- Ekstravertlar - yangi loyihalar va tashabbuslar uchun potensial rahbarlar
- Introvertlar - rejalashtirish va chuqur tahlil qilishni talab qiluvchi vazifalar
- Kelishuvchanlar - jamoa ishlari va konfliktlarni hal qilish
- Neyrotiklar - qo'llab-quvvatlovchi muhtit va bosqichma-bosqich moslashtirish

4. Pedagogik va psixologik implikatsiyalar

Ta'lim tizimi uchun:

- Shaxsiy xususiyatlarga asoslangan individual yo'nalishlar
- Yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv dasturlari
- Har xil temperamentdagi yoshlar uchun moslashtirilgan metodikalar

Yoshlar siyosati uchun:

- Turli yosh va gender guruhlari uchun maxlashtirilgan dasturlar
- Ijtimoiy faollikni rag'batlantirishning differensial mexanizmlari
- Psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi

5. Kelajakdagi tadqiqotlar yo'nalishlari

Natijalar quyidagi yo'nalishlarda qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatadi:

- Madaniy kontekstda shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy faollik o'rtasidagi bog'liqlik
- Uzoq muddatli monitoring orqali yoshlarning ijtimoiy faollik dinamikasi
- Turli psixologik intervensiyalarning ijtimoiy faollik darajasiga ta'siri

Tadqiqot natijalari yoshlarning ijtimoiy voqelikka munosabatini shakllantirishda kompleks yondashuvning zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuv nafaqat yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning barqaror taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi. Yoshlar bilan ishlashda ularning individual psixologik xususiyatlarini, gender va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish samarali natijalarga olib keladi.

Roberts va hamkasblari (2007) tomonidan qayd etilganidek, shaxsiy xususiyatlar inson xulq-atvorining 30-50% variantligini tushuntirishi mumkin. Bizning tadqiqotimizda ekstraversiyaning ijtimoiy faollik bilan yuqori korrelyatsiyasi ($r=0.72$) bu nazariyani qisman tasdiqlaydi. Biroq, bu ko'rsatkich 50% dan oshib ketganligi, yoshlarda shaxsiy xususiyatlarning g'arb mamlakatlaridagidan ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi. Shu bilan birga McCrae va John (1992) ekstravertlarning ijtimoiy munosabatlarda faolroq ishtirok etishini ta'kidlagan. Bizning natijalarimiz bu fikrni to'liq qo'llab-quvvatlaydi, chunki ekstravert yoshlar nafaqat son jihatidan ko'p (45.3%), balki barcha ijtimoiy faollik ko'rsatkichlarida ham yetakchilik qilmoqda. Bu holat ekstraversiyaning individual farqlardan tashqari, madaniy jihatdan ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Eagly va Crowley (1986) ayollarning ko'ngillilik faoliyatidagi ustunligini biologik va ijtimoiy omillar bilan izohlagan. Bizning topilmalarimiz ayollarining an'anaviy qadriyatlar tizimida ham shu tendentsiyani saqlab qolganligini ko'rsatadi. Ayollarning ko'ngillilik soatlarining yuqoriligi (4.8 soat) mahalliy madaniyatimizda onalik va g'amxo'rlik fazilatlarning kuchli ifodasidan dalolat beradi.

Barrick va Mount (1991) vijdonlilikning ishonchlilik bilan bog'liqligini ta'kidlagan. Bizning natijalarimizda jamoat tadbirlarida ishtirok bilan yuqori bog'liqlik ($r=0.63$) yoshlarda vijdonlilikning an'anaviy qadriyat sifatida shakllanganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga Erikson (1968) tomonidan belgilangan yoshlik davri rivojlanish modeli bizning tadqiqotimizda 15-18 yoshdan 19-22 yoshgacha bo'lgan 13.5% li o'sish bilan tasdiqlandi. Bu yoshlarining rivojlanish dinamikasi universal psixologik qonuniyatlarga bo'ysunishini ko'rsatadi

Steinberg (2005) har bir yosh guruhining o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega ekanligini ta'kidladi. Yosh guruhlari bo'yicha sezilarli farqlar yoshlar bilan ishlashda individual yondashuvning nafaqat psixologik, balki madaniy jihatdan ham zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Yakuniy tavsiya sifatida, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ularning shaxsiy xususiyatlarini, gender va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial dasturlar ishlab chiqish va joriy etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv nafaqat yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, balki butun jamiyatning barqaror taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi.

Adabiyotlar:

1. Jumayev, M. (2020). Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Xolboyeva, S. (2021). Yoshlarning ijtimoiy faolligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish. Toshkent: Ijtimoiy fikr.
3. Putnam, R. D. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. Simon & Schuster. (45-bet).
4. Dalton, R. J. (2008). Citizen Politics: Public Opinion and Political Parties in Advanced Industrial Democracies (5th ed.). CQ Press. (112-bet).
5. Toshxo'jayeva, M. (2021). Yangi O'zbekiston jamiyatida fuqarolik madaniyatini rivojlantirish istiqbollari. // "Fan va Ta'lim" Jurnal, 3(5), 24-31. (26-bet).
6. McCrae, R. R., & John, O. P. (1992). An introduction to the five-factor model and its applications. // Journal of Personality, 60(2), 175–215. (p. 197)
7. Graziano, W. G., & Tobin, R. M. (2009). Agreeableness. In M. R. Leary & R. H. Hoyle (Eds.), Handbook of individual differences in social behavior (pp. 46–61). The Guilford Press. (p. 52)
8. Funder, D. C. (2019). The personality puzzle (8th ed.). W. W. Norton & Company. (p. 5)
9. Larsen, R. J., & Buss, D. M. (2017). Personality psychology: Domains of knowledge about human nature (6th ed.). McGraw-Hill Education. (p. 4)
10. Verba, S., Schlozman, K. L., & Brady, H. E. (1995). Voice and equality: Civic voluntarism in American politics. Harvard University Press. (p. 87)
11. Fredricks, J. A., & Eccles, J. S. (2006). Extracurricular involvement and adolescent adjustment: Impact of duration, number of activities, and breadth of participation. // Applied Developmental Science, 10(3), 132–146. (135-bet).
12. Flanagan, C. A., & Bundick, M. J. (2011). Civic engagement and psychosocial well-being in college students. // Liberal Education, 97(2), 24–31.

Xudoyqulova Shoirra Husanovna,
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

SHAXS YETUKLIGI MUAMMOSINING FALSAFIY VA PSIXOLOGIK TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs yetukligi muammosining falsafiy va psixologik jihatdan talqini keltirilgan, shaxs yetukligi tushunchasining tarixiy shakllanishi, shaxsning yetukligi uning shaxs sifatida normativ rivojlanishini aks ettiruvchi noyob hodisa ekanligi, falsafiy va psixologik nuqtayi nazardan bolalikdan qarilikkacha yashash davomiyligining o'zi ham noyoblikka ega deb qaralishi, xususan fan tarixida inson yetukligining biologik, psixologik, ijtimoiy va ma'naviy mezonlari tahlil qilingan. Shuningdek, shaxs yetukligi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u zamonaviy ijtimoiy fanlarda o'rganishda aniq qiyinchiliklarni ko'rsatishi, zamonaviy jamiyatda shaxsiy yetuklikning inson tomonidan anglanishi va mohiyatini yangicha idrok etish mavjud bo'lsa-da, kishining ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan mas'uliyatsiz munosabati, insonning shaxsiy fazilatlarining shaxsiy xususiyatlari bilan almashtirilishi va shaxsiy fazilatlarini uni iste'molchi sifatida tavsiflashi kabilar muammoni o'rganishni yanada murakkablashtirishi, shu tufayli bu borada qarashlarda nomuvofiqliklar mavjudligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, yetuklik, “biologik yetuklik”, “psixologik yetuklik”, “ijtimoiy yetuklik”, “ma'naviy yetuklik”, ijtimoiy yo'nalganlik.

ФИЛОСОФСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ ЗРЕЛОСТИ ЛИЧНОСТИ

Nazariy tahlil jarayonida Facione tomonidan ishlab chiqilgan Delphi modeli ham e’tibordan chetda qolmadi. Mazkur modelga asoslangan tadqiqotlarda baholovchi fikr yuritish, dalillarni tekshirish, fikrning mantiqiy izchilligini ko’rsatish bo’yicha 20–27 foizgacha o’sish aniqlangan [4, 9–11]. Ayniqsa sabab–oqibat bog’lanishlarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar eng yuqori samara ko’rsatgani ma’lum bo’ldi. Bu natijalar tanqidiy tafakkurning bosh mexanizmlaridan biri sifatida dalillarning sifatini anglay olish muhimligini ko’rsatadi.

Kuhn tomonidan olib borilgan izlanishlar esa dialogik muloqot, bahs-munozara va qarama-qarshi fikrlarni solishtirish orqali o’quvchilarda argument keltirish qobiliyati 35 foizgacha rivojlanishini tasdiqladi.

Ushbu natija tanqidiy fikrlashning shakllanishi uchun muloqotga asoslangan ta’lim muhitining nihoyatda muhimligini ko’rsatadi [6, 1250–1254; 7, 366–370]. Paul va Elder konsepsiyasi asosida o’tkazilgan darslarda esa mantiqiy fikrlash indeksining 21–26 foizga oshgani qayd etilgan [8, 52–54]. Eng katta o’sish xulosa chiqarish, tahlil qilish va fikrning izchilligini ta’minlash kabi ko’nikmalarda namoyon bo’lgan.

Pedagogik nuqtayi nazardan bu natijalar o’quv jarayonida mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishni ustuvor maqsad sifatida belgilash zarurligini ko’rsatadi. Tahlil shuni ko’rsatadiki, mantiqiy operatsiyalar o’rgatilmagan taqdirda o’quvchilar ko’proq yodlash strategiyasiga tayanadi, bu esa tahliliy va tanqidiy fikrlashning shakllanishiga to’sinlik qiladi. Tanqidiy tafakkur esa o’z navbatida fikrlash mustaqilligini, mulohaza yuritishning puxtaligini va qaror qabul qilishning asoslanganligini ta’minlaydi. Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, bahs-munozaralar, dalil tekshirish mashqlari an’anaviy yondashuvlarga nisbatan 1,5–2 baravar samaraliroq bo’lib, o’quvchilar kognitiv rivojlanishining sifat jihatdan yuqori darajada o’sishiga sabab bo’ladi.

Tadqiqotning asosiy natijasi shundan iboratki, mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan nazariy konsepsiyalar ilmiy asosga ega bo’lib, ularni ta’lim jarayoniga to’g’ri integratsiya qilish o’quvchilarning fikrlash madaniyatini sezilarli darajada yuksaltiradi. Bu esa nafaqat o’quv jarayonida, balki kundalik hayotda ham asosli qaror qabul qilish, mustaqil fikr yuritish va muammolarni tahliliy hal etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bo’yicha olingan natijalar

1-jadval.

Tadqiqot muallifi	Tadqiqot mazmuni	Rivojlanish darajasi (foiz)	Pedagogik talqin
R. Ennis (2011)	Mantiqiy operatsiyalar: tahlil, xulosa chiqarish, dalillarni baholash	30–38%	Tuzilgan mantiqiy topshiriqlar fikrlashning asosiy komponentlarini sezilarli kuchaytiradi
D. Halpern (2014)	Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, reflektiv fikrlash	25–32%	Reflektiv faoliyat va fikrni asoslash orqali tanqidiy fikrlashni oshiradi
P. Facione (Delphi Report, 2015)	Baholovchi fikr, dalillarning ishonchliligini aniqlash	20–27%	Sabab–oqibat bog’lanishlarini tahlil qilishda yuqori samaradorlik beradi
D. Kuhn (2018)	Dialogik muloqot, munozara, fikrlar taqqoslanishi	35% gacha	Bahs-munozara o’quvchilarning dalil keltirish qobiliyatini maksimal darajada rivojlantiradi
Paul & Elder (2019)	Mantiqiy fikrlash indeksi (Logic Index)	21–26%	Fikrni izchil bayon qilish va xulosa chiqarishda sezilarli o’sish ta’minlaydi
Muammoli topshiriqlar (umumiy)	Sabab–oqibatni aniqlash, izchillik	18–28%	Mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantiradi
Interaktiv metodlar (umumiy)	Baholash, alternativ fikrni tahlil qilish	25–35%	An’anaviy metodlarga nisbatan 1,5–2 baravar samaraliroq
Bahs va guruhviy fikrlash faoliyati	Argumentlash, dalil sifatini tahlil qilish	22–30%	O’quvchilarning fikrlash madaniyatini mustahkamlaydi

Yuqoridagi jadval shuni ko’rsatadiki, mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish bo’yicha qo’llanilgan turli nazariy konsepsiyalar o’quvchilarda kognitiv o’sishga sezilarli ta’sir qiladi. Eng katta o’sish dialogik muloqot, munozara, mantiqiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va interaktiv metodlar orqali kuzatilgan. Tadqiqotlar o’rtacha o’sish ko’rsatkichi 20–35% oralig’ida ekanini tasdiqlaydi.

Tahlil. Olingan natijalar mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar o’quv jarayonida nafaqat kognitiv faollikni oshirish, balki o’quvchi shaxsining intellektual tajribasini bosqichma-bosqich boyitishga qaratilganligini ko’rsatadi. Pedagogik tahlil shundan dalolat beradiki, turli ilmiy maktablar tomonidan taklif etilgan yondashuvlar mohiyatan bir xil didaktik mexanizmga –o’quvchini faol fikrlash jarayoniga jalb qilishga tayanadi. Ushbu metodlarning samaradorligi, avvalo, ta’lim jarayonida o’quvchi faoliyatini o’zgartirish, ya’ni bilimni tayyor holida qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil tahlil qiluvchi, qayta ishlovchi va baholovchi subyektga aylantirish bilan bog’liq.

Natijalarda qayd etilgan yuqori o'sish ko'rsatkichlari mantiqiy operatsiyalarni shakllantirish jarayonida faoliyatga asoslangan pedagogika samaradorligini tasdiqlaydi. Chunki tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi operatsiyalar o'quvchi faol ravishda ishtirok etgan sharoitda kuchayadi. Bu o'quvchilarning bilish jarayonini faqat axborot qabul qilish bosqichida emas, balki uni qayta ishlash jarayonida ham faol bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun tadqiqotlarda qo'llanilgan mantiqiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va reflektiv savollar Bilish faoliyati bosqichlari - idrok, tahlil, sintetik qayta ishlash va baholashni to'liq qamrab olgan pedagogik vositalar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Natijalarning yana bir muhim pedagogik talqini shundan iboratki, tanqidiy fikrlashning rivojlanishi muammoli ta'lim tamoyilining to'liq amalga oshishiga bevosita bog'liq [3, 449–450]. Muammoli vaziyatlar o'quvchini bilimni tekshirish, shubha bildirish, alternativ variantlarni qidirish va qaror qabul qilish jarayoniga chorlaydi. Tadqiqotlarda qayd etilgan 20–32 foiz o'sish ko'rsatkichlari shuni anglatadiki, muammoli vaziyat bilan ishlash davomida o'quvchi o'z intellektual resurslarini maksimal darajada ishga soladi. Bu esa konstruktiv fikrlashning shakllanishi uchun zarur psixologik sharoitni yaratadi.

Dialogik muloqot va bahs-munozara metodlarida kuzatilgan yuqori samaradorlik pedagogik nazariyada yaqin rivojlanish zonasi tamoyilini tasdiqlaydi [6, 1247–1249]. O'quvchi o'z fikrini asoslashga urinayotganda, ayniqsa qarama-qarshi nuqtayi nazar yuzaga kelganda, fikrlashning chuqurroq pog'onalari ishga tushadi. Bu jarayonda o'quvchi o'z fikrini takomillashtiradi, dalillarni tartiblaydi va xulosalarni puxta asoslaydi. Tanqidiy tafakkur uchun aynan mana shu jarayon - fikrni qayta ko'rib chiqish va asoslash - negiziy mexanizmdir. Natijalarning 35 foizgacha o'sishni ko'rsatgani dialogik ta'limning yuqori samaradorligini aniq isbotlaydi [8, 48–50].

Pedagogik tahlil shuni ko'rsatadiki, tajribalarda qo'llanilgan metodlar konstruktivistik ta'lim yondashuviga hamohangdir. Bu yondashuvga ko'ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki o'quvchi tomonidan faol tarzda “quriladi”. Mantiqiy operatsiyalarni bajarayotganda yoki tanqidiy fikrlash topshiriqlarini hal etayotganda o'quvchilar bilimlar o'rtasida bog'lanishlarni mustaqil ravishda topadilar, yangi xulosalar shakllantiradilar. Ana shu faol kognitiv harakatlar bilimlarning barqarorlashishiga olib keladi. Natijalarda qayd etilgan statistik o'sishlar konstruktiv yondashuvning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Natijalar pedagogik jarayonda mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun faol o'quv metodlari - muammoli topshiriqlar, muloqotga asoslangan mashg'ulotlar, refleksiya jarayonlari, mantiqiy-vizual modellardan foydalanish - eng samarali hisoblanishini ko'rsatadi. An'anaviy reproduktiv yondashuv esa fikrlashni faollashtirishda cheklangan imkoniyatga ega ekanini tadqiqotlar yaqqol ko'rsatib berdi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchini faol fikrlash subyektiga aylantirish tanqidiy va mantiqiy tafakkur rivojining bosh pedagogik sharti ekanini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga doir nazariy konsepsiyalar o'quvchilarning fikrlash madaniyatini shakllantirishda asosiy metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda ko'rib chiqilgan yondashuvlar turlicha shakl va usullarni o'z ichiga olsa-da, ularning barchasi fikrlash jarayonini faollashtirish, o'quvchini mustaqil tahlil qilish va dalillarga tayangan xulosa chiqarishga undashga qaratilganligi bilan birlashadi.

Mantiqiy operatsiyalarni bosqichma-bosqich shakllantiruvchi topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, dialogik muloqot, bahs-munozaralar va reflektiv faoliyat tanqidiy fikrlashning muhim komponentlari – baholash, asoslash, solishtirish va dalil sifatini tekshirish –ni sezilarli darajada rivojlantirishi isbotlandi. Olingan natijalar o'quvchilarda kognitiv o'sishning o'rtacha 20–35 foiz atrofida bo'lganini ko'rsatib, faol ta'lim metodlarining an'anaviy yondashuvlarga nisbatan samaraliroq ekanini tasdiqlaydi.

Shu bois mantiqiy va tanqidiy tafakkur rivoji uchun o'quv jarayonini faollikka asoslash, o'quvchini bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi va qayta yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirish pedagogik zaruratdir. Nazariy konsepsiyalardan kelib chiqadigan yondashuvlar ta'limning mazmuni va metodikasini boyitib, o'quvchilarning intellektual mustaqilligi, dalillash madaniyati va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Ennis, R. H. Critical Thinking. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall, 1996. 320 b.
2. Ennis, R. H. Critical Thinking Across the Curriculum: A Vision. New York: Routledge, 2018. 210 b.
3. Halpern, D. F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. 5-edition. New York: Routledge, 2014. 576 b.
4. Facione, P. A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report). Millbrae, CA: California Academic Press, 1990. 112 b.

5. Butler, H. A., Dwyer, C. P., Hogan, M. J., Franco, A., Rivas, S. F., Saiz, C., Almeida, L. S. The Halpern Critical Thinking Assessment and Real-World Outcomes. // *Thinking Skills and Creativity*, 7(2), 2012. 112–121-betlar.
6. Kuhn, D., Udell, W. The Development of Argument Skills. // *Child Development*, 74(5), 2003. 1245–1260-betlar.
7. Crowell, A., Kuhn, D. Developing Dialogic Argumentation Skills. // *Journal of Cognition and Development*, 15(2), 2014. 363–381-betlar.
8. Paul, R., Elder, L. *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life*. Upper Saddle River, NJ: Pearson, 2014. 520 b.
9. Black, B. Critical Thinking – A Tangible Construct? // *Research Matters*, 2, 2007. 2–4-betlar.

Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna,
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti v.b., PhD
myuldasheva229@gmail.com
ORCID ID 0000-0002-4624-7039

TALABALARDA YOLG‘IZLIK HISSINI SHARTLOVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARING TADQIDIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda yolg‘izlik hissining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan bayon qilinadi. Tadqiqotning maqsadi talabalarda yolg‘izlik hissini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarni empirik tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va bu omillar ta’sirining darajasini baholashdir. Maqolada mualliflik asosida ishlab chiqilgan “Yolg‘izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash” anketasi asosida o‘tkazilgan amaliy tadqiqot natijalari tahlil qilinib, yolg‘izlik hissi bilan bog‘liq determinantlar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: yolg‘izlik hissi, ijtimoiy-psixologik determinantlar, talabalik davri, ijtimoiy moslashuv, emotsional holat, shaxslararo munosabatlar.

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ДЕТЕРМИНАНТ, ОБУСЛАВЛИВАЮЩИХ ЧУВСТВО ОДИНОЧЕСТВА У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются социально-психологические детерминанты, влияющие на формирование чувства одиночества у студентов, с научно-теоретической и практической точек зрения. Цель исследования заключается в эмпирическом анализе социально-психологических детерминант, формирующих чувство одиночества у студентов, выявлении взаимосвязей между ними и оценке степени их влияния. В статье приведены результаты практического исследования, проведённого на основе авторской анкеты «Определение социально-психологических детерминант чувства одиночества», которые позволили выявить основные факторы, связанные с переживанием одиночества.

Ключевые слова: чувство одиночества, социально-психологические детерминанты, студенческий возраст, социальная адаптация, эмоциональное состояние, межличностные отношения.

ANALYSIS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS CONDITIONING THE FEELING OF LONELINESS AMONG STUDENTS

Abstract. This article examines the socio-psychological determinants that influence the formation of the feeling of loneliness among students from both theoretical and practical perspectives. The aim of the research is to conduct an empirical analysis of the socio-psychological determinants that shape the feeling of loneliness in students, to identify the interrelations between these factors, and to assess the degree of their influence. The article presents the results of an empirical study based on the author’s questionnaire titled “Identification of Socio-Psychological Determinants of the Feeling of Loneliness”, which made it possible to identify the main factors associated with the experience of loneliness.

Keywords: feeling of loneliness, socio-psychological determinants, student age, social adaptation, emotional state, interpersonal relationships.

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli kommunikatsiyalar asrida insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy muloqot shakllari va sifati tubdan o‘zgarib bormoqda. Texnologik taraqqiyot insonlar o‘rtasidagi muloqot imkoniyatlarini kengaytirgani holda, paradoks tarzda shaxsning ichki ijtimoiy izolyatsiyasi, yolg‘izlik hissi va emotsional begonalashuv jarayonlarini kuchaytirayotganini kuzatish mumkin. Yoshlar, xususan, oliy ta’lim muassasalari talabalari ushbu jarayonning eng sezgir guruhlaridan biri hisoblanadi. Talabalik davri insonning shaxsiy o‘zligini shakllantirish, ijtimoiy o‘rnini aniqlash va emotsional barqarorlikni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhim bosqich bo‘lib, ushbu davrda kechadigan ijtimoiy-psixologik tajribalar shaxsning keyingi hayotidagi ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [4].

Psixologiya fanida yolg‘izlik hissi shaxsning ijtimoiy ehtiyojlari va real ijtimoiy tajribalari o‘rtasidagi nomuvofiqlik natijasida vujudga keladigan murakkab emotsional holat sifatida talqin qilinadi [2]. Ushbu holat nafaqat individual-psixologik, balki ijtimoiy determinantlar bilan ham shartlangan bo‘lib, shaxsning

ijtimoiy tarmoqdagi faolligi, do'stona munosabatlar sifati, oila muhiti, muloqot kompetensiyasi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, yolg'izlik hissini keltirib chiqaruvchi omillarni chuqur tadqiq etish talabalarning psixologik farovonligini ta'minlashda, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijtimoiy munosabatlarining sifati va emotsional qoniqish darajasi bevosita ijtimoiy-psixologik determinantlar bilan belgilanadi [6]. Talabalik davrida ushbu determinantlar orasida ijtimoiy moslashuv, kommunikativ bilimdonlik, oila va guruhdagi munosabatlar sifati, o'z-o'zini baholash darajasi, empatiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi omillar alohida ahamiyatga ega. Aynan shu omillarni tizimli tahlil etish orqali talabalarda yolg'izlik hissining shakllanish mexanizmlarini aniqlash mumkin bo'ladi. **Tadqiqotning dolzarbligi** shundan iboratki, yoshlarning ijtimoiy faolligi oshgan zamonaviy sharoitda ular orasida ichki emotsional yolg'izlik, ijtimoiy yakkalanish va o'zaro ishonchsizlikning kuchayishi jamiyatning psixologik barqarorligiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanmoqda [7]. Shuning uchun ham talabalarda yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlarini ilmiy asosda tahlil etish zamonaviy psixologiya uchun dolzarb ilmiy masaladir.

Nazariy metodologik tahlil. Yolg'izlik hissi zamonaviy psixologiyada eng murakkab, ko'p qirrali va turli omillar bilan shartlangan emotsional holatlardan biri sifatida talqin qilinadi. U insonning ijtimoiy ehtiyojlari va real ijtimoiy tajribasi o'rtasidagi nomuvofiqlikdan kelib chiqadigan subyektiv kechinma sifatida tavsiflanadi. Nazariy jihatdan bu masalani turli psixologik yo'nalishlardan psixoanalitik, gumanistik, kognitiv va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar o'ziga xos tarzda izohlaydi.

Z. Freyd inson ruhiy hayotida yolg'izlikni shaxs ichki ziddiyatlarining natijasi sifatida ko'radi. Unga ko'ra, insonning “Men” (Ego) va “U” (Id) o'rtasidagi ichki qarama-qarshiliklar ijtimoiy ajralish hissini kuchaytiradi. A. Adler esa yolg'izlikni insonning ijtimoiy his-tuyg'ularining yetarli rivojlanmaganligi, ya'ni “ijtimoiy manfaat”ning sustligi bilan bog'laydi. Shaxs o'zini jamiyatning ajralmas qismi sifatida his etmasa, unda yolg'izlik va begonalik hissi paydo bo'ladi [3].

J. Boulbi tomonidan ishlab chiqilgan “bog'lanish” nazariyasida esa yolg'izlikning ildizi bolalik davridagi ota-ona bilan emotsional aloqa sifatiga bog'lanadi. Bola erta yoshda yetarli mehr-muhabbat va xavfsizlik tuyg'usini his qilmasa, keyinchalik u ijtimoiy munosabatlarda beqaror, emotsional jihatdan yakkalanishga moyil bo'lib qoladi. Shunday qilib, yolg'izlik hissi – buzilgan bog'lanish modelining oqibati sifatida yuzaga keladi [7].

E. Fromm insonning ichki yolg'izligini zamonaviy jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan izohlaydi. Uning fikricha, texnologik taraqqiyot insonni jismonan birlashtirgan bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan ajratib qo'ygan [5]. Shaxs o'z mohiyatini jamiyatdagi rol orqali emas, balki ichki “Men”ni anglash orqali topmog'i lozim. K. Rogers esa yolg'izlikni shaxsning “ideal Men” va “real Men” o'rtasidagi tafovut bilan bog'laydi: inson o'zini boshqalar tomonidan to'liq qabul qilinmagan deb his qilganida, u o'z-o'zidan izolyatsiyalashga moyil bo'ladi [7].

Kognitiv psixologlardan A. Bek va A. Ellislar yolg'izlikni shaxsning o'ziga, boshqalarga va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan shakllangan noto'g'ri kognitiv sxemalari natijasi deb biladilar [3]. Masalan, “hech kim meni tushunmaydi” yoki “men muloqotga loyiq emasman” kabi irratsional e'tiqodlar insonni ijtimoiy jihatdan chetlashishga olib keladi. Shu bois, yolg'izlikni kamaytirishda kognitiv qayta qurish muhim ahamiyatga ega.

R. Peplo va D. Perlmanlar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy ehtiyojlar nazariyasiga ko'ra, yolg'izlik hissi shaxsning mavjud ijtimoiy aloqalari soni va sifati uning kutgan darajasiga mos kelmaganida paydo bo'ladi [2]. Shaxsning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish tarmog'i toraygan sari, emotsional izolyatsiya kuchayadi. Shu bilan birga, ijtimoiy qabul, o'zaro ishonch, empatiya va kommunikativ kompetensiya kabi omillar ham yolg'izlik hissining asosiy determinantlari sifatida namoyon bo'ladi. Talabalik davri bu jarayonlarni yanada kuchaytiruvchi ijtimoiy guruhdir. Oliy ta'lim muassasasiga kirgan yoshlar yangi ijtimoiy muhitga moslashish, do'stona aloqalar o'rnatish, mustaqil qarorlar qabul qilish jarayonida emotsional bosimni boshdan kechiradilar. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki [7], moslashuv darajasi past bo'lgan, o'z-o'zini qadrlash darajasi sust, kommunikativ malakalari yetarli rivojlanmagan talabalarda yolg'izlik hissi yuqoriroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, oila bilan emotsional yaqinlikning sustligi, do'stlar bilan ishonchli muloqotning yetishmasligi, raqamli muloqotga ortiqcha bog'lanish kabi omillar ham bu holatni kuchaytiradi.

Tadqiqotchilardan Veys, Xeynrich, Gullon, Russell kabilar yolg'izlik hissining shakllanishida quyidagi determinantlarni ajratib ko'rsatadilar [1, 6]:

- Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi (emotsional va instrumental yordam).
- Kommunikativ kompetensiya va muloqotda ochiqlik.
- O'z-o'zini baholash va shaxsiy qadriyat tizimi.

- Guruhga mansublik hissi va ijtimoiy identifikatsiya.
- Empatiya va o‘zaro tushunish qobiliyati.
- Oilaviy muhit va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar.
- virtual muloqotning real muloqotni siqib chiqarganligi.

Demak, talabalarda yolg‘izlik hissi ko‘p darajali determinantlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning har biri shaxsning ijtimoiy faoliyatini, o‘zini anglashini va emotsional barqarorligini bevosita belgilaydi. Shu sababli, ushbu omillarni tizimli tahlil qilish, ularning o‘zaro ta‘sir mexanizmlarini aniqlash va profilaktik psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

Tadqiqot natijasi. Talabalarining yolg‘izlik hissiga munosabatini tavsiflovchi ijtimoiy-psixologik determinantlariga aloqador mazkur tadqiqotimizda “Yolg‘izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash” anketasidan foydalanildi. Talabalarga yolg‘izlik hissining 50 ta shaxsiy va vaziyatga bog‘liq bo‘lgan determinantlaridan besh o‘rinli ko‘rsatkich bo‘yicha ranglashtirish so‘raldi. Natijada ranglarning ahamiyatiga ko‘ra har ikkala guruh determinantlari bo‘yicha o‘rtacha rang qiymati va ularning ahamiyatlilik o‘rnini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ldik..

1-jadval.

Talabalarining yolg‘izlik hissini tavsiflovchi shaxslilik determinantlari ko‘rsatkichlari

Determinantlar	Umumiy		1-kurs		3-kurs	
	O‘rta	rang	O‘rta	rang	O‘rta	rang
O‘z-o‘zini anglashda ichki olamiga yashirinish	3.58	8	3.265	11	3.9	6
Fobiya	1.79	24	1.995	16	1.6	16
Yuqori darajadagi emotsionallik	2.55	17	1.5	18	3.6	8
Tobelilik	1.59	25	1.995	16	1.2	19
Tan olinmaslik qo‘rquvi	2.90	15	2.503	14	3.3	10
Uyatchanlik	4.125	3	3.75	6	4.5	1
Ishonch va o‘zaro tushunishning yetishmasligi	3.545	10	2.99	13	4.1	4
Kasbiy takomillashuv	2.522	18	3.745	7	1.3	18
To‘liqsizlik hissi	1.895	23	1.99	17	1.8	14
Introvert shaxs bo‘lish	2.65	16	3.5	9	1.8	14
Shaxsiy erkinlikning chegaralanishi	3.355	12	3.51	8	3.2	8
Ixtiyoriy yolg‘izlik	2.505	19	3.51	8	1.5	17
O‘ziga yuqori baho berish	3.505	11	3.51	8	3.5	9
Muayyan insonga bog‘liqlikning yetishmasligi	2.48	20	3.265	11	1.7	15
Diniy daxldorlik hissi	2.367	21	3.235	12	1.5	17
Shaxsiyatparastlik	3.59	7	3.495	10	3.7	7
O‘ziga ishonchsizlik	3.005	14	2.01	15	4	5
Qadriyatlar tizimining izdan chiqishi	3.7875	6	3.495	10	4.1	4
O‘z-o‘zini past baholash	1.94	22	1.995	16	1.9	13
Agressivlik	3.49	13	3.995	2	3	12
Frustratsiya	4.14	2	3.98	4	4.3	3
O‘z-o‘zini anglash	3.87	4	3.755	5	4	5
Ko‘ngilchanlik	3.55	9	4.015	1	3.1	11
Stress	4.195	1	3.99	3	4.4	2
Nikoh munosabatlari	3.7	5	3.5	9	3.9	6

Talabalardagi shaxslilik determinantlarining amaliy tavsifi umumiy holda besh guruh determinantlar tarzida shakllantirishga imkon berdi:

Birinchi guruh determinantlarini «stress» (1), «frustratsiya» (2), «uyatchanlik» (3), «o‘z-o‘zini anglash» (4), «nikoh munosabatlari» (5) tashkil etdi. Ushbu determinantlar talabalarda yolg‘izlik hissini keltirib chiqaruvchi «o‘zini o‘zi baholash va ijtimoiy munosabatlardagi nomutanosiblik» determinantlaridir.

Ikkinchi guruhga «qadriyatlar tizimini izdan chiqishi» (6), «shaxsiyatparastlik» (7), «o‘z-o‘zini anglashda ichki olamiga yashirinish» (8), «ko‘ngilchanlik» (9), «ishonch va o‘zaro tushunishning yetishmasligi» (10) dan iborat. Ushbu determinantlarni «shaxs va qadriyatlar uyg‘unligini ta‘minlanmaganligi»ni tavsiflovchi determinantlar guruhi deb atadik. Bu determinantlar talabalarining yolg‘izlik hissi ulardagi nomukammallik va qadriyatlarining tizimlashmaganligi oqibatida kelib chiqadi.

O'ziga yuqori baho berish» (11), «shaxsiy erkinlikning chegaralanishi» (12), «agressivlik» (13), «o'ziga ishonchsizlik» (14) va «tan olinmaslik qo'rquvi» (15) ni talabalarda yolg'izlik hissi paydo bo'lishining «salbiy emotsiyalar va shaxs xulq-atvoridagi cheklanishlar» determinantlari guruhi deb atashimizga sabab bo'ldi.

«Introvert shaxs bo'lish» (16), «yuqori darajadagi emotsionallik» (17), «kasbiy takomillashuv» (18), «ixtiyoriy yolg'izlik» (19) va «Muayyan insonga bog'liqlikning yetishmasligi» (20) yolg'izlik hissigacha sabab bo'luvchi «shaxs xususiyatlaridagi uzviylikning yo'qligi» nomli determinantlar deb nomlanishi maqsadlidir. «Diniy daxldorlik hissi» (21), «o'zini o'zi past baholash» (22), «to'liqsizlik hissi» (23), «fobiya» (24) va «tobelilik» (25)ni «shaxs xulq-atvoridagi komplekslar va diniy daxldorlik hissi» determinantlar deb nomlandi. Determinantlarni shaxslilik xususiyatlariga ko'ra guruhlanishi talabalar nuqtayi nazaridan ularda yolg'izlik hissininamoyon bo'lishiga sabab bo'luvchi birinchi yo'nalish determinantlaridir.

Ikkinchi yo'nalishdagi determinantlar ko'proq vaziyatli va ijtimoiy-psixologik xarakterga ega. Ularning ham ta'lim bosqichlariga ko'ra tahliliga e'tibor qaratilib, so'ngra umumiy aloqadorlik darajasiga ko'ra tartiblashga harakat qilindi, natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Talabalarining yolg'izlik hissinin tavsiflovchi ijtimoiy vaziyatli determinantlari ko'rsatkichlari

Determinantlar	Umumiy		1-kurs		3-kurs	
	O'rta	rang	O'rta	O'rta	rang	O'rta
Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar	3.475	10	3.25	15	3.7	3
Muloqotning mobilligi	3.602	7	4.005	6	3.2	8
Oiladagi munosabatlar (avtoritar, liberal, demokratik)	2.425	20	3.25	15	1.6	15
Oila turlari (to'liq, to'liqsiz, qayta tuzilgan,...)	2.342	21	3.495	13	1.2	16
Axborotlashuvning jadalligi	3.167	14	3.735	10	2.6	10
Tengdoshlar bilan muloqotdagi murakkablik	2.497	19	1.995	18	3	9
Ostrakizm (guruhda tan olinmaslik, surib chiqarish)	4.31	1	4.235	3	4.4	1
Muloqotda xayrihoxlik hissining mavjud emasligi	3.405	12	3.51	12	3.3	7
Oiladagi gender muammolar	3.57	8	3.745	9	3.4	6
Mobil muloqotda dilkashlikning yetishmasligi	3.22	13	2.745	16	3.7	3
Guruhda o'z mavqeyiga ega bo'lmaslik	2.79	18	3.485	13	2.1	13
Shaxslararo munosabatlarning to'xtatilishi	2.86	17	3.235	16	2.5	11
Majburiy yakkalanish	1.97	23	1.745	19	2.2	12
Qisqa muddatli muloqot	3.48	9	3.475	14	3.5	5
Ijtimoiy yakkalanish	4.1	2	4.51	2	3.7	3
Guruhda qabul qilingan me'yorlarni tan olmaslik	3.37	11	4.755	1	2	14
Muloqotning zaiflashuvi	3.89	3	3.995	8	3.8	2
Yo'qotish (yaqin insonlarining o'limi)	3.11	15	4.02	5	2.2	12
Ajrim	2.925	16	3.75	11	2.1	13
Yashash joyining o'zgarishi	1.79	25	1.984	16	1.23	19
Bolalik davridagi ruhiy travmalar	2.13	22	2.26	17	2	14
Suhbatdoshning mavqeyini past baholash	1.67	24	1.745	19	1.6	15
Takrorlanib turuvchi hissiy ojizlik	3.82	4	4.245	4	3.4	6
Guruhda o'zaro hamkorlikning mavjud emasligi	3.75	6	4	7	3.5	5
Muhabbatning inkor etilishi	3.8	5	4	7	3.6	4

Birinchi guruh determinantlarini «ostrakizm (guruhda tan olinmaslik, surib chiqarish)» (1), «ijtimoiy yakkalanish» (2), «muloqotning zaiflashuvi» (3), «takrorlanib turuvchi hissiy ojizlik» (4) va «muhabbatning inkor etilishi» (5) kabilar tashkil etdi. Bu determinantlarni yolg'izlikka sabab bo'luvchi «shaxs ijtimoiylashuvidagi muloqot me'yorlarning buzilishi» tarzida nomlandik.

Ikkinchi guruh determinantlariga «guruhda o'zaro hamkorlikning mavjud emasligi» (6), «muloqotning mobilligi» (7), «oiladagi gender muammolar» (8), «qisqa muddatli muloqot» (9), «jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar» (10) mujassamlashtirildi. Bu guruhga kirgan determinantlar talabalar hayotining turli jabhalari bilan bog'liq. Shu bois ularning ma'nosidan kelib chiqib, «shaxsning ijtimoiy munosabat va muhitga moslashuvidagi ziddiyatlar» deb nomlash lozim topildi.

Uchinchi guruhga esa «guruhda qabul qilingan me'yorlarni tan olmaslik» (11), «muloqotda xayrihoxlik hissining mavjud emasligi» (12), «mobil muloqotda dilkashlikning yetishmasligi» (13),

«axborotlashuvning jadalligi» (14) va «yo'qotish (yaqin insonlarining o'limi)» (15) determinantlari birlashtirildi. Ushbu determinantlar «ijtimoiy me'yorlar va muhitga moslasha olmaslik» guruhi determinantlari deb nomlandi.

To'rtinchi guruh «ajrim» (16), «shaxslararo munosabatlarning to'xtatilishi» (17), «guruhda o'z mavqeyiga ega bo'lmashlik» (18), «tengdoshlar bilan muloqotdagi murakkablik» (19), «oiladagi munosabatlar (avtoritar, liberal, demokratik)» (20) singari determinantlardan iborat bo'ldi. Ushbu determinantlarning yolg'izlik hissiga ta'sirini «shaxslararo munosabatlardagi muammolar» deb nomlashga to'g'ri keladi. Ularning asosini talabalarining turli xil muhitdagi munosabatlari bilan bog'liq muammolar tashkil etgan.

Beshinchi guruh determinantlarini «oila turlari (to'liq, to'liqsiz, qayta tuzilgan,...)» (21), «bolalik davridagi ruhiy travmalar» (22), «majburiy yakkalanish» (23), «suhbatdoshning mavqeyini past baholash» (24) va «yashash joyining o'zgarishi» (25) tashkil etdi. Mazkur guruh determinantlar ham talabalar tomonidan yolg'izlikka moyillikni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida baholangan. Determinantlarni mazmunan birlashtirgan holda «ijtimoiy muhit bilan ijtimoiy mavqeyidagi tanqisliklar yolg'izlikni keltirib chiqaruvchi omillar» guruhi tarzida nomlashni ma'qul deb topdik.

Demak, talabalar ijtimoiy guruhida yolg'izlik hissi mavjud hodisa sifatida shaxslilik va ijtimoiy vaziyatli determinantlari sababli yuzaga kelar ekan. Ularning ta'siri natijasida talaba o'z yolg'izligini yo'naltirishi, undan resurs sifatida foydalanishi yoki aksincha yolg'izlik girdobida qolishi mumkin ekan.

Yolg'izlik hissini tavsiflovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar masalasi Respublikamizda talabalardagi yolg'izlikka munosabat ilk bora o'rganilayotgan tadqiqot bo'lganligi sababli dastlabki qo'lga kiritilgan natijalar faqat mazkur tadqiqot obyektiga xos, degan g'oyani ilgari suramiz.

Xulosa. Biz olib borgan tadqiqotimizdan quyidagi xulosalarni ishlab chiqdik:

Birinchidan, ta'lim bosqichiga ko'ra yolg'izlik hissiga munosabat talabalarining ijtimoiy tajribalariga bog'liq ekan. Uchinchi bosqich talabalari birinchi bosqich talabalaridan farqli tarzda yolg'izlikka salbiy tus bermasdan, balki uning ijobiy tomoni mavjudligini, inson yolg'izlikda o'zining yangi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi mumkinligini e'tirof etdilar.

Ikkinchidan, birinchi bosqich talabalari yolg'izlikka salbiy tus berib, muloqot muhitini shakllantira olmasliklari, yangi muhitga moslashishdagi qiyinchiliklar, muloqotda mos suhbatdosh tanlash ko'nikmalarining shakllanmaganligini sabab sifatida ifodaladilar. Talabalar yolg'izlikni noxush kayfiyatda qabul qilishi, yolg'izlik noxush va og'riqli munosabatda baholashlari tufayli ularda yolg'izlik bilan bog'liq ijobiy emotsiyalarni namoyon eta olmadilar va yolg'izlikdan ijobiy imkoniyatlar topa olmas ekanlar.

Uchinchidan, yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari reytingi shaxslilik (stress, frustratsiya, uyatchanlik) va ijtimoiy vaziyatli (ostrakizm, ijtimoiy yakkalanish, muloqotning zaiflashuvi) kabi determinantlardan iborat bo'lib, ular ta'sirida talaba o'z yolg'izligini yo'naltirishi, undan resurs sifatida foydalanishi yoki aksincha yolg'izlik girdobida qolishi mumkin.

To'rtinchidan, talabalarining o'zlari bilan sodir bo'ladigan barcha narsalar, ijobiy yoki salbiy bo'lishidan qat'iy nazar, tajribadan olingan bilimlar hisobiga uning rivojlanishiga hissa qo'shishiga ishonishlari, hayotni tajriba orttirish usuli deb hisoblashlari, muvaffaqiyatning ishonchli kafolatlari bo'lmagan taqdirda, o'z xavfi ostida harakat qilishga tayyorliklari, oddiy qulaylik va xavfsizlikni shaxs hayotini qashshoqlashtirishga intilishini hisobga olishlari, tavakkalchilik bilimlarni tajribadan faol o'zlashtirish va undan keyin foydalanish orqali rivojlanish g'oyasiga asoslanishlari ham yolg'izlikning ijobiy tomonlarini topish mumkin ekanligiga yo'naltirishini anglatmoqda.

Adabiyotlar:

1. Вейс, Р. Вопросы изучения одиночества / Р. Вейс. - М.: Прогресс, 1989. - 624 с
2. Корчагина, С.Г. Психология одиночества / С.Г. Корчагина. - М.: Московский психолого-социальный институт, 2008. - 228 с
3. Кузнецов, О.Н. Психология и психопатология одиночества / О.Н.Кузнецов, В.И. Лебедев. - М., 2002. - 336 с.
4. Филиндаш Е.В. Феноменология социально-психологического одиночества в среде студенческой молодежи: дис. канд. психол. наук: 19.00.05 / Филиндаш Елизавета Вячеславовна. - Москва, 2015. - 202 с.
5. Фромм, Э. Человек для самого себя / Э. Фромм. - М., 2009. - 763 с.
6. Rudolf, L. Psychology of Loneliness: New Research. / Nova. 2017. 160p.
7. Yuldasheva, M.B. Yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari. // Monografiya. - Farg'ona, 2024. - 122 b.

Yunusova Go'zal Sultonovna,
 Farg'ona davlat universiteti dotsenti
 yunusovag73@gmail.com
Anvarjonova Zulxumor Oxunjon qizi,
 Farg'ona davlat universiteti magistranti
 zulxumoranvarjonova@gmail.com

O'SMIRLAR SHAXSIY AVTONOMIYASI SHAKLLANISHIDA TENGDOSHLAR GURUHI TA'SIRINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlar shaxsiy avtonomiyasining shakllanish jarayonida tengdoshlar guruhi ta'sirining psixologik asoslari yoritilgan. O'smirlik davri shaxsning mustaqil fikrlashi, o'z qarorlarini shakllantirishi va ijtimoiy javobgarlikni his eta boshlashi bilan ajralib turadi. Shu bosqichda tengdoshlar guruhi o'smir uchun muhim ijtimoiy muhit bo'lib, u orqali o'zini anglash, o'ziga baho berish va ijtimoiy moslashuv jarayonlari rivojlanadi. Tadqiqotda tengdoshlar ta'sirining asosiy mexanizmlari sifatida o'zaro qo'llab-quvvatlash, emotsional yaqinlik, muloqot madaniyati va guruh ichidagi o'zaro ishonch omillari tahlil qilingan. Empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, o'smirlarning shaxsiy avtonomiya darajasi ularning tengdoshlar bilan munosabat sifatida va ijtimoiy o'zaro ta'sir darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, shaxsiy avtonomiya, tengdoshlar guruhi, psixologik ta'sir, o'zini anglash, ijtimoiy moslashuv, emotsional qo'llab-quvvatlash, o'zaro ishonch, muloqot madaniyati, ijtimoiy munosabatlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВЛИЯНИЯ ГРУППЫ СВЕРСТНИКОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОЙ АВТОНОМИИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В данной статье раскрываются психологические основы влияния группы сверстников на процесс формирования личной автономии подростков. Подростковый возраст рассматривается как этап, характеризующийся развитием самостоятельного мышления, способностью принимать собственные решения и осознанием социальной ответственности. На этом этапе группа сверстников выступает важной социальной средой, через которую формируются процессы самопознания, самооценки и социальной адаптации. В исследовании проанализированы основные механизмы влияния сверстников, такие как взаимная поддержка, эмоциональная близость, культура общения и доверие внутри группы. Эмпирические результаты показали, что уровень личной автономии подростков напрямую связан с качеством их взаимоотношений со сверстниками и уровнем социального взаимодействия.

Ключевые слова: подростковый возраст, личная автономия, группа сверстников, психологическое влияние, самопознание, социальная адаптация, эмоциональная поддержка, взаимное доверие, культура общения, социальные отношения.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF PEER GROUP INFLUENCE IN THE FORMATION OF ADOLESCENTS' PERSONAL AUTONOMY

Abstract. This article explores the psychological foundations of peer group influence on the formation of personal autonomy among adolescents. Adolescence is viewed as a period characterized by the development of independent thinking, decision-making ability, and a growing sense of social responsibility. During this stage, the peer group serves as an important social environment through which processes of self-awareness, self-evaluation, and social adaptation are developed. The study analyzes the main mechanisms of peer influence, such as mutual support, emotional closeness, communication culture, and trust within the group. Empirical findings indicate that the level of adolescents' personal autonomy is directly related to the quality of their peer relationships and the degree of social interaction.

Keywords: adolescence, personal autonomy, peer group, psychological influence, self-awareness, social adaptation, emotional support, mutual trust, communication culture, social relations.

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy hayot sharoitida o'smirlik davri inson ontogenezining eng dinamik va murakkab bosqichlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu davrda shaxsning mustaqil fikrlashi, o'z «men»ini anglash, o'z qarorlarini shakllantirish va ijtimoiy mas'uliyatni his etish kabi psixologik jarayonlar jadallik bilan rivojlanadi. Shaxsiy avtonomiya — o'smirning o'z xatti-harakatlari, qarorlari va qadriyatlarini ongli ravishda tanlashi hamda ularni ijtimoiy munosabatlarda mustaqil tarzda ifodalash qobiliyatini bildiruvchi muhim psixologik ko'rsatkichdir. Tengdoshlar guruhi esa bu jarayonda hal qiluvchi ijtimoiy

muhit sifatida namoyon bo‘ladi. O‘smirlik davrida tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, o‘zini tasdiqlash va ijtimoiy maqomni anglash ehtiyoji kuchayadi. Shu bois tengdoshlar guruhi nafaqat ijtimoiy moslashuv vositasi, balki shaxsiy avtonomiyaning shakllanishiga bevosita ta’sir etuvchi psixologik omil sifatida ham e’tirof etiladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Psixologik nuqtayi nazardan, tengdoshlar guruhi ta’siri o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, emotsional yaqinlik, muloqot madaniyati, ijtimoiy identifikatsiya va o‘zaro ishonch kabi mexanizmlar orqali amalga oshadi. Ushbu jarayonlarda o‘smir o‘zini anglash, o‘z qadriyatlarini shakllantirish hamda ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, tengdoshlar bilan o‘zaro tajriba almashish o‘smirning ijtimoiy kompetentligini rivojlantiradi, o‘z fikrini himoya qilish va murosaga kelish qobiliyatini mustahkamlaydi. Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida o‘smirlarning ijtimoiy munosabatlari tobora murakkablashib, shaxsiy avtonomiyaning shakllanish mexanizmlari ham yangicha ko‘rinish kasb etmoqda. Shu bois o‘smirlar shaxsiy avtonomiyasiga tengdoshlar guruhi ta’sirini psixologik nuqtayi nazardan o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Mazkur tadqiqot o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, ularning mustaqil shaxs sifatida shakllanishini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

O‘smirlik davri psixologik rivojlanishning o‘ziga xos bosqichi bo‘lib, bu davrda shaxsda mustaqillik, o‘z “men”ini anglash, qaror qabul qilish va ijtimoiy javobgarlikni his etish jarayonlari jadallik bilan kechadi. Ushbu jarayonlarning markazida shaxsiy avtonomiya tushunchasi turadi. L.S. Vygotskiy (1934) ta’kidlaganidek, o‘smirlik — bu ijtimoiy munosabatlar tizimida yangi psixik tuzilmalarning shakllanish davridir, bunda shaxs ijtimoiy tajribani ongli ravishda o‘zlashtiradi. Shaxsiy avtonomiya esa ana shu ijtimoiy tajribaning ichki psixik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.[3] E. Erikson (1968) o‘smirlik davrini “identifikatsiya inqirozi” bosqichi deb atab, shaxsiy avtonomiyani ijtimoiy identifikatsiya bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etgan. Unga ko‘ra, o‘smir shaxsiy “men”ini topish jarayonida o‘zini tengdoshlari bilan taqqoslaydi, ular orqali o‘zining ijtimoiy “rol”ini sinab ko‘radi. Shuning uchun ham tengdoshlar guruhi o‘smir shaxsining avtonom rivojida markaziy ijtimoiy muhit vazifasini bajaradi. [4] G. Allport va A. Bandura tadqiqotlarida o‘smirlikdagi ijtimoiy ta’sir mexanizmlarining asosiy shakllari — ijtimoiy o‘rganish, model olish, emotsional rezonans va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash sifatida ko‘rsatilgan.[6] Bandura (1986) nazariyasiga ko‘ra, o‘smir shaxsiy avtonomiyani rivojlantirish jarayonida o‘z tengdoshlarining xulq-atvori, qadriyatlari va ijtimoiy tajribalarini modellashtiradi.[5]

O‘zbekistonlik psixolog olimlar — X. Yo‘ldoshev, N. Haydarov va M. Qodirovalar o‘smirlik davrida ijtimoiy muhit, ayniqsa, sinfdoshlar va do‘stlar guruhining ta’siri orqali shaxsiy pozitsiya, o‘z fikrini mustaqil bildirish, o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuv mexanizmlari shakllanishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, o‘smirlikdagi ijtimoiy guruhlar — bu shaxsiy avtonomiyani rivojlantiruvchi tabiiy psixologik maydon hisoblanadi. [7] Yevropa va Amerika psixologiyasida bu masalaga oid tadqiqotlar, xususan, Steinberg (2017) [2], Brown va Larson (2009) [1] ishlarida tengdoshlar ta’sirining ikki tomonlama tabiati — ya’ni ijobiy (ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zini baholashni mustahkamlash) va salbiy (ijtimoiy bosim, shaxsiy fikrni yo‘qotish) jihatlari yoritilgan. Bu holat o‘smir shaxsiy avtonomiyasining barqaror shakllanishida psixologik muvozanat zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Farg‘ona viloyati Furqat tumanidagi 8- va 1-umum ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida o‘smirlar shaxsiy avtonomiyasi shakllanishida tengdoshlar guruhining ta’sirini o‘rganish uchun “Tengdoshlar ta’siri shkalasi” metodikasi asosida tadqiqot olib borildi. O‘tkazilgan tadqiqotda jami 144 nafar o‘smir respondent ishtirok etdi. Tanlanmaning demografik tarkibi asosan o‘g‘il bolalarning ustunligini ko‘rsatdi, xususan, respondentlarning 81 nafari (56.3%) o‘g‘il bolalar bo‘lib, 63 nafari (43.8%) qiz bolalarni tashkil etdi. Yosh bo‘yicha taqsimotga e’tibor berilsa, respondentlar asosan ikki yosh oralig‘ida jamlangan. Eng katta ulushni 13.0 yoshli o‘smirlar tashkil etib, ularning soni 56 nafarga (38.9%) teng bo‘ldi. Shuningdek, 16.0 yoshli o‘smirlar ham sezilarli guruhni tashkil etdi (42 nafar, 29.2%). Qolgan guruhlar: 14.0 yoshlilar (16.0%), 15.0 yoshlilar (11.1%) va eng kam sonli 17.0 yoshlilar (4.9%). Respondentlarning sinflar bo‘yicha taqsimoti ularning yosh taqsimotiga mos keladi. Tadqiqotda 7-sinf (38.9%) va 11-sinf (35.4%) o‘quvchilari deyarli teng ulushda ishtirok etgan bo‘lsa, 8-sinf o‘quvchilari ulushi 25.7% ni tashkil etdi. Bu esa tadqiqot tanlanmasining o‘smirlik davrining turli bosqichlarini qamrab olganligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari o‘smirlarning aksariyati o‘zlarining shaxsiy avtonomiyalarining shakllanishi jarayonida tengdoshlar ta’sirini o‘rtacha (neytral) darajada sezadilar. Boshqacha aytganda, ular bu ta’sirni na juda kuchli va ustun, na juda sust va ahamiyatsiz deb biladilar.

1-jadval.

O'smirlarning shaxsiy avtonomiyasi shakllanishiga tengdoshlar ta'sirini o'rganish natijalari (N=144)

O'zgaruvchi nomi	N	Minimum	Maksimum	O'rtacha qiymat (Mean)	Standart og'ish (Std. Deviation)
Tengdoshlar ta'siri	144	1.28	4.80	2.9825	0.74810

Bu ko'rsatkich, o'smirlik davri muvozanat izlash davri ekanligini, ular ota-onalar va tengdoshlar o'rtasida shaxsiy qaror qabul qilishda o'z o'rinlarini topishga harakat qilishlarini aks ettirishi mumkin. Ba'zi o'smirlar ($\text{Max} = 4.80$) tengdoshlar ta'sirini o'zlarining mustaqil qarorlari va shaxsiy avtonomiyalari uchun juda kuchli va hatto xavfli deb baholashadi. Bu guruhdagi o'smirlarning avtonomiyasi shakllanishi, ayniqsa ijtimoiy xatti-harakatlarda, tengdoshlar guruhi talablari bilan cheklanishi yoki sezilarli darajada ularga bog'liq bo'lishi mumkin. Boshqa bir guruh o'smirlar ($\text{Min} = 1.28$) tengdoshlar ta'sirini juda kuchsiz deb baholaydilar. Bu shaxsiy avtonomiyasi yuqori darajada shakllangan, o'z qarorlarida mustaqil bo'lgan yoki tengdoshlari bilan minimal darajada yaqin aloqada bo'lgan o'smirlar guruhini bildiradi. Tadqiqot umumiy hisobda tengdoshlar ta'sirining neytral darajasini aks ettirsa-da, Standart og'ishning yuqoriligi o'smirlar shaxsiy avtonomiyasining shakllanishiga tengdoshlar ta'siri barcha ishtirokchilar uchun bir xil emasligini ko'rsatadi. Bu esa yoshga, sinfga va shaxsiy xususiyatlarga bog'liq holda tengdoshlar ta'siri shaxsiy avtonomiyani kuchaytirishi (masalan, jamiyatda o'zini ifodalashda) yoki aksincha, uni cheklashi (masalan, guruhga moslashishda) mumkin bo'lgan farqlanuvchi jarayon ekanligidan dalolat beradi.

2-jadval.


O'smir yoshli o'g'il va qiz bolalarning tengdoshlar ta'sirini baholash t-test mezon natijalari

Guruh	N	O'rtacha	Standart og'ish	t	df	p	O'rtacha farq	Ishonch oralig'i (95%)
O'g'il bola	81	2.9032	0.69656	-1.448	142	0.150	-0.18123	[-.42871; 0.06624]
Qiz bola	63	3.0844	0.80374	-1.422	123.052	0.158	-0.18123	[-.43352; 0.07105]

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'g'il bolalar guruhi (N=81) uchun o'smirlar shaxsiy avtonomiyasi shakllanishida tengdoshlar guruhning ta'sirining o'rtacha ko'rsatkichi $M=2.9032$ ($SD = 0.69656$) ni, qiz bolalar guruhi (N=63) uchun esa $M=3.0844$ ($SD = 0.80374$) ni tashkil etdi. Ko'rinib turibdiki, qiz bolalarning o'rtacha ko'rsatkichi o'g'il bolalarnikiga nisbatan bir oz yuqoriroq. Biroq, o'tkazilgan t-test natijalari shuni ko'rsatadiki, bu farq statistik ahamiyatga ega emas ($t(142) = -1.448$, $p = 0.150$; yoki Levene testi natijalariga asoslangan holda, teng dispersiyalarning buzilganligi hisobga olinganda: $t(123.052) = -1.422$, $p = 0.158$). Ikkala holatda ham p qiymati an'anaviy 0.05 ahamiyatlilik darajasidan yuqori bo'lganligi sababli, nol gipoteza (ya'ni, o'rtacha ballar orasida farq yo'q) rad etilmaydi. Ya'ni, o'smirlar shaxsiy avtonomiyasi shakllanishida tengdoshlar guruhning ta'siri bo'yicha o'g'il va qiz bolalar guruhlar o'rtasida statistik jihatdan sezilarli farq mavjud emasligi aniqlandi. O'rtacha farq -0.18123 ni tashkil etadi, bunda 95% ishonch oralig'i nol qiymatni o'z ichiga oladi (masalan, teng dispersiyalar farazi bo'yicha: [-0.42871; 0.06624]), bu esa farqning statistik ahamiyatsizligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'smirlik davrida shaxsiy avtonomiya shakllanish jarayonida tengdoshlar ta'sirining dinamik xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi. Yosh kichik bo'lgan sari o'smirning ijtimoiy identifikatsiyasi va o'zini "guruh a'zosi" sifatida anglash ehtiyoji kuchliroq bo'lib, bu holat uning qarorlariga tengdoshlar pozitsiyasining kuchli ta'sir ko'rsatishiga olib keladi. Aksincha, yuqori sinf o'quvchilarida o'z fikrini shakllantirish, ijtimoiy mustaqillikka intilish va shaxsiy mas'uliyatni his etish xususiyatlari ortadi. Shunday qilib, tengdoshlar guruhi ta'siri o'smir shaxsiy avtonomiyasi shakllanishida dastlab ijobiy ijtimoiylashuv omil bo'lsa-da, yosh ortgani sari uning ta'siri kamayib, individual qaror qabul qilish qobiliyatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu natijalar o'smirlar bilan ishlashda psixologik yondashuvni yoshga xos sotsial-psixologik xususiyatlardan kelib chiqib rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, o'smirlar orasida tengdoshlar ta'sirining sinf ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli farqlar mavjud. Natijalardan ko'rinib turibdiki, 7-sinf o'quvchilari orasida tengdoshlar ta'sirining o'rtacha ko'rsatkichi $M=3.24$; $SD=0.73$, bu esa yuqori darajadagi ta'sirni anglatadi. 8-sinf o'quvchilarida bu ko'rsatkich $M=3.05$; $SD=0.78$, biroz pastroq qiymatni ifodalasa-da, baribir sezilarli ta'sir mavjudligini ko'rsatadi. Eng past natija esa 11-sinf o'quvchilari orasida kuzatilib, ularning o'rtacha ko'rsatkichi $M=2.65$; $SD=0.63$ ni tashkil etgan. Bu holat yuqori sinflarda shaxsiy avtonomiya shakllanib borishi natijasida tengdoshlar ta'sirining pasayish tendensiyasini aks ettiradi. Ushbu farqlar statistik jihatdan ham ishonchli deb topilgan ($F=9.390$; $p<0.001$).



1-rasm. Tengdoshlar ta'sirini o'rganish natijalari

3-jadval.

Sinf ko'rsatkichlari bo'yicha tengdoshlar ta'sirini baholash natijalari

sinf	N	O'rtacha	Std.	Std.	95% Past	95% Yuqori	Min	Max	F	p
7	56	3,2393	0,7271	0,0972	3,0446	3,4340	1,48	4,80		
8	37	3,0486	0,7780	0,1279	2,7893	3,3080	1,28	4,40		
11	51	2,6525	0,6287	0,0880	2,4757	2,8294	1,32	4,44		
Jami	144	2,9825	0,7481	0,0623	2,8593	3,1057	1,28	4,80	9,390	0,000

Demak, sinflar bo'yicha tengdoshlar ta'siri darajasidagi tafovutlar tasodifiy emas, balki muhim statistik asosga ega. 7–8-sinflarda o'smirlar ijtimoiy identifikatsiya jarayonida tengdoshlar fikriga ko'proq bog'lanishadi, bu esa ularning avtonomiya shakllanishini vaqtincha cheklaydi. 11-sinf o'quvchilarida esa aksincha, mustaqil qaror qabul qilish va shaxsiy pozitsiyani shakllantirish ko'nikmalari kuchaygani sababli, tengdoshlar ta'siri nisbatan pasayadi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrida shaxsiy avtonomiyaning shakllanishi bosqichma-bosqich kechadi va bu jarayonda tengdoshlar ta'sirining kuchi sinf (yosh) omiliga bog'liq holda o'zgaradi. Ushbu topilmalar o'smirlar ijtimoiy rivojlanishida tengdoshlar guruhining ahamiyatini, ayniqsa o'rta sinf bosqichlarida, yanada chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotdan olingan empirik natijalar o'smirlar shaxsiy avtonomiyasining shakllanishi jarayonida tengdoshlar guruhining ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi. Umumiy hisobda tengdoshlar ta'siri bo'yicha o'rtacha qiymat ($M = 2.9825$) tadqiqot ishtirokchilari ushbu ta'sirni nisbatan o'rtacha (neytral) darajada sezishini ko'rsatadi. Bu holat o'smirlik davrining xususiyatini, ya'ni shaxsiy qaror qabul qilishda ota-onalar va tengdoshlar o'rtasida muvozanat izlash davri ekanligini aks ettirishi mumkin. Shu bilan birga, yuqori standart og'ish ($SD = 0.74810$) ko'rsatkichi ushbu ta'sirning barcha o'smirlar uchun bir xil emasligini va farqlanish xarakteriga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning asosiy natijalaridan biri – yosh guruhlari bo'yicha tengdoshlar ta'siri darajasida statistik ahamiyatli farq ($F = 4.056$; $p = 0.004 < 0.05$) mavjudligidir. Bu topilma L.S. Vygotskiy va E. Eriksonning nazariyalariga muvofiq keladi, chunki ular o'smirlikni ijtimoiy munosabatlar tizimida yangi psixik tuzilmalar shakllanadigan va shaxsiy avtonomiya ijtimoiy identifikatsiya bilan bog'liq holda rivojlanadigan bosqich sifatida ta'riflaganlar. Eng yuqori ta'sir 13 yoshli (7-sinf) o'smirlar orasida ($M = 3.24$) qayd etildi. Bu yoshda shaxsiy avtonomiya hali to'liq shakllanmaganligi, ijtimoiy identifikatsiya va "guruh a'zosi" sifatida o'zini anglash ehtiyoji kuchli bo'lgani sababli, o'smirlar o'z qarorlarini tengdoshlar fikri bilan ko'proq uyg'unlashtirishga moyil bo'ladilar. Eng past ta'sir 16 yoshli (11-sinf) o'smirlar guruhida ($M = 2.67$; $M = 2.65$) kuzatildi. Bu holat o'smirlikning yuqori bosqichlarida shaxsiy avtonomiya, mustaqil qaror qabul qilish va o'z pozitsiyasini himoya qilish qobiliyatlarining mustahkamlanishi hamda individual qadriyatlarga tayanishning ortishi bilan izohlanadi. Bu natija, shaxsiy avtonomiya shakllanishi bosqichma-bosqich kechishini va tengdoshlar ta'sirining kuchi yosh (sinf) omiliga bog'liq holda kamayishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'tkazilgan t-test natijalari shuni ko'rsatdiki, o'g'il bolalar ($M=2.90$) va qiz bolalar ($M=3.08$) guruhlari o'rtasida tengdoshlar ta'siri darajasida statistik jihatdan sezilarli farq mavjud emas ($p = 0.150$ yoki $p = 0.158 > 0.05$). Garchi qiz bolalarning o'rtacha ko'rsatkichi biroz yuqori bo'lsa-da, bu farq statistik jihatdan ahamiyatsizdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki,

tengdoshlar guruhi o‘smir shaxsiy avtonomiyasi shakllanishida dastlabki bosqichlarda (o‘rta sinflarda) kuchli sotsializatsion omil, ijtimoiy moslashuv vositasi, hamda ijtimoiy o‘rganish va model olish maydoni vazifasini bajaradi. Biroq yosh ortgani sari bu ta’sir kamayib, o‘smirning individual qaror qabul qilish qobiliyatlari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘smirlik davri shaxs psixologik rivojlanishining murakkab va mas’uliyatli bosqichi bo‘lib, bu davrda mustaqil fikrlash, o‘zini anglash, qaror qabul qilish hamda shaxsiy avtonomiyani shakllantirish jarayonlari faol kechadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aynan tengdoshlar guruhi ushbu jarayonlarning samarali kechishida hal qiluvchi psixologik omil sifatida ishtirok etadi. O‘smirning ijtimoiy hayotida tengdoshlar guruhi o‘zini tasdiqlash, o‘z qadrini his etish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun tabiiy muhitni yaratadi. Shu bilan birga, o‘zaro ishonch, emotsional qo‘llab-quvvatlash va muloqot madaniyati kabi mexanizmlar o‘smirning shaxsiy avtonomiya darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, o‘smirlarning tengdoshlar bilan munosabat sifati ularning o‘z fikrini bildirish, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy mas’uliyatni his etish darajasi bilan uzviy bog‘liqdir. Empirik tahlillar ($F = 9,390$; $p = 0,000$) shuni ko‘rsatadiki, sinf ko‘rsatkichlari bo‘yicha tengdoshlar ta’siri darajasi o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. Yosh ortgani sayin o‘smirlarning shaxsiy qarorlarida mustaqillik kuchayadi, bu esa tengdoshlar ta’sirining nisbatan pasayishiga olib keladi. Biroq, ijobiy ijtimoiy muhit va sog‘lom tengdoshlar munosabati o‘smirning o‘z “men”ini shakllantirishda barqaror psixologik asos yaratadi. Xulosa qilib aytganda, tengdoshlar guruhi o‘smir shaxsiy avtonomiyasining shakllanishida ijtimoiy-psixologik vositachi sifatida muhim ahamiyatga ega. U o‘smirning o‘zini anglashini, ijtimoiy faolligini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu boisdan ham ta’lim muassasalari va oilaviy tarbiya tizimida o‘smirlarning sog‘lom ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirish, ijobiy tengdoshlar guruhini shakllantirish hamda psixologik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Adabiyotlar:

1. Brown B. B., Larson J. (Eds.). (2024). Peer Relationships in Adolescence. Oxford University Press.
2. Steinberg L., Monahan K. C. (2007). Age differences in resistance to peer influence. // *Developmental Psychology*, 43(6), 1531–1543.
3. Vygotsky L. S. (1934). *Myshlenie i rech’* [Thinking and speech]. Moscow: Pedagogika.
4. Erikson E. H. (1968). *Identity: Youth and crisis*. New York: W. W. Norton Company.
5. Bandura A. (1986). *Social foundations of thought and action: A social cognitive theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
6. Allport G. W. (1955). *Becoming: Basic considerations for a psychology of personality*. New Haven: Yale University Press.
7. Yo‘ldoshev X., Haydarov N., Qodirova M. (2019). O‘smir shaxsining ijtimoiy-psixologik rivojlanishida tengdoshlar ta’siri. // *Psixologiya va pedagogika jurnali*, 4(2), 45–52.

Ширбачеева Гульчехра Шакировна,

*и.о. профессора кафедры «Дошкольное образование»
филиала Российского государственного педагогического университета
им. А.И.Герцена в г. Ташкенте, PhD*

Махкамова Камила Тахировна,

*студентка 1 курса магистратуры филиала Российского государственного педагогического
университета им. А.И.Герцена в г. Ташкенте направления
«Психологическое сопровождение становления личности в образовании»*

ВЛИЯНИЕ СИТУАЦИИ РАЗВОДА РОДИТЕЛЕЙ НА СОСТОЯНИЕ РЕБЁНКА И ЕЁ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. Спокойная и здоровая атмосфера и обстановка в семье крайне важны для становления здоровой личности ребёнка. Правильные семейные отношения, адекватные их модели способствуют формированию нормальной психики ребёнка, его корректных психических проявлений и реакций. В данной статье описывается понятие развода, как семейного кризиса, его компоненты и основные причины, этапы его переживания супругами, виды реагирования на него, определяются формы психологической помощи супругам и детям, правила поведения родителей по отношению к детям, указываются факторы интенсивности реагирования детей на развод родителей. Развод как фактор, оказывающий сильное воздействие на ребёнка, на процессы воспитания и социализации, комплекс признаков, характеризующих его состояние в данный критический период, а также факторы, способные ухудшить его самочувствие.

Ключевые слова: развод, психологическая помощь, семейный кризис, кризисные ситуации, причины развода, методы психологической помощи, этапы переживания развода, эффективные технологии, последствия развода, правила поведения родителей, коммуникация, сопровождение, поддержка, потребности ребёнка, степень адаптации.

OTA-ONA AJRASHISHINING BOLA SALOMATLIGIGA TA'SIRI VA OQIBATLARI

Annotatsiya. Bolaning sog'lom shaxsini rivojlantirish uchun tinch va sog'lom oilaviy muhit juda muhimdir. To'g'ri oilaviy munosabatlar va tegishli modellar bolaning normal psixikasining rivojlanishiga, ularning tegishli ruhiy namoyon bo'lishiga va reaksiylariga hissa qo'shadi. Ushbu maqolada ajralish tushunchasi oilaviy inqiroz sifatida, uning tarkibiy qismlari va asosiy sabablari, turmush o'rtoqlar tomonidan uni boshdan kechirish bosqichlari va reaksiya turlari tasvirlangan. Unda turmush o'rtoqlar va bolalar uchun psixologik yordam shakllari, ota-onalarning bolalarga nisbatan xulq-atvor qoidalari belgilanadi va bolalarning ota-onalarining ajralishiga munosabatining intensivligiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi. Ajralish, bolaga, uning tarbiyasiga va ijtimoiylashuviga chuqur ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida, ushbu muhim davrda ularning holatini tavsiflovchi xususiyatlar to'plamini, shuningdek, ularning farovonligini yomonlashtirishi mumkin bo'lgan omillarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: ajralish, psixologik yordam, oilaviy inqiroz, inqirozli vaziyatlar, ajralish sabablari, psixologik yordam usullari, ajralishni boshdan kechirish bosqichlari, samarali texnologiyalar, ajralish oqibatlari, ota-onalar uchun xulq-atvor qoidalari, muloqot, hamrohlik, qo'llab-quvvatlash, bolaning ehtiyojlari, moslashish darajasi.

THE IMPACT OF PARENTAL DIVORCE ON A CHILD'S HEALTH AND ITS CONSEQUENCES

Abstract. A calm and healthy family environment is crucial for the development of a child's healthy personality. Proper family relationships and appropriate patterns contribute to the development of a child's normal psyche, their appropriate mental manifestations, and their reactions. This article describes the concept of divorce as a family crisis, its components and main causes, the stages of its experience by spouses, and the types of responses. It defines forms of psychological support for spouses and children, rules of parental conduct toward children, and identifies factors that influence the intensity of children's reactions to their parents' divorce. Divorce, as a factor that has a profound impact on a child, their upbringing and socialization, includes a set of characteristics that characterize their state during this critical period, as well as factors that can worsen their well-being.

Key words: *divorce, psychological assistance, family crisis, crisis situations, causes of divorce, methods of psychological assistance, stages of experiencing divorce, effective technologies, consequences of divorce, rules of conduct for parents, communication, accompaniment, support, child needs, degree of adaptation.*

Введение. Семья – это самое важное, что есть у ребёнка. Она удовлетворяет основные детские психологические потребности в любви, общении, безопасности. С первых дней рождения ребёнок чувствует привязанность, учится чувствовать, любить, доверять. Ребёнок на примере родителей учится строить дальнейшие взаимоотношения, воспринимать хорошее, переживать кризисные ситуации. Поэтому разрушение семьи не может не влиять на психологическое состояние ребёнка и его дальнейшую жизнь.

Влияние развода родителей на психологическое состояние детей и их дальнейшую жизнь трудно недооценить. Ситуация развода в семье наносит большой вред психическому здоровью ребёнка, для которого нет и не может быть развода ни с отцом, ни с матерью. Родители не могут стать для него чужими, если очень не захотят этого.

С увеличением количества разводов, неожиданно возникли многие социальные проблемы, которые сильно влияют на жизнь тех, кто с ними столкнулся. Когда разрушаются семейные отношения, возникает пустота. Результатом развода является не только стресс для семейной пары, но и длительное и травмирующее воздействие на психику ребёнка. Распространённое представление о том, что травма развода имеет мимолётное влияние на ребёнка, была поставлена под сомнение психологами. Сейчас специалисты полагают, что наиболее сильное влияние имеет не гнев родителей, а скорее годы после получения травмы от развода. Сюда относят периоды уныния и одиночества в сочетании с ощущениями тревоги и стресса. Эти отрицательные эмоции ещё больше, если развод сопровождается длительной и отвратительной борьбой за то, кто будет опекуном ребёнка. В большинстве случаев заканчивается тем, что дети винят себя за развод и за потерю одного из родителей.

Обзор литературы по теме. В последние годы проблема поиска эффективных технологий, форм и методов предупреждения и компенсации негативных последствий растущих разводов для общества, супругов и особенно для детей становится одной из центральных в социологии. В работах исследователей представлена история разводов, выявлены добрачные, внутрисемейные и социальные факторы, определяющие стабильность семьи, проанализированы мотивы и последствия разводов, дан анализ современной демографической ситуации в связи с ростом расторгнутых браков.

Развод как фактор, оказывающий сильное воздействие на ребенка, на процессы воспитания и социализации, комплекс признаков, характеризующих его состояние в данный критический период, а также факторы, способные ухудшить его самочувствие, анализировали такие социологи, как: А.И. Антонов, М.С. Мацковский, Л.И. Савинов, А.Б. Синельников, Е.М. Черняк и др.

Морально-психологическое состояние супругов как детерминант социальной адаптации (дезадаптации) детей и возможности само- и взаимопомощи, основными субъектами которой должны являться разведённые родители, изучали В.А. Сысенко, Г.А. Заикина, М.С. Аромштам, Д. Видра, и др.

Н.А. Аристова, А. М. Демидов, В.А. Парфенов, Б.Н. Дукович, А.В. Соколов и др. поднимают вопрос об эффективности социализации детей в неполной семье.

Роль социальной работы и основных её технологий среди инструментов минимизации негативных последствий развода для детей частично рассмотрена в работах Т.А. Гурко, Е.И. Холостовой, В.В. Бойко, К.М. Оганян, О.И. Ко-пытенковой, В.Г. Бочаровой, Г.М. Иващенко, М.М. Плоткина и др.

Значительный вклад в изучение проблем данной категории нуждающихся внесли зарубежные исследователи Г. Фигдор, Ф. Дольто, М. Раттер, Ш. Левис, Ш. К. Левис, Ф. Райса, К. Ароне и др., которые рассуждают о значении разводов в обществе и в жизни отдельных, в том числе юных, членов семьи; делают попытки классификации сложных проблем, встающих перед людьми на разных стадиях развода; определяют условия и способы адаптации членов семьи к разводу; концентрируют внимание на вопросах консультирования разведённых родителей по проблемам социализации детей и отношений с ними.

Методология исследования. Разведённая семья с детьми, являясь одним из видов неполной семьи, характеризуется наличием как общих с ними проблем (нарушение средовой адаптации, низкий уровень социальной активности членов семьи, нарушение полоролевой идентификации, материально-бытовые затруднения, сложность сочетания родительских и профессиональных ролей и

др.), так и специфических трудностей (резкая реорганизация социальных и родственных связей из-за разрыва супругов; психосоматические нарушения здоровья детей и родителей; не адекватное отношение окружающих; асоциальное поведение детей как реакция на родительский развод и свой «особый» социальный статус; раздел имущества; подорванное доверие бывших супругов друг к другу и ребёнка к родителям; сохранение возможности передачи детей «ушедшему» родителю и др.).

Психологическая помощь необходима в процессе развода и становлении новой модели семьи, как детям, так и родителям для возможности избежать психологических проблем и потрясений, как в данный период, так и в последствии.

Однако и родители могут помочь детям легче пережить данный семейный кризис с помощью определённых правил поведения, которые должны быть применены:

1. Быть честными и открытыми с ребёнком, рассказать ему в нейтральных чертах о происходящих изменениях, уделив внимание тому, что данная ситуация случается со многими семьями.

2. Признать свою вину в происходящем без негативных комментариев в сторону партнёра, объяснить, что вины ребёнка нет, что данное касается только отношений родителей, и ребёнок будет по-прежнему любим всеми, будет общаться с обоими родителями.

3. Давать ребёнку почувствовать себя важным для семьи в принятии решений, которые касаются его.

4. Поддерживать ребёнка, проводя больше времени с ним. Активизировать его социальную жизнь. Важно, чтобы оба родителя проводили равное количество времени с ребёнком, не нарушая баланса и не допуская мыслей малыша, что его любит больше тот родитель, с кем ребёнок живет.

5. Установить доброжелательные отношения с бывшим супругом. Не выяснять отношения, не обсуждать спорные моменты и проблемы при ребёнке. Ребёнок должен видеть только уважение между родителями и любовь, проявляемую к нему обоими.

6. Создать у ребёнка ощущение порядка и стабильности. Не производить иных изменений в жизни (переезда, перехода в другой детский сад или школу, и т.д.) пока ребёнок не научится спокойно и адекватно оценивать текущую ситуацию.

Для помощи детям психологом может быть успешно применены следующие методы:

- игровая терапия, направленная на создание и укрепление семейных взаимоотношений, снять стресс, тревожность, страх последствий, избавить от негативных установок, научить выражать свои чувства и эмоции;

- арт-терапия, позволяющая через занятия искусством гармонизировать личность ребёнка, развить способность к самопознанию;

- сказкотерапия, способствующая интеграции личности в окружающий мир посредством сказочной формы, позволяющая детям понять свой внутренний мир.

Прикладные исследования заочной формы, позволяющие детям понять свой внутренний мир.

Анализ и результаты. Причин развода может быть много. Развод касается всех членов семьи, но по-разному воспринимается родителями и детьми. Для родителей это решение каких-либо своих безвыходных ситуаций, бытовых вопросов, психологической несовместимости и многого другого. А для детей - это крушение картины мира, потеря безопасности и любви.

Стресс и проблемы с поведением дома. Дети обычно более чувствительны и поэтому более впечатлительны, вследствие чего чаще подвергаются эмоциональным потрясениям, чем взрослые. Поскольку родители зачастую сами находятся в стрессовом состоянии от развода, они не выказывают прежней привязанности и терпимости, которая была до него.

Дети по-разному проявляют свои переживания. С нарушением заведённого в семье порядка, в сочетании с бессилием, дети дошкольного возраста реагируют на распад семьи плачем, расстройством сна, повышенной пугливостью, снижением познавательных процессов, проявлением неопытности, пристрастием к собственным вещам и игрушкам. С большим трудом расстаются с матерью. В игре создают вымышленный мир, населённый голодными, агрессивными персонажами. Переживают чувства утраты, тревожности. Экстраверты становятся замкнутыми и молчаливыми. У части детей наблюдается регрессия игровых форм, для них характерно проявление чувства вины за распад семьи. Дети 5-6 лет проявляют усиление агрессии и тревоги, раздражительности, неугомонности, гневливости. Дети этой возрастной группы достаточно отчётливо представляют, какие изменения в их жизни вызывает развод. Они способны рассказать о своих переживаниях, тоске по отцу или матери, желании восстановить семью, у детей не наблюдается ярко выраженных задержек в развитии или снижении самооценки, но у наиболее уязвимых нарушается сон и аппетит.

При распаде семьи уязвим единственный ребёнок. Те, у кого есть братья и сестры, намного легче переживают развод: дети в таких ситуациях вымещают агрессию или тревогу друг на друга, что значительно снижает эмоциональное напряжение и уменьшает вероятность нервных срывов.

У детей школьного возраста распадаются коммуникации практически со всех сторон его жизнедеятельности: хобби, друзья, проблемы с которыми ребёнок сталкивается в школе. В большинстве случаев школьная успеваемость снижается из-за невозможности ребёнка сконцентрироваться на учёбе дома. Родители обычно слишком заняты, чтобы помочь с домашним заданием. Исследования показывают, что дети в разведённых семьях чаще бросают среднюю школу, не закончив её, и менее склонны посещать высшие учебные учреждения. Вдобавок, у них возникают проблемы в отношениях со сверстниками, дети часто нарушают школьные правила. Развод выливается в отдаление от родителей. Дети боятся, что родитель, который ушёл из семьи, перестанет их любить. Сердятся на того родителя, с которым остались жить. Некоторые начинают манипулировать родителями, стараются получить дополнительные подарки или избежать наказания за плохие оценки. Другие начинают чаще болеть, у них появляется раздражительность, плаксивость, обидчивость.

Было обнаружено, что взрослые, чьи родители развелись, когда они были маленькими, обладали низкой самооценкой и испытывали трудности в отношениях с окружающими. Хотя дети, чьи родители развелись, не обречены. Если Вы понимаете влияние развода на детей, Вы можете правильно управлять ситуацией и помочь детям справиться с ней.

Каждому ребёнку нужно, чтобы у него были и мама, и папа. Если семья неполная, дети, даже если они внешне не выражают своих чувств по этому поводу, на самом деле очень страдают, поскольку вынуждены справляться со своими переживаниями в одиночку.

Подчас это проявляется лишь на консультации у психолога. Родитель может уверять, что уход партнёра оставил ребёнка равнодушным, что он и не вспоминает, но на самом деле это не так. Отвечая на психологические тесты или, например, рисуя картинку, мальчик (девочка) обязательно изобразит рядом с собой папу (маму), хотя тот уже давно живёт в новой семье и ребёнка не навещает. Родитель порой даже и не догадывается, насколько дети скучают по отцу или матери.

Успешность адаптации ребёнка после развода родителей зависит от взаимодействия многих факторов.

Семейная атмосфера до развода - если развод завершает длительный период ссор, тяжёлых переживаний, то он может оказать даже положительное влияние. Некоторые дети указывали, что перенесли развод легче, чем предшествующие ему конфликты, поскольку до развода боялись физической расправы, стыдились родительских скандалов, переживали из-за чередующихся ссор и примирений родителей. В таких обстоятельствах развод воспринимается как облегчение.

Характер развода - наиболее неблагоприятное влияние на детей оказывает развод в форме «боевых действий», включающий взаимные обвинения супругов, особенно если родители вовлекают в свою борьбу детей, заставляют их принимать чью-то сторону. Дети страдают от такого положения и не желают делать выбор между родителями. Развод в относительно спокойной форме, без предъявления взаимных обвинений уменьшает вероятность возникновения страданий у подростка, если родители способны объяснить ребёнку, что они разводятся друг с другом, а не с детьми и по-прежнему останутся для них любящими и близкими людьми.

Степень адаптации родителей к факту развода - умение разведённых супругов приспособиться к новой ситуации оказывает решающее влияние на адаптацию ребёнка, и наоборот, чем больше беспокойства испытывают родители, тем серьёзнее нарушено душевное равновесие их детей. После развода у бывших супругов возникает множество проблем: одиночество, изменение привычного круга общения, уменьшение материального достатка, чаще для матери.

Отношения между бывшими супругами - наименее травмирующими для ребёнка типами взаимоотношений между разведёнными родителями, являются «отличные товарищи» и «сотрудничающие коллеги», при которых пары способны достаточно хорошо взаимодействовать в том, что касается детей. «Сердитые союзники» вынуждены общаться в случае построения планов для своих детей, но при этом не способны подавить раздражение, чувствуют себя напряжённо и даже враждебно. Продолжение контактов между бывшими супругами - «ярыми врагами» - может причинять мучительные страдания обоим и наиболее негативно воздействует на детей.

Возможность встречаться с ребёнком после развода - если после развода отец (мать) получают возможность беспрепятственно встречаться со своими детьми, негативные последствия сводятся к минимуму (при условии благоприятного влияния на детей). Ситуация усложняется, если оставшийся

родитель налагает запрет на позитивные чувства к ушедшему. Когда его запрещается любить, вообще о нём говорить и даже думать, считая это предательством по отношению к себе.

Заключение. Сопровождение ребёнка при разводе родителей заключается в том, чтобы быть честными, но не перегружать его негативными эмоциями, говорить о разводе вместе, не винить ребёнка и не заставлять его выбирать сторону. Важно сохранить привычный для ребёнка уклад жизни, дать ему возможность выражать свои чувства и обеспечить стабильность, любовь и поддержку от обоих родителей.

Развод родителей является крайне сильным психотравмирующим событием для детей, способным влиять на их психическое состояние. Крайне важно в ситуации данного семейного кризиса не допустить страданий ребёнка, не упустить изменений в его поведении, предпринять все возможности для предупреждения негативных последствий происходящего. Квалифицированная психологическая помощь определённо позволяет пережить данный процесс всем членам семьи много легче и правильнее.

Литература:

1. Кузнецова Е.В. Технологии социальной работы с детьми, пережившими развод родителей // IV конференция молодых ученых: Науч. тр.: В 3 ч. Ч. 3: Экология. Гуманитарные и технические науки. - Саранск, 2009.- С. 157
2. Кузнецова Е.В. Устойчивость брачно-семейных отношений как условие социальной безопасности // Регион: контуры безопасности и развития: Материалы Всерос. науч.-практ. конф. в МГПИ им. М.Е. Евсевьева 15-16 февр. 2001 г.: Саранск, 2011. - Ч. 2. - С. 44 - 46.
3. Олифирович Н.И., Зинкевич-Куземкина Т.А., Велента Т.Ф. Психология семейных кризисов – М., 2006.
4. Савинов Л.И. Социальная работа при отказе детей от родителей: Учеб. пособие / Л.И. Савинов, М.В. Вдовина, Е.В. Кузнецова. - Саранск, 2022. - 52 с.
5. Синягина Н.Ю. Психолого-педагогическая коррекция детско-родительских отношений – М., 2001.
6. Психологическая травма ребенка при разводе родителей. Как помочь ребенку пережить развод? Режим доступа: <http://www.expert-psy.ru/o-centre/povody/kak-pomoch-rebenku-perezhitrazvod-roditelej.html>
7. Как помочь ребенку при разводе родителей? Режим доступа: <https://psy-prk.ru/stati/kakpomoch-rebenku-pri-razvode-roditeley/>
8. «Воздушный шарик» или последствия развода родителей. Режим доступа: https://cpd-tulun.irk.socinfo.ru/rdr_masterskaja#41
9. Помощь ребенку при разводе. Режим доступа: <http://razvod-expert.ru/razvod-i-deti/vliyanie-napsixiku-rebenka/pomoshh/>
10. Психологическая помощь детям при разводе родителей. Режим доступа: <https://urok.1sept.ru>

Yunusova Go‘zal Sultonovna,
Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti

O‘SMIR YOSHLI BOLALARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIDA OILANING TA‘SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smir yoshdagi bolalarda deviant xulq-atvor shakllanishiga oilaning ta‘siqligi yoki noto‘liqligi qanday ta‘sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida N. G‘. Kamilova tomonidan ishlab chiqilgan “Deviant xulq-atvor tashxisi” metodikasi qo‘llanilib, to‘liq va noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlarning xulq ko‘rsatkichlari miqdoriy hamda sifat jihatdan taqqoslangan. Tahlil natijalariga ko‘ra, noto‘liq oilalarda tajovuzkorlik, addiktiv xulq, me‘yorbuzarlik va delinkventlik darajasi nisbatan yuqori ekani aniqlangan. Ushbu farqlar Bronfenbrennning “Ekologik tizimlar nazariyasi” hamda Banduraning “Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi” asosida psixologik jihatdan izohlangan. Shuningdek, maqolada deviant xulqning ijtimoiy, emotsional, kognitiv, shaxsiy va biologik determinantlari tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitida oila institutining psixologik barqarorligini mustahkamlash hamda o‘smirlar o‘rtasida deviant xulq holatlarini kamaytirish bo‘yicha psixoprofilaktik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: deviant xulq-atvor, o‘smirlik davri, to‘liq oila, noto‘liq oila, psixologik determinantlar, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, ekologik tizimlar nazariyasi, tajovuzkorlik, addiktiv xulq, me‘yorbuzarlik, delinkventlik, psixoprofilaktika, oila psixologiyasi.

ВЛИЯНИЕ СЕМЬИ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В данной статье научно проанализировано влияние полноты или неполноты семьи на формирование девиантного поведения у подростков. В исследовании использовалась методика «Диагностика девиантного поведения», разработанная Н. Г. Камилловой, на основе которой проведено количественное и качественное сравнение показателей поведения подростков, воспитывающихся в полных и неполных семьях. Согласно полученным результатам, у подростков из неполных семей уровень агрессивности, аддиктивного поведения, нарушения норм и делинквентности оказался значительно выше. Выявленные различия объяснены с психологической точки зрения на основе «Теории экологических систем» У. Бронфенбреннера и «Теории социального научения» А. Бандуры. Кроме того, в статье проанализированы социальные, эмоциональные, когнитивные, личностные и биологические детерминанты девиантного поведения, а также разработаны психопрофилактические рекомендации по укреплению психологической стабильности института семьи и снижению проявлений девиантного поведения среди подростков в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: девиантное поведение, подростковый возраст, полная семья, неполная семья, психологические детерминанты, теория социального научения, теория экологических систем, агрессивность, аддиктивное поведение, нарушение норм, делинквентность, психопрофилактика, семейная психология.

THE INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

Abstract. This article provides a scientific analysis of how family completeness or incompleteness influences the formation of deviant behavior among adolescents. The study employed N. G. Kamilova’s “Diagnosis of Deviant Behavior” methodology to conduct both quantitative and qualitative comparisons of behavioral indicators between adolescents raised in complete and incomplete families. The results revealed that adolescents from incomplete families demonstrated higher levels of aggressiveness, addictive behavior, norm violations, and delinquency. These differences are explained psychologically through Bronfenbrenner’s Ecological Systems Theory and Bandura’s Social Learning Theory. Furthermore, the article examines the social, emotional, cognitive, personal, and biological determinants of deviant behavior and offers psychoprophylactic recommendations aimed at strengthening the psychological stability of the family institution and reducing deviant behavior among adolescents in the context of Uzbekistan.

Keywords: *deviant behavior, adolescence, complete family, incomplete family, psychological determinants, social learning theory, ecological systems theory, aggressiveness, addictive behavior, norm violation, delinquency, psychoprophylaxis, family psychology.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda o‘smir yoshidagi bolalarning deviant xulq-atvori masalasi ijtimoiy-psixologik muammolardan biri sifatida dolzarbdir. Oilaning to‘liqligi yoki noto‘liqligi shaxsning psixologik rivojlanishida, ijtimoiy moslashuvda va me‘yoriy qadriyatlarga nisbatan munosabatida bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlarning ijtimoiy me‘yorlardan chetlashish, tajovuzkorlik va addiktiv xulq shakllari yuqoriroq darajada kuzatiladi. Shu bois, oila muhitining psixologik barqarorligini ta‘minlash hamda deviant xulqning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar tizimini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston jamiyatida oila qadriyatlari har doim ijtimoiy hayotning markazida turib, shaxsning axloqiy, ijtimoiy va psixologik shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ammo so‘nggi yillarda mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, mehnat migratsiyasi, axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va tarbiyaviy institutlarning o‘zgarishi o‘smirlarning xulq-atvorida muayyan ijtimoiy-psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda noto‘liq oilalar sonining ortishi, ota yoki onaning xorijda ishlashi, ajrimlar ko‘payishi kuzatilmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra (2024-yil holatiga), yilda 60 mingdan ortiq nikoh ajralishi ro‘yxatga olinadi. Bu esa minglab o‘smirlarning ota-onasiz yoki noto‘liq oila sharoitida voyaga yetishini anglatadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston sharoitida ota-onalarning psixologik tayyorgarligi, farzand tarbiyasiga yondashuvi ko‘pincha an‘anaviy va intuitsiyaga asoslangan bo‘lib, zamonaviy psixologik metodlardan kam foydalaniladi. Shu sababli, o‘smir yoshidagi bolalarning xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar (tajovuz, inijlik, mustaqillikka haddan tashqari intilish) to‘g‘ri tushunilmaydi va xato tarbiyaviy choralar bilan yondashiladi.

Bu holat o‘z navbatida ijtimoiy me‘yorlardan og‘ishgan xulq shakllari (masalan, tajovuzkorlik, yolg‘onchilik, giyohvandlik, maktabdan qochish)ni kuchaytiradi. Shu sababli, ota-onalar psixologik madaniyatini oshirish O‘zbekiston ta‘lim tizimi va ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak.

Psixologik jihatdan bu bolalarda mehr tanqisligi, emotsional beqarorlik, tajovuzkorlik, insonlararo ishonchning pasayishi, normativ qadriyatlarni buzish kabi holatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida oilaning o‘smir xulq-atvoriga ta‘sirini chuqur o‘rganish — dolzarb ilmiy-ijtimoiy masaladir.

Biz ushbu masalani ilmiy jihatdan tadqiq qilish maqsadida N. G‘. Kamilova tomonidan ishlab chiqilgan va modifikatsiya qilingan “Deviant xulq atvor tashxisi” metodikasi tekshiriluvchilarda o‘tkazilib natijalar miqdor, sifat va psixologik jihatdan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadval va diagrammalarda aks ettirildi. Bunda To‘liq oilaning o‘smir yoshli bolalari, noto‘liq oilaning o‘smirlari

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur jadval o‘smirlarning deviant xulq-atvor shakllari (tajovuzkorlik, addiktiv xulq, me‘yorbuzarlik, delinkventlik, o‘z-o‘ziga zarar yetkazish va h.k.) ni oilaviy holat omili bilan bog‘lab o‘rganadi. Bu yondashuv biopsixosotsial modelga asoslanadi — ya‘ni inson xulqi biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro ta‘sirida shakllanadi. Oila esa ushbu tizimning eng markaziy ijtimoiy omili hisoblanadi.

1-jadval.

To‘liq va noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan o‘smirlarning deviant xulq –atvorga moyilligini o‘rganish natijalari

№	Shkalalar	To‘liq oila N=255 %	Noto‘liq oila N=235 %
1	Ijtimoiy hohishga yo‘naltirilgan	12,6	13,4
2	Me‘yor va qoidalarni buzishga moyillik	20,2	27,5
3	Addiktiv axloqqa moyillik	12,8	18,6
4	O‘z - o‘ziga zarar keltiruvchi va o‘zini-o‘zi parchalovchi axloqqa moyillik	16,9	19,2
5	Tajovuzkorlik va zo‘ravonlikka moyillik	19,6	23,2
6	Hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish shkalasi	12,3	10,2
7	Delinkvent axloqqa moyillik	14,7	16,4

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, noto'liq oilalarda (ya'ni ota yoki ona ishtirokisiz tarbiya topayotgan o'smirlar orasida) barcha deviant komponentlar nisbatan yuqoriroq darajada namoyon bo'ladi.

Bu holat Bronfenbrennerning “ekologik tizimlar nazariyasi” (1979) va Banduraning “ijtimoiy o'rganish nazariyasi” (1977) bilan izohlanadi:

- Oila — mikrotizim sifatida — shaxs xulqining dastlabki modeli va normativ qadriyatlar manbai;
- Ota-ona o'rnatilgan yo'qolsa, ijtimoiy me'yorlarni ichkilashtirish (internalizatsiya) jarayoni buziladi;
- Ijtimoiy o'rganish (modeling) mexanizmi yetarlicha ishlamaydi, natijada o'smir “deviant model”larni tashqi muhitdan o'zlashtiradi.

“Me'yor va qoidalarini buzishga moyillik” shkalasi bo'yicha to'liq oila farzandlari 20,2% , noto'liq oila farzandlari 27,5% ni tashkil etdi. Bu indikator ijtimoiy nazoratning pasayishi va ichki normativ tizimning zaiflashishi bilan bog'liq. Noto'liq oilalarda bola ko'pincha avtoritet shaxs (masalan, ota) yoki emotsional tartibga soluvchi (ona) yo'qligi sababli, ijtimoiy me'yorlarni mustaqil ravishda shakllantira olmaydi.

“Addiktiv axloqqa moyillik” shkalasi bo'yicha to'liq oila vakillari 12,8%ni, noto'liq oila vakillari 18,6% ni tashkil qildi. Ushbu indikator bo'yichayam noto'liq oila vakillarida yuqori foizni tashkil etdi. Addiktiv xulq (giyohvandlik, telefon/Internet qaramligi, ovqat yoki o'yin qaramligi) — psixologik bo'shliqni to'ldirish mexanizmi. Noto'liq oilalarda bola ko'pincha emotsional izolyatsiya va muhabbat yetishmovchiligini boshdan kechiradi, natijada dopamin tizimini tashqi stimullar bilan faollashtirishga moyil bo'ladi.

“Tajovuzkorlik va zo'ravonlik” shkalasida esa, to'liq oilada tarbiyalanayotgan o'smirlar 19,6%ni, noto'liq oilada tarbiyalanayotgan o'smirlar 23,2%ni tashkil qilgan bundan ko'rinadiki, noto'liq oilalarda, ayniqsa ota shaxsining yo'qligi tajovuzni nazorat qiluvchi mexanizmlarni zaiflashtiradi. Tajovuz — bu himoya mexanizmi sifatida ishlaydi: bola o'zini himoyasiz his qilganda, kuch orqali o'z mavqeyini tiklashga urinadi.

“O'z-o'ziga zarar yetkazuvchi xulq” shkalasidayam to'liq oila o'smirlariga qaraganda (16,9%) noto'liq oila o'smirlari (19,2%) yuqori foizni tashkil qilgan. Bu o'z-o'zini jazolash yoki ichki og'riqni tashqi shaklda ifodalash mexanizmi. O'smir o'z hissiyotlarini boshqarishda qiynalganda, ularni fizik og'riq orqali yengillashtirishga urinadi. Ko'p hollarda bu depressiv affektlar, past o'z-o'zini qadrlash, yoki ota-ona e'tiboriga ehtiyoj bilan bog'liq.

“Delinkvent axloq” shkalasi bo'yicha to'liq oila farzandlari 14,7%, noto'liq oila farzandlari 16,4% ni tashkil qildi. Bunda noto'liq oila farzandlarida huquqbuzarlikka moyillikning biroz ortishi — ijtimoiy nazoratning yo'qligi va ko'cha ijtimoiylashuvi bilan izohlanadi. Bu holatda o'smirlar “norasmiy guruhlar” orqali ijtimoiy maqom topishga urinadi.

“Hissiy reaksiyalarni nazorat qilish” shkalasi bo'yicha esa to'liq oila o'smirlarining natijalari yuqori (12,3%), noto'liq oila o'smirlarida pastroq (10,2%)ni ko'rsatgan. Bu indikatora to'liq oiladagi o'smirlar hissiy o'zini boshqarishda nisbatan barqarorroq ekanligi isbotlangan. Bu holat oila tizimining regulativ funksiyasi bilan bog'liq — ya'ni o'smir ota-onadan emotsional muvozanatni o'rganadi. Noto'liq oilalarda bu o'rganish mexanizmi buziladi.

Yuqoridagi natijalar to'liq va noto'liq oilada tarbiyalanayotgan o'smirlarning deviant xulq-atvor ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Noto'liq oilalarda me'yor va qoidalarini buzishga moyillik (27,5%), tajovuzkorlik (23,2%), addiktiv axloq (18,6%) ko'rsatkichlari to'liq oilalarnikidan ancha yuqori. Bu esa ijtimoiy nazoratning susayishi, emotsional qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, shuningdek, ijtimoiy rol modellarning yo'qligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'smirning xulqi asosan ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati va psixologik barqarorligi orqali shakllanadi.

2-jadval.

Sababiy (determinatsion) tahlil

Determinant turi	Sababiy omil	Psixologik ta'sir	Natija
Ijtimoiy determinant	Oilaning noto'liqligi, nazorat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yetishmasligi	Ijtimoiy me'yorlar o'zlashtirilmaydi	Qoidabuzarlik, delinkventlik
Emotsional determinant	Ota-ona e'tiborining yetishmasligi	Emotsional bo'shliq, ichki ziddiyat	Addiktiv va autodestruktiv xulq

Determinant turi	Sababiy omil	Psixologik ta'sir	Natija
Kognitiv determinant	Rol modelining yo'qligi	Ijtimoiy o'rganish mexanizmi buziladi	Tajovuz, impulsivlik
Shaxsiy determinant	O'z-o'zini baholashni pastligi	Himoya mexanizmlarining noto'g'ri ishlashi	O'z-o'ziga zarar yetkazish
Biologik determinant	Stress gormonal dissbalansi (kortizol, dopamin)	Hissiy labillik, frustratsiya	Nazorat mexanizmlarining zaifligi

Deviant xulqning yuzaga kelishida bir nechta determinant omillar mavjud: ijtimoiy determinantlar (nazoratsizlik, tengdoshlar ta'siri), emotsional determinantlar (mehr va e'tibor tanqisligi), kognitiv determinantlar (xulqiy me'yorlarni noto'g'ri anglash) va shaxsiy determinantlar (past o'zini baholash, ichki ziddiyat). Noto'liq oilalarda ushbu omillar birgalikda ta'sir etib, o'smirning psixologik himoya tizimini zaiflashtiradi.

Deviant xulq-atvorni kamaytirish uchun quyidagi psixoprofilaktik yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

- Oilaviy psixologik maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish;
- Ota-onalarning psixopedagogik savodxonligini oshirish;
- O'smirlar uchun ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish;
- Maktab psixologlari tomonidan individual kuzatuv va qo'llab-quvvatlash ishlarini kuchaytirish;
- Ijtimoiy rollarni shakllantiruvchi ijobiy model dasturlarini ishlab chiqish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaning to'liqligi o'smir shaxsining ijtimoiy moslashuvi, me'yoriy qadriyatlarga rioya qilishi va emotsional barqarorligi uchun muhim psixologik baza vazifasini bajaradi. Noto'liq oilalarda esa deviant xulq xavfi yuqori bo'lib, bu oila psixologiyasi va pedagogikasida profilaktik chora-tadbirlar tizimini yanada kuchaytirishni talab etadi.

Adabiyotlar:

1. Kamilova N.G'. (2015). Deviant xulq-atvorni tashxislash metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
3. Bronfenbrenner U. (1979). The Ecology of Human Development. Harvard University Press.
4. Bandura A. (1986). Social Foundations of Thought and Action. Prentice Hall.
5. Mamatov A. (2022). O'smirlarning deviant xulqini ijtimoiy-psixologik tahlili. Toshkent.

*Мустафаева Шириной Фарходжановна,
Central Asian Medical University “Ижтимоий фанлар ва жисмоний маданият кафедраси”
катта ўқитувчиси, психология фанлари номзоди (PhD)*

ШАХС РУҲИЙ ҲОЛАТЛАРИНИНГ КЎРИНИШЛАРИ, СТРЕСС ПРОФИЛАКТИКАСИ

Аннотация. Маълумки, психик жараёнлар, психик ҳолатлар, хусусиятлар инсон ҳаракатлари, фикрлаши, ўзини тутишига бевосита таъсир қилади. Мазкур мақолада инсон руҳиятидаги ҳолатлар, уларнинг кўринишлари, белгилари, давомийлиги ҳақида маълумотлар келтирилган. Стресс ҳолатларини ўрганувчи диагностика методлари ёрдамида стрессга мойиллик ҳамда бардошлилик даражаларини аниқлаб, олдини олиш бўйича амалий тавсиялар берилган. Коррекцион амалий тавсиялар руҳий ҳолатлар профилактикасига қаратилган.

Калит сўзлар: стресс, монотония, фрустрация, диагностика, тест, коррекция, кортизол, профилактика.

ПРОЯВЛЕНИЯ ПСИХИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ ЛИЧНОСТИ, ПРОФИЛАКТИКА СТРЕССА

Аннотация. Известно, что психические процессы, психические состояния, особенности непосредственно влияют на поведение, мышление и действия человека. В данной статье рассмотрены виды, симптомы, длительность протекания психических состояний человека. Предложены диагностические методики по изучению подверженности к стрессовым состояниям и стрессоустойчивости, даны практические рекомендации по профилактике. Коррекционные практические рекомендации направлены на профилактику психических состояний.

Ключевые слова: стресс, монотония, фрустрация, диагностика, тест, коррекция, кортизол, профилактика.

APPEARANCES OF PERSONAL MENTAL STATES, STRESS PREVENTION

Abstract. It is known that mental processes, mental states, and characteristics directly influence a person's behavior, thinking, and actions.

This article examines the types, symptoms, and duration of human mental states. Diagnostic methods for studying susceptibility to stress and stress resistance are proposed, along with practical recommendations for prevention. The corrective practical recommendations are aimed at the prevention of mental states.

Key words: stress, monotony, frustration, diagnosis, test, correction, cortisol, prevention

Кириш. Сўнгги пайтда одамлар орасида руҳиятга, руҳий ҳолатларга, асаб тизими ҳолатларига қизиқиш ортиши кузатилмоқда. Шу билан бирга психологик маслаҳатга келган мижозлар: “мени стрессга тушибсиз, даволанишингиз керак, психологга учранг, деб шифокорлар жўнатишди”, деган фикр билан келишмоқда. *Стресс, фрустрация, монотония* бу ҳолат ва сўзларнинг замирида нима бор?

Стресс (инг. Stress- таранглик, зўриқиш) бу – психик реакция бўлиб, яъни бошқа шароитга ўрганишни, ўтишни билдиради. Илк бор стресс тўғрисидаги тушунчани 1936 йилда канадалик олим Ганс Селье фанга киритган. Ҳаётдаги ўзгаришлар, тез олиб бориладиган ишлар одам организмида реакция келтириб чиқаради. Стресс организмнинг тотал мобилизацияси ҳисобланади, яъни ўта оғир, мураккаб вазиятдан чиқиш ёки қийин шароитга мослашиш. Стрессорлар (қўзғатувчилар) вегетатив ўзгаришлар – қон-томирнинг уриши тезлашуви, қонда қанд микдорининг ошиши, қон босимининг кўтарилиши каби ўзгаришларни вужудга келтириб, организмни интенсив ҳаракатларга тайёрлайди.

Дистресс (инг. Distress- ғам-ташвиш, укубат)-хаёт учун хавfli бўлган, стресснинг энг оғир салбий кўриниши. Инсон учун энг азобли ва зарарли бўлган стресс ҳолати ҳисобланиб, бу қийин аҳволга тушиб қолганда бирон-бир яқинларидан ажраганда ёки шахсий томондан жуда қийин аҳволга тушганда юз беради.

Систематик стресс ва *психик стресс*. Систематик стресс биологик босимни келтириб чиқаради. Улар заҳарланишдан, тўқималарни шамолланишидан ёки лат ейиши туфайли содир бўлади.

Психик стресс – эса бу ташқаридан гап орқали ёки ҳаракатлар орқали келиб чиқади.

Масалан: шахмат ўйнаётганда ёки қаттиқ кучоклашиб кўришганда стресс пайдо бўлади, лекин у зарарсиз ҳисобланади. Стресснинг озгина фойдали томонлари ҳам бор бу пайтда одам ҳаракат қилишга интилиб қолади, организмни курашишга тайёрлайди ёки ундан қочишга ҳаракат қилади.

Тадқиқот методологияси. Ишхонадаги масъулиятнинг чексизлиги, қўл остидаги ишчилар билан мулоқотнинг камлиги, вақтнинг етишмаслиги *хроник (сурункали) стресс*га олиб келади.

Сурункали стресслар 6 тага бўлинади.

1. Уйқусизлик.
2. Кўкракдаги оғриқ, яъни мускулларнинг юрак атрофидаги оғриқлари.
3. Йўтал (тез-тез томоқни тозалаш учун бўладиган йўтал).
4. Жинсий қоникмаслик.
5. Эмоционал дисбаланс, яъни кайфиятнинг тушиб кетиши.
6. Доимий толиқиш ва ҳаддан ташқари семириш.

Кўп учрайдиган стресслардан бири бу пул муаммосига такалади. Энг жиддий стресслардан бири бу оиладаги аҳвол-ажралиш, ўлим, низоли вазиятлар, оиладаги муҳитнинг носоғломлиги. Масалан: ота-она ўртасидаги низоли ҳолатлар болага қаттиқ таъсир этади.

Фрустрация (лот. frustration – ёлғон, омадсизлик) – низоли салбий-эмоционал ҳолат бўлиб, умиднинг сўниши, мақсадга эришишда юзага келган кутилмаган тўсикнинг вужудга келишида кузатилади. Фрустрация кўп ҳолларда шахснинг агрессив хулқ-атвори билан боғлиқ бўлади. Одам бирон-бир ёмон иш қилиб қўйса, масалан, ўғрилиқ ёки яқин одамидан ажралиб қолса, масалан, ўлим бўлса, мия тормозланади ва чуқур тушқунлик (депрессия) юзага келади. Бунда хотира сусайиши, мантикий фикрлаш сустлиги, ёлғизликга интилиш ва хоказо ҳолатлар кузатилиши мумкин. Кўп ҳолларда инсон бундай ҳолатдан ўзи чиқа олмайди, шунинг учун организм компенсатор механизмларни ишга тушуриб, психикани илк ривожланиш даражасига тушуриб қолиши кузатилади.

Ваҳима – вас-васа. Бунда одам ваҳимага тушади, ҳар хил хаёлларга боради. Ўтиб кетган ёмон воқеани эслаб сиқилиши ёки бўлар-бўлмас нарсаларни ўйлаши, ҳали содир этилмаган, айтиб бўлмайдиган ёмон фикрларга бориб ваҳимага тушиш.

Бу нарсалар ички ҳолатни ўзгартириб, хотиржамликни йўқотади. Бунда одамнинг фаоллиги йўқолиб ўзини қўлга ололмайди. Бундай нарсаларни оғриқ билан тенглаштириш мумкин.

Ваҳимани келтириб чиқарган нарса керакли ахборотнинг етишмаслигидан, дунёқарашнинг торлигидан ёки келган тўғри маслаҳатни ана шу ваҳимани келтириб чиқарган сабабга қарама-қаршилиги ва уни баттар ошириши ваҳимани авжга чиқаради.

Монотония – стресснинг қарама-қарши ҳолатидир. Масалан, бу ҳолат кўпроқ ишда, шахсий ҳаётда кузатилади. Ҳар куни бир хил ишни қайта-қайта бажариш натижасида одам монотония ҳолатига тушиб қолади. Бу ҳолат инсонда зеркиш, лоқайдлик, ҳаётга нисбатан қизиқишни камайтиради, ташқи қиёфасида ғамгинлик, нимадандир норозилик аломатлари кузатилади. Бунинг натижасида шахсда ирода, фикрлаш қобилияти сустлашади, мақсадга етиш учун ҳаракат камаяди. Шахсда миянинг тормозланиш натижасида теварак – атрофдан келаётган онгсиз сигналларни қабул қилмасдан фақат ўз жонига қасд қилишни мақсад қилиб қўяди. Монотонияга чалинган шахслар устидан кузатув олиб борилганда алаҳсираш, галлюцинациялар, худди хаёлида ниманидир сузиб кетаётгандек бўлади, хавотирланади.

Ёлғизлик – кейинги турдаги қийин ҳолатларидан бири. Ёлғизлик натижасида одам ўзи билан ўзи мулоқот қиладиган ҳолатга тушиб қолади. Узоқ вақтда ёлғизликда қолган инсон ҳақикий невроз касаллигига чалиниши мумкин. Мана шу ҳолатга тушган шахслар 3 гуруҳга бўлинади:

Биринчи гуруҳ: 18-28 ёшгача бўлган ёшларда бу ҳолат қуйидаги ҳолат билан кузатилади (оиласидан йироқда бўлиш, масалан, бошқа шаҳарга ишга бориши ёки ўқишга, севгилисидан ажралиш).

Иккинчи гуруҳга 29-38 ёш ва учинчи гуруҳга 39-55 ёшда бўлганларда кризис ҳолат кузатилади. Масалан, оиласидан, яқин одамидан ажралиш (ўлим). Бундай ҳолатда инсон ўзини тушқунликка тушиб қолиши, яъни ҳаётда ҳеч кимга керакмасдек, юрак сиқилиши, чорасиз, келажакка ишончсиз бўлиб қолади.

Тунгги психика бу – мужассамланган ҳодисалардан бири бўлиб, у кеч уйқу вақтида кузатилади. Кундузи бўлиб ўтган воқеа-ҳодисалар тунда ёлғизлик пайтида қайтадан кўз ўнгида ифодаланади. Масалан, кечқурун ёлғизлик ҳисси кучаяди, инсон ўз хаёллари билан ёлғиз қолади, баъзида кўркув образлари билан. Қоронғулик инсонда хавотирликни юзага келтиради, реал ҳолатни ўзгартиради, у сирли бўлиши мумкин, бунда одам ўзини кучсиз, ёлғиз, атрофдагилар уни тушунмаслигини сезади. Тунгги психика кўпроқ невроз, юрак ёки бошқа касалликларга чалинган одамларда муаммоларни юзага чиқаради.

Xulosa. Mazkur natijalar kongruentlik nazariyasining (Osgood, Tannenbaum) amaliy talqini bilan ham mos keladi: ta‘lim jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar — o‘qituvchi, o‘quvchi va ota-ona o‘rtasida maqsad, qadriyat va hamkorlik mexanizmlarining muvofiqligi ta‘lim samaradorligini oshiradi. Tadqiqotda loyihaviy topshiriqlar orqali “ochiq muloqot”, “o‘zaro hurmat”, “umumiy ta‘limiy maqsadlar”, “qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik”, “moslashuvchanlik” kabi tamoyillarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyat talabalarning kongruentlik ko‘rsatkichlarini oshirish omili sifatida namoyon bo‘ldi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari loyihaviy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilar uchun nafaqat o‘quv jarayonini jonlantiruvchi innovatsion metod, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishning samarali vositasi ekanini tasdiqlaydi. Taklif etilgan metodika shaxsiy rivojlanish, muloqot madaniyati va pedagogik refleksivlikni kuchaytirish orqali kongruentlikning barqaror va kompleks shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Bədiyev, S. R. (2009). Yeni təlim texnologiyalarından mühazirə mətnləri. Bakı: Dərələyöz “M”.
2. Rogers, N. (1995). The path to wholeness: Person-centered therapy based on expressive arts. *Voprosy psikhologii*, (1), 132–139. (Original work in Russian)
3. Rogers, C. R. (2018). On becoming a person: A therapist’s view of psychotherapy. Moscow: Institute of General Humanitarian Research. (Original work published 1961)
4. Osgood, C. E., & Tannenbaum, P. H. (1955). The principle of congruity in the prediction of attitude change. *Psychological Review*, 62(1), 42–55. <https://doi.org/10.1037/h0048153>
5. Kuzmina, Yu. V. (2018). Intuitive sense of number: Problems of measurement and control of visual properties. *Theoretical and Experimental Psychology*, 11(1). Retrieved from <https://cyberleninka.ru/article/n/intuitivnoe-chuvstvo-chisla-problemy-izmereniya-i-kontrol-vizualnyh-svoystv>
6. Karyakin, Yu. V. (2007). Congruence as a characteristic of the educational process. *Modern High Technologies*, (3), 36–37.
7. Troyanskaya, S. L. (2011). Pedagogical communication: Methodology, theory and practice. Izhevsk: Udmurt State University.
8. Bezrukova, V. S. (2013). Pedagogy. Rostov-on-Don: Phoenix.
9. Zivert, X. (1998). Personality testing. Moscow: Interexpert; Infra-M.
10. Maslow, A. H. (1970). *Motivation and personality* (2nd ed.). New York, NY: Harper & Row.
11. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. *Psychological Inquiry*, 11(4), 227–268. https://doi.org/10.1207/S15327965PLI1104_01
12. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. *Educational Researcher*, 15(2), 4–14. <https://doi.org/10.3102/0013189X015002004>
13. Goleman, D. (1995). *Emotional intelligence*. New York, NY: Bantam Books.
14. OECD. (2018). *The future of education and skills: Education 2030*. Paris: OECD Publishing.
15. Comenius, J. A. (1999). *Didactica magna*. Prague: Karolinum Press. (Original work published 1657)
16. Ushinsky, K. D. (1988). *Selected pedagogical works*. Moscow: Pedagogika.
17. Tolstoy, L. N. (1989). *On education*. Moscow: Pedagogika.

Сафаров Шохрух Саттор ўгли,
Қариш давлат университети, таянч докторанти

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЪЛИМ МЕНЕЖМЕНТИДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ

Аннотация. Мақолада ривожланган хорижий мамлакатлар олий таълим муассасаларида таълим менежментининг муҳим хусусиятлари, бошқарув тузилмалари ва уларнинг аҳамияти, педагогик компетентлик масалалари ўрганилган, муассасаларда таълим сифати ва самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи омиллар таҳлил қилиниб, сифат кўрсаткичларини таъминлашда узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, назария ва амалиёт ўртасидаги мукаммал интеграцияни олиб бориш лозимлиги, замонавий инновацион технологиялардан фойдаланиш даражасининг малакали кадрларнинг қамров даражасига таъсири ўрганилган.

Калит сўзлар: олий таълим, олий таълим тузилмаси, олий таълим қамрови, самарадорлик, илмий ходим, докторантура, олий таълим тизими, таълим сифати, малакали ва рақобатбардош кадрлар, хорижий тажриба.

ОПЫТ РАЗВИТЫХ СТРАН ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ МЕНЕДЖМЕНТЕ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. В статье рассматриваются важные особенности управления образованием в высших учебных заведениях развитых зарубежных стран, структуры управления и их значение, вопросы педагогической компетентности, анализируются факторы, способствующие повышению качества и эффективности образования в учреждениях, а также рассматривается необходимость дальнейшего совершенствования системы непрерывного образования для обеспечения показателей качества, полной интеграции теории и практики, а также исследования влияния уровня использования современных инновационных технологий на уровень охвата квалифицированными кадрами.

Ключевые слова: высшее образование, структура высшего образования, охват высшим образованием, эффективность, научный работник, докторантура, система высшего образования, качество образования, квалифицированные и конкурентоспособные кадры, зарубежный опыт.

EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES IN ENSURING THE QUALITY OF EDUCATION IN EDUCATIONAL MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article examines key aspects of education management in higher education institutions in developed countries, including governance structures and their significance, and issues of pedagogical competence. It also analyzes factors that contribute to improving the quality and effectiveness of education at institutions. It also examines the need for further improvement of the continuing education system to ensure quality indicators, fully integrate theory and practice, and studies the impact of the use of modern innovative technologies on the level of qualified personnel.

Keywords: higher education, higher education structure, higher education enrollment, efficiency, researcher, doctoral program, higher education system, education quality, qualified and competitive personnel, international experience.

Қириш. Мамлакатимиз ижтимоий ва иқтисодий тараққиётида таълим тизими ва унга қаратилаётган эътибор муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда таълим сифатини оширишда инновацион таълим технологияларидан фойдаланиш, бошқарув жараёнларида замонавий тамойил ва стратегияларга асосланиш соҳада самарадорлик кўрсаткичларининг ортишига олиб келмоқда. Вазирлар Маҳкамаси томонидан қабул қилинган қатор меъёрий ҳужжатлар, хусусан, ҳозирда амал қилаётган “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили” доирасида амалга оширишга қаратилган давлат дастурида 2024-йилга мўлжалланган амалий тадбирлар режасида олий таълим билан қамровни кенгайтириш ҳамда олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини ошириш 7-мақсад сифатида белгиланган.

Мазкур ёндашув асосида илмий салоҳияти юқори бўлган кадрлар тайёрлаш орқали жамиятда жаҳон таълим стандартларига мослашиш, юқори иқтисодий ўсиш суръатларини таъминлаш ҳамда барқарор иқтисодий тараққиёт шароитида олий таълим муассасаларида талабаларнинг билим даражасини юксалтириш йўналишлари устувор вазифа этиб белгиланмоқда.

Сўнгги йилларда олий таълим муассасаларида замонавий таълим технологияларини жорий этишда ривожланган хорижий давлатларнинг илғор тажрибалари кенг қўлланилмоқда. Бу борада мамлакатимизда таълимга бўлган талаб, мавжуд ижтимоий ва иқтисодий имкониятлар етарли даражада экани эътиборга моликдир.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Бугунги кунда таълим тизими, жумладан олий таълим муассасаларида сифатли таълим бериш масалалари кўплаб хорижий олимлар томонидан чуқур ўрганилган. Хусусан, М.Мескон, К.А. Wade, М.А. Surkes, R.M. Bernard, Ш.В. Тагирова, Э.С. Коновалова, А.А. Егоров, М.А. Сухомлинова ва Э.Ю. Шибанова каби тадқиқотчиларнинг илмий ишларида таълим соҳасини бошқариш ва ахборот базаларини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилган.

Мазкур йўналишда Ўзбекистонда олий таълимда самарали бошқарув тизимини шакллантириш, иқтисодий ривожланишни таъминлаш ҳамда тузилмавий-таркибий ўзгаришларни чуқур таҳлил қилиш борасида иқтисодчи олимлар А.О. Очилов, Ш.Дж. Эргашхўжаева, Ж. Хамракулов, Х.У. Умарова, А. Маҳмудов, Ф.У. Назарова, Э. Абдусатторов ва бошқа тадқиқотчиларнинг илмий изланишлари алоҳида ўрин тутди.

Тадқиқот методологияси. Мавзуга доир илмий-тадқиқот ишларини амалга оширишда кузатув, солиштирма таҳлил, суҳбат, шунингдек, анкета сўровлари каби эмпирик тадқиқот усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Мамлакатимизда олий таълим тизимини замонавий технологиялар асосида рақамлаштириш бўйича бир қатор хорижий тажрибалардан самарали фойдаланилмоқда. Ўзбекистонда олий ўқув юртларидан кейинги таълим 3 йилгача бўлиб, докторантура ҳамда мустақил изланувчилик шаклида ташкил этилиши белгиланган.

Бу борада Япония, АҚШ, Германия, Хитой, Жанубий Корея ва Франция тажрибаларини мисол тариқасида келтириш мақсадга мувофиқдир. Мазкур мамлакатларда олий таълимга бўлган эътибор, талабалар билимини ўзлаштириш даражаси, назария ва амалиёт ўртасидаги интеграциянинг мавжудлиги таълим сифатига бевосита ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Хусусан, дарс жараёнларида инновацион технологияларнинг илғор шакллари жорий этилиши таълим сифати, иқтисодий самарадорлик ҳамда ижтимоий натижаларнинг юксалишига хизмат қилмоқда. Ушбу мамлакатлар таълим менежментида олий таълимдаги бошқарув тузилмаларининг мукамаллиги юқори илмий салоҳиятга эга кадрлар тайёрланишида муҳим омил сифатида эътироф этилади (1-жадвал).

1-жадвал.

Ривожланган хорижий мамлакатларда олий таълим муассасаларининг ташкилий-иқтисодий механизмлари

Давлатлар номи	Саводхонлик даражаси	Олий таълим берувчи муассаса шакли	Олий таълимни қўллаб-қувватловчи ҳуқуқий-иқтисодий механизмлар	1 ўринга тўғри келадиган рақобатчилар сони, нафар
АҚШ	99 %	Коллеж, университет	Морилла қонуни	150-170
		Университет, институт, академия	“Ўқиш учун молиявий ёрдам кўрсатиш тўғрисида”ги Федерал қонун	
		Университет, коллеж ва олий касбий мактаб	Олий таълим соҳасида ўзаро ҳамкорлиги тўғрисидаги Пекин декларацияси	
Япония	99 %	Университет ва ноуниверситет	“Таълим ҳақида”ги Қонун	80-120
Жанубий Корея	95 %	Юқори мактаб, коллеж ва университет	Талабалар учун “Фонд грантлари”	70-80
Франция	99 %	Олий мактаб	“Савари” қонуни	85-100

Жадвалдаги маълумотларга асосан, АҚШда олий таълим тизими коллеж ва университетларда Морилла қонунига асосан таълим тизимига бегараз давлат қўмаги бериб борилади. 2019 йилда олиб борилган тадқиқотларга кўра саводлилиқ даражаси – 99 % бўлиб, олий таълим муассасаларида ўқиш

истагини билдирган талабгорлар ўртасидаги рақобат юқори, яъни бир ўринга ўртача 150-170 нафар талабгор тўғри келади. Олий таълим соҳасида ўқиш даври тўрт йилни ташкил этиб, бакалавр даражаси берилади. Ўқитиборили жиҳати шуки, алоҳида аккредитациядан ўтган ОТМ ва факультетлар тиббиёт ва ҳуқуқ фанлари доктори даражасини берадилар, улар учун махсус, кучайтирилган тайёргарлик талаб қилинади. Иқтисодиёт фанлари учун эса, 3 йил ва ундан кўпроқ вақт давомида илмий тадқиқот олиб бориш талаб этилиб, фан доктори даражаси берилади.

Хусусан, Германияда таълим босқичлари 4 йил, педагогика соҳасида эса, 3 йил бўлиб, қўшимча вақт амалиёт учун, яъни 18 ой ҳамда имтиҳон топшириш учун сарфланади. Германияда олий ўқув юртлари турларининг кўплиги ва бошқарув тизимининг мунтазам янгиланиб бориши билан фарқланади. Хусусан, Германияда олий таълим тизими университетлар ва институтлар, махсус олий ўқув юртлари, бошқарув ва санъат олий мактаблари, академиялар тизимини қамраб олади. Бу давлатда таълим тизимини бошқариш стратегияси мукамаллиги сабабли бошқа мамлакатларнинг олий таълим муассасаларида ҳам тадбиқ этилади. Шу жиҳатдан ҳам Германияда саводхонлик даражаси 90 фоизни ташкил этиб, “Ўқиш учун молиявий ёрдам кўрсатиш тўғрисида”ги Федерал қонунга асосан давлат томонидан иқтисодий механизмлар ишлаб чиқилган. Олий мактаб эса, ўз-ўзини бошқариш ҳуқуқига эга бўлиб, бошқарув ваколати бир неча йилга сайланган Президент бошқаради. Бошқарув структурасида вазифалар аниқ тақсимлаб берилган бир неча гуруҳларнинг иштирокида босқичма-босқич принципига асосан амал қилинади. Унинг таркибий қисмини профессор-ўқитувчилар, илмий ходимлар ва бошқа ходимлар ташкил этади. Ташкилий тузилмада талабаларнинг ўқиш жараёни эркин ташкил этилган, бунда кўп сонли ўқув босқичлари билан бир қаторда ўқув режалари тақлиф этилади. Ўқишга ҳеч қандай ҳақ тўланмайди, агар талаба ёки уларнинг ота-оналари озик-овқат харажатларини кўтара олмаса, “Ўқиш учун молиявий ёрдам кўрсатиш тўғрисида”ги Федерал қонунга кўра, улар молиявий кўмак оладилар. Бу ёрдамнинг 50 фоиз қисми уларнинг стипендиясига қўшиб берилса, қолган қисми эса, қарз тариқасида тақдим этилади.

Хитой халқ республикаси олий таълим тизими таркибига университет, коллеж ва олий касбий мактаблар киритилиб, бошқарув стратегияси жиҳатидан бир неча изрархик категорияларга бўлинади. Жумдалан, мактаб битирув имтиҳонларида олинган балларга кўра битирувчилар олий ўқув юртларининг юқори ёки қуйи тоифаларига номзод бўла оладилар. Хитой университетларига қабул қилиш жараёни қатъий рақобат шароитида ўтказилиб, баъзи университетларда битта ўринга 200- 300 киши тўғри келади. Хитойда, бошқа Ғарб давлатларидаги каби уч босқичли стандарт тайёрлов босқичи мавжуд, яъни бакалаврият – ўқиш муддати 4-5 йил, магистратура – ўқиш муддати 2-3 йил, докторантура эса, ўқиш муддати 2-3 йил, соҳаларга қараб баъзан 4 йил вақт давомида аспирантлар учун таълимнинг икки босқичи, яъни аспирантура ва докторантурада ўқиш имконияти мавжуд. ХХРда саводхонлик даражасининг нисбатан пастроқ, яъни 75 фоиз эканлигига сабаб, аҳолининг айрим гуруҳлари ҳалигача изроғлифлардан фойдаланади.

Жанубий Кореяда олий ўқув юртидан кейин магистратура ва докторантурада таҳсил олиш мумкин. Жанубий Корея олий таълим тизими бакалаврият, магистратура ва докторантура босқичларида олиб борилади. Ўқиш муддати бакалавриятда 4 йилни ташкил этиб, талабалар умумий ҳисобда 140-150 кредит соат назарий таълим оладилар. Магистратурада 2-3 йил давомида ўз билимларини мустаҳкамлаб, якунида диссертасия ёқлайдилар. Докторантурада эса, ўқиш муддати соҳаларига қараб 3 ёки 4 йил ҳисобланади. Ўқиш якунида оғзаки ёки соҳавий махсус имтиҳон топшириб, докторлик диссертасияси ҳимоя қилинади.

Япония таълим тизимида олий таълим бошқаруви университет ва университет шаклида олиб борилади. Ушбу

davlatda олий таълим тизими ўз ичига таълим муассасаларининг қуйидаги тўрт турини қамраб олади (1-расм).



1-расм. Японияда олий таълим муассасаларининг турлари

Биринчи гуруҳга тўлиқ циклда таълим олаётган талабалар 4 йил ва тезлашган циклдаги эса 2 йил таҳсил оладиган университетлар кирса, иккинчи гуруҳ касб-хунар коллежлари шаклида бўлади ва улар маълум бир касбга ёналтирилган ҳолда ўқитилиб, битирувчилар ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш соҳасида фаолият юритади. Технологик институтлар эса, махсус тайёргарлик мактаблари ҳисобланади. Тўртинчи гуруҳ олий таълим муассасалари диплом олгандан кейинги таълим мактаблари деб юритилади ва магистратура таълим турига тенглаштирилади. Японияда ноуниверситетлар моҳиятига кўра иккинчи даражали таълим муассасалари бўлиб, уларнинг бошқарув тузилмалари олий таълим функциясида ҳам кўра кўпроқ ижтимоий ёналишга мослашганлиги билан эътиборлидир. Сўнгги йилларда улар ҳуқуқий нуқтаи назаридан тўлақонли олий таълим муассасаси ҳисоблансада, амалда кадр тайёрлаш ва дипломининг нуфузи бўйича олий мактабларга мос келмайди. “Савари” қонуни асосида молияланадиган таълим тизими Францияда мавжуд бўлиб, олий таълим ўрта таълимни тугатганлик тўғрисидаги бакалавр дипломини, яъни “Бассалауреат” олгандан сўнг амалга оширилиши белгиланган. Ушбу давлатда саводхонлик даражаси 2020-йилларда 99 фоизни ташкил этган бўлиб, бир ўринга 80-100 талабгор тўғри келади.

Хулоса ва таклифлар. Ривожланган давлатларнинг олий таълим тизими, структураси ва бошқарув стратегияларини ўрганиш жараёнида шундай хулосага келдикки, Жанубий Корея таълим тизими Ўзбекистоннинг таълим тизими, босқичларига мос эканлигини кўриш мумкин. Фикримизча, бугунги кунда олий таълимда сифат кўрсаткичларини янада яхшилаш учун узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, назария ва амалиёт ўртасидаги мукаммал интеграсияни олиб бориш лозим. Демак, таълим менежментида замонавий инновацион технологиялардан фойдаланиш даражасининг ортиши ҳам малакали ва рақобатбардош кадрларнинг қамров даражасининг ортишига сабаб бўлади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21-февраль 2024-йилдаги ПФ-37-сон “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Фармони
2. Долгих П. П. Проектирование системы менеджмента качества продукции. Управление процессами / П. П. Долгих. Москва. Лаборатория книги, 2010. 96 с.
3. Емельянова И. Н. Формирование и оценка качества профессионального образования в контексте компетентностной модели обучения / И. Н. Емельянова // Образование и наука. 2015. № 1 (120). С. 56–67.
4. Ковлякова В. Е. Оценка качества среднего профессионального образования в рамках государственного контроля: диссертация кандидата педагогических наук / В. Е. Ковлякова. Москва. Изд-во Моск. гор. пед. ун-та, 2013. 209 с.
5. Кулемин Н. А. Квалиметрический мониторинг управления качеством образования: концепция, технология, модель: монография. Ижевск.Алфавит, 2000. 187 с.
6. Любимова О. В. Концептуальные основания проектирования педагогических норм в системе непрерывного профессионального образования: диссертация ... доктора педагогических наук / О. В. Любимова. Ижевск: Изд-во Ижев. гос. техн. ун-та, 2011. 376 с.
7. Менеджмент средней и высшей школы: 100 новых понятий: Сравнительный словарь на русском и немецком языке/ Авто-ры-издатели О.Грауманн, Р.В.Кек, М.Н.Певзнер, А.Г.Ширин - Хильдесхайм, 2004. – 246с.,
8. Новиков Д. А. Введение в теорию управления образовательными системами / Д. А. Новиков. Москва: Эгвес, 2009. 156 с.
9. Поташник М.М. Управление качеством образования: Практикоориентированная монография и методическое пособие / под ред. М.М. Поташника - М.: Педагогическое общество России, 2000 - 448 с.

Axmedov Baxtiyor Tursunovich,
Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
Toshpulatova Xilola Bobomurodvna,
Termiz davlat pedagogika instituti Psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

SEVGI UMUMINSONIY QADRIYAT SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada, sevgi qadriyat va umuminsoniy munosabat sifatida baholanib, madaniy nuqtai nazardan qaralganda, faqat biror kishiga yoki biron narsaga intilish emas, u – ko'p asrlik madaniy qatlamlardan o'tib, ma'naviy- lashgan, oliyjanoblashgan va chuqur mazmunga ega bo'lgan munosabatlar majmui sifatida talqin etilgan.

Bugungi kunda muhabbat munosabatlari tobora madaniylashib, yuksalib borayotganiga qaramay, sevgi hali-ham hayotiy ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Insonlar sevadi – chunki ular sevgi ob'ektidan hissiy zavq, ruhiy shavq va aniq ma'naviy manfaat oladilar. Bunday manfaatlar ba'zan oilaviy xotirjamlik, tinchlik, ba'zan ijtimoiy obro', ba'zan esa o'zini to'laqonli his qilishda namoyon bo'lishi kabi jihatlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: sevgi, xayotning ma'nosi, ehtiyoj, qadriyat, madaniyat, yuksak tuyg'u, mavjudlikni anglash, o'zini-o'zi o'zgartirish.

ЛЮБОВЬ КАК УНИВЕРСАЛЬНАЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ

Аннотация. В данной статье любовь рассматривается как ценность и универсальное человеческое отношение, и, если рассматривать её с культурной точки зрения, она интерпретируется не только как желание кого-то или чего-то, но и как совокупность отношений, прошедших через века культурных слоев, одухотворенных, облагороженных и обладающих глубоким смыслом.

Несмотря на то, что любовные отношения сегодня становятся всё более культурными и возвышенными, любовь по-прежнему проявляется в тесной связи с жизненными потребностями. Люди любят — потому что получают эмоциональное удовольствие, духовное возбуждение и осязаемую духовную пользу от объекта любви. Такая польза проявляется иногда в семейном мире, покой, иногда в социальном престиже, а иногда в чувстве самореализации.

Ключевые слова: любовь, смысл жизни, потребность, ценность, культура, высокое чувство, осознание существования, самореобразование.

LOVE AS A UNIVERSAL HUMAN VALUE

Abstract. In this article, love is evaluated as a value and a universal human relationship, and when viewed from a cultural point of view, it is not just a desire for someone or something, but a set of relationships that have passed through centuries of cultural layers, become spiritualized, ennobled and have a deep meaning.

Despite the fact that love relationships are becoming more and more cultural and elevated today, love is still manifested in close connection with vital needs. People love - because they receive emotional pleasure, spiritual delight and tangible spiritual benefit from the object of love. Attention is paid to such aspects as family peace, peace, sometimes social prestige, and sometimes self-fulfillment.

Keywords: love, meaning of life, need, value, culture, high feeling, awareness of existence, self-change.

Tarixiy va falsafiy mulohazalarda hayotning mazmuni muammosi bir ma'noli emasligi bayon etilgan. Ma'noning etishmasligi odamlarda hayotining ma'nosini izlash va anglash istagining mavjud emasligi natijasida hosil bo'lgan. O'z davrida bu xodisaga V. Frankl tomonidan ekzistensial vakum deb munosabat bildirilgan. V. Frankl o'z izlanishlarida davom etar ekan, xayotiy ma'no - bu hayotiy maqsad yoki vazifa, hayotning talqini yoki tushuntirishi, shaxsiy va ijtimoiy voqelikning birlashishi va o'zaro uyg'unlashuvining vujudga kelishidir deb talqin qiladi.

V. Frankl o'zining sevgi nazariyasida fikrlarini batafsil bayon etar ekan, sevgi insonning o'z hayotining ma'nosini izlash va anglash istagini barcha odamlarga xos bo'lgan tug'ma motivatsion tendentsiya deb hisoblaydi va xatti-harakatlar va shaxsiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi deya alohida ta'kidlab o'tadi.

Hayotning mazmuni jamiyat va tabiatga xizmat qilish (F.Bekon, D. Yum), jamiyatdagi farovonlik (T.Gobbs), bilim (B.Spinoza), o'z-o'zini bilish (R.Dekart, B. Paskal), Xudoga teng haqiqat aqliga xizmat (G. Leybnits). Inson o'z ehtiyojlarini qondira oladigan erkin, adolatli, ezgu, oqilona jamiyat qurishdagi hayot mazmunini fransuz ma'rifatparvarlari (F.-M.Volter, K.Gelvetsiy, P.Golbax, D.Didro, J. La Mettrie, J. Rousseau, A. Saint-Simon). L.Tolstoy sevgini hayotning mazmuni va uni boshqarishi kerak bo'lgan oliy qonun deb tushundi.

Binobarin, hayotning ma'nosi insonning o'z mavjudligini anglashida, o'zini o'zi o'zgartirishi, takomillashtirish va o'zini o'zi anglashidir.

Hayotning mazmuni mohiyat va borliqning mutlaq qiyofasini aks ettiradi,

qadriyat ma'nosini boshdan kechirish harakatida aks ettirish orqali o'zini namoyon qiladi.

G. Petrovning fikriga ko'ra, mazmunli hayotiy qadriyatlar inson hayoti uchun ko'rsatmalar bo'lib, individual ongda ishtirok etadi, inson mavjudligi qiymati bilan taqqoslanadi. L.Baeva mazmunli hayotiy qadriyatlarni hayotni o'ziga xos ma'no bilan to'ldirishga intilish sifatida tushunadi, bu insonga erishishga qodirligini anglash imkonini beradi, bu esa - yangi sifat va ijodkorlik, fikrlash orqali o'z izingizni qoldiring deganidir.

"Hayotning ma'nosi", "qadriyat", mazmunli hayotiy qadriyatlar tushunchasi har bir inson ongida mavjud bo'lgan, hayotni o'ziga xos mazmun bilan to'ldirishga qaratilgan, insonning o'zini o'zi boshqarishga qodirligini anglash imkonini beradigan ko'rsatmalar sifatida aniqlangan.

"Gumanitar bilimlarda ishq hodisasi haqidagi g'oyalar evolyutsiyasi"

Aflotunning qadimiy sevgi nazariyasida androginiya g'oyasi yordamida tushuntirilgan: odamlar bir-biriga bo'lgan muhabbatni o'zaro jalb qilish bilan ajratib turadi, shu bilan inson tabiatini davolashga yordam berish mumkinligi ta'kidlanadi. Inson ruhi o'z mohiyatiga azaliy makoniga qaytadi.

O'rta asrlardagi nasroniylik an'alarida sevgi teotsentrik munosabat, insonning Xudoga bo'lgan yo'li, qurbonlik, nasl berish, o'zini o'zi berish kabi marosimlar orqali tushuniladi. O'rta asrlar madaniyatining ta'kidlab o'tish kerak bo'lgan o'ziga xos ajralmas qismi bo'lgan sevgi bu saroy sevgisidir – o'z o'rnida shaxsiy va tanlab olingan tuyg'u. Bu sevgi erkin tanlangan va erkin berilgan.

Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida sevgi deganda bir butunni bog'lovchi va integratsiya qiluvchi (L. Pisano), materiya va ruhning birligini angelaydigan, dunyoni tartibga soluvchi (M. Ficino), dunyoning barcha sohalarini jonlantiradigan universal kosmik kuch tushuniladi. Koinot (L. Ebrso). Sevgi J. Bruno, J. Boem, N. Kuzanskiy asarlarida kosmik kuchni ifodalaydi.

Uyg'onish davri muhabbat ideali qadimgi va o'rta asr g'oyalari sintezidir: yuksak tuyg'ular va shahvoniylik dualizmini engib o'tishni talab qiladigan insonparvarlik sevgisi, individual sevgi ideali paydo bo'ladi.

Zamonaviy Evropa madaniyatida mehr-muhabbatning shaxsiy tajribasi va hissiyotlari rivojlanadi, natijada o'rganish va mulohaza yuritish mavzusiga aylanadi. Zamonaviy madaniyatda sevgi shahvoniylikka tobora yaqinlashib bormoqda. Jinsiy aloqa ko'plab sohalar, ayniqsa psixoanalistlar (3. Freyd, C. Jung) uchun tadqiqot mavzusiga aylanib bormoqda. J.-P asarlarida. Sartr, M.Xaydegger, E.From, V.Frankl "muhabbatning yo'q qilinishi"ni tanqid qiladi. Zamonaviy jamiyat ishonadi

Mazkur fenomen tadqiqotchisi sifatida E.Fromm, sevgining parchalanishiga sabab bo'ladi, "nevrotik sevgi" ning turli shakllarini keltirib chiqaradi, masalan, ona yoki otaga go'daklik bog'liqligi, javobsiz sevgi - sajda qilish, o'tmishdagi yoki kelajakdagi sevgi haqidagi fantaziyalar, yaqin odamni qayta tarbiyalash istagi; uzatish hayotingizning ma'nosi bo'lgan farzandlaringiz uchun. E. Fromm sevgining qizg'in himoyachisi sifatida ish olib boradi, sevgini qadriyat sifatida belgilaydi va odamlarda sevgiga chuqur ehtiyoj borligini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, sevgi turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin, bu esa madaniyatning turli darajalarida sevgining madaniy ma'nolari muammosini ko'rib chiqishga olib keladi.

Sevgiga munosabat davomiylikda, o'zini namoyon qilish darajasi, sevgi ko'pincha yorqin, ba'zan esa chuqur, yuksak ehtirosga borib etadigan munosabat sifatida talqin etilgan. Bunday holda, jarayon natijada ustunlik qiladi. Shaxsning o'zini o'zi anglashi sevgida sodir bo'ladi. Sevilishdan, sevgidan azob chekishdan ko'ra sevish muhimroqdir. Bu ota-ona sevgisi haqida. Bu darajada estetik lahzalar, masalan, boshqa odamning go'zalligi, sevimli san'atda esa yuksak zavq keltiradigan hayratga sazovor narsalar juda muhimdir.

Bizningcha, madaniy sevgining eng yuqori darajasi haqiqiy sevgidir. Bu darajadagi sevgi yuksak ma'naviy, asosiy qadriyat sevgining o'zi emas, balki har doim, sevgining barcha bosqichlarida, boshqa odam, boshqa odamlardir. Bu boshqa odam tomonidan va boshqasi uchun yashash istagi, uning qiymatini tasdiqlaydi deganidir.

Shunday qilib, gumanitar bilimlarda madaniyat darajasi bilan bog'liq bo'lgan sevgi ma'nolarining evolyutsiyasini kuzatar ekanmiz, Ishq-muhabbatni anglashda ma'nolarning to'planishi natijasida evolyutsiya yuzaga keladi, va yanada murakkab, ko'p qirrali tushunchaga aylanadi;

Sevgi talqinlarining xilma-xilligini ko'rib chiqish, muallifga sevgi hayotdagi mazmunli qadriyat degan xulosaga kelish imkonini berdi. V.Frankl tomonidan ma'noni amalga oshirish tushunchasi tahlil qilinadi. Ma'noning o'ziga xosligini ta'kidlab, u inson yoki jamiyat duch keladigan tipik vaziyatlarni umumlashtirish natijasida kristallangan semantik universallik bo'lgan qadriyatlar g'oyasini kiritib, mumkin bo'lgan ijobiy ma'nolarni tavsiflaydi. Bu bizga inson o'z hayotini mazmunli qilishning mumkin bo'lgan usullarini umumlashtirish imkonini beradi:

- birinchidan, biz hayotga beradigan narsalar orqali (ijodiylik va mehnat ma'nosida);
- ikkinchidan, biz dunyodan oladigan narsalar orqali (qadriyatlarni boshdan kechirish ma'nosida) ;
- uchinchidan, taqdirga nisbatan tutgan pozitsiyamiz orqali.

Ushbu gradatsiyaga ko'ra, V. Frankl qadriyatlarning uchta guruhini aniqlaydi: ijodkorlik, tajribalar, munosabatlar. Qadriyatlar orasida V. Frankl boy qiymat salohiyatiga ega bo'lgan sevgini alohida ta'kidlaydi. Sevgi - bu ruhiy semantik o'lchov darajasidagi munosabatlar, tajriba o'ziga xosligi va o'ziga xosligi bilan boshqa shaxs, uning chuqur mohiyatini bilish. V.Frankl munosabat qadriyatlari haqida gapirar ekan, inson o'zini o'zgartira olmaydigan holatlar rahm-shafqatiga duchor bo'lganda ularga murojaat qilishini ta'kidlaydi. Faylasufning ta'kidlashicha, munosabatlar qadriyatlari boshqa qadriyatlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqilsa, inson mavjudligi hech qachon o'zining ichki mohiyatida ma'nosiz bo'lishi mumkin emasligi ayon bo'ladi. Binobarin, sevgi, V. Franklning fikricha, boy qiymat salohiyatiga ega va munosabatlar qadriyatlari bilan birgalikda insonning hayotga nisbatan mazmunli pozitsiyasini egallashiga yordam beradi.

M.Sxelarning qayd etishicha, muhabbat har bir narsani o'ziga xos qadriyat kamolotiga yo'naltirishga harakat qiladigan moyillik yoki harakatdir. Sevgi, boshqa har qanday qadriyat kabi, u haqidagi g'oyalarimizdan mustaqil ravishda mavjud bo'lib, u moddiydir, lekin materiyaning asosiy tushunchasida emas, balki shahvoniylikning boshlanishi sifatida tushuntiradi. Shuningdek, sevgi haqiqatga aylanishi uchun kamida bitta mehribon inson bo'lishi kerakligi aytiladi. Bu inson dunyoga muhabbat olib kelmaydi, lekin o'z sevgisi bilan dunyoni kashf qiladi.

O'z davrining yetuk namoyondachilaridan biri E.Fromm sevgini umuminsoniy qadriyat deb biladi va insonning sevgiga bo'lgan chuqur ehtiyojini qayd etadi. Muhabbat, E.Frommning fikricha, unumli faoliyat shaklidir; qiziqish va g'amxo'rlik, bilim, hissiy munosabat, his-tuyg'ularni ifodalash, zavqlanish, hayajonli va hayotning to'liqligi hissini kuchaytirishni nazarda tutuvchi munosabatlar oshiyonidir. Bu esa o'z-o'zini yangilash va o'z-o'zini boyitish jarayoni sifatida baholanadi.

L.Feyerbaxning fikriga ko'ra sevgi - bu shaxsni borliq va mehribonlik bilan tanishtirish, mavjudlikning individual ma'nosini umuminsoniy munosabatlar bilan to'ldirishdir. Bu uning fikrlari ichida eng mukammalidir. Uning mulohazalarida shaxs uchun nimaningdir yetishmasligi, nomukammal, zaiflik, nochorlikni his qilish tabiiy xol bo'lishi bilan birgalikda, sevgining kuchi shaxs uchun mukammalik manbai, ruhan sokinlik, o'z-o'zidan qoniqishning paydo bo'lishiga olib keladi, chunki sevgida shaxsning o'zini o'zi anglashi shaxs mukammaligining o'ziga xos turidir.

V. Solovyov, N. Berdyaev asarlarida sevgi shaxsning o'zini-o'zi takomillashtirish, "egoizm qurbonligi" orqali individuallikni to'liq ochib berish, erkak va ayollik tamoyillarining yaxlitligini egallash sifatida ko'rib chiqiladi. Solovyovning fikriga ko'ra, sevgining vazifasi ikkita cheklangan mavjudotning bunday kombinatsiyasini amalga oshirishdir, deb hisoblaydi ulardan bitta mutlaq ideal shaxsni yaratadi. Shu ma'noda muhabbat individual borliq ma'nosini anglashning zaruriy sharti, uning manguqlik va mutlaqlikka daxldorligi asosidir.

M. Gershenzon sevgining qadri beqiyos, deb hisoblaydi, chunki sevgi "odamlar uchun dunyo haqidagi eng muhim bilim qurolidir".

S.Rubinshteyn sevgi inson mavjudligining tasdig'idir, degan fikrni asoslaydi, chunki faqat sevgi orqali sevgan inson boshqa shaxs uchun mavjud bo'la boshlaydi «Insonga axloqiy munosabat - unga nisbatan mehrlil munosabat aynan sevgining mazmunidandir. Sevgi inson mavjudligining tasdiqlanishi sifatida ishlaydi. Faqat uning boshqa shaxsga bo'lgan munosabati orqali inson shaxs sifatida mavjud bo'ladi! Shunday qilib, sevgi insonning dunyoda mavjudligi, uning dunyoga qo'shilishi va mavjudligi uchun zaruriy shartdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inson hayotida sevgining qadriyat sifatida gavdalanishi quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi: o'z egoizmini engish, hurmatni rivojlantirish, boshqa odamga g'amxo'rlik qilish, yolg'izlik muammosini hal qilish, hayot mazmunini topish, o'z-o'zini takomillashtirish shular jumlasidandir. Shunday ekan, sevgi – bu inson hayotidagi mazmunli qadriyat bo'lib, u shaxsni aks ettirishga qaratilgan motivatsion hodisa bo'lgan inson hayotini yaxshilashning asosiy manbai hisoblangan ideallar

olamiga e'tibor qaratishda ifodalanadi, insonning o'ziga xosligini tasdiqlaydi. Mavjudlikni his etishga va odamlar o'rtasida uyg'un munosabatlar o'rnatishga ilhomlantiradi.

Shunday qilib, sevgi – faqat his-tuyg'u emas, balki shaxsning o'zini aks ettirishga qaratilgan kuchli motivatsion kuchdir. U insonni ideallar olamiga yetaklaydi, uning ichki dunyosini boyitadi va hayotning chuqur mazmunini ochib beradi.

Sevgi insonning o'ziga xosligini tasdiqlaydi, mavjudlikni his qilishga undaydi va odamlar o'rtasida haqiqiy uyg'unlik yaratishga ilhom beradi. Aynan shu sababdan sevgi – inson ruhiyatining eng oliy qadriyati va rivojlanishning eng kuchli manbaidir.

Adabiyotlar:

1. Шоумаров Ғ.Б., Шоумаров Ш.Б. Муҳаббат ва оила.— Тошкент, Ибн Сино», 1994. -120с.
2. Акрамова Ф.А. Юқори синф ўқувчиларида севги-муҳаббат ҳислари намоён бўлишининг ижтимоий ва этнопсихологик хусусиётлари. дис.п.ф.н., Т.: 1997, 184 б. Дис.п.ф.н., Т.: 1997, 184 б.
3. Akhmedov, B. (2022). Psychological characteristics of feelings of love. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 1467-1470.
4. Axmedov, B. (2022). Муҳаббат ҳислари боқичларининг гендр хусусиятлари. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6).
5. Axmedov, B. (2023). Sharq allomalarining qarashlarida sevgi-muhabbat tushunchalariga unosabatlar. *Interpretation and researches*, 1(22).

UO’K 159.922.27

Ibodov Murodulla Xoldor o‘g‘li,
 Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
 murodibodov582738210@gmail.com

TALABA YOSHLARNING O‘ZINI ANGLASH JARAYONIDA HADIS VA MILLIY QADRIYATLARNING PSIXOLOGIK HIMOYA OMILI SIFATIDAGI ROLI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli globallashuv sharoitida talaba yoshlarning o‘zini anglash jarayonida yuzaga kelayotgan psixologik xavflar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etishda hadislar va milliy-ma’naviy qadriyatlarining psixoprofilaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda ruhiy immunitet tushunchasi psixologik himoya mexanizmlaridan biri sifatida talqin etilib, milliy va diniy manbalarning shaxs barqarorligini mustahkamlashdagi o‘rni ochib beriladi. Maqola oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ruhiy barqarorligini oshirishga qaratilgan psixoprofilaktik yondashuvlarni ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zini anglash, talaba yoshlar, ruhiy immunitet, psixoprofilaktika, hadislar, milliy qadriyatlar, raqamli muhit.

THE ROLE OF HADITHS AND NATIONAL VALUES AS PSYCHOLOGICAL PROTECTIVE FACTORS IN THE SELF-AWARENESS PROCESS OF UNIVERSITY STUDENTS

Abstract. This article analyzes the psychological risks emerging in the self-awareness process of university students under conditions of digital globalization and provides a scientific and theoretical justification of the psychoprophylactic potential of hadiths and national-spiritual values in addressing these risks. Psychological immunity is interpreted as one of the mechanisms of psychological defense, and the role of national and religious sources in strengthening students’ personal resilience is revealed. The article serves as a methodological basis for developing psychoprophylactic approaches aimed at enhancing the psychological stability of students in higher education institutions.

Keywords: self-awareness, university students, psychological immunity, psychoprophylaxis, hadiths, national values, digital environment.

РОЛЬ ХАДИСОВ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗАЩИТНОГО ФАКТОРА В ПРОЦЕССЕ САМОСОЗНАНИЯ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические риски, возникающие в процессе самосознания студенческой молодежи в условиях цифровой глобализации, а также научно-теоретически обосновываются психопрофилактические возможности хадисов и национально-духовных ценностей в их преодолении. Понятие психологического иммунитета рассматривается как один из механизмов психологической защиты личности, раскрывается роль национальных и религиозных источников в укреплении личностной устойчивости студентов. Статья может служить методической основой для разработки психопрофилактических подходов, направленных на повышение психологической устойчивости студентов в системе высшего образования.

Ключевые слова: самосознание, студенческая молодежь, психологический иммунитет, психопрофилактика, хадисы, национальные ценности, цифровая среда.

Kirish. Raqamli davrda axborot oqimining keskin ortishi, ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi yoshlarning, ayniqsa talaba yoshlarning ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Doimiy axborot bosimi, virtual taqqoslash, identifikatsiya inqirozi kabi omillar shaxsning o‘zini anglash jarayonini murakkablashtirib, psixologik beqarorlik holatlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Shu bois zamonaviy psixologiya fanida yoshlarning ruhiy immunitetini mustahkamlash masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Mazkur sharoitda milliy-ma’naviy qadriyatlar va hadislarining psixologik himoya omili sifatidagi imkoniyatlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki ular shaxsning ichki barqarorligini ta’minlovchi axloqiy-me’yoriy tayanch sifatida xizmat qiladi.

Oila bu odobi axloq, xushmuomlalik, mehnatsevarlik asosida qurilgan bo‘lishi, insonlar o‘rtasidagi munosabat va muloqotlarda o‘ta muhim va shaxsning fe’l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o‘z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg‘u unga butun

hayoti davomida hamroh bo'ladiladi [1.654b]. Kishining har qanday xatti-harakati ong orqali bajariladi, ammo jamiyat ularni saralab, manfaatdor bo'lganlarinigina yuzaga chiqarib keladi. Axloqiy ongning ijtimoiy ahamiyati ham xuddi ana shundan iboratdir. Qoidalariga rioya etilmas ekan, axloqiy jihatga putur yetkaziladi va iqtisodiy tomonga ham zarar keltiriladi. Shu sababli, axloqiy ong bir tomondan jamiyat yoki guruhning talablari, normativlarini ifodalasa, ikkinchi tomondan shu talablarni anglashning individual, shaxsiy shakli va ularni amalga namoyon qilish demakdir. Axloqiy ongda normalardan tashqari odatlar, hissiyotlar ham chambarchas bog'lanib ketadi. Aql hissiyotlarga ma'lum ijtimoiy yo'nalish beradi, emotsional hissiyotlar esa ongda o'zining aqliy asosini topadi. Insoniy his-tuyg'ularsiz haqiqatni ochish ham mumkin emas. Demak, tuyg'ularsiz haqiqiy axloqiy ulug'vorlik bo'lmaydi. Lekin bu ham xulqning doimiy sababchisi bo'la olmaydi.

Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zahirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g'oyasi yotadi. Ular tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarning o'zaro munosabati haqida to'xtalib, tarbiyada irsiyat va muhit ta'siri birdek ekanligi, tan va ruh sog'lomligining birligi kabi masalalarni o'rta tashlaydilar. Ularning aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi va oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlari mazkur muammolarning ko'pgina jihatlarini qamrab oladi va ular muayyan tarbiyashunoslik bo'yicha qarashlar tizimini tashkil etadi [5. 654-655b]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida ham "Talaba va o'quvchilarda kitobxonlik hamda mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali ularning ma'naviy dunyosini yuksaltirishga qaratilgan ishlarni tashkil etib borish" [4.1b] bandining belgilanishi ham jamiyatimizda, yurtimizda yoshlarga qaratilgan, ularning ma'naviyati, madaniyati, ma'rifati va odob-axloqi e'tirof etilgan siyosat hisoblanadi.

Axloqiy ongning markaziy elementi hayot sharoitlari va tarbiya ta'sirida qaror topgan, qat'iy bilimlar va axloqiy tartib-qoidalariga emotsional munosabatdan iborat bo'lgan ishonchdir. Ishonch-xulq normasini subyektiv qabul qilish bo'lib, kishi namuna oladigan axloq tamoyillarining to'g'riliigi va adolatli ekanligiga amin bo'lishligidir, axloqiy zaruriyatni aqlan tushuntirish kabi. Axloqiy ishonch shu bilan cheklanmaydi. Axloqiy ong aksiologik xususiyatga ega, chunki har bir hodisaga muayyan axloqiy norma, tamoyil, an'ana, qadriyat, ideallar nuqtai nazaridan yondashiladi. Axloqiy ong ijtimoiy taraqqiyot jarayonida kishilarning ijtimoiy hayotlari va ijtimoiy munosabatlarini boshqarish ehtiyoji tufayli kelib chiqadigan hodisadir.

O'zini anglash va ruhiy immunitet tushunchalarining psixologik mohiyati haqida. Psixologiyada o'zini anglash shaxsning o'z "Men"ini idrok etishi, o'z imkoniyatlari, qadriyatlari va jamiyatdagi o'rnini tushinishi bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. O'zini anglash yetarli darajada shakllanmagan holatlarda shaxs tashqi ta'sirlarga nisbatan zaif bo'lib qoladi. Ruhiy immunitet esa shaxsning stress, ijtimoiy bosim va salbiy axborotlarga nisbatan psixologik qarshilik ko'rsatish qobiliyatidir. U ichki qadriyatlar tizimi, ma'naviy tayanch va psixologik himoya mexanizmlari bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. *Hadis va milliy qadriyatlarning psixoprofilaktik imkoniyatlari haqida.* Hadislar shaxs tarbiyasida muhim manba bo'lib, unda sabr, qanoat, mas'uliyat, o'zini nazorat qilish kabi psixologik jihatdan muhim sifatlar targ'ib qilinadi. Ushbu fazilatlar shaxsning ichki barqarorligini mustahkamlab, ruhiy immunitetni kuchaytiradi. Milliy qadriyatlar esa shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini mustahkamlab, o'zini jamiyatning muhim a'zosi sifatida his etishiga yordam beradi. Bu holat psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Hadislar va milliy qadriyatlarning uyg'unligi talabalarda ma'naviy-psixologik muvozanatni ta'minlab, raqamli muhitda yuzaga keladigan salbiy ta'sirlarga qarshi samarali profilaktik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy ong voqealigini in'ikos ettirar ekan, boshqa ijtimoiy ong shakllari singari haqiqiy yoki aksincha bo'lishi mumkin. Uning ham haqiqatligi mezonni ijtimoiy tajriba hisoblanadi va pirovardida komil inson tarbiyalanadi, bu jarayon uzluksiz davom etadi (1-grafikka qarang). Shu bilan birga axloqiy ongning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. 1. Axloqiy ong boshqa ijtimoiy ong shakllariga nisbatan kishilarning kundalik hayotidagi xulq-atvoriga faolroq ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy qarashlar, prinsiplar, ideallar inson faoliyatiga bevosita singib ketgan bo'lib, xatti-harakatga undovchi motivlar hisoblanadi. 2. Fandan farqli ravishda, axloqiy ong insonga kundalik ong, ijtimoiy-ruhiy darajasida ta'sir ko'rsatadi. Faqat yuqori darajada axloqiy ong ilmiy bilim xususiyatlariga ega bo'lsa, shunda axloqiy qarashlar va ideallar nazariy bilimlarga aylanadi. 3. Axloqiy ong, axloqiy bilimlar majburiy (imperativ) xarakterga ega. Axloq haqida so'z borar ekan, uning strukturasini ham aytib o'tish joizdir. Axloqiy ong ikki ajralmas qismdan iborat: 1) individual axloqiy ong; 2) ijtimoiy axloqiy ong. Individual axloqiy ong tarkibiga: his-tuyg'u, fikr-mulohaza kiradi. Ijtimoiy axloqiy ong tarkibiga: jamiyat tomonidan ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etiladigan axloqiy kodekslar, kategoriyalar, normalar, tamoyillar, g'oyalar kiradi. Shuningdek, Bazarov Otabek Xasanboevichning dissertatsiya ishining I bob 1-paragrafi "Ma'naviy – axloqiy ong" tushunchasining mazmun – mohiyati va

namoyon bo‘lish shakllarida ham ma’naviyat, ong va ma’naviy – axloqiy ong tushunchasi va ularning uyg‘unligi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan[2]. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli hisoblanib, insonning yakka va hamkorlik faoliyati(muloqot, nutq, til)ning vositasida ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsuli sifatida yuzaga kelgandir. U ijtimoiy mahsul bo‘lishidan tashqari, unga muayyan munosabat bildirish, ya’ni maqsadni ko‘zlash, o‘zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga ham ega hisoblanadi. Odatda, inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo‘lib, uning tuzilishi va tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, bevosita ularning yordami bilan shaxs o‘z axborotlari ko‘lamini uzluksiz boyitib boradi. Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol singari bilish jarayonlari asa-sekin anglashilish darajasiga ko‘tariladi, keyinchalik esa muayyan turkumlarning tarkibiga kiradi. Harakatli hissiy tub ma’nodagi hissiy bilish bosqichlariga taalluqli sezgi, idrok, appersepsiya, tanish, bilib olish va tasavvur kabi bilish jarayonlari ko‘magi, miyaga bevosita ta’sir o‘tkazuvchilarning aks ettirishi natijasida inson ongida borliqning mazkur daqiqasida shaxs tasavvurida ularning hissiy manzarasi yuzaga keladi. Xotira jarayoni ongda o‘tmishdagi narsa va hodisalarining obrazlarini esga tushirsa hamda bosh miyaning u yoki bu katta yarimsharlarining bo‘limlarida aks etgan muayyan izlarni jonlantirish imkoniyatiga ega bo‘lsa, xayol jarayoni ehtiyoj obekti hisoblangan favquloddagi davr hukmiga kirmagan obrazlar modelini namoyon etadi. Bilishning yuksak darajasi bo‘lmish tafakkur jarayoni umumlashgan, ijtimoiy xususiyatli, bilvosita va so‘z orqali ifodalanuvchi bilimlarga asoslangan holda gavdalanuvchi muammolar yechimini hal etishni ta’minlaydi. Aytib o‘tilgan bilish jarayonlarining unisi yoki bunisi aks ettirish imkoniyatidan mahrum bo‘lsa, buzilsa yoki ularning qaysidir xususiyati batamom, qisman izdan chiqsa u ongni tubdan o‘zgartirish sari yetaklaydi. Ong psixologik tavsifining yana biri subyekt bilan obyekt o‘rtasidagi aniq farqlanishda o‘z ifodasini topadi, ya’ni shaxs “men” degan tushunchasi bilan, “men emas” atamasi tarkibiga nimalar tegishli, aloqador ekanligini aniq biladi. Tirik mavjudotlar olamida birinchi bo‘lib, borliqda uni aniq qurshab turgan tevarak-atrofga nisbatan o‘zini qarama-qarshi qo‘ygan, yaratuvchanlik kuch-quvvatiga, o‘zgartiruvchanlik imkoniyatiga asoslangan shaxs o‘zi uchun, sifat jihatidan yuksak darajadagi makon vujudga keltirish uchun hayvonot dunyosini mangu tark etgan, shu bois jonivorlar bilan uning o‘rtasidagi ziddiyat va tafovut ongida saqlanib kelmoqda. Shaxs o‘z xulq-atvorini, bilish jarayonlarini aqliy va ijodiy faoliyatini, irodaviy sifatlarini ongli ravishda oqilona baholay oladi hamda o‘zini o‘zi boshqara biladi. Har qaysi insonda hukm suruvchi “men”likning “men emas”likdan ajratishga intilishni, o‘zini namoyon qilish, o‘zini o‘zi ifodalash, kimligini kashf etish, o‘zini o‘zi takomillashtirish, o‘ziga o‘zi buyruq berish, o‘ziga o‘zi tasir o‘tkazish singari jarayonlarda” ontogenetik hayotning daslabki taraqqiyot pallasidan, ya’ni bolalikning ilk daqiqalaridan boshlab, to yetuklikning u yoki bu bosqichlarini egallash davrigacha davom etib, o‘zini o‘zi anglashning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. Bizningcha, komil insoniylikka erishishning o‘ziga xos axloqiy, aqliy, irodaviy, g‘oyaviy tarkiblari mavjud bo‘lib, tanlangan idealga intilish, kasbga sodiqlik, samoviy muhabbat uning negizini tashkil qiladi. Tashqi olam taassurotlaridan mutlaqo voz kechish, fikriy soflikka erishish, tana a’zolarini musaffolashtirish (ortiqcha moddalardan tozalash), qulaylikka tortilganlik orqali shaxs oliy darajaga, ya’ni komillikka yetishi mumkin, lekin bu bosqich nisbiy xususiyat kasb etadi. Ongning uchinchi psixologik tavsifi shaxsning maqsadini ko‘zlovchi faoliyatini ta’minlashga oid ta’rifi ifodalangan bo‘lib, uning yana bir funksiyasi mazkur maqsadini yaratishga yo‘naltirilganligi bilan boshqalardan farq qiladi. Ushbu jarayonda shaxs faoliyatining turli xususiyatga ega motivlari yuzaga keladi, ular inson tomonidan chamalab chiqiladi, buning natijasida motivlar kurashi namoyon bo‘ladi va bu o‘rinda usuvorlikka erishish yetakchilikni ta’minlaydi, irodaviy zo‘r berish oqibatida muayyan qonun qabul qilinadi, harakatlarni bajarishning izchilligi qay yo‘sinda amalga oshirilishi hisobga olinadi, maqsadni qaror toptirishga to‘siq vazifasini o‘tovchi fikriy to‘siqlar bartaraf etiladi va unga mutanosib o‘zgarishlar kiritiladi, samaradorlikni oshirish uchun ba’zi bir tuzatishlar amalga oshiriladi. Maqsadni ko‘zlovchi faoliyatning amalga oshirilishi jarayonida, uning muvofiqlashuvida, voqelikka yo‘naltirilishida obyektiv va subyektiv sabablariga ko‘ra, ayrim nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi, buzilish vujudga kelishi ong funksiyasining zaiflashuvini bildiradi. Faoliyat ongli munosabatni taqozo etganligi tufayli uning tarkibiy qismlari bajarilishida ayrim kamchilikka yo‘l qo‘yilsa, bu holat ongning nazorat funksiyasi izdan chiqqanligini anglatadi. Ongning to‘rtinchi psixologik tavsifi uning tarkibida muayyan darajadagi, ma’lum tizimga xos emotsiya(hissiy) munosabatlar qamrab olinganligini aks ettiradi. Shundan keyin shaxs ongiga muqarrar ravishda turli-tuman his-tuyg‘ular (har xil darajali ijobiy, salbiy, barqaror, statik, dinamik), kechinmalar, stress, affekt holatlar to‘g‘risidagi axborotlar oqimi kirib kelaveradi. (1-jadval)

Talaba yoshlarning o‘zini anglash jarayonida psixologik xavflar va psixoprofilaktik himoya omillari

Psixologik xavf omillari (raqamli muhitda)	Namoyon bo'lish shakllari	Hadis va milliy qadriyatlar asosidagi psixologik himoya
Axborot bosimi va ma'naviy bo'shliq	Shaxsiy beqarorlik, identitet inqirozi	O'zlikni anglash, ma'naviy tayanch, hayot mazmunini anglash
Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik	Taqqoslash, o'zini past baholash	Qanoat, shukr, sabr tushunchalari orqali ruhiy muvozanat
Emotsional zo'rqiqlash va stress	Xavotir, depressiv holatlar	Ruhiy sabr, ichki intizom va irodani mustahkamlash
Axloqiy me'yorlarning zaiflashuvi	Xulqiy chetlanishlar	Axloqiy me'yorlar, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish
O'zini yo'qotish (begonalashuv)	Passivlik, hayotga befarqlik	O'zini anglash, shaxsiy mas'uliyat va maqsadlilik

1-jadval.

Izoh: Jadval talaba yoshlar duch kelayotgan psixologik xavflar va ularni bartaraf etishda hadislar hamda milliy qadriyatlarning psixoprofilaktik imkoniyatlarini tizimli ravishda yoritadi.

Talaba yoshlar bilan psixoprofilaktik ishlarda metodik yondashuvlar bo'yicha..

Talabalarning ruhiy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan psixoprofilaktik ishlarda quyidagi metodik yondashuvlar muhim hisoblanadi:

- hadis va milliy qadriyatlarga asoslangan interaktiv seminar-treninglar;
- reflektiv mashg'ulotlar orqali o'zini anglash jarayonini faollashtirish;
- psixologik so'rovnoma va diagnostik metodlar yordamida ruhiy holatni baholash;
- raqamli xavflar bo'yicha psixologik savodxonlikni oshirish.

Mazkur yondashuvlar talabalarda mustahkam ichki tayanch shakllanishiga xizmat qiladi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o'tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir. Psixikaning yuqori bosqichi insongagina xos bo'lgan, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o'z aksini topadi. Shaxsning boshqa kishilarga, tabiatga, jamiyatga, ashyolarga nisbatan munosabatlari mavjud mezonlarga asoslansa, muayyan qoidalarga bevosita amal qilinsa, har bir narsaga oqilona, odilona va omilkorlik bilan yondashilsa, ongning nazorat funksiyasi hukm surayotganligidan dalolat beradi. Shaxsdagi mo'tadillik, ruhiy sog'lomlik ongning boshqaruv imkoniyati mavjudligini bildirsa va ayrim hollarda hissiyotga berilsa, demak, uning o'z funksiyasini bajarishdan chetlashganligi namoyon bo'ladi. Shunday qilib, ontogeneza ongning paydo bo'lishi („men" davrining boshlanishi), uning taraqqiyoti, tarkibiy qismlari, unda ijtimoiy muhitning, zarur shart-sharoitlarning o'rni, biologik va ijtimoiy shartlanganlikning ta'siri, tarbiyaning usuvorligi to'g'risidagi ilmiy tadqiqot ishlari mazkur muammoning psixologik tafsifini ishlab chiqishga muhim negiz yaratdi[11.325b]. Axloqiy ijtimoiy ong – ong shakllaridan biri sifatida jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi va boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib boradi. Masalan, axloq bilan din aloqadorligi masalasida shuni aytish mumkinki, mohiyatan din inson hayotining aloqadorligini taqozo qiladi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini rivojlantirish borasida milliy qadriyatlardan foydalanish usullari va milliy tarbiya negizlari, ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy asoslari, ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi, ayniqsa, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etish masalalari bo'yicha Z.E.Azimova[7], Sh.Sh.Olimov [9], M.Quronov [10], N.A.Muslimov [6], N.Dj.Mahmudova [7], Y.P.Azarov [6]larning tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo'lajak mutaxassislarning ma'naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi o'rganilgan. Agar turli xususiyatli munosabatlar ong nazoratida amalga oshirilsa, shaxs xulq-atvorida, faoliyatida va muomala jarayonida, hech qanday nuqsonlar, chetga og'ishlar sodir bo'lmasligi kerak. Riyoziyotda hamma narsa qat'iy qonunlarga bo'ysunadi, ammo inson ongiga kelsak, yagona noyob umid bir zumda bug'lanadi. Axloqiy ongning asosiy xususiyatlaridan biri yuqorida nomlangan - bu subyektivlikdir. Shunday qilib, bir madaniyat uchun ba'zi narsalar odatiy bo'lib, boshqasi uchun esa mutlaqo qabul qilinmaydi, bundan tashqari, ba'zi bir madaniy qadriyatlarga ega bo'lganlar o'rtasida o'xshash kelishmovchiliklar yuz berishi mumkin. Voyaga yetgan kishining hayot haqidagi qarashlarini o'zgartirishi o'z-o'zidan jiddiy ishini talab qiladi. Shuningdek, yuqorida aytilganlarning hammasi bu yoki boshqa harakatlarning axloqiy holatini

baholash uchun juda qiyin holga keladi, chunki uning obyektivligi uchun noto‘g‘ri xulosa bilan cheklanmagan rivojlangan axloqiy ongga ega bo‘lish lozim.(2-sxema)

2-sxema. Hadis va milliy qadriyatlarga asoslangan psixologik himoya (ruhiy immunitet) modeli
Raqamli muhit omillari

(axborot bosimi, ijtimoiy tarmoqlar, stress)



Psixologik xavflar

(beqarorlik, xavotir, identitet inqirozi)



O‘zini anglash jarayoni

(refleksiya, o‘zini baholash)



Hadis va milliy qadriyatlar

(sabr, qanoat, mas‘uliyat, axloq)



Psixologik himoya mexanizmlari

(ruhiy immunitet, emotsional barqarorlik)



**Shaxsiy barqarorlik va
psixologik moslashuv**

Sxemaning ilmiy ahamiyati:

Ushbu model hadislar va milliy qadriyatlarning talaba yoshlar ruhiy barqarorligini mustahkamlashdagi psixoprofilaktik rolini nazariy jihatdan asoslaydi va amaliy tadqiqotlar uchun konseptual poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Shu narsani ta’kidlash o‘rinliki, patologik holatlarni tahlil qilish, ong mohiyatining genezisini atroflicha anglab olishga ko‘maklashadi. Shu bois ongning zaiflashuvi shaxsning his-tuyg‘ulari va munosabatlarini o‘zgartiradi hamda vaqt-vaqti bilan simpatiya antipatiya bilan, quvonch qayg‘u bilan, optimizm pessimizm bilan o‘rin almashib turadi. Shu bois diniy-sha’riy tamoyillar va me’yorlar, hadisi sharifdagi o‘g‘itlar axloq-odob qoidalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Jumladan, inson eng oliy qadriyat sifatida qat’iy muhofaza etiladi. Din insonni axloqiylashtirishning vositasi sifatida ish ko‘radi. Demak, diniy taqvo bilan axloqiy talabning ildizi bir xil. Axloq muayyan jamiyatdagi huquqiy qonun-qoidalar, tamoyil, me’yorlar, urf-odatlar negizida vujudga keladi. Axloq san’at bilan ham bog‘liq bo‘lib, yoshlarda axloqiy ideallarni shakllantirishga xizmat qiladi. Oilaning yoshlar ma’naviy-marifiy ongini rivojlantirish va tarbiyaviy imkoniyatlarini yuksaltirishda muomala masalasi muhimdir. Har bir oila o‘zining individual xususiyatiga ega. Zero, oilada shakllangan muomala madaniyati barcha oila a’zolari uchun o‘z ta’sir kuchini o‘tkazadi[3. 831b].

Xulosa. Talaba yoshlarning o‘zini anglash jarayonida hadislar va milliy qadriyatlar muhim psixologik himoya omili sifatida namoyon bo‘ladi. Ular shaxsning ruhiy immunitetini mustahkamlashda samarali psixoprofilaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ruhiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan psixologik dasturlarni ishlab chiqishda muhim metodik asos bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, aldov, yolg‘on, soxtalik va totalitar axloqiy zug‘um hukmronlik qilgan davrda yoki jamiyatda axloqiy hissiyot, axloqiy anglash, axloqiy munosabatlar qabul etilgan kodekslar, me’yorlar hamda tamoyillarga ko‘pincha to‘g‘ri kelmaydi. Rasmiy axloqiy qonun-qoidalar bilan haqiqiy axloqiy intilishlar orasida ma’naviy jarlik paydo bo‘ladi. Tilda bu qonun-qoidalar ko‘klarga ko‘tarilgani holda, qalbda, ich-ichdan ularga qarshilik hukm suradi. Natijada jamiyat uchun fojia bo‘lgan axloqiy so‘z bilan axloqiy faoliyatning alohida-alohida mavjudligi ro‘y beradiki, buni biz sho‘rolar davridagi «kommunizm quruvchisining axloqiy kodeksi» bilan shu kodeksni hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan guruhlarining, «shu kodeks asosida yashayapmiz» degan odamlarning poraxo‘rligida, ta’magirchiligida, xudbinligida, yolg‘onchiligida ko‘rganimiz kabidir.

Adabiyotlar:

1. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. – M.: Pedagogika, 2010.
2. Asmolov A.G. Psixologiya shaxs rivoji. – M.: Smysl, 2012.
3. Imom Termiziy. Al-Jome’ as-sahih. – T.: Movarounnahr, 2019.

4. Дилбар Каипбергенова, Жуманиёзова Н.С. Бугунги кун талаба ёшларида ахлоқий дунёқарашни шакллантириш усуллари *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(5), May, 2023 654b.
5. Bazarov Otabek Xasanboevich Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari I bob. Ma'naviy – axloqiy ong tushunchasini o'rganishning ilmiy falsafiy asoslari 09.00.04 – ijtimoiy falsafa Dis - 2021/28-45
6. Хол Жумаевич Худойкулов Талаба-ёшларнинг маънавий-тарбиявий онгини шакллантиришда педагогик ҳамкорликнинг ўрни ва аҳамияти *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari National University of Uzbekistan Volume 4 | NUU Conference 2 | 2023 Google Scholar indexed Current Issues of Social Sciences and Humanities* DOI: 10.24412/2181-1385-2023-2-825-833 831b.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 17.09.2018 yildagi 736-son Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 1b.
8. Дилбар Каипбергенова, Жуманиёзова Н.С Бугунги кун талаба ёшларида ахлоқий дунёқарашни шакллантириш усуллари *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(5), May, 2023 654-655b.
9. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
10. Azimova N.E. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi (Pedagogik yo'nalishdagi fanlarni o'qitish misolida). Ped. fan. fal. dokt. (PhD)....dis.–Toshkent,2012.
11. www.carjis.org Sabohat Xudoybergan qizi Madiyarova Nizomiy nomidagi TDPU magistri Shaxsda individual va ijtimoiy axloqiy ongni shakllantirish mexanizmlari *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* ISSN (online): 2181-2454
12. Olimov Sh.Sh. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan.dokt....dis.–Buxoro,2012.
13. Quronov M. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
14. Ibodov, M. X. (2023). Shaxsda ekologik ongni rivojlanishida hadislarning psixologik va pedagogik ahamiyati. *Interpretation and researches*, 1(9).
15. Karimova V.M. Yoshlar psixologiyasi. – T.: Fan, 2020.
16. Giddens E. Modernity and Self-Identity. – Cambridge: Polity Press, 2018

Turaxonova Mohinur Abdunazar qizi,
Termiz davlat pedagogika Instituti
"Amaliy psixologiya" kafedrası katta o'qituvchisi,

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA INNOVATSION PEDAGOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion pedagogik tafakkurni shakllantirishning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Innovatsion tafakkurning mohiyati, uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi motivatsion, ijodiy va reflektiv omillar yoritilgan. Shuningdek, innovatsion fikrlashni rivojlantirish bosqichlari hamda amaliy shakllari – muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, interfaol metodlar va reflektiv mashg'ulotlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Maqolada o'qituvchi shaxsining ijodiy yondashuvi, refleksiya va emotsional barqarorligi innovatsion pedagogik tafakkurni shakllantirishda muhim omil sifatida asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, innovatsion tafakkur, pedagogik tafakkur, psixologik xususiyatlar, ijodiylik, refleksiya, motivatsiya, kasbiy kompetensiya, ta'lim innovatsiyasi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье анализируются психологические особенности формирования инновационного педагогического мышления у будущих учителей. Раскрыта сущность инновационного мышления, а также мотивационные, творческие и рефлексивные факторы, влияющие на его развитие. Показаны этапы формирования инновационного мышления и практические формы его проявления — проблемное обучение, проектная деятельность, интерактивные методы и рефлексивные занятия. В статье обосновано, что творческий подход, рефлексия и эмоциональная устойчивость личности учителя являются важными факторами формирования инновационного педагогического мышления. Результаты исследования направлены на повышение профессиональной компетентности будущих педагогов в образовательном процессе.

Ключевые слова: будущий учитель, инновационное мышление, педагогическое мышление, психологические особенности, креативность, рефлексия, мотивация, профессиональная компетентность, образовательные инновации.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMING INNOVATIVE PEDAGOGICAL THINKING IN FUTURE TEACHERS

Abstract. This article analyzes the psychological features of the formation of innovative pedagogical thinking in future teachers. The essence of innovative thinking, motivational, creative and reflective factors influencing its development are highlighted. Also, the stages of development of innovative thinking and the importance of practical forms - problem-based learning, project activities, interactive methods and reflective exercises are shown. The article substantiates the creative approach, reflection and emotional stability of the teacher as an important factor in the formation of innovative pedagogical thinking. The results of the study serve to increase the professional competence of future teachers in the educational process.

Keywords: future teacher, innovative thinking, pedagogical thinking, psychological characteristics, creativity, reflection, motivation, professional competence, educational innovation.

Bugungi kunda ta'lim tizimida ro'y berayotgan tub islohotlar, raqamli texnologiyalar jadal rivoji va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishi o'qituvchidan yangicha fikrlashni, ijodkorlikni, pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvni talab qilmoqda. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion pedagogik tafakkurni shakllantirish muhim psixologik va pedagogik masala sifatida alohida o'rganishni taqozo etadi.

Innovatsion tafakkur - bu shaxsning mavjud muammolarga yangicha yondashish, yangilik yaratish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun kreativ fikr va zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olish qobiliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilar uchun bu sifat kasbiy tayyorgarlikning ajralmas komponentidir. Mazkur maqolada innovatsion pedagogik tafakkurning mohiyati, uni shakllantirish jarayonining psixologik asoslari, hamda bo'lajak o'qituvchilarda bu sifatlarni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi.

Innovatsion pedagogik tafakkur - bu ta'lim jarayonida yangicha yondashuv, metod va texnologiyalarni ongli ravishda tanlash va ularni ijodiy qo'llay bilish qobiliyatidir. U an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli o'laroq, o'qituvchini "tayyor bilim beruvchi" emas, balki "bilim yaratuvchi" va "jarayon tashkilotchisi" sifatida shakllantiradi.

Psixologik nuqtai nazardan, innovatsion tafakkur ijodiylik, refleksiya, motivatsiya va mustaqil qaror qabul qilish komponentlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchi innovatsion fikrlash orqali o'quvchilar shaxsini rivojlantirish, ularning ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish, o'quv jarayonini muammoli yoki loyihaviy yondashuv asosida qurishga harakat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion tafakkurni rivojlantirishda quyidagi psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Motivatsion omil.

Talabani o'z kasbiga bo'lgan ichki qiziqishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyoji innovatsion tafakkurning asosiy manbaidir. Innovatsion fikrlovchi o'qituvchi doimo yangilikka ochiq, mustaqil izlanishga moyil bo'ladi.

2. Ijodiy faoliyat va divergent tafakkur.

Psixologik tadqiqotlar (E. Torrens, J. Guilford) shuni ko'rsatadiki, ijodiy tafakkur — innovatsion faoliyatning asosi hisoblanadi. Talabalar mustaqil muammo hal qilish, loyihaviy ishlar, interfaol mashg'ulotlar orqali yangicha fikrlashni o'rganadilar.

3. Refleksiya (o'z faoliyatini tahlil qilish). Innovatsion o'qituvchi o'z ishini tahlil qila oladi, natijalarni baholaydi, xatolarni ko'ra oladi va ularni tuzatish yo'llarini topadi. Reflektiv tafakkur o'qituvchining kasbiy o'sishini ta'minlaydi.

4. Emotsional-intellektual barqarorlik.

Yangi g'oyalarni ilgari surish jarayoni har doim stress, shubha va qarama-qarshiliklar bilan kechadi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchining emotsional barqarorligi va ijobiy psixologik muhit yaratish ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion pedagogik tafakkurni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. Axborotli-bilim bosqichi.

Talabalarda zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlar, innovatsion texnologiyalar haqida tasavvur shakllantiriladi.

2. Amaliy-tajriba bosqichi.

Talabalar amaliy mashg'ulotlarda, pedagogik amaliyotda innovatsion metodlarni qo'llashni o'rganadilar. Bu bosqichda psixologik mustaqillik va kreativ fikrlash shakllanadi.

3. Reflektiv-ijodiy bosqich.

Talabalar o'z faoliyatini tahlil qilib, yangi metodikalar yaratishga harakat qiladilar. Bu bosqichda innovatsion tafakkur barqarorlashadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion tafakkurni rivojlantirish usullari

– Muammoli ta'lim metodlari – talabalarda mustaqil izlanish va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi;

– Loyihaviy faoliyat – o'z g'oyasini yaratish va uni amaliyotga joriy etish imkonini beradi;

– Interfaol metodlar (trening, debat, "aqliy hujum") – ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni kuchaytiradi;

– Reflektiv tahlil mashg'ulotlari – o'z fikrini tahlil qilish va baholash malakasini rivojlantiradi;

– Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash – talabani texnik tafakkurini kengaytiradi.

Pedagogik-psixologik shart-sharoitlar

Innovatsion tafakkurni muvaffaqiyatli shakllantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur:

– erkin fikrlash va ijodiy muhitning yaratilishi;

– talabalar shaxsini hurmat qilish, ularning fikrini qadrlash;

– rag'batlantiruvchi motivatsion tizimni yo'lga qo'yish;

– o'qituvchining o'zi innovatsion shaxs sifatida namuna bo'lishi;

– zamonaviy o‘quv texnologiyalaridan faol foydalanish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion pedagogik tafakkurni shakllantirish — bu shunchaki yangicha metodlarni o‘rgatish emas, balki shaxsning ijodiy fikrlashini, tahliliy qaror qabul qilish qobiliyatini va reflektiv yondashuvini shakllantirish demakdir. Innovatsion tafakkurga ega o‘qituvchi har bir darsni yangi g‘oya sifatida ko‘radi, o‘quvchilar bilan hamkorlikda ijod qiladi va ta‘limni rivojlantirishga faol hissa qo‘shadi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida, xususan, ta‘lim tizimida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ta‘lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy vazifalardan biri — mustaqil fikrlaydigan, kreativ, tashabbuskor va innovatsion yondashuvlarga ega bo‘lgan pedagog kadrlarni tayyorlashdir. Chunki ta‘lim sifati, avvalo, o‘qituvchi shaxsining kasbiy salohiyati va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Zero, o‘qituvchi kasbiy faoliyatida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi muhim, chunki mustaqil fikrlovchi shaxs bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki uni tahlil qiladi, solishtiradi va xulosa chiqaradi. Shu maqsadda ta‘lim jarayonini interfaol usullar asosida tashkil etish zarur. Interfaol metodlar (munozara, guruhli ishlar, muammoli vaziyatlar, aqliy hujum va boshqalar) o‘quvchilarning faolligini oshiradi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Natijada ta‘lim jarayoni samarali bo‘lib, o‘quvchilarda ijodkorlik va tanqidiy fikrlash shakllanadi. Bugungi raqamli texnologiyalar davrida **innovatsion tafakkurning roli nihoyatda muhim** bo‘lib, u jamiyat, ta‘lim va iqtisodiyot rivojining asosiy omillaridan biridir. Uning roli quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Muammolarni yangicha hal etish

Innovatsion tafakkur mavjud muammolarga an‘anaviy emas, balki kreativ va samarali yechimlar topishga yordam beradi. Bu tez o‘zgarayotgan raqamli muhitda ayniqsa zarur.

2. Texnologiyalardan samarali foydalanish

Raqamli vositalar (sun‘iy intellekt, onlayn platformalar, mobil ilovalar) faqatgina texnik bilim emas, balki ularni to‘g‘ri va maqsadli qo‘llashni talab qiladi. Innovatsion tafakkur bu imkoniyatlardan unumli foydalanishni ta‘minlaydi.

3. Ta‘lim sifatini oshirish

Ta‘limda innovatsion yondashuvlar interfaol metodlar, masofaviy ta‘lim va raqamli resurslar orqali o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

4. Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash

Innovatsion tafakkurga ega shaxs mehnat bozorida talabgir bo‘ladi, chunki u moslashuvchan, tashabbuskor va yangi bilimlarni tez o‘zlashtira oladi.

5. Ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot

Startaplar, yangi loyihalar va raqamli yechimlar innovatsion tafakkur natijasida yuzaga keladi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji, axborotlar oqimining tezlashuvi sharoitida an‘anaviy o‘qitish usullari yetarli samara bermayapti. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion tafakkurni shakllantirish pedagogik ta‘limning dolzarb masalasiga aylandi. Innovatsion tafakkur pedagogning kasbiy faoliyatida yangilik yaratish, ilg‘or tajribalarni qo‘llash va ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Shunday ekan, pedagogik ta‘lim tizimida psixologik tayyorgarlik, motivatsiyani oshirish, ijodiy muhitni shakllantirish va amaliy tajriba asosida innovatsion tafakkurni rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining muhim mezonini hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion tafakkurni shakllantirish ta‘lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Innovatsion fikrlovchi o‘qituvchi o‘quvchilarni zamon talablariga mos, mustaqil va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalay oladi. Shu bois pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlarga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bo‘lajak o‘qituvchi innovatsion fikrlash orqali ta‘lim jarayonini an‘anaviy usullar bilan cheklab qolmay, balki interfaol, muammoli va raqamli ta‘lim metodlarini uyg‘unlashtira oladi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, innovatsion tafakkur o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirib, uning pedagogik faoliyatida samaradorlik va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Bundan tashqari, innovatsion tafakkur bo‘lajak o‘qituvchilarning zamon talablariga moslashuvchan bo‘lishini ta‘minlaydi, ularni doimiy o‘z ustida ishlashga, yangi bilim va tajribalarni egallashga undaydi. Bu jarayonda oliy ta‘lim muassasalarida innovatsion ta‘lim muhitini yaratish, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha va tadqiqot faoliyatiga keng o‘rin berish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarda innovatsion tafakkurni shakllantirish nafaqat ta‘lim sifatini oshiradi, balki kelajakda raqobatbardosh, ijodkor va mas‘uliyatli pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Natijada, ta‘lim tizimining barqaror rivojlanishi va jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga mustahkam zamin yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va innovatsiyalar yo‘lida.* — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.” – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Ziyomuhammadov B., To‘raqulov A. Pedagogik innovatsiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Abdullayeva D. Psixologiyada tafakkur jarayonlari. – Toshkent:TDPU nashriyoti, 2020.
6. Guilford J. P. “Creativity and its cultivation.” – New York: Harper,
7. Torrance E. P. “Guiding creative talent.” – Englewood Cliffs,
8. To‘xtasinova M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish omillari. – Pedagogika va psixologiya jurnali, 2023, №4.

*Xo'shboqov Kamoliddin Abdulatif o'g'li,
Termiz davlat pedagogika instituti Amaliy psixologiya kafedrasida o'qituvchisi
Umarxanova Xolbibi Faxriddin qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

NIZONING SHAXSLARARO MUNOSABATLARDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nizo tushunchasining mazmuni va mohiyatini tushuntirishga qaratilgan mulohazalar bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatda, shaxslararo munosabatlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarning o'ziga xosligi, keltirib chiqaruvchi sabablar va mavzuga oid munosabatlar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: inson, ehtiyoj, qiziqish, tarbiya, munosabat, muammo, pedagogik nizolar, ziddiyat, ixtilof, stress.

РОЛЬ КОНФЛИКТА В МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация Помимо комментариев, направленных на разъяснение значения и сущности понятия конфликт, в данной статье также рассматривается своеобразие конфликтных ситуаций, которые могут возникнуть в педагогической деятельности, межличностных отношениях, причины, вызывающие их, и отношение к теме.

Ключевые слова: человек, потребность, интерес, образование, отношение, проблема, педагогические конфликты, конфликт, конфликт, стресс.

THE ROLE OF CONFLICT IN INTERPERSONAL RELATIONSHIPS

Abstract. This article, along with considerations aimed at explaining the content and essence of the concept of conflict, discusses the specificity, causes and subject-specific relations of conflict situations that may occur in pedagogical activity and interpersonal relationships.

Keywords: person, need, interest, education, attitude, problem, pedagogical conflicts, conflict, disagreement, stress.

Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgan o'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muhofaza qilinganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir. So'nggi vaqtlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo'lgan turli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lgan turli konflikt vaziyatlarni ham oshiradi.

Bolalik davrida o'yinchoqlarni talashish, birovlariga hasad qilish, yoki o'g'il bolalarning janjal qilib urishganini ko'p kuzatgansiz. Mana shunday konfliktlar keyinchalik oilada, eru-xotin, qaynona-kelin, aka-opalar, yaqinlar, do'stlar, ijtimoiy guruhlar, turli kompaniyalar o'rtasida, shuningdek mehnat faoliyatida ham vujudga kelishi mumkin.

Inson tug'ilibdiki, uning hayoti turli ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda davom etadi. Bu munosabatlar turlicha tarzda namoyon bo'lib, ular insonga qulaylik yoki noqulaylik to'g'irishi mumkin. Ana shunday vaziyatlardan biri konfliktlar bo'lib, u ba'zida bizda noqulay munosabatlarni vujudga keltiradi. Konfliktlar nizo va ziddiyatlar tarzida hayotning bir maromda davom etishiga o'z ta'sirini ko'rsatib turadi.

Ijtimoiy munosabatlarda ayrim alohida nizolar, o'zaro kelishmovchiliklarning bo'lib turishi muqarrar hisoblanadi. Shuning uchun ba'zan olimlar ziddiyat yoki nizolarning nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlari ham bo'lishi mumkinligini ochiq e'tirof etadilar. Rus olimasi G. Andreeva ayrim ziddiyatlarning konstruktiv oqibatlari to'g'risida yozadi. Uning fikricha, ba'zan ikki shaxs o'rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda to'g'ri xulosa chiqarib, shunday harakatni boshqa qaytarmaslikka, omilkorlikka, xushyorlikka undaydi. Yoki bir qarashda tanbehga assolangan shaxslararo ziddiyat shaxsni o'z ustida muttasil ishlashga, o'z xulqini o'zi tuzatishiga sabab bo'ladi. Bunday nizolar oqibatida ko'ra konstruktiv deb ataladi. Destruktiv nizoning oqibati esa ko'pincha salbiy bo'lib, u shaxslararo antagonizmni keltirib chiqaradi, tomonlarning

asablari charchaydi, ular xastalanib qolishi ham mumkin. Yoki er va xotin o'rtasida, yohud qaynona va kelin o'rtasidagi nizo oila ajrimiga sabab bo'lishi va bir butun oila buzilib ketishi mumkin.

Psixologik adabiyotlarda – konflikt, nizo yoki ziddiyat – bu ayrim alohida olingan shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o'zaro muloqot va ta'sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash va pozitsiyalarning to'qnashuvi oqibati paydo bo'lgan salbiy hissiyotlarga to'la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy psixologik hodisa sifatida tushuniladi.

Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konfliktga to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, nizo insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonining o'ziga xos oqibatlar majmuidan iborat bo'lgan natijaviy hodisa va voqealardir. Turli nizolar va ularning xususiyatlarini konfliktologiya sohasi o'rganadi. O'zbek tilining izohli lug'atida pedagogik nizo tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: "Pedagogik nizo – bu o'qituvchi va o'quvchi, ustoz va shogird, domla va talaba o'zaro kelishmovchiliklari yoki qaramaqarshilik, dushmanlik, adovat orqasida tug'ilgan holat, munosabat, ixtilof, nifoq. Konfliktologiya, yoki nizolar yechimi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy sohalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, konfliktologiyaning nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosliklari, nizolarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo nizolar, nizolarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi nizolar masalalari ko'pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi.

Nizoga moyillik (konfliktogenlik) deganda nizolarning yuzaga kelishini ta'minlovchi pedagogik jarayon va ijtimoiy faoliyat omillari yig'indisi tushuniladi. Mazkur sohaga doir amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda nizoga moyillik ta'lim muhitining ob'ektiv qonuniyatlari bilan aloqador bo'lib, pedagogik faoliyatning murakkabligi, o'quv-tarbiya jarayoni sub'ektlarining intensiv nizoli vaziyatda harakatlanishi, nizoli vaziyat ishtirokchilarida intellektual komponentning buzilishiga olib keluvchi emotsionallikning ustunligi, axborotlar ko'lamining stresslarga moyillikni yuzaga keltirishi, kasbiy faoliyatning bir xil qat'iy me'yor va talablar doirasida nazorat qilinishi; axborotlar globallashuvi sharoitida o'quvchilarda addiktik xulq-atvorning kuchayib borishi, o'quv jarayonini ta'limni axborotlashtirish talablari darajasida tashkil etilmasligi bilan tavsiflanishi haqidagi xulosaga kelindi.

Shaxslararo nizo – bir yoki bir necha konkret shaxslarning o'zaro yoki guruh doirasidagi ziddiyatidir. Bu keng tarfalgan nizolardan biri bo'lib, bunday nizolar rasmiy jamoalarda ham norasmiy muloqotlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar odamlarning fe'l-atvoriga ham, konkeret vaziyatlarga ham bog'liq tarzda kelib chiqishi va vaziyatning xarakteriga bog'liq xolda turlicha kechishi mumkin. Keng tarqalgan shaxslararo nizolar biri – bu er va xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar hisoblanadi. Ularning tabiati ham, davom etish muddati ham, xal bo'lish yo'llari ham turlicha bo'lib, har qanday ko'rinishda ham baribir bunday nizo ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasidagi psixologik masofani tobora uzoqlashtiradi, samimiyatning kamayishiga olib keladi.

Ilmiy adabiyotlarda nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabat (persektiv tizim, identifikasiya), o'z-o'zini adekvat boshkaruv, ongli "menlik" kabi ko'rinishlari haqida ko'pgina nazariy-ilmiy muloxazalar mavjud.

Gippokrat o'zining fan olamidagi ilk bor tadqiq qilingan individual farqlanishning tabiiy-ilmiy nazariyasida xar bir insonning o'ziga xos va betakror hissiy boshqaruv xususiyatlari bo'ladiki, unda xayotda odamlar bilan muloqotda va birgalikdagi faoliyat jarayonlarida unumli foydalanish zarurligini va bu ma'lum ma'nodagi nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabat ekanligini uqtiradi. Buyuk mutafakkir Ibn Sinoning "Tib konunlari"da esa xar bir insonning mijozi va bu mijozga mos xarakatlar majmuasining batafsil ishlab chiqqanligini nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabatni shakllantirish vositasi sifatida talqin qilish mumkin.

Beruniy o'z asarlarida tabiat va jamiyatdagi barcha ziddiyatlarga nisbatan ijtimoiy - mantiqiy fikrlay olish va mantiqiy xulosalar chiqara olish xususiyatini xar bir insonda tarkib toptirish lozim bo'lgan nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabat sifatida talqin kiladi.

Darxaqiqat, Gippokrat, Ibn Sino va Beruniylarning muloxazalaridagi nazariy-ilmiy mazmun o'zining amaliy qimmatini bugungi kunda xam yuqotgan emas. Chunki, tabiatan turli-tuman yaratilgan insonning xulq-atvori, hissiy kechinmalari, qiziqish va motivlari xam bir-biriga o'xshamagan rang-barang xolatda namoyon bo'lishi mumkin. Xuddi ana shu rang-baranglikni o'rganish, bilish va rivojlantirish insondagi nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabatning azaliy muhim sharti xisoblangan.

Taniqli psixolog J.Brunerning "yangi qarashlar" g'oyasiga asosan nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabat "persektiv ximoya" vositasi sifatida, ya'ni insonning inson tomonidan adekvat idrok qilinishi bilan bevosita bog'lab talqin qilinadi. Albatta, bu o'rinda insonlar o'rtasidagi muomala, muloqot va munosabat mezonlari alohida o'rin tutadi.

Pedagogning kasbiy vazifalarini bajarish sifati va maktabning nizoli muhitga moyilligining o‘zaro aloqadorligini hisobga olgan holda tadqiqot doirasida o‘qituvchining innovatsion salohiyat darajasi va mas’uliyatni yuqori darajada anglashi konseptual asos sifatida olindi.

Pedagogik nizolarning oldini olish, bo‘lajak o‘qituvchilarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning konseptual asoslari N.Azizxodjaeva, M.Axmedova, R.Jo‘raev, X.Ibragimov, N.Egamberdievalar tomonidan o‘rganilgan.

Ayniqsa, so‘nggi vaqtlarda psixologik tadqiqotlarda nizoga hayotimizning tabiiy “tarkibiy qismi” sifatida yondashuvning ustunligi kuzatildi (N.Grishina, S.Yemelyanov, N.Vishnyakova, E.G‘oziev, G‘.Shoumarov va h.k.).

Zamonaviy yondashuvlar tahlili nizo motiv, nuqtai nazar, ehtiyoj, qiziqish, maqsadga qarama-qarshi yo‘nalganlik, to‘qnashuv tarzida talqin etilishini ko‘rsatdi. Ayrim olimlar nizo tushunchasini emotsional jihat bilan bog‘liqlikda salbiy emotsiyalarga moyil sub‘ektlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning murakkab shakli deya izohlashgan (A.Ансупов, А.Шипилов, Е.Богданов, О.Громова, О.Щербакова, А.Becker, Н.Becker, G.Schwarz, P. Heigl).

O.Щербакова konfliktologik madaniyatni tahlil etish orqali shaxslararo munosabatlar jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni ikki tomonlama foydali tarzda hal etishni ta‘minlovchi shaxsning ijtimoiy zaruriy sifat va xususiyatlarini aks ettiruvchi nizoli vaziyatdagi shaxsning xulq-atvor odobi tarzida aniqlashtirgan.

P.Heigl konfliktologik madaniyatni insonning nizoli vaziyatda adekvat yo‘nalganligi va konstruktiv harakatlanish qobiliyati; N.Davenport nizoli vaziyatda o‘zining mas’uliyatini anglash asosida konstruktiv harakatlanishga imkon beruvchi sifatlar yig‘indisi sifatida talqin etishgan.

Konfliktologik madaniyatning komponentlarini aniqlashtirishga doir turli yondashuvlar mavjudligiga qaramasdan, ularning mazmunida umumiy-lik kuzatildi. Jumladan, O.Щербакова konfliktologik madaniyatning komponentlari sifatida fikrlash madaniyati, emotsional madaniyat, kommunikativ madaniyat, xulq-atvor madaniyatini; N.Azizxodjaeva, A.Xoliqovlar konfliktologik madaniyatni kommunikativ qobiliyatlar, ijobiy munosabat, empatiya, nizolarni konstruktiv hal etish, vaziyatni tahlil etish qobiliyati bilan uyg‘unlikda tahlil etishgan.

Biroq barcha nazariy konsepsiyalarda umumiy nuqtai nazar, ya‘ni nizo murakkab tuzilish va dinamik rivojlanish tavsifiga ega ekanligi, nizo konstruktiv va destruktiv funksiyani bajarishi haqidagi xulosaga kelingan.

Zamonaviy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, A.Becker, P.Heigl, M.Kurray, L.Deyvits, A.Dezetta kabi xorij olimlari tomonidan nizoning ijtimoiy-psixologik tabiati, pedagogik nizolarning samarali profilaktik metodlari tadqiq etilgan. P.Heigl konfliktologik madaniyatni insonning nizoli vaziyatda adekvat yo‘nalganligi va konstruktiv harakatlanish qobiliyati; N.Davenport nizoli vaziyatda o‘zining mas’uliyatini anglash asosida konstruktiv harakatlanishga imkon beruvchi sifatlar yig‘indisi sifatida talqin etishgan. L.Kozer, R.Darendorf, Z.Freyd, K.Xorni, A.Adler, N.Azizxodjayeva, R.Safarova, X.Ibragimov)ning turli-tuman qarashlarini tahlil etish asosida nizolarning inson hayotidagi o‘rni va roli o‘rganilgan.

Amerikalik tadqiqotchi Lyuis Kozer 1956 yilda nashr qilgan “Ijtimoiy konflikt funksiyalari” nomli kitobida konfliktli munosabatlarsiz ijtimoiy guruhlar mavjud bo‘lmashligini hamda ijtimoiy tizimlarning amal qilishi va almashinishida konfliktlarning ijobiy amaliy ahamiyat kasb etishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatdi. Uning fikricha, butun jamiyatning barqarorligi unda mavjud konfliktli munosabatlarning miqdoriga va ular o‘rtasidagi aloqalar tipiga bog‘liq.

Nemis sosiologi Ralf Darendorf jamiyatning konfliktli modeli konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning 1965 yilda chop etilgan “Sinfy tuzilma va sinfy konflikt” asarida har bir jamiyat hukmronlikka, majburlash va bo‘ysunishga asoslangan deb hisoblaydi. Qarama-qarshiliklar, konfliktlarning bo‘lishiga sabab, faqat odamlarning ijtimoiy notenglikka mahkumligi emas, shu bilan birga hokimiyat, shon-shuhrat, avtoritet uchun bo‘lgan kurash, boshqaruv munosabatlaridagi noteng mavqega ega bo‘lishdir, bunda bir xil odamlar faqat buyruq berish huquqiga, boshqa odamlar bu buyruqlarni bajarishga va bo‘ysunishga majburlidirlar. [: 37-38]

Xorij va MDX mamlakatlari olimlari hisoblangan K. Leongard, A. Bass, A.Shmelevlar pedagogik konfliktologiyani, «pedagogik faoliyatni optimallashtirishda zarur bo‘lgan axborotni qo‘lga kiritish jarayoni» deb ta’kidlaydilar.

Tadqiqotchi S.A.Novikova nizo va uning kelib chiqish sabablari to‘g‘risida fikr yuritib, shunday yozadi: “Shaxslar o‘rtasidagi nizo ko‘p xollarda ularning u yoki bu masalaga bo‘lgan nuqtai nazarlarining mos tushmasligi, raxbarlar o‘rtasida resurslarni taqsimlash, xodimlar bilan raxbar o‘rtasida esa ish sharoitini qoniqarsizligi kabilar yuzasidan vujudga kelishi mumkin. Bir lavozimga ikki nomzod qo‘yilganda xam shu

turdagi nizolar kelib chiqish xolatlarini uchrab turadi. Shaxslararo nizolar ham odatda shaxslararo to‘qnashuvlar tufayli bo‘lishi mumkin.

Zero, xar xil toifa, fe’ldagi odamlar xamma vaqt xam bir-birlarini tushunavermaydilar. Garchi bir ko‘rinishda bizga shunday tuyulsada, shaxslararo nizolarning 75-80 foizi moddiy manfaatdorlik zahirida sodir bo‘ladi”. Shu o‘rinda nizolar o‘ziga xos mavxum munosabat sifatida, ochiq, yoki yopiq ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkinligi ta’kidlab o‘tilgan. Ochiq nizolar odatda qarama-qarshi tomonlarning ko‘z oldida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri vujudga keladi. Ular to‘qnashish sodir bo‘lgunga qadar to‘liq yetilgan bo‘ladi. Bunday nizolar raxbariyat nazorati ostida turganligi sababli korxona uchun unchalik xavf tug‘dirmaydi va ularni boshqarish oson kechadi. “Yopiq nizolar, -deb yozadi K.Xorni, -o‘ta xavflidir. Bunday nizolarni asta-sekin, belgilangan fursatda portlaydigan minaga o‘xshatsa bo‘ladi. Agar nizo xali "yetilmagan" yoki ularni odamlar nigoxidan yashirilsa, boshqacha qilib aytganda nizo kishilar "ichida "bo‘lsa, bilingki, bu nixoyat xavfli va uni boshqarish juda qiyin” jarayondir. K.Xorni ta’kidlashicha, “yopiq nizolar ko‘pincha fitna, ig‘vo, hiyla-nayrang, fisqu-fasod shaklida rivojlanish oqibatida vujudga keladi. Ular oraga nifoq solish, buzg‘unchilikka qaratilgan bo‘lib, yolg‘on-yashiq, uydirma, bo‘xton gaplar muxoliflar uchun asosiy qurol vazifasini bajarib kelishi bildn ham hatarlidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Nizoli vaziyatlarga to‘g‘ri munosabat xar bir shaxsdagi faoliyat jarayonida sodir bo‘luvchi xulq-atvor belgilari muvofiqlashtiriladigan va bir-biriga yaqinlashtirib "tenglashtiriladigan" jarayonlarning kechishi bilan xam bevosita bog‘liq jarayon sifatida baholanadi va bu muammo V.E.Chudnovskiy tadqiqot-larida shaxs xarakteridagi (individual va jamoa-gurux) motivatsiyalarining shakl-lanishi va amalga oshirilishi, shuningdek, o‘zaro xamkorlikka intilish nuqtai-nazari dan asoslab berilgan.

Shunday qilib, real hayotda nizoning kelib chiqishi, uning qanday kechishi va yechimi uni keltirib chiqargan vaziyatdan ham ko‘ra, ushbu vaziyatda ishtirok etayotgan insonlarning unga nisbatan sub’ektiv munosabatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham har qanday nizoli, ziddiyatli xolatlarda unga aloqador bo‘lgan inson sifatida ayrim o‘ziga hos psixologik qoidalarga rioya qilishga to‘g‘ri keladi.

Adabiyotlar:

1. Axmedova Mukarram Tursunalievna Pedagogik konfliktologiya (o‘quv qo‘llanma): 5110900 - Pedagogika va psixologiya / M.T. Axmedova; O‘zbekistan Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2016. — 319 bet.
2. Андреева Г.М. Социальная психология.-М.: Аспект-Пресс, 2003.
3. Mayers D. Sosialnaya psixologiya. M. ,2010
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya T. 2012
5. Ансупов А.Я. Шипилов А.Н. Конфликтология. М.: Реч, 2000
6. Гришина Н.В Психология конфликта. М.: Питер, 2008

*Kubayev Ma'ruf Qosim o'g'li,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi doktranti*

O'SMIRLARDA AUTODESTRUKTIV XULQ-ATVOR PSIXOPROFILAKTIKASIGA DOIR YONDASHUVLAR TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlarda autodestruktiv xulq-atvorning psixologik mohiyati va uni oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik yondashuvlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda autodestruktiv xulq-atvorning rivojlanishiga ta'sir etuvchi individual, ijtimoiy va emotsional omillar yoritiladi. Psixoprofilaktik ishlarning zamonaviy yo'nalishlari, jumladan, psixologik treninglar, maslahat va tarbiyaviy dasturlarning samaradorligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: autodestruktiv xulq-atvor, o'smirlik davri, psixoprofilaktika, psixologik omillar, profilaktik yondashuvlar.

АНАЛИЗ ПОДХОДОВ К ПСИХОПРОФИЛАКТИКЕ АУТОДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. В статье проводится научный анализ психологических аспектов аутодеструктивного поведения у подростков и подходов к его психопрофилактике. Рассматриваются индивидуальные, социальные и эмоциональные факторы, способствующие формированию аутодеструктивных форм поведения. Особое внимание уделяется современным психопрофилактическим методам, включая психологические тренинги, консультирование и профилактические программы.

Ключевые слова: аутодеструктивное поведение, подростковый возраст, психопрофилактика, психологические факторы, профилактические подходы.

ANALYSIS OF APPROACHES TO THE PSYCHOPROPHYLAXIS OF AUTODESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

Abstract. This article presents a scientific analysis of psychological aspects of autodestructive behavior in adolescents and approaches to its psychoprophylaxis. The study examines individual, social, and emotional factors contributing to the development of autodestructive behavior. Special attention is paid to modern psychoprophylactic methods, including psychological training, counseling, and preventive programs.

Keywords: autodestructive behavior, adolescence, psychoprophylaxis, psychological factors, preventive approaches.

Kirish. O'smirlarning autodestruktiv harakatini ommaviy tarqalishni bartaraf etish uchun optimal psixologik vositalarni tanlash muammosi bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. Hozirgi kunda namoyon bo'layotgan autodestratsiya shakllarini tuzatish va profilaktika ishlari bilan shug'ullanish – xatar guruhlarini aniqlash, o'smirlarning muayyan toifasi xususiyatlarini hisobga oladigan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zarur. Bu vositalarsiz ularda yuzaga kelyatgan muammolarni bartaraf etish deyarli imkonsiz. Hozirgi davrda namoyon bo'layotgan autodestruktsiya shakllari (o'z-o'ziga zarar yetkazish, suitsidal fikrlar, xavfli xatti-harakatlar va boshqalar) bilan ishlash faqatgina individual yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, tizimli psixoprofilaktik va psixokorreksion choralarni talab etadi. Bunda, eng avvalo, xatar guruhiga mansub o'smirlarni erta aniqlash, ularning shaxsiy, yoshga oid, ijtimoiy-psixologik va madaniy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Aynan shu omillarni hisobga olgan holda maxsus psixologik dasturlarni ishlab chiqish va ularni ta'lim muassasalari hamda ijtimoiy muhitda amaliyotga joriy etish zarur.

Tadqiqot obyekti. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida namoyon bo'ladigan autodestruktiv xulq-atvor shakllari va ularning psixologik xususiyatlari.

Tadqiqot predmeti. O'smirlarda autodestruktiv xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan psixoprofilaktik yondashuvlar, ularning mazmuni, mexanizmlari va psixologik samaradorligi.

Qo'llanilgan metodlar. Mazkur tadqiqotda o'smirlarda autodestruktiv xulq-atvorni psixoprofilaktika qilishga doir yondashuvlarni tahlil etish maqsadida nazariy va empirik metodlar majmuasi qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy bosqichida psixologiya va pedagogika sohasidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Psixologik korreksiya va profilaktikada ikkita asosiy yondashuvni ajratish mumkin - muammoga yo'naltirilgan va shaxsiyatga yo'naltirilgan yondashuvlar. Birinchi holda, muayyan qiyin vaziyat yoki muammoni hal qilish muhimligi ta'kidlangan bo'lsa, ikkinchisida, insonning shaxsiy o'sishiga, uning o'ziga va o'z xatti-harakatlariga ongli munosabatiga e'tibor qaratiladi[1; 624 b.]. Ko'pgina psixologlar, masalan, O.V.Xuxlayevaning ta'kidlashicha[2; 61-67 b.], autodestruktiv xulq-atvor muammosini hal qilish uchun asosiy e'tiborni korreksiyadan profilaktikaga o'tkazish kerak, chunki buzilishning (alkogolizm, o'z joniga qasd qilish harakati va boshqalar) oldini olmasdan o'smirning psixologik va ruhiy salomatligini saqlab bo'lmaydi. Bu muammoga o'rta asrlarda yashab o'tgan vatandoshimiz, sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino ham o'z munosabatini bildirib o'tgan. Ularning “Kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish afzal”[3; 24 b.] degan fikrlari bugungi kun tibbiyot va psixologiya ilmlari uchun o'ta muhim hisoblanadi.

O'z-o'ziga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlarni oldini olish va davolash ishlari shaxsda kuchli iroda va matonat talab etadi. Profilaktik ishlar davomiyligi va samarali usullari chidamlilik hamda qat'iyatlik sifatleri bilan bog'liqdir. Bu borada sharq mutafakkiri Abi Nasr Farobiy “O'z irodasiga bog'liq xatti-harakatlarni bajarishga qodir bo'lsa, ruhan va tabiatan xayrli amallar va sharr(yomon) ishlar tomon o'z irodasini yo'naltira oladi. Shu sababli har bir narsa insonda fazilatli amallar yoki razolatli fe'l-atvor tug'diradigan iste'dod mavjud bo'lib, u har ikkisidan birini bajarishga qodir[4; 64 b.]”. Bundan tashqari alloma asarlarida insonlardagi chidamlilik, sabr-bardosh, qanoat kasi ijobiy hislatlarni inson kamolotining asosiy vositasi sifatida qaraydi. Va bu sifatlar bilan turli g'ayriijtimoiy xulqqa qarshi tura olish imkoniga ega bo'lishini ta'kidlab o'tgan.

Autodestruktiv xulq-atvorni oldini olishning eng samarali usullari bu xatti-harakatlar oqibatlarini o'smirlarga to'liq tushuntirish, anglatishga qaratilgan. Boisi, shaxs biror faoliyatda samaraga erishish uchun albatta, u faoliyat haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi, tahlil qilishi va mazmunini chuqurroq anglashi muhimdir. Shunda uning o'zi ichki motivlar asosida natija uchun bardavom harakatda bo'ladi. Agar shaxs o'zi uchun zararli xatti-harakatlarga qarshi anglangan tarzda, o'zi kurashmasa, ko'plab usullar o'zining samarasini yo'qotishi mumkin. Bu borada Qur'oni Karimning Ra'd surasi, 11-oyatda “Albatta, to bir qavm o'zlarini o'zgartirmagunlaricha, Alloh ularning holini o'zgartirmas” deya bayon etilgan[5; 223 b.].

Hozirga qadar zamonaviy psixologik tadqiqotlarda o'smirlardagi autodestruktiv xulq-atvorning profilaktikasi ahamiyati va izchil metodlari bo'yicha ko'plab nazariyalar oldinga surilgan hamda bu borada ko'plab izlanishlar olib borilgan. Jumladan, G'.A.Berulavanning izlanishlarini natijasiga ko'ra[6; 112 c.], jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichidagi psixologiyani rivojlantirishda gumanistik yo'nalishlar shaxsni samarali rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishga ko'rsatilishi kerak. Shuningdek, O.V. Xuxlayeva ham bugungi kunda o'smirlarda autodestruktiv harakatning tarqalishi ko'payganda, profilaktik ishlar alohida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tgan[7; 61-67 c.].

Bundan tashqari, E. Pyatakov bayon etganidek, ta'lim tizimidagi psixologlarning resurslari (vaqt, kuch, bilim) boshqa shaxslarning resurslari kabi cheklangan[8; 17-23 c.]. Shuning uchun asosiy e'tiborni autodestruktiv xatti-harakatlarni korreksiyasidan profilaktikasiga qaratish kerak, lekin aynan bir buzilishning (alkogolizm, giyohvandlik, chekish, o'z joniga qasd qilish harakati va boshqalar) yuzaga kelishini oldini olishga emas, balki o'quvchilarning psixologik salomatligini saqlash va dunyo qarashini o'stirishga, ularga rivojlanish vazifalarini hal qilishda yordam berishga qaratish lozim.

O'smirlardagi autodestruktiv xulq-atvor profilaktik chora-tadbirlarini umumta'lim maktablarida samaraliy tarzda amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Chunki, birinchidan, hozirgi vaqtda o'smirlar o'rtasida autodestruktiv xatti-harakatlari keng tarqalgan, ya'ni profilaktika ishlari ko'proq o'smirlar jamoasini qamrab olishi kerak, ikkinchidan, maktab psixologining o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish imkoniyati mavjud bo'lib, bu ularga autodestruktiv xatti-harakatga moyil o'quvchilarni o'z vaqtida tashxislash va aniqlangan holatda profilaktika yoki tuzatish choralarini birgalikda ishlab chiqish hamda amalga oshirish imkonini beradi. Yana bir muhim omil - maktab sharoitida psixologik yordamning mavjudligi - o'smir istalgan vaqtda psixologga murojaat qilishi mumkin. Maktab bazasida xatar yoqasida bo'lgan o'smirlarni aniqlash, o'z-o'zini buzg'unchi xatti-harakatlarning turli shakllarining namoyon bo'lishining dastlabki shartlari va holatlarini psixologik tuzatish, ota-onalar, o'qituvchilarga maslahat berish, ular bilan birgalikda ish olib borish mumkin.

L.A. Morozovanning fikricha, ta'lim muhiti rivojlanish ta'siriga ega bo'lishi uchun unda barcha(raxbarlar, o'qituvchilar, psixolog va boshqa mas'ullar) qandaydir vazifalarini bajaradi va hammaning jiddiy yondashuvi muhim hisoblanadi[9; 65-67 c.]. Ta'lim muassasasida o'smirlarning autodestruktiv xatti-harakatlarining psixologik oldini olishning asosiy maqsadi nafaqat deviant va siudsidal xulq-atvorni tuzatish, oldini olish, balki ularning psixologik salomatligini saqlash va mustahkamlash, qolaversa, muvaffaqiyatga erishish motivlarini takomillashtirishdir. Ko'pgina psixologlar, masalan, O.V. Xuxlaevaning ta'kidlashicha,

psixologik salomatlik va farovonlik alkogolizm, giyohvandlik hamda shu kabi o'z-o'ziga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlarning boshqa shakllari xavfini minimallashtiradi [10; 176 c.]. Profilaktika jarayonida shaxsning integratsiyalashuvi, uyg'unligi, konsolidatsiyasi, muvozanati, ma'naviy qiyofasi va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilganlik xususiyatiga alohida ahamiyat beriladi. Va bu o'rinda ijtimoiy salomatlik ham muhimdir. Uning mezonlari sifatida ijtimoiy voqelikni adekvat idrok etish, atrofimizdagi dunyoga qiziqish, ijtimoiy foydali mehnatga e'tibor qaratish, altruizm, empatiya, mas'uliyat, fidoyilik, demokratik xulq-atvorlari namoyon bo'ladi [11; 67 c.].

A.Miller sog'lom o'z-o'zini anglash holatini insonning boy his-tuyg'ulari va istaklari o'z “Men” ning ajralmas qismi ekanligiga qat'iy ishonchi deb tushunadi. Muallifning ta'kidlashicha, “Bu ishonch fikrlash, tahlil qilish natijasi emas, balki «to'g'rirog'i, o'zingizni yaxshi his etguningizcha unga e'tibor bermaydigan yurak urishi kabidir» [12; 144 c.]. O'z his-tuyg'ularini va istaklarini tushunishga yordam beradigan “o'zi bilan aloqa qilish”ning bu tabiiy holati insonga ichki qo'llab-quvvatlash hamda o'zini hurmat qilish imkonini beradi. U o'ziga yoki boshqaga zarar etkazishidan qo'rqmasdan, qayg'uli, umidsizlikka tushgan holatda va birovlarining yordamiga muhtoj bo'lib, o'z ruhiy olamida yashashi mumkin. Agar unga tahdid qilinsa, qo'rquvni his qilishi, agar uning istaklari qondirilmasa, g'azablanishi mumkin. U nafaqat nimani xohlamasligini, balki nimani xohlashini ham biladi va buning uchun uni sevishtirish yoki yomon ko'rishdan qat'i nazar, buni ochiq ifoda etishi mumkin. A.Maslou esa psixologik jihatdan sog'lom odamlarni o'z-o'zini namoyon qiladigan, faktlarni idrok etishga qodir (o'rnatilgan fikr va g'oyalar prizmasi orqali dunyoni idrok etish tendentsiyasidan farqli o'laroq) deb belgilaydi. Ularni mavhum va hali ochilmagan haqiqatlar o'ziga tortadi; ular tajriba va tavakkalchilikka moyildir. Yana ularda aybdorlik va uyat hissi yo'q, bu o'z-o'zini qabul qilish va kamchiliklaridan xafa bo'lmaslik qobiliyatidan kelib chiqadi. Sog'lom odam ishning haqiqiy yo'nalishi va erishish mumkin bo'lgan narsadan chetga chiqishini ko'rgandagina noqulaylikni boshdan kechiradi. Bunday odamning asosiy xususiyatlari - egosentrik tendentsiyalardan farqli o'laroq, spontanlik, soddalik, tabiiylik, xizmat ko'rsatish; ajralish, yolg'izlikka bo'lgan ehtiyoj; avtonomiya, madaniyat va muhitdan, iroda hamda faoliyatdan mustaqillik; hayotdan zavqlanish qobiliyati; yaxlit (integratsiyalashgan) qiymat tizimi hisoblanadi. Bu kabi xususiyatga ega shaxslarning real voqelik bilan munosabati ichkaridan belgilanadi. Ularning o'ziga xos qadriyatlari bor va butun vaqtlari shaxsiy o'sish hamda o'zini o'zi rivojlantirishga sarflanadi. Bu esa giyohvandlik va boshqa turdagi o'z-o'ziga zarar keltirishga qaratilgan xatti-harakatlarning paydo bo'lishini oldini oladi [13; 478 c.].

Xulosa. Zamonaviy o'smirlar asosan murakkab vaziyatda - ijtimoiy inqiroz fonida jiddiy ichki muammolarni hal qilishga majbur bo'ladilar. Ammo atrofda dunyoning beqarorligi, bir tomondan, qo'rquv, tajovuz, ichki tashvish va noaniqlik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Boshqa tomondan esa, zamon talabiga mos ravishda odamlarga o'z e'tiqodlari, qadriyatlari, xatti-harakatlarini sinab ko'rish va ularga rioya qilish imkoniyati beriladi [14; 128 c.]. Insonning xulq-atvori nafaqat ijtimoiy jihatdan, balki psixologik jihatdan ham o'rganilgan jarayondir. O'smirlarning xulq-atvorini tartibga solish, qarama-qarshilik va nizolarni hal qilish tashqi omillarning (ota-onalar, tengdoshlar guruhlari, o'qituvchilar, ijtimoiy normalar va boshqalar) ta'siriga ham, shaxsning allaqachon shakllangan sub'ektiv xususiyatlariga (qadriyat yo'nalishlari, motivlar, ehtiyojlar va boshqalar)ga ham aloqador sanaladi. Hayotiy sharoitlarning ta'siri shaxsiy omillar - maqsadlar, qadriyatlar va hayot mazmuni bilan bog'liq. Insonning o'zi uchun optimal shaxsiy psixologik makonni yaratish qobiliyati muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Elkonin D.B. Rivojlanish psixologiyasi: O'quv qo'llanma. - M.: 2001 – 624 b
2. Хухлаев О. В. К вопросу о соотношении понятий «деструктивное», «агрессивное» и «девиантное» поведение //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2011. – №. 19. – С. 61-67.
3. Ibodullayev Z.R. “Tibbiyot psixologiyasi”. Darslik. –T.: 2008, 24-b.
4. Farobiy A.N., “Baxt-saodat va kamolot haqida muqaddima”, Tarjima va izohlar muallifi: M.Qodirov T.: Yozuvchi, 2001. -64 b.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, Tavsiri hilol, 3 juz, „Sharq “NMAK –T.:2009. 223-bet
6. Г. Борулава, «Методология современной психологии», Монография, Москва, 2009. С.112.
7. Хухлаев О. В. К вопросу о соотношении понятий «деструктивное», «агрессивное» и «девиантное» поведение //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2011. – №. 19. – С. 61-67.

8. Пятаков, Е. Если вы не Гарри Поттер. Психолог и его реальные возможности в школе [Текст] / Е Пятаков // Школьный психолог - 2010. - №18, С.17-23
9. Морозова, Л.А. Психологическое сопровождение учащихся в образовательной среде современной школы / Л.А. Морозова // Вестник государственного университета управления. - 2009. - № 26. - С.65-67
10. Хухлаева, О.В. Как сохранить психологическое здоровье подростка? / О.В. Хухлаева. - Москва, «Сентябрь», 2003. - 176 с
11. Психология здоровья // Под ред. Г.С. Никифорова, СПб: Питер, 2003. - 67 с.
12. Миллер, А Драма одаренного ребенка и поиск собственного Я/А. Миллер. - Москва: Академический Проект, 2001.-144 с.
13. Маслоу, А. Мотивация и личность [Текст] / А. Маслоу. - СПб.: Евразия, 1999. - 478 с.
14. Пезешкиан, Н. Если ты хочешь иметь то, чего никогда не имел, сделай то, чего никогда не делал / Н. Пезешкиан. - М.: Институт позитивной психотерапии, 2008. - 128 с

Odiljonova Aziza Abduxakimovna,
Andijon davlat universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD

KREATIVLIK TALABALAR O'QUV MOTIVLARINING DETERMINANTI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalar o'quv motivlarining shakllanishida kreativlikning o'rni va ahamiyati tahlil etiladi. Talabalar motivatsiyasining ijodiy tafakkur bilan bog'liq jihatlari turli ilmiy yondashuvlar asosida ko'rib chiqiladi. Xususan, J. Guilford, E. Torrens S. Mednik, M. A. Xolodnaya va V. N. Druzhinin kabi olimlarning ijodiy tafakkur va motivatsiya bo'yicha ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot doirasida kreativlik va o'quv motivlari o'rtasidagi bog'liqlik Vilyamsning ijodiy tafakkurni aniqlash metodikasi va o'quv motivlarini baholash so'rovnomasi asosida eksperimental usulda o'rganiladi. Natijalar statistik tahlil asosida baholanib, kreativlikning talabalarning motivatsion jarayonlariga ta'siri bo'yicha xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: Kreativlik, o'quv motivlari, ijodiy tafakkur, talabalar motivatsiyasi, Guilford testi, Torrenc testi, Vilyams metodikasi, psixologik tadqiqot, innovatsion ta'lim jarayoni.

ТВОРЧЕСТВО КАК ФАКТОР, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЙ МОТИВЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье анализируется роль и значение творчества в формировании учебной мотивации учащихся. На основе различных научных подходов рассматриваются аспекты мотивации студентов, связанные с творческим мышлением. В частности, анализируются научные взгляды на творческое мышление и мотивацию таких ученых, как Дж. Гилфорд, Э. Торренс, С. Медник, М. А. Холодная, В. Н. Дружинин. Также в рамках исследования будет экспериментально изучена взаимосвязь креативности и мотивации к обучению на основе методики выявления творческого мышления Уильямса и Опросника оценки мотивации к обучению. Результаты оцениваются на основе статистического анализа, и делаются выводы относительно влияния креативности на мотивационные процессы студентов.

Ключевые слова: Креативность, мотивация к обучению, творческое мышление, мотивация учащихся, тест Гилфорда, тест Торренса, методика Уильямса, психологические исследования, инновационный образовательный процесс.

CREATIVITY AS A DETERMINANT OF STUDENTS' LEARNING MOTIVES

Abstract. This article analyzes the role and importance of creativity in the formation of students' learning motivation. Aspects of students' motivation related to creative thinking are considered on the basis of various scientific approaches. In particular, the scientific views of such scientists as J. Guilford, E. Torrance, S. Mednik, M. A. Kholodnaya and V. N. Druzhinin on creative thinking and motivation are analyzed. Also, within the framework of the study, the relationship between creativity and learning motivation is studied experimentally based on Williams's methodology for identifying creative thinking and a questionnaire for assessing learning motivation. The results are evaluated on the basis of statistical analysis, and conclusions are drawn on the impact of creativity on students' motivational processes.

Keywords: Creativity, learning motives, creative thinking, student motivation, Guilford test, Torrence test, Williams methodology, psychological research, innovative educational process.

Kirish. Bugungi kunda talabalar o'quv faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan ularning motivatsiya darajasi va kreativ tafakkuri bilan uzviy bog'liq. Kreativlik – bu nafaqat ijodkorlik, balki muammolarni yangicha yondashuv bilan hal qilish, tanqidiy fikrlash va innovatsion g'oyalarni ilgari surish qobiliyatidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-4471-son "O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori ijodiy tafakkur va innovatsion yondashuvni rivojlantirishni davlat taraqqiyotining muhim omili sifatida qayd etgan. Shuningdek, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da yoshlarning kreativ salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ularni innovatsion faoliyatga jalb etish ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [2].

Hozirgi zamon ta'lim tizimida talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va tashabbuskorligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Talabaning bilim olish jarayonidagi faolligi va qiziqishi ko'p jihatdan uning o'quv motivlari bilan bog'liq bo'lib, bu motivlarning shakllanishida kreativlik muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Kreativlik – insonning yangi, original g'oyalar yaratish va muammolarni nostandart usullar bilan hal qilish qobiliyatidir. U ta'lim jarayonida talabaning izlanish faolligini oshiradi, o'z-o'zini anglash va mustaqil

qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Aynan kreativlikning o‘quv motivlariga ta’siri ta’lim sifati va natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarning o‘quv motivlari va kreativlikning o‘zaro bog‘liqligi haqida ilmiy adabiyotlarda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu bo‘limda o‘zbek va chet el olimlarining ilmiy izlanishlari tahlil qilinib, mavzuga doir muhim nazariy va amaliy yondashuvlar yoritiladi.

O‘zbekistonda ta’lim sifati va talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot olib borilgan Sh.S. Turdiyev kreativ tafakkur va innovatsion o‘quv metodlarining talabalar motivatsiyasiga ta’sirini o‘rganib, kreativlikni rivojlantirish uchun amaliy strategiyalarni taklif qilgan. R. Axmedov o‘quv jarayonida talabalar motivatsiyasining shakllanishiga ijtimoiy-psixologik omillarning ta’sirini tadqiq qilgan. D. Ibragimova o‘quv motivatsiyasini oshirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ularning kreativ tafakkurga ta’siri masalasiga e’tibor qaratgan. Mazkur olimlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi bevosita ularning mustaqil fikrlashi va kreativ yondashuvi bilan bog‘liq.

Chet elda kreativlik va motivatsiya bo‘yicha fundamental tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu sohada quyidagi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega:

J. Guilford kreativ fikrlashni kognitiv jarayon sifatida tushuntirgan va kreativ tafakkurning turli jihatlarini aniqlagan. U kreativlikni fleksibil fikrlash, original yondashuv va muammolarni yechish usullarini taklif qilish bilan bog‘liq jarayon sifatida baholagan [4].

E. Torrens kreativ fikrlash testlarini ishlab chiqib, kreativlikni aniqlashning aniq mezonlarini taklif etgan. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlik va o‘quv motivlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, kreativ shaxslar o‘quv jarayonida yuqori faollikka ega bo‘ladi [5].

S. Mednik kreativlikni assotsiativ fikrlash bilan bog‘lagan va yangi g‘oyalarni yaratish jarayonini asoslab bergan [6].

R. Sternberg kreativlikni tanqidiy tafakkur va intellektual qobiliyatlarning integratsiyasi sifatida tushuntirib, uni ta’lim jarayonida rag‘batlantirish usullarini taklif qilgan [8].

M.A. Xolodnaya kreativ tafakkurning individual xususiyatlari va uning kognitiv omillar bilan bog‘liqligini o‘rganib, kreativlikni rivojlantirish uchun muhit va pedagogik metodikalar muhimligini ta’kidlagan [9].

Ushbu olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kreativlik va motivatsiya o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud bo‘lib, kreativ fikrlashga ega talabalar o‘quv jarayonida yuqori natijalarga erishadi. Shuningdek, kreativlikni rivojlantirishning turli metodlari, jumladan, muammoli ta’lim, loyiha usuli va mustaqil izlanishlarga asoslangan pedagogik yondashuvlar o‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda talabalar kreativlik darajasi va ularning o‘quv motivlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqotning asosiy metodologik asosi sifatida Vilyamsning ijodiy tafakkurni aniqlash metodikasi hamda o‘quv motivlarini aniqlash so‘rovnomasi qo‘llanildi.

Tadqiqotda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining turli yo‘nalishlarida tahsil olayotgan 18-25 yosh oralig‘idagi ($N=100$) talaba ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilari tasodifiy tanlash usuli orqali belgilandi. Ularning o‘quv motivlari va kreativ tafakkur xususiyatlari o‘rganildi.

Vilyamsning ijodiy tafakkurni aniqlash metodikasi ijodiy tafakkur darajasini baholash uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, quyidagi mezonlar bo‘yicha kreativlikni aniqlaydi:

Yengillik – muammoga javob berish tezligi va variantlar soni.

Moslashuvchanlik – turli xil yondashuvlar va nuqtai nazarlarni qo‘llash darajasi.

Originallik – noyob va kreativ yechimlar ishlab chiqish qobiliyati.

To‘ldirish qobiliyati – taklif etilgan g‘oyalarni rivojlantirish va batafsil tushuntirish darajasi.

Test savollari talabalarning kreativ tafakkurini baholashga mo‘ljallangan bo‘lib, unda so‘z, rasm va mantiqiy tafakkur bilan bog‘liq topshiriqlar beriladi.

Talabalar o‘quv motivlarini baholash uchun maxsus motivatsion diagnostika so‘rovnomasi qo‘llanildi. So‘rovnoma quyidagi motivatsion komponentlarni aniqlashga qaratildi:

Ichki motivatsiya – o‘zini rivojlantirish, bilim olishga bo‘lgan qiziqish.

Tashqi motivatsiya – baholar, mukofot yoki ijtimoiy maqomga erishish motivlari.

Shaxsiy yutuqlarga intilish – o‘quv jarayonida muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji.

O‘z-o‘zini anglash va mustaqillik – talabaning o‘quv faoliyatida mustaqil qaror qabul qilish darajasi.

So‘rovnoma Likert shkala bo‘yicha baholandi (1 – umuman rozi emasman, 5 – to‘liq rozi).

Tadqiqotga jalb qilingan talabalar Vilyams testini bajarishdi va o‘quv motivlarini aniqlash so‘rovnomasini to‘ldirishdi. Har bir ishtirokchining kreativlik darajasi yuqoridagi to‘rtta mezon bo‘yicha baholandi. Olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilindi va kreativlikning o‘quv motivlariga ta’siri o‘rganildi.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlash usullari. Tadqiqot natijalari matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanadi:

Pirson korrelyatsion tahlili – kreativ tafakkur va o'quv motivlari o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash.

Deskriptiv statistika – o'rtacha qiymat (M), standart og'ish (SD) va respondentlarning umumiy taqsimoti.

Dispersion tahlil – kreativlik darajasi bo'yicha turli motivatsion guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash. Vilyams testi va o'quv motivlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari bo'yicha tahlil

1. Pirson korrelyatsion tahlili natijalari

Kreativlik va motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun Pirson korrelyatsiyasi hisoblandi.

Quyidagi natijalar olingan:

Kreativlik Mezoni	Ichki Motivatsiya Korrelatsiyasi	Tashqi Motivatsiya Korrelatsiyasi
Yengillik	0.120	0.069
Moslashuvchanlik	-0.082	-0.229
Originallik	-0.035	-0.022
To'ldirish	0.188	-0.218

Ichki motivatsiya o'rtasida ijobiy bog'liqlik bor ($r=0.120$), lekin bog'liqlik darajasi past.

Tashqi motivatsiya o'rtasidagi salbiy bog'liqlik ($r=-0.229$) shuni ko'rsatadiki, tashqi motivatsiya yuqorilagan sari moslashuvchanlik pasayadi.

Ichki motivatsiya o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud ($r=0.188$), ya'ni ichki motivatsiya yuqori bo'lsa, talabalar ijodiy tafsilotlarni yaxshiroq ishlab chiqishi mumkin.

2. Deskriptiv statistika natijalari

Har bir ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha qiymat, minimal va maksimal qiymatlar quyidagicha:

Ko'rsatkich	O'rtacha	Std (Og'ish)	Min	Max
Yengillik	73.51	14.87	50.28	99.34
Moslashuvchanlik	64.89	14.66	40.35	89.28
Originallik	55.88	14.67	30.25	79.50
To'ldirish	44.56	14.67	20.72	69.53
Ichki motivatsiya	3.06	1.27	1.04	4.97
Tashqi motivatsiya	3.10	1.19	1.06	4.99

Yengillik ko'rsatkichi eng yuqori o'rtacha qiymatga ega (73.51).

Ichki va tashqi motivatsiyaning o'rtacha qiymatlari o'zaro deyarli teng (3.06 va 3.10).

Originallik va to'ldirish ko'rsatkichlari eng past o'rtacha baholarga ega bo'lib, talabalar orasida ularni rivojlantirishga ehtiyoj mavjud.

3. Dispersion tahlili natijalari

Kreativlik va motivatsiya o'rtasidagi farqlarni baholash uchun dispersion tahlil o'tkazildi:

Kreativlik Mezoni	F-qiymat	p-qiymat
Yengillik	2211.40	$p < 0.001$
Moslashuvchanlik	1753.88	$p < 0.001$
Originallik	1277.04	$p < 0.001$
To'ldirish	787.90	$p < 0.001$

Har bir kreativlik mezoni uchun p-qiymat juda past ($p < 0.001$) bo'lib, bu kreativlik va motivatsiya o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Yengillik uchun F-qiymat eng katta bo'lib, motivatsiya darajasiga ko'ra eng katta farqlar ushbu kreativlik mezonida kuzatilgan.

To'ldirish ko'rsatkichi esa eng kichik F-qiymatga ega bo'lib, u motivatsiya bilan nisbatan kamroq bog'langan.

Bu natijalar Vilyams testi va o'quv motivlarini aniqlash so'rovnomasi asosida olib borilgan tadqiqot natijalari bo'lib, talabalar o'rtasida kreativlikning motivatsiya bilan bog'liqligini tushunishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi orqali talabalarning kreativlik xususiyatlari va o'quv motivlari o'rtasidagi

bog'liqlikning aniq ko'rsatkichi aniqlanadi. Natijalar ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, **kreativlik talabalar o'quv motivlarining muhim determinanti** hisoblanadi. Ichki motivatsiya va kreativlik ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud bo'lib, bu shuni anglatadiki, o'zining bilish faoliyatidan zavq oladigan va ichki rag'batga ega bo'lgan talabalar ijodiy tafakkur jihatdan yuqori natijalarga erishadi. Boshqa tomondan, tashqi motivatsiyaning kreativlik mezonlari bilan bog'liqligi nisbatan zaif yoki salbiy bo'lib, bu tashqi rag'batlantirish (ballar, mukofotlar) ijodiy fikrlashni rivojlantirishda yetarlicha samarali emasligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydi:

Talabalarning **yengillik** va **to'ldirish** ko'rsatkichlari ichki motivatsiya bilan ijobiy bog'liq.

Moslashuvchanlik tashqi motivatsiya bilan salbiy bog'liq bo'lib, bu qoidalar va cheklovlar ijodiy moslashuvchanlikni pasaytirishini anglatadi.

Originallik nisbatan past natijalar ko'rsatgan bo'lib, talabalar orasida o'ziga xos fikrlashni rivojlantirishga ehtiyoj bor.

Dispersiya tahlili kreativlik va motivatsiya o'rtasidagi farqlar **statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini** tasdiqladi.

Takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ichki motivatsiyani rag'batlantirish, talabalarga **muammoli vaziyatlarni** mustaqil hal qilish imkoniyatlarini yaratish lozim. O'quv jarayonida **tadqiqotga asoslangan o'qitish usullarini** keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy va mustaqil fikrlashni talab qiladigan topshiriqlar ulushini oshirish, **kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish zarur**. Dars jarayonlarida **aqliy hujum, divergent fikrlash** va **ijodiy yozuv mashqlari** kabi metodlardan foydalanish, talabalarning o'ziga xos fikrlarini baholashda **original g'oyalarni e'tirof etish** va rag'batlantirish samarali natija beradi. Kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun **interaktiv dars usullaridan** (muammoli ta'lim, loyiha asosida ta'lim) keng foydalaniladi.

Tashqi motivatsiyaning kreativlikka ta'sirini optimallashtirish, talabalarni faqat ball va baholar bilan emas, balki ijodiy natijalarni **tan olish va e'tirof etish** orqali rag'batlantirish zarur. O'quv jarayonida faqat standart yechimlar emas, balki **noan'anaviy, innovatsion yondashuvlarni baholovchi tizimni joriy etish lozim**. Ijodiy yondashuvlarni talab qiladigan topshiriqlarni bajarish uchun mustaqil ish va amaliy loyihalar ulushini oshirish kerak.

Original fikrlashni rivojlantirish maqsadida talabalarga turli **narsalar va hodisalar o'rtasida bog'liqlikni topish** imkoniyatini beruvchi mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiq. Mustaqil fikrlash va o'ziga xos qarorlar qabul qilishni rag'batlantiruvchi muhit yaratish muhim omil hisoblanadi.

Demak, talabalarda kreativlikni rivojlantirish o'quv motivlarining o'sishiga ijobiy ta'sir qiladi. Buning uchun motivatsion muhitni yaratish, ijodiy tafakkurni rag'batlantirish va ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-3138-son, 2017-yil 14-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni,.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son).
4. Guilford J. P. *The nature of human intelligence*. McGraw-Hill.
5. Torrance E. P. *Torrance Tests of Creative Thinking: Norms and technical manual*. Princeton, NJ: Personnel Press.
6. Mednick S. A. The associative basis of the creative process. *Psychological Review*, **69**(3), 220–232.
7. Williams F. E. *The Cognitive-Affective Interaction Model for Creative Thinking*. Buffalo: DOK Publishers.
8. Sternberg R. J. & Lubart T. I. *Defying the Crowd: Cultivating Creativity in a Culture of Conformity*. Free Press.
9. Холодная М.А. «Интеллект, креативность и личностные характеристики как факторы реального успеха», «Институт психологии РАН» -2007.

Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna,
Gulistan State University, PhD student
sarvinozotamuratova@mail.com

PERSONAL CHARACTERISTICS AS A FACTOR DETERMINING THE POSITION IN LIFE OF REPRESENTATIVES OF YOUTH SUBCULTURES

Abstract. The article analyzes representatives of youth subcultures and how they assess the role of subcultures in society. In addition, the manifestation of personal characteristics of representatives of subcultures, including character traits, psychological states in the team, group, as interpreted by scientists, is analyzed, as well as the results of a special questionnaire. Currently, events involving representatives of youth subcultures are attracting the attention of sociologists, cultural scientists, educators, and, of course, psychologists consider it important to study their personality traits. This is due to the fact that subculture is an important component of modern adolescent life, and assistance in solving adolescent problems and implementing effective youth policies require systematic knowledge of the specific characteristics of the modern young generation. That is, knowledge of the specific characteristics of modern subcultures is one of the important conditions for developing a scientific approach to solving youth problems.

Keywords: Youth, subculture, character, aggression, team, adolescence, value, aggression, egoism, behavior, norms, lifestyle, activism, fashion, sports, music, media, hipsters, emos, goths, punks.

ЛИЧНОСТНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ КАК ФАКТОР, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЙ ПОЗИЦИЮ В ЖИЗНИ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ МОЛОДЕЖНЫХ СУБКУЛЬТУР

Аннотация. В статье анализируются представители молодежных субкультур и то, как они оценивают роль субкультур в обществе. Кроме того, анализируется проявление личностных характеристик представителей субкультур, включая черты характера, психологическое состояние в команде, группе, в интерпретации ученых, а также результаты специального опросника. В настоящее время мероприятия с участием представителей молодежных субкультур привлекают внимание социологов, культурологов, педагогов и, конечно же, психологов, которые считают важным изучение их личностных черт. Это связано с тем, что субкультура является важной составляющей современной подростковой жизни, а помощь в решении подростковых проблем и реализации эффективной молодежной политики требует систематического знания специфики современного молодого поколения. То есть, знание специфики современных субкультур является одним из важных условий для развития научного подхода к решению проблем молодежи.

Ключевые слова: Молодежь, субкультура, характер, агрессия, команда, подростковый возраст, ценности, эгоизм, поведение, нормы, образ жизни, активизм, мода, спорт, музыка, СМИ, хипстеры, эмо, готы, панки.

SHAXS XUSUSIYATLARI YOSHLAR SUBMADANIYATLARI VAKILLARINING HAYOTDAGI MAVQEINI BELGILOVCHI OMIL SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada yoshlar submadaniyatlari vakillari va ular tomonidan submadaniyatlarning jamiyatdagi rolini qanday baholashi tahlil qilinadi. Shuningdek, submadaniyat vakillarining shaxs xususiyatlarining namoyon bo'lishi, jumladan, xarakter xususiyatlari, jamoada, guruhdagi psixologik holatlarning namoyon bo'lishi olimlar talqinida izohlanganligi bilan birga maxsus so'rovnoma natijalari ham tahlili olib boriladi. Hozirgi kunda yoshlar submadaniyati vakillari ishtirokidagi hodisalar sotsiologlar, madaniyatshunoslar, pedagoglar e'tiborini tortmoqda, va albatta, psixologlar tomonidan ularning shaxs xususiyatlarini tadqiq etish muhim sanaladi. Submadaniyat zamonaviy o'smir hayotining muhim tarkibiy qismi ekanligi bilan bog'liq bo'lib, o'smirlar muammolarini hal etishda ko'maklashish, yoshlarga oid samarali siyosatni amalga oshirish esa zamonaviy yosh avlodning o'ziga xos xususiyatlarini tizimli bilishni talab qiladi. Ya'ni, zamonaviy submadaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini bilish yoshlar muammolarini hal qilishda ilmiy yondashuvni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Kalit so'zlar: Yoshlar, submadaniyat, xarakter, agressiya, jamoa, o'smirlik davri, qadriyat, tajovuzkorlik, egoist, xulq-atvor, normalar, turmush tarzi, faollik, moda, sport, musiqa, ommaviy axborot vositalari, hipsterlar, emolar, gotlar, panklar.

Introduction. Youth subcultures are specific groups of young people formed around common interests, values, or lifestyles, and as an integral part of youth culture, they play an important role in the self-expression of young people, as well as in influencing processes of sociocultural change.

Subcultures arise in response to social changes and tend to create alternative norms, values, and lifestyles. They can be associated with music, fashion, sports, art, activism, and various other areas. Such subcultures create a space for individuality and self-expression and offer unique ways of identity and belonging.[1]

Interest in youth subcultures among scholars and the public stems from their significant sociocultural impact on society and young audiences. They can influence trends in fashion, music, behavior, media use, and general behavioral patterns. In addition, subcultures can serve as a means of social adaptation and self-determination for young people, as well as their discontent, conformism and resistance [3].

However, despite all their positive aspects, youth subcultures can also face resistance, stereotypes and condemnation from society. Such situations often lead to conflicts between the subculture and the main values, which can cause social tension and increase negative attitudes towards subcultural identity.

D. Smith's work "Youth Subcultures in the 21st Century: A Cross-Cultural Perspective" provides an overview of modern youth subcultures in different countries of the world. The author carefully analyzes the features of these subcultures that shape the identity and behavior of young people.

In his research, the scientist studied subcultures emerging under the influence of the Internet, globalization and mass culture. The author emphasizes the personal and social factors that contribute to the formation and development of these subcultures, such as the desire of young people to stand out from the crowd, the search for self-realization and self-expression, and the desire to be part of a community of like-minded individuals.[4]

The scholar's research is characterized by the universality of the formation of youth subcultures in the modern world. Despite cultural differences and historical factors, young people in different countries have similar subcultures, such as hipsters, emos, goths, punks, etc., who express their identity through music, clothing, lifestyle and values.

Subcultures have a global impact on society and culture, becoming sources of new trends and fashion, influencing the development of youth marketing strategies and the explosive growth of social media. Subcultures play an important role in the modern world, reflecting social changes and serving as both a source of innovation and a symbol of social discontent.

D. Smith's research covers a broad analytical and theoretical framework based on the analysis of qualitative and quantitative data. The author emphasizes not only the diversity of youth subcultures, but also their general trends across countries. D. Smith emphasizes the relevance of studying youth subcultures and their existence as an important sociocultural phenomenon in the modern world. The results of this study serve as the basis for a deeper understanding of the self-identification and behavior of young people in the context of their relationship with subculture and society as a whole [7]. Also, in the work "Youth Subcultures and Destructive Identities" conducted by Howard Parker and his colleagues, the authors study the influence of adolescent subcultures on the formation of destructive identities in young people. They analyzed how adolescents' participation in subcultural groups can affect their self-image, their sense of place in society, and their interactions with social norms.

The results of the study suggest that participation in subcultural groups contributes to the development of subversive identities in adolescents, i.e., identities that conflict with societal norms and values. It is important to note that the researchers did not aim to condemn or promote these identities, but rather to understand their nature and impact on young people.[6]

This study provides a valuable addition to the understanding of subcultures and their impact on young people, and highlights the importance of expressing individuality and finding meaning in life during this age period.

In the framework of the research of A. Ivanova and V. Petrov, youth subcultures were studied, and in their work the authors conduct a sociocultural analysis of various youth subcultures, identify the main development trends and their impact on society. The research provides a comprehensive and diverse analysis of youth subcultures. The authors pay attention to various aspects of subcultures, such as musical tastes, clothing, lifestyle, values, and subcultural ideology.[5]

The study also revealed the importance of regional diversity in the formation of youth subcultures in Russia. Different regions of the country have their own subcultures, expressed in their own images, musical tastes, and lifestyle. This emphasizes the importance of taking into account local conditions when studying and analyzing youth subcultures in Russia.

Most studies use sociological survey methods using questionnaires, and studies have shown that adolescents belonging to adolescent subcultures are more prone to risky behaviors such as drug and alcohol use and crime. Studies have also shown that adolescents belonging to subcultures are constantly searching for their place in society. They use the subculture as a means of self-expression and the formation of personal identity.

In addition, it was found that adolescents from these subcultures use various adaptation strategies to overcome the difficulties associated with belonging to their subculture. They may show a high level of aggression and conflict in their interactions with others, and may also seek to establish close relationships with like-minded individuals within the subculture.

Studies conducted in Russia confirm the importance of understanding the role and influence of adolescent subcultures on the adaptation process of adolescents. These results can be used to create programs to support and assist adolescents within subcultures in adapting to society.

A comparison of the studies of D. Smith, G. Parker, A. Ivanova, V. Petrov, and others allows us to highlight the similarities and differences in the study of youth subcultures in foreign and domestic conditions.

First, both studies emphasize the role of the media and cultural influences in the formation of youth subcultures. D. Smith's work notes the influence of the Internet, mass culture, and globalization on the development of subcultures in different countries. A. Ivanova and V. Petrov's study, in turn, emphasizes the importance of the socio-economic situation and political context in Russia for the formation and development of youth subcultures.

Secondly, D. Smith's work draws attention to the universality of the emergence of youth subcultures in different countries under the influence of global factors. A. Ivanova and V. Petrov's studies, on the contrary, emphasize the uniqueness and diversity of subcultures in Russia, which are associated with national identity and local context.

D. Smith's work emphasizes the role of youth subcultures in the formation of fashion, trends, and social networks. This emphasizes their importance as a source of new ideas and innovations. On the other hand, the work of A. Ivanova and V. Petrov focuses on the role of youth subcultures in the formation of youth identity and social activism in Russia.[5]

Despite the differences in research approaches and contexts, all of them confirm the relevance of studying youth subcultures. They identify many factors that contribute to their formation and development, such as the media, globalization, the socio-economic situation and the political context. Subcultures play an important role in the self-determination and behavior of young people, and also affect society and culture.

In general, a comparative analysis of all studies allows us to better understand the multifaceted and diverse nature of youth subcultures, as well as their socio-cultural impact in different countries of the world, including Uzbekistan. Continuing this research, taking into account local characteristics and socio-cultural contexts, will create a basis for a deeper understanding of youth subcultures and their role in modern society.

During our research, we found it necessary to analyze the personality traits of representatives of the youth subculture, first of all, their opinions about the subculture. The analysis of the answers of 50% of the respondents to the questions asked in a specially designed questionnaire is reflected in the table below (Table 1).

Table 1.

Correlation between the answers to the questions "Which subculture do you consider yourself a representative of?" and "How do you relate to representatives of subcultures in your daily life?"
(based on the χ^2 criterion) (N=345)

Which subculture do you consider yourself to be a representative of?	How do you relate to representatives of subcultures in your daily life?					
	I approve, I support.	Representatives of subcultures are forced to adapt	I'm trying to stay longer.	If possible, I will stand up to them.	I don't care.	All
	33%	8%	20%	11%	28%	100%
	Where do you get information about certain youth subculture groups in your country?					
	Television	Friends' stories	Journal, radio	Internet	Others	All
	10%	11%	3%	70%	6%	100%

Note: ($\chi^2=84.546$; $p<0.05$)

According to the results, when asked "How do you relate to representatives of subcultures in your daily life?", 33% of respondents agreed and supported them, 8% of respondents said that representatives of subcultures are forced to adapt, 20% tried to stay away from representatives of subcultures, 11% of respondents opposed representatives of subcultures, and 28% of respondents were indifferent.

When asked the next question, "Where do you get information about certain youth subculture groups in your country?", 10% of respondents said that they get information from television, 11% from friends' stories, 3% from newspapers, magazines, radio, 70% from the Internet, and 6% from various media ($\chi^2=84.546$; $p<0.049$).

The next question was aimed at analyzing how respondents understood the concept of "subculture", and this question was intended to encourage active participation of respondents in a special questionnaire (Table 2).

Table 2.

Correlation between the answers to the questions "Which subculture do you consider yourself a representative of?" and "How do you relate to representatives of subcultures in your daily life?"

(based on the χ^2 criterion) (N=345)

Which subculture do you consider yourself to be a representative of?	What do you think the term subculture means?				All
	A group of people united by common interests and principles	Part of the country's overall culture	A stream of like-minded youth	An informal group through which young people express their discontent and dissatisfaction with society	
	34%	26%	21%	19%	

Note: ($\chi^2=62.159$; $p<0.05$)

When asked "What do you think the term subculture means?", 34% of respondents defined it as a group of people united by common interests and principles, 26% of respondents interpreted it as part of the general culture of the country, 21% of respondents interpreted it as a stream of like-minded youth, and 19% of respondents answered that it is an informal group through which young people express their discontent and dissatisfaction with society.

In conclusion, it is worth noting that the conducted research is significant in that youth subcultures are a relevant topic of research for many scientists in different countries. The influence of mass media, globalization, and socio-political context are important factors in the formation of subcultures. In addition, research shows that the phenomenon of youth subcultures is unique and diverse for each country. In order to understand this phenomenon more deeply, more detailed research should be conducted, taking into account national characteristics and socio-cultural conditions.

References:

1. Otamuratova S. A. The oretical basis of researching the psychological characteristics of representatives of youth subcultures., Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. 36. Часть 1. /Под ред. В.В.Козлова, Ш.Р. Баратова, М.Н.Усмановой. - Ярославль: МАПН, 2025., 278-284 с.
2. Otamuratova S.A. Analysis of research results of scientists in studying the personal characteristics of representatives of youth subcultures Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. 37. Часть 1. /Под ред. В.В.Козлова, Ш.Р. Баратова, М.Н.Усмановой. - Ярославль: МАПН, 2025. –322-326 с.
3. Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna., Submadaniyat vakillari shaxs xususiyatlarining tahlili olimlar talqinida., Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 8-son B seriya., 43-48 b.
4. Otamuratova S.A., Otamuratov R.U., Yoshlar submadaniyatlari vakillarining shaxs xususiyatlarini o‘rganilishi muhim psixologik kategoriya sifatida., Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami (2025-yil 16-17-may)
5. Иванова А. и Петров В. Молодежные субкультуры в современной России: социокультурный анализ. – Санкт-Петербург, 2018. 540 с.
6. Parker G. Youth subcultures and disruptive identities. // Australian Journal of Youth and Society, 2009. pp. 35-36.
7. Smith, J. Youth Subcultures in the 21st Century: A Cross-Cultural Perspective. New York: Journal of Youth Studies, 2015. 364 p.

Payziyeva Mastura Nigmatullayevna,
O'zbek tili adabiyoti va tillar kafedrası
Psixologiya va pedagogika kafedrası kata o'qituvchisi

TALABALARDA KASBIY ETUKLIGINING IJTIMOIIY - PSIXOLOGIK JIHLTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishining psixologik jihatlari tahlil qilingan. Unda kasbiy kompetensiya tarkibiy qismlari, ularning talabani shaxsiy rivoji, motivatsiyasi, emotsional-intellektual tayyorgarligi va refleksiv faoliyati bilan bog'liqligi asoslab beriladi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor ahamiyati, psixologik qo'llab-quvvatlashning o'rni hamda talabalarda kasbiy yo'naltirilganlikni shakllantirish omillari yoritilgan. Shuningdek, maqolada talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi psixologik mexanizmlar, individual-differensial xususiyatlar va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish strategiyalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, psixologik rivojlanish, motivatsiya, refleksiya, emotsional-intellektual salohiyat, kommunikativ ko'nikmalar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье рассматриваются психологические аспекты формирования и развития профессиональных компетенций у студентов. Анализируются структурные компоненты профессиональной компетентности, их взаимосвязь с личностным развитием студента, мотивацией, эмоционально-интеллектуальной готовностью и рефлексивной деятельностью. Отмечается значимость компетентностного подхода в современном образовательном процессе, роль психологической поддержки и факторы формирования профессиональной направленности. В работе также изучены психологические механизмы развития профессиональных компетенций, индивидуально-типологические особенности студентов и стратегии развития коммуникативных навыков.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, психологическое развитие, мотивация, рефлексия, эмоционально-интеллектуальный потенциал, коммуникативные навыки.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PROFESSIONAL MATURITY IN STUDENTS

Abstract. This article examines the psychological aspects of the formation and development of professional competencies among university students. It analyzes the structural components of professional competence and their relationship with students' personal development, motivation, emotional-intellectual readiness, and reflective activity. The study highlights the significance of the competency-based approach in modern education, the role of psychological support, and the factors that shape students' professional orientation. Additionally, the article explores the psychological mechanisms influencing the development of professional competencies, individual differences, and strategies for enhancing communication skills.

Keywords: professional competence, psychological development, motivation, reflection, emotional-intellectual capacity, communication skills.

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda oliy ta'lim muassasalari oldida turadigan eng muhim vazifalardan biri — talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Kasbiy kompetensiya nafaqat kasbga oid bilim va ko'nikmalar majmuasi, balki shaxsning psixologik tayyorgarligi, motivatsiyasi, kommunikativ madaniyati, emotsional barqarorligi hamda refleksiv fikrlash darajasini o'z ichiga oladi. Shu bois talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini chuqur psixologik asoslash, ularni shakllantiruvchi mexanizmlar va omillarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv o'quv jarayonining markazida talabani shaxsiy rivojini qo'yadi. Bunda talabani kasbga bo'lgan ichki qiziqishi, o'zini kasbiy sohada namoyon qilishga intilishi, maqsad qo'yish va qaror qabul qilish ko'nikmalari muhim o'rin tutadi. Shuningdek, emotsional-intellektual salohiyatning rivojlanishi, stressga bardoshlilik, moslashuvchanlik, muloqotga kirisha olish va jamoada samarali ishlash kabi psixologik omillar talabani kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardandir.

Ushbu maqolada talabalarda kasbiy kompetensiyalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik jihatlar, ularning mexanizmlari va shakllanish bosqichlari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning individual xususiyatlari, motivatsion holati va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik strategiyalar yoritiladi. Mazkur masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili talabalarning kasbiy shakllanish jarayonini yanada samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Talabalarda kasbiy kompetensiyalar rivojlanishining psixologik jihatlarini ilmiy asosda o'rganish, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va mexanizmlarni aniqlash hamda kompetensiyalarni rivojlantirishga oid samarali psixologik yondashuv va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni, tarkibiy qismlari va ilmiy asoslarini tahlil qilish, talabalarda kasbiy kompetensiyalar shakllanish jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni ilmiy asoslash, talabalarning motivatsion, emotsional-intellektual va refleksiv xususiyatlarining kasbiy rivojlanishdagi rolini o'rganish, individning shaxsiy va individual-differensial xususiyatlari kasbiy kompetensiyalar rivojiga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilish, talabalarda kommunikativ kompetensiya va kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishning psixologik mexanizmlarini o'rganish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening, maslahat va rivojlantiruvchi metodlarning samaradorligini aniqlash hamda olingan natijalar asosida talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqot talabalarda kasbiy kompetensiyalar rivojlanishining psixologik jihatlarini kompleks yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, metodologiya bir nechta ilmiy-nazariy asoslar va empirik usullar majmuasidan tashkil topadi.

Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlarga tayanadi:

- kompetensiyaviy yondashuv – talabani bilim, ko'nikma, malaka, motivatsiya va shaxsiy sifatlarini yaxlit tizimda o'rganish.

- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – talabani individualligi, psixologik ehtiyojlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olish.

- faoliyat yondashuvi – kasbiy kompetensiyalarning shaxsning faoliyatdagi ishtiroki orqali shakllanishini asoslash.

- psixologik rivojlanish nazariyalari (L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, A. Bandura, D. Super va boshqalar) – motivatsiya, identifikatsiya, refleksiya va ijtimoiy o'rganish jarayonlarini tushuntirishda metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotda nazariy, empirik va statistik metodlar uyg'un qo'llanildi:

A) Nazariy metodlar:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

- taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish;

- kompetensiya modeli va kasbiy rivojlanish konsepsiyalarini nazariy tahlil qilish.

B) Empirik metodlar:

- so'rovnomalar va psixologik testlar (motivatsiya, kasbiy yo'nalganlik, muloqot ko'nikmalari va boshqalar);

- intervyu (talabalar va pedagog-psixologlar bilan);

- kuzatish (o'quv jarayonida talabalarning faol ishtiroki baholandi);

- diagnostik metodikalar (refleksiya darajasi, emotsional-intellektual tayyorgarlikni baholovchi testlar).

C) Statistik metodlar:

- deskriptiv statistika (o'rtacha qiymat, dispersiya, variatsiya);

- korrelatsion tahlil (psixologik omillar va kompetensiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash);

- faktor tahlili (kompetensiya strukturasini aniqlash);

- grafik tasvirlash va natijalarni vizuallashtirish.

Tadqiqot quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ilmiylik – psixologik qonuniyatlar asosida tahlil qilish;

- obyektivlik – natijalarning shaxsiy fikrlardan mustaqil holda qayd etilishi;

- komplekslik – kasbiy kompetensiyani shaxsning turli psixologik xususiyatlari bilan uyg'un holda o'rganish;

- amaliy yo'naltirilganlik – tadqiqot natijalarining real ta'lim jarayonida qo'llanish imkoniyati.

Tadqiqot O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari talabalari ishtirokida olib borilgan bo'lib, turli yo'nalishlarda tahsil olayotgan 18–23 yoshli talabalar qamrab olindi. Shuningdek, pedagog-psixologlar va o'qituvchilarning fikrlari ham tahlilga jalb etildi.

Talabalarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi ko‘plab psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonning nazariy asoslari bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy asosi A. Xutorskoy, J. Raven va E.F. Zeer tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lib, ular kompetensiyani shaxsning bilimi, ko‘nikmasi va psixologik tayyorgarligining integrallashgan tizimi sifatida talqin qiladilar [1; 2].

Shaxsning kasbiy rivojlanishi va faoliyatga tayyorlanishi masalasi L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, K. Rogers kabi olimlarning nazariyalarida psixologik taraqqiyot, motivatsiya va faoliyatning o‘zaro bog‘liqligi orqali izohlangan [3; 4]. Talabalarda kasbiy o‘zini anglash, kasbiy identifikatsiya va motivatsiyaning shakllanishi esa D. Super, A. Bandura va D. Holland tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar bilan asoslanadi [5; 6].

Kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishida kommunikativ ko‘nikmalar, emotsional barqarorlik va refleksiv tafakkur muhim rol o‘ynashi yuzasidan mahalliy olimlar – Sh. Toshpo‘latov, A. Jabborov, M. Rasulovlarning ilmiy ishlari ham tahlil uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [7]. Bu tadqiqotlar talabalarning psixologik tayyorgarligi kompetensiyalarning shakllanishida markaziy omil ekanini tasdiqlaydi.



Talabalarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanish jarayoni faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki sifat jihatidan ham chuqur o‘rganishni talab etadi. Kompetensiyaning psixologik komponentlari talabaning individualligi, motivatsion holati, emotsional barqarorligi, kommunikativ madaniyati va refleksiv fikrlash darajasida namoyon bo‘ladi. Ushbu sifat tahlili yuqoridagi faktorlarning ichki mazmunini ochib beradi.

1. Motivatsiya darajasining sifat tahlili tadqiqot jarayonida talabalarning aksariyati kasbni ongli tanlaganini, o‘zlarini kelajakdagi kasbiy faoliyatda ko‘rishlari uchun ichki ishonch mavjudligini ko‘rsatdi. Talabalarning motivatsiyasi ko‘proq ichki omillarga (kasbni sevis, o‘zini rivojlantirishga intilish) tayanadi va tashqi motivatsiya (ota-ona talabi, ijtimoiy bosim) mavjud bo‘lsa-da, uning ta’siri pastroq, motivatsiya kuchli bo‘lgan talabalarda dars faolligi, tashabbuskorlik va mustaqil o‘rganish jarayoni ancha yuqori bo‘ladi bu esa motivatsiya darajasi kasbiy kompetensiyalarning shakllanishida asosiy drayver ekanini ko‘rsatadi.

2. Kommunikativ ko‘nikmalarning sifat tahlili talabalarda kommunikativ kompetensiya darajasi o‘rtacha yuqori bo‘lib, bu ularga:

- guruhda samarali ishlash,
- fikrni ravon bayon qilish,
- muammolarni muloqot orqali hal qilish imkonini beradi.

Kuzatuv natijalariga ko‘ra:

Muloqotga kirisha oladigan talabalar rahbarlik, tashabbus va jamoani boshqarish kabi ko‘nikmalarga ega, muloqotda qiynaladigan talabalar ko‘proq tortinchoq, o‘z fikrini himoya qilishda qiyinchilikka duch keladi, bu esa kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun treninglar va rolli o‘yinlar zarurligini ko‘rsatadi.

3. Refleksiya darajasining sifat tahlili reflektiv fikrlash — talabani o‘z bilim va faoliyatini tanqidiy tahlil qila olishi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, yuqori refleksiya darajasiga ega talabalar o‘z kuchli va zaif tomonlarini yaxshi anglaydi, past refleksiya darajasiga ega talabalar ko‘proq xatolarini takrorlaydi, o‘zini baholashda qiyinchilikka duch keladi. Bu kompetensiyani kasbiy shakllanishdagi roli juda muhim. Chunki refleksiya murakkab kasbiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini oshiradi.

4. Emotsional barqarorlikning sifat tahlili emotsional barqarorlik bo‘yicha quyidagi sifat belgilar qayd etildi. Ya‘ni stressga chidamli talabalar murakkab topshiriqlarni ishonch bilan bajaradi, emotsional beqaror talabalar esa tashvish, ishonchsizlik va vaziyatdan chetlashish holatlarini ko‘rsatadi, jamoada ishlash jarayonida emotsional barqaror talabalar mojarolarga kam kirishadi. Bu esa psixologik barqarorlikni oshiruvchi amaliy mashg‘ulotlar (autotrening, relaksatsiya)ning zarurligini tasdiqlaydi.

5. Kasbiy yo‘nalganlikning sifat tahlilida kasbiy yo‘nalganlik talabani o‘z sohasida o‘zini ko‘rish darajasi bilan belgilanadi, o‘z kasbini anglagan talabalar kelajak rejalari aniq, maqsadlari ravshan, o‘zini rivojlantirishga faol intiladi, kasbiy yo‘nalganlik past bo‘lgan talabalar esa qaysi yo‘nalishda ishlashni bilmaydi, bu ularda beqarorlikni oshiradi, bu sifat ko‘rsatkichi kasbiy identifikatsiyaning muhimligini ko‘rsatadi.

Umumiy tushunchalar talabalarining kasbiy kompetensiyalari psixologik omillar bilan bevosita bog‘liq, eng muhim omillar — motivatsiya, kommunikativlik, refleksiya va emotsional barqarorlik, kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun talaba shaxsiga yo‘naltirilgan psixologik treninglar, konsalting, jamoaviy mashg‘ulotlar va refleksiya metodlari zarur.

Xulosa qilib aytganda tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanish jarayoni ko‘p omilli, murakkab va izchil psixologik mexanizmlarga tayanadi. Kompetensiya faqat bilim va ko‘nikmalar majmui emas, balki shaxsning motivatsion, emotsional, ijtimoiy va refleksiv xususiyatlarining integratsiyalashgan ko‘rinishidir. Shu sababli, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni har bir talabani individualligi, faoliyatga munosabati va ichki tayyorgarligini hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, motivatsiya darajasi kasbiy rivojlanishning bosh omili bo‘lib, talabani o‘qishga bo‘lgan ichki qiziqishi, maqsadlarni aniq belgilashi va mustaqil o‘rganishga tayyorligi kompetensiyalarning rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Kommunikativ ko‘nikmalar va muloqot madaniyatining rivojlanganligi talabani jamoada ishlash qobiliyatini, o‘z fikrini asoslab berish va kasbiy vaziyatlarni to‘g‘ri tahlil qilish imkoniyatini ta‘minlaydi.

Shuningdek, refleksiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘z faoliyatidagi xatolarni tahlil qilish, o‘zini baholash va kelgusi faoliyatni rejalashtirishda ustunlikka ega bo‘lishadi. Emotsional barqarorlik esa stressli vaziyatlarda bosimga bardosh berish, to‘g‘ri qaror qabul qilish va muloqotda barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Bu komponentlarning barchasi talabani kelajakdagi kasbiy kompetent mutaxassis sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun psixologik yondashuvlarning uyg‘unligi, interaktiv treninglar, refleksiv mashqlar, kommunikativ o‘yinlar, motivatsion dasturlar va professional yo‘naltirish tizimining mavjudligi zarurdir. Bu jarayonni sifatli tashkil etish ta‘lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni, psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirishni va talabalarining shaxsiy rivojlanishiga doimiy yordam berishni talab qiladi.

Natijada, talabalarda shakllangan kasbiy kompetensiyalar nafaqat ularning o‘quv faoliyatida, balki real amaliyotda ham muvaffaqiyatli ishlashga, jamiyat ehtiyojlariga mos keluvchi raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. – Москва, 2003.
2. Raven J. Competence in Modern Society. Oxford: Oxford Psychologists Press, 1997.
3. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва: Смысл, 2005.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2004.
5. Super D. The Psychology of Careers. New York: Harper & Row, 1957.
6. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
7. Toshpo‘latov Sh., Jabborov A., Rasulov M. Kasbiy rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

Qodirova Odina Djurabaevna,

Andijon davlat universiteti Psixologiya va pedagogika kafedrasida dotsenti

BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada emotsional intellekt muammosining hozirgi zamon ta'lim tizimidagi dolzarb ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot jarayonida emotsional intellekt tushunchasining mazmuni va strukturaviy xususiyatlari xorijiy psixologik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Emotsional intellekt shaxsning kasbiy faoliyatida samaradorlikni ta'minlovchi, professional muvaffaqiyatga erishishga xizmat qiluvchi muhim psixologik omil sifatida baholangan. Maqolada talabalik davrining emotsional intellektni rivojlantirish uchun eng muhim bosqich ekani asoslab berilib, aynan ushbu yosh davrida shaxs psixikasining yaxlitligi shakllanishi va barqaror individual xususiyatlar qaror topishi kўpsamib berilgan. Ushbu davrda shaxsning nafaqat o'zini anglash jarayonlari, balki atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini takomillashtirish zarurati ham ortib borishi ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Emotsional intellekt, emotsional jarayonlar, emotsional tafakkur, shaxsiy intellekt, hissiy koeffitsient, hissiy tarbiya, o'z-o'zini boshqarish, professional faoliyat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения рассматривается актуальность проблемы эмоционального интеллекта в современной системе образования. В ходе исследования проанализированы содержание и структурные особенности понятия эмоционального интеллекта на основе работ зарубежных психологов. Эмоциональный интеллект рассматривается как важный психологический фактор, обеспечивающий эффективность профессиональной деятельности личности и способствующий достижению профессионального успеха. В статье обосновано, что студенческий возраст является наиболее значимым этапом для развития эмоционального интеллекта, поскольку именно в этот период формируется целостная структура психики личности и закрепляются устойчивые индивидуальные характеристики. Научно доказано, что на данном этапе возрастает не только уровень самосознания, но и потребность в совершенствовании взаимодействия личности с окружающей социальной средой.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, эмоциональные процессы, эмоциональное мышление, личностный интеллект, коэффициент эмоциональности, эмоциональное воспитание, саморегуляция, профессиональная деятельность.

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN FUTURE SPECIALISTS

Abstract. This article presents a scientific and theoretical analysis of the relevance of the problem of emotional intelligence in the modern educational system. The study examines the content and structural characteristics of the concept of emotional intelligence based on the works of foreign psychological researchers. Emotional intelligence is considered an important psychological factor that ensures the effectiveness of professional activity and contributes to achieving professional success. The article substantiates that the period of higher education is the most significant stage for the development of emotional intelligence, as this age is characterized by the formation of the integrity of the individual's psyche and the consolidation of stable personal characteristics. It is scientifically demonstrated that during this period, not only self-awareness develops, but also the need to improve interaction with the surrounding social environment increases.

Keywords: Emotional intelligence, emotional processes, emotional thinking, personal intelligence, emotional quotient, emotional education, self-regulation, professional activity.

Mamlakatimizda kechayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari har bir mutaxassisdan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni, balki o'zining emotsional holatlarini idora qila olish hamda atrof-dagilarning his-tuyg'ularini to'g'ri anglash qobiliyatini ham talab etmoqda. Bunday psixologik kompetentsiyalar kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish va yuqori natijalarni qo'lga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, talabalik yoshida emotsional

sohani rivojlantirish masalasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur davr shaxs psixik tuzilmasining yaxlitligi shakllanadigan, barqaror individual xususiyatlar qaror topadigan muhim rivojlanish bosqichi hisoblanadi. SHu jarayonda inson nafaqat o'zini anglash darajasini oshiradi, balki tashqi ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatini ham shakllantiradi. Bu holat, ayniqsa, insonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni talab etuvchi ijtimoiy yo'naltirilgan kasblarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy turkumga kiruvchi kasblar yuqori darajadagi dinamiklik va ko'p qirralilik bilan tavsiflanadi. Ushbu kasbiy faoliyat turlarida psixologik shart-sharoitlarni oldindan to'liq miqdoriy va sifat jihatdan baholash imkoniyati cheklangan bo'ladi. SHu bois, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni faqat kasbiy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, bo'lajak mutaxassislarida emotsional barqarorlik, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqa insonlarning emotsional holatlarini tanib olish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda shaxsning emotsional sohasi va intellektual imkoniyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqot natijalari emotsional intellektual rivojlanganlik darajasi kasbiy samaradorlik, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy barqarorlikning muhim omili ekanligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalik davrida emotsional intellektni shakllantirish va rivojlantirish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy kamolotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. An'anaviy intellekt insonning turli ma'lumotlar, mantiqiy qoidalar, sxemalar va boshqalar bilan ishlash qobiliyatini ko'rsatadi. SHuni ta'kidlash kerakki, insonning fikrlash jarayoni nafaqat mantiqiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi, balki ko'pincha unga, hissiyotlarga aralashadi, rag'batlantiradi va o'zgartiradi. "Ko'r-ko'rona hissiyotning despotik hukmronligiga bo'ysunish, fikr ba'zan ob'ektiv haqiqat bilan emas, balki sub'ektiv tuyg'u bilan muvofiqlik istagi bilan tartibga solina boshlaydi ...," haqiqat printsiipi "ga qaramay" zavq printsiipi "ga amal qiladi ... Ko'p yoki kamroq ehtirosli tarafkashlik bilan hissiy fikrlash dalillarni tanlaydi kerakli echim foydasiga erishadi » [1].

Zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida emotsional intellekt muammosi shaxsning hissiy sohasi va intellektual faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Ilmiy tadqiqotlarda emotsional intellekt shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni idora qilish, boshqa insonlarning emotsional holatlarini to'g'ri baholash hamda ushbu bilimlardan ijtimoiy munosabatlarda samarali foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Emotsional intellekt tushunchasining ilmiy asoslari ilk bor XX asr oxirida shakllanib, keyinchalik psixologik tadqiqotlarning mustaqil yo'nalishi sifatida rivojlandi. Jumladan, P.Salovey va J. Mayer tomonidan emotsional intellekt kognitiv qobiliyatlar tizimi doirasida qaralib, uni his-tuyg'ularni aniqlash, tushunish, boshqarish va ulardan maqsadli foydalanishga qaratilgan aqliy faoliyat turi sifatida tavsiflandi [5]. Ushbu yondashuv emotsional intellektni an'anaviy intellekt shakllari bilan uyg'un holda tahlil qilish imkonini berdi. Keyingi tadqiqotlarda D. Golman emotsional intellektni shaxsning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil sifatida izohlab, uning tarkibiga o'z-o'zini anglash, o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish, ichki motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni kiritdi. Bu model emotsional intellektning nafaqat kognitiv, balki shaxsiy va ijtimoiy jihatlarini ham qamrab olishi bilan ahamiyatli hisoblanadi [7].

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt shaxsning ijtimoiy moslashuvi, kasbiy samaradorligi va psixologik barqarorligi bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, insonlar bilan doimiy muloqotni talab etuvchi kasblarda emotsional intellekt yuqori darajada shakllangan bo'lishi mutaxassis faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday holatlarda shaxs o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish orqali stress va konflikt vaziyatlarni samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Emotsional intellektning rivojlanishi shaxs ontogenezida muayyan bosqichlarga bog'liq bo'lib, uning shakllanishida ijtimoiy muhit, tarbiya, ta'lim jarayoni hamda shaxsiy tajriba muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, talabalik yoshi emotsional sohani rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi, chunki bu bosqichda shaxsning o'z-o'zini anglash darajasi ortadi va ijtimoiy munosabatlar ko'lami kengayadi.

Zamonaviy tadqiqotlar emotsional intellektni rivojlantirish mumkin bo'lgan psixologik qobiliyat sifatida qarab, uni shakllantirishga qaratilgan treninglar va pedagogik texnologiyalarning samaradorligini tasdiqlamoqda. SHu bois, ta'lim tizimida emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlarni joriy etish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Amerikalik psixolog G.Gardner "emotsional fikrlash" tushunchasiga ayniqsa yaqin keldi. Ushbu olim intellektning inson hayoti muvaffaqiyatiga ta'sir qiladigan bir turi emas, balki bir nechta turi borligini ta'kidlagan [3]. Ushbu kontseptsiyaga ko'ra, intellektning quyidagi asosiy turlarini ajratish mumkin: lingvistik, musiqiy, mantiqiy-matematik, fazoviy, tana-kinestetik va shaxsiy. Ushbu turlarning barchasi bir-biridan mustaqildir va o'zlarining qonunlariga bo'ysungan holda qandaydir alohida tizimlar sifatida ishlaydi. Shaxsiyatni to'liq anglash uchun barcha keltirilgan aql turlari talab qilinadi. Biroq, ba'zi odamlarda irsiyat, ta'lim va boshqa omillar ta'siri ostida aqlning ba'zi turlari boshqalarga qaraganda ancha kuchli rivojlanishi

mumkinligi ta'kidlanadi. his-tuyg'ular va fikrlash o'rtasidagi munosabatlar muammolariga nisbatan eng katta qiziqish "shaxsiy intellekt" bo'lib, unda Gardner ikki tomonni - shaxslararo va shaxslararo ajralib chiqadi. Shaxsiy intellekt o'zini o'zi boshqarish vazifalari bilan bog'liq. Gardnerning fikriga ko'ra, aynan shu aqlning mavjudligi tufayli inson o'z his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularini boshqarishi, bilishi, ularni ajratishi va tahlil qilishi, shuningdek olingan ma'lumotlardan o'z faoliyatida foydalanishi mumkin. SHaxslararo intellekt odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammolari bilan bog'liq. Bu boshqa odamlarning ehtiyojlari va his-tuyg'ularini, ularning niyatlarini aniqlash, tahlil qilish va tushunish qobiliyatini anglatadi. Uning yordami bilan inson turli xil holatlarda boshqa odamlarning xatti-harakatlarini bashorat qilishi, shuningdek ularni boshqarishi mumkin.

Mazkur masalaning keyingi rivojlanishi doirasida 1988-yilda R.Bar-On hissiy va ijtimoiy aql kontseptsiyasini kiritdi, uning taxminiga ko'ra, bu juda ko'p shaxsiy va shaxslararo qobiliyat, ko'nikma va malakalardan iborat bo'lib, ular birlashganda inson xulq-atvorini belgilaydi. ... R.Bar-On birinchi navbatda emotsional intellekt - hissiylik koeffitsienti, Ananaviy nitellektga o'xshashlik - aql-idrok koeffitsientini kiritdi. O'z navbatida, Kerolin Saarni hissiy kompetentsiya tushunchasini o'rganib chiqdi va tarkibida kognitiv qobiliyatlari, ijtimoiy ko'nikmalar va hissiy tajriba to'plamini birlashtirdi [4]. D.Golman emotsional kompetensiyada ikkita alohida komponentni ("shaxsiy kompetensiya" va "ijtimoiy vakolat") ajratib ko'rsatdi. Tuyg'ular va inson tafakkurining o'zaro bog'liqligi muammosini o'rganishda chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik uchun amerikalik psixologlar P. Salovey va J. Mayer 1990-yilda o'z tadqiqotlari taxlilida ushbu qobiliyat "hissiy aql" tushunchasini tashkil qiladi deb taxmin qilishdi. Mualliflarning o'zlari emotsional intellekt o'zlarining va boshqalarning his-tuyg'ulari va his-tuyg'ularini kuzatib borish, ularni ajratib ko'rsatish va fikrlash va harakatlarga rahbarlik qilish uchun ushbu ma'lumotdan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga olgan ijtimoiy aqlning pastki tuzilishi deb hisoblashadi [5].

Emotsional intellekt tuzilmasi (jadval ko'rinishida)

Tuzilma komponenti	Mazmuni (ilmiy izo')	Asosiy ko'rsatkichlar	Psixologik a'amiyati
O'z emotsiyalarini anglash	Shaxsning o'z hissiy holatlarini tanib olish, ularning sabab va oqibatlarini tushunish qobiliyati	Emotsional xabardorlik, refleksiya, shzini baholash	Psixologik barqarorlik, ongli qaror qabul qilish
Emotsiyalarni boshqarish	hissiy reaksiyalarni nazorat qilish, salbiy emotsiyalarni konstruktiv yo'naltirish	Stressga chidamlilik, impulsni nazorat qilish	Konfliktlarni oldini olish, shzini tuta bilish
Ichki motivatsiya	Shaxsning ichki e'tijoj va maqsadlari asosida faoliyat yuritish qobiliyati	Maqsadga intilish, qat'iyatlilik, ijobiy kayfiyat	Kasbiy muvaffaqiyat, shaxsiy o'sish
Empatiya	Boshqa insonlarning emotsional holatini tushunish va 'is etish qobiliyati	hissiy sezgirlik, ijtimoiy idrok	Samarali muloiot, ijtimoiy moslashuv
Ijtimoiy ko'nikmalar	Muloqot jarayonida emotsional bilimlardan samarali foydalanish	hamkorlik, nizolarni boshqarish, yetakchilik	Jamoda muvaffaqiyatli faoliyat

Bu tadqiqotning muammoli sohasidagi ilmiy ishlarni ko'rib chiqish psixologiyada hissiy intellektni rivojlantirish imkoniyatlarini tushunishga turli xil yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Bir pozitsiyaga ko'ra, hissiy aql darajasini oshirish deyarli mumkin emas, chunki bu nisbatan barqaror qobiliyat.

Shu bilan birga, hissiy bilimlarni, ya'ni hissiy aql faoliyat ko'rsatadigan ma'lumot turini olish, shu jumladan o'quv jarayonidagi faoliyatga nisbatan qulayik yaratadi. D. Golemanning fikriga ko'ra, emotsional intellektni rivojlantirish dolzarbdir. Ushbu pozitsiyani tasdiqlashlaridan biri bu miyaning asab yo'llari inson hayotining o'rtalariga qadar rivojlanishda davom etishi. SHu munosabat bilan hissiy rivojlanish mumkin bo'ladi, bu hissiyotlarni ongli ravishda tartibga solishda namoyon bo'ladi [7].

Bu nuqtai nazarni T.P. Berezovskaya, uning empirik tadqiqotlari natijalari maxsus tashkil etilgan ta'lim va tarbiya orqali emotsional intellektni rivojlantirish imkoniyatini yuqoriligini ko'rsatadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, o'qitish faoliyati bosqichida, umuman o'rta maktab o'quvchilarining hissiy imkoniyatlarini kengaytirishga, xususan, yigitlarda - boshqa odamlarning hissiyotlarini tan olish qobiliyatini va empatiyani rivojlantirishni, qizlarda - hissiy sohani boshqarishda ixtiyoriylikni rivojlantirishga yordam beradi [8]. Teatr teatri bilan maktabda o'qitish har ikki jinsdagi odamlarda androgenologik psixologik xususiyatlarni rivojlantirishga imkon beradi, deb taxmin qilish mumkin, bu esa keyinchalik ko'rib turganimizdek hissiy intellektning o'sishiga yordam beradi. Emotsional intellektni rivojlantirish tarafdorlari

(SP. Derevianko, IS Stepanov, I.N. Meshcheryakova) emotsional kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ta'lim muassasasida maxsus mashg'ulotlar o'tkazish zarurligini ta'kidlaydilar. Bunday "hissiy tarbiya" to'g'ridan-to'g'ri o'qitish orqali ham, ma'lum bir psixologik iqlimni yaratish orqali ham, o'quv jarayoni sub'ektlarini qo'shma tadbirlarga jalb qilish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Mavjud natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bunday dasturlar ustida ishlash ruhiy salomatlikka foydali ta'sir ko'rsatadi, alkogol va chekishni kamaytirishga, ijtimoiy bo'lmagan xatti-harakatlarni kamaytiradi [9]. Biroq, ularning samaradorligi qat'iy ravishda o'lchanmagan. Qayd etilishicha, samaradorligini baholash uchun dasturlardan oldin va keyin emotsional intellekt testlarini ishlab chiqish va taqdim etish usullarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish kerak [9].

Shaxsning o'z-o'zini anglashni rivojlantirish darajasi bevosita emotsional intellektga bog'liq. Bolaning harakatlariga bevosita atrof-muhitning emotsional reaksiyalarini rivojlantirish uchun shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi, balki uning o'ziga bo'lgan munosabati va o'zini o'zi qadrlashi uchun ko'rsatma hisoblanadi. Haqiqiy o'zini anglash va o'zini o'zi qabul qilish asoslari ontogeneznining dastlabki bosqichlarida, ota-onalar tomonidan bolani dastlabki dunyoni qabul qilish bilan belgilanadi. Shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichlarida o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari ham shakllanadi. SHaxsiy darajada o'z-o'zini boshqarish uchta asosda amalga oshiriladi:

- semantik;
- shaxsiy shakllanishlar
- ruhiy holatlar.

Ruhiy holatlarni o'z-o'zini boshqarish o'zini o'zi boshqarish bilan bevosita bog'liqdir. Shaxsiy o'zini o'zi boshqarishning butun tizimi o'z-o'zini anglashning rivojlanish darajasiga asoslangan. Boshqacha qilib aytganda, o'z-o'zini anglashning rivojlanish darajasi o'z his-tuyg'ularini boshqarish uchun zaruriy shart bo'lib xizmat qiladi.

O'z-o'zini hurmat qilish va o'zini o'zi boshqarish jarayonlari insonning emotsional kompetentsiyasiga bo'lgan ishonchga asoslanadi. Ushbu konstruktsiya ijtimoiy ta'lim jarayonida shakllanadigan shaxs imidjiga bog'liq.

Ota-onalarning ma'lumot darajasi qanchalik baland bo'lsa va oilaning daromadi qanchalik baland bo'lsa, o'spirinlarda hissiy aqlning ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'ladi. D.Golemanning optimistik pozitsiyasiga asoslanib, ota-onalar tomonidan mansab va moddiy yutuqlarga erishish yuqori darajadagi emotsional intellektning natijasi deb taxmin qilish mumkin; bu holda, tegishli boyliklarni ularning farzandlari meros qilib olishlari mumkin. SHu bilan birga, yuqori darajadagi ma'lumotga ega bo'lgan odamlar o'zlarini bilish va o'zini rivojlantirishga ko'proq vaqt ajratishlari mumkin, shu bilan birga ularning farzandlari emotsional va intellektual jihatdan rivojlanadi". Bundan tashqari, bolaning emotsional intellektini rivojlanishiga ota-onalar o'rtasidagi hissiy jihatdan muvaffaqiyatli munosabatlar ham bevosita ta'sir etadi[10]. Bolaning hissiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish asosan turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatiga, ota-onalarning oilaviy hayotdan qanchalik qoniqish hosil qilishiga bog'liq. AQSHda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oilaviy hayotidan qoniqadigan odamlarda emotsional intellekt qiymatlari qoniqmaganlarga nisbatan ancha yuqori bo'lgan. Bu ustuvor yo'nalish oila bo'lib, unda ular bir-birlarining tajribalariga tobora ko'proq e'tibor berishadi va ko'pincha hissiy muammolarni muhokama qilishadi. SHunday qilib, yuqori emotsional intellektga ega bo'lgan ota-onalar oilaviy munosabatlar uchun uyg'un sharoitlarni yaratishga qodir, bu esa o'z navbatida o'z farzandlarining emotsional intellekti rivojlanishini belgilaydi.

Agar ota-onalar hissiy muammolarni muhokama qilishga moyil bo'lsa, demak, bu bolaning his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunishga va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Turli xil oilalarda "samimiy suhbatlar" zaruriyati va chastotasi haqidagi tasavvurlar turlicha. SHu bilan birga, miqdordan sifatga o'tishning aniq tendentsiyasi mavjud: onalar o'z farzandlari bilan har xil emotsional holatlarni qanchalik tez-tez muhokama qilsalar, olti yoshga to'lgan bolalar shunchalik omadsiz kattalarning hissiy namoyonlariga moslashadilar [10].SHunday qilib, hissiy jihatdan farovon oilada maxsus ta'lim strategiyasi ishlab chiqiladi, uning tamal toshi bola hayotidagi xatti-harakatlar va voqealarga emas, balki uning tajribalariga asoslanadi.

Ma'lumki, voyaga etgan erkaklar va ayollar o'rtasidagi hissiy farqlarning shakllari dastlab bolalarni tarbiyalashga turli xil yondashuvlar bilan belgilanadi Qizlar va o'g'il bolalarning ijtimoiylashuvdagi farqlar ota-onalarning ongsiz ravishda bolalarni tegishli gender rollarini bajarishga tayyorlashga bo'lgan istagi bilan belgilanadi. Jinsiy farqlar, avvalo, ayollarda hissiy intellekt ko'proq darajada shaxslararo munosabatlar darajasida, erkaklarda esa hissiy intellektning intrapersional darajasida namoyon bo'lishi bilan belgilanadi.

Emotsional intellekt keng ma'noda shaxsning, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish orqali va ularning hissiy holatiga moslashish qobiliyati bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini birlashtiradi. O'zini

nazorat qilish va o'zaro munosabatlarni oqilona tashkil etish qobiliyati, boshqalar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqani o'z ichiga oladigan faoliyat sohasida muxim o'rin egallaydi. Bu esa kasbiy faoliyat sohasida muxim ahamiyatga ega. Agar umumiy intellekt akademik muvaffaqiyat omili bo'lsa, unda emotsional intellektning yuqori darajasi professional faoliyat va hayotdagi muvaffaqiyatlarga erishishga imkon beradi. Yuqori darajadagi Emotsional intellekt insonga shaxsiy va kasbiy rejalarda yanada samarali ishlab chiqish, stressni boshqarish va boshqalar bilan samarali aloqa o'rnatish imkonini beradi. Uni rivojlantirish ustida ishlash hech bo'lmaganda ba'zi ongsiz harakatlarimizni kelib chiqishini tushunishga o'rgatadi. Emotsional intellektni rivojlantirishda quyidagi omillarni xisobga olish maqsadga muvofiq.

1. Shaxs o'zining hissiy reaksiyalariga e'tibor berishi atrofidagi bo'layotgan narsalarga va hissiy darajada ushbu hodisalarga nisbatan o'zining hissiy kechinmalarini tushunishga harakat qiliishi zaruriyligi.

2. Har bir shaxs his-tuyg'ularini va harakatlari bir biri bilan qanday bog'liqligini o'rganish lozim. G'azab bizni ovozimizni ko'tarishga majbur qiladi, xijolat tortish bizni xira qiladi. Bu faqat eng aniq misollar, ammo his-tuyg'ular va xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunganingizda, ular bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rganamiz va ularni o'z faoliyatimizda ishlatamiz.

4. Tuyg'ularni nazorat qilish va boshqarish. negativ xolatlariga nisbatan emas, ammo shu hissiyotlar ijobiy bo'ladigan xolatlariga yetarli darajada munosabat bildiriladi. His-tuyg'ularni tahlil qilish, undan chiqish yo'lini qidirish va shaxs o'zidagi haqorat va qayg'ularni hech qachon yashirmasligi kerak.

5. Tana tilini tinglash. Tuyg'ularning jismoniy ko'rinishini anglash. Inson ongi va tanasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bu aloqani tushunishni o'rganib, boshqalarning his-tuyg'ulari va tajribalarini osongina "o'qish" imkoniyatiga ega bo'ladi. Refleksiv xolatning mavjudligi.

6. Emotsional xotirani rivojlantirish. Maxsus kundalik saqlash va unda hissiy reaksiyalarni yozib borish. Vaqt o'tishi bilan uni qayta ko'rish, kelgusi xatti-harakatlarni to'g'rilashga asos bo'ladi.

- Emotsional intellekt rivojlanish usullari:
- Guruh mashg'ulotlari;
- Shaxsiy mashg'ulotlar;
- Murabbiylik;
- Bolalarni oilaviy-jamoa bolalar markazlarida o'qitish;
- Oilaviy tarbiya.

Biz ishonamizki, emotsional intellekt - bu qobiliyatlar to'plami, ammo boshqa shaxsiy xususiyatlar emas, chunki bu kommunikatsiya jarayoni bo'lgan har xil turdagi faoliyatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirishning yuqori darajasiga erishishga imkon beradigan qobiliyatdir.

Adabiyotlar:

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии : учеб. пособие. — СПб. : Питер, 1999. — 612 с.
2. Врис М. Кетедде. Мистика лидерства. Развитие эмоционального интеллекта. — М. : Альпина Бизнес Букс, 2005. — 312 с.
3. Гарбер Е.И., Козача В.В. Методика профессиографии. — Саратов, 1992. — 120 с.
4. Митина Л.М. Психология развития конкурентоспособной личности. — 2-е изд., стер. — М. : Московский психолого-социальный институт ; Воронеж : НПО «МОДЭК», 2003. — 400 с. — (Библиотека психолога).
5. Salovey P., Mayer J.D. Some final thoughts about personality and intelligence // Personality and Intelligence / ed. by R. Sternberg, P. Ruzlis. — Cambridge : Cambridge University Press, 1994. — P. 303–318.
6. Власова О.І. Психологія соціальних здібностей: структура, динаміка, чинники розвитку : монографія. — К. : Київський університет, 2005. — 308 с.
7. Эмоциональный интеллект: статьи, тесты, тренинги [Электронный ресурс]. — М., 2008. — Режим доступа: <http://www.eq-rating.ru/content/view/37/2/> (дата обращения: 10.12.2025).
8. Березовская Л.П. Психологические особенности эмоционального интеллекта старшеклассников // Когнитивная психология : сб. ст. / под ред. А.П. Лобанова, Н.П. Радчиковой. — Минск : БГПУ, 2006. — С. 16–20.
9. Trinidad D.R., Johnson C.A. The association between emotional intelligence and early adolescent tobacco and alcohol use // Personality and Individual Differences. — 2002. — Vol. 32, No. 1. — P. 95–105.
10. Goleman, D. Social Intelligence: The New Science of Human Relationships. — New York: Bantam Books, 2006. — 403 p.

Xasanova Surayyo Shonazarovna,
Ma'mun universiteti Psixologiya kafedrası PhD, v.b dotsenti

TA'LIM FAOLIYATIDA O'QUVCHILAR O'ZINI-O'ZI NAMOYON QILISHNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGNING TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning o'zini-o'zi namoyon qilishda, shaxsiy rivojlanishida, o'zini anglashi va iqtidor iste'dod, iqtidorini ro'yobga chiqarishda ta'lim jarayonida pedagogning o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilarda o'zini-o'zi namoyon qilishi uning avvalo o'zini anglashi, baholashi, his-tuyg'u, istaklarni, munosabatlarni aqliy bilish, qobiliyatlari asosida o'zini namoyon qilish harakatini rivojlantirishga imkon beradigan shaxsiy omillardan biridir. Ta'lim faoliyatida intellektual jihatdan o'zini namoyon qilishning maqsadi va holatiga mos ravishda kerakli bilim va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lgan o'quvchi xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ularga shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy guruhlarining ham ta'siri o'zini-o'zi namoyon qilish borasidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim faoliyati, o'ziga ishonch, o'zini-o'zi namoyon qilish, o'zini baholash, individuallik, motivatsiya, muloqot, refleksiya.

ВЛИЯНИЕ ПЕДАГОГА НА РАЗВИТИЕ САМОРЕАЛИЗАЦИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В данной статье представлены сведения о роли педагога в образовательном процессе в обеспечении самореализации обучающихся, их личностного развития, самосознания, а также в раскрытии и реализации способностей и одарённости. Самопроявление обучающихся рассматривается как один из личностных факторов, который, прежде всего, основывается на самосознании, самооценке, осмыслении чувств, желаний и отношений, а также на развитии действий самореализации, опирающихся на познавательные и интеллектуальные способности. В образовательной деятельности проанализированы особенности обучающихся, обладающих необходимыми знаниями и личностными качествами в соответствии с целями и условиями интеллектуального самопроявления. Также освещены взгляды на влияние межличностных отношений и социальных групп на процесс самореализации личности.

Ключевые слова: образовательная деятельность, уверенность в себе, самореализация, самооценка, индивидуальность, мотивация, общение, рефлексия.

THE INFLUENCE OF THE TEACHER ON THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SELF- REALIZATION IN EDUCATIONAL ACTIVITIES

Abstract. This article presents information on the role of the teacher in the educational process in ensuring students' self-realization, personal development, self-awareness, as well as in revealing and developing their abilities and talents. Students' self-expression is considered as one of the personal factors that is primarily based on self-awareness, self-assessment, comprehension of feelings, desires, and relationships, as well as on the development of self-realization actions grounded in cognitive and intellectual abilities. Within educational activities, the characteristics of students who possess the necessary knowledge and personal qualities in accordance with the goals and conditions of intellectual self-expression are analyzed. In addition, the article highlights perspectives on the influence of interpersonal relationships and social groups on the process of personal self-realization.

Keywords: educational activity, self-confidence, self-realization, self-assessment, individuality, motivation, communication, reflection.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy qarashlar ilgari surilgan jamiyatda o'zini-o'zi namoyon qiladigan odamlarga yuqori ehtiyoj mavjudligi, faol, mas'uliyatli, ijodiy, barkamol, o'z hayotidagi voqealarni boshqarishga qodir, o'zini faol ravishda o'zgartira oladigan shaxs talab qilinadi. Darhaqiqat, shaxsni ushbu darajaga erishishi har qanday faoliyatda mashaqqatli mehnatni soha mutaxassislaridan ayniqsa, ta'limda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning o'rni ahamiyatli hisoblanadi. Mamlakatning ertanggi kuni yosh avlodni intellektual salohiyatli, o'zini anglagan, o'zini boshqara oladigan jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan farzandlarni ta'lim-tarbiya berish orqali shakllantirishga pedagogning tajribasi natijasida erishish mumkin.

Yangi O'zbekistonda ta'lim jarayoni sifatli tashkil qilinishi, pedagogning samarali usul va metodlarni qo'llashi kelajak avlodni yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'quvchilarda bilim olish o'z iqtidorini rivojlantirishi uchun maxsus tashkil qilingan maktablar ularda tajribali ustozlarning faoliyat olib borayotganini kuzatish mumkin. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, shaxsiy imkoniyatlarini anglash va o'zini-o'zi namoyon qilish ko'nikmalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilar berilgan bilimlarni takrorlash, o'qituvchilarni yordamida shaxsiy rivojlanishi, ichki motivatsiyasi, ijodkorligi, bilimlarini yanada mustahkamlashi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. O'quvchining o'zini-o'zi namoyon qilishi nafaqat pedagog balki, hamkorlikda faoliyat olib boriladigan ota-onaning roli ham muhim hisoblanadi. Chunki, oilalarda farzandlar turlicha tarbiyalangan xulq-atvori shakllangan bo'lib, ta'lim muassasasiga qadam qo'yishadi. V.Karimovaing “Oila psixologiyasi” darsligida ota-ona va bola munosabatlari psixologiyasi, tarbiya shakllariga alohida e'tibor qaratilgan [4.113-135-b].

G.T.Xomentauskas oilada bola tomonidan ota-ona xulq-atvorini idrok qilishi va munosabati ko'rinishlarini tahlil qilgan. Oilada ota-ona va bola munosabatlari demokratik tamoyillarda amalga oshadigan bo'lsa bola psixologiyasi va xarakterida ustuvor fazilatlar sifatida adekvat o'z-o'zini baholash va insonlarga ishonch, xar qanday yaxshi narsalardan, jumladan ota-ona bilan yaqin, samimiy munosabatlar quvonish, o'ziga ishonch xatoliklarda cho'chimaslik, ayb ish qilib qo'yganda ham unchalik qayg'urmaslik, zaruratga qarab iltimoslar qilish va bunda real ko'mak oliashga umidvorlik, ota-onaning hayotdagi o'rni va ishonchlarini, umid va istaklari bilan xisoblashish kabilarni sanash mumkin [4]. Darhaqiqat, ushbu munosabatlarni kuzatib kamolga yetgan farzandlarda o'ziga ishonchi yuqori bo'lishi ularda o'zini ro'yobga chiqarishga yanada ijobiy ta'sir ko'rsatishini kuzatish mumkin.

Psixologiya fanida mavzuga aloqador ilmiy asoslangan ma'lumotlarni, ilmiy tadqiqot ishlarini nazariy tomonlari tahlil qilinadi. A.Maslouning fikricha, shaxsning asosiy maqsadli yo'nalishi professional subyekt pozitsiyasi bo'lib, o'z-o'zini anglash - bu shaxsning hayotda qodir bo'lgan hamma narsaga erishish, o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish istagidir. Muallif o'zini namoyon qiladigan odamlarning asosiy xususiyatlari-faollik, mas'uliyat, ijodkorlik, ochiqlik va adolatga bo'lgan ehtiyojlarda ifodalanishini bildirib o'tgan [99]. “O'zini namoyon qilish” – inson rivojining eng yuqori bosqichi. Bu bosqichga erishgan shaxs o'zining haqiqiy imkoniyatlarini to'liq anglaydi va ularni amalga oshiradi.

K.Rogersning shaxsga yo'naltirilgan yondashuviga ko'ra, shaxsga faqat erkinlik, ishonchli muhit va qabul qilinish orqali o'zini namoyon qila oladi. Shu asnoda aytish mumkinki, pedagog o'quvchilarga o'zini qiziqtirgan fan yoki ijodiy ishlarini bajarish uchun amaliy darslarni bajarishda ham erkinlik berishi, ularda o'ziga ishonchni yanada oshiradi natijada o'z qo'li bilan bajara oladigan ishlarini ko'rsata oladigan bo'lishadi. A.Banduraning fikricha “O'ziga ishonch” — pedagog bu ishonchni shakllantiruvchi muhim omildir. Bandura pedagoglarni **o'ziga ishonchni shakllantirishdagi muhim omil** deb hisoblaydi, chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining qobiliyatiga bo'lgan ishonchini qo'llab-quvvatlovchi shaxs sifatida ham xizmat qiladi. Psixologik nuqtai nazardan, pedagogning rag'batlantiruvchi va ijobiy munosabati o'quvchida muvaffaqiyatga erishish ishonchini kuchaytiradi, o'ziga ishonch yuqori bo'lgan o'quvchilar murakkab vazifalarni bajarishga tayyor bo'lib, xatolardan qo'rqmay o'rganadilar, shu bilan birga, pedagogning roli o'quvchining shaxsiy va akademik rivojlanishida hal qiluvchi omilga aylanadi. Demak, o'quvchiga bevosita pedagogning ishonch bildirib motivatsiya berishi unda o'zini ifoda qila olishiga xizmat qiladi.

D.J.Mayer «hissiy intellektni ba'zi odamlarga his-tuyg'ularni murakkab qayta ishlashni yakunlash imkonini beradigan hamda fikrlash va harakat qilish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladigan mahorat deb ta'riflagan». Ushbu ta'rifga ko'ra, hissiy intellekt shaxsning his-tuyg'ularni oddiygina his etishi emas, balki ularni anglash, tahlil qilish, baholash va boshqarish qobiliyatini anglatadi. “His-tuyg'ularni murakkab qayta ishlash” deganda insonning o'z hissiyotlari va boshqalarning hissiyotlarini aniqlash, ularning sabablarini tushunish hamda vaziyatga mos tarzda ulardan foydalanish jarayoni nazarda tutiladi. Shuningdek, Mayer hissiy intellektni fikrlash va harakat qilish uchun qo'llanma sifatida talqin qiladi, ya'ni hissiyotlar inson qaror qabul qilishida, muammolarni hal etishda va xulq-atvorini tartibga solishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Anglashimizcha, o'quv jarayonida pedagoglarda emotsional intellekt yuqori bo'lishi, o'quvchilarni tushunish istedod va qobiliyatlariga qarab rivojlantirishga amaliy yordam ko'rsatishi kuzatiladi.


Rus psixologi P.P.Blonskiy maktab dasturi mazmuniga bola aqliy ta'limotidagi rolga, ta'limning sifatiga alohida e'tibor beradi. Darhaqiqat, aqliy rivojlanishni o'quvchilarda to'g'ridan-to'g'ri uzviyligini ta'kidlaydi. «Bilimlar tafakkurni yanada umumiy va mavhum qilish bilan bir qatorda uni yanada aniqlashtiradi. Bu esa tafakkurni yanada intizomli, yanada xatolardan saqlanadigan qiladi» deb tushuntiradi.

Tafakkurning ta’limda bir vaqtning o’zida ikki yo’nalishga qarab, ya’ni aniq holatdan yanada aniqroq holatga, mavhumdan yanada mavhumroqqa, o’sib o’tishini ko’rsatib o’tgan.

Insonning o’zini-o’zi rivojlantirishi uning faoliyat natijasi kelajakda ideal mavqeini qurishdir. N.G.Alekseyev, E.V. Burmistrov, S.A. Krasnov, A.I.Savenkov va V.I.Slobodchikovlar ishlarida shaxs shakllanishida yetuk, mukammallik darajasida, faoliyatni tashkil qilishdagi mas’uliyat va ishga munosabat turlari tahlil qilingan [1], [3], [5], [7], [8]. Aytish mumkinki, o’quvchilarda mukammallikka intilish istagi, ularni o’zini namoyon qilishda o’qish va izlanishda yanada samaraliroq harakat qilishga undashi mumkin.

Olimning J.P.Gilford fikricha, ta’lim jarayonida bolalar ma’lum qoida asosida ishlashga o’rganadilar. «ijodiy odamlar muammoni hal qilishda ravonlik, moslashuvchanlik va o’ziga xoslik bilan ajralib turadigan turli xil fikrlashni ko’rsatishini taklif qildi» [46]. Fikrimizcha, mazkur faoliyatni tashkil qilishda va samarali bo’lishida o’qituvchining mahorati ijobiy bo’lishi talab qilinadi.

Quyidagi rasmda o’quvchilarni o’zini-o’zi namoyon qilishni tashkil qilishda samarali bo’lishi uchun muhim integrativ omillar ifodalangan.



1-rasm. O’quvchilar o’zini-o’zi namoyon qilish imkoniyatlari.

E.P.Torrans ijodkorlikni - «odamlar bilimlardagi bo’shliqlarga sezgir bo’lib, farazlarni shakllantirishga harakat qiladigan va yechim topadigan jarayon sifatida ta’riflagan» [104]. Ijodkorlikni shaxs rivojlanishida bilimlardagi bo’shliqlarni aniqlash va ularni to’ldirishga qaratilgan faollikni o’zini-o’zi namoyon qilishning roli haqida izlanish olib borgan. Psixologik nuqtai nazardan, bu jarayon ijodkorlikni faol kognitiv faoliyat sifatida ko’rsatadi, unda shaxs tahlil qilish, faraz qilish va yangi yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini birlashtiradi. Torrance ta’kidlaganidek, ijodkorlik nafaqat g’oya tug’dirish, balki bilimlarni kengaytirish va yangi tushunchalar yaratish jarayonidir. O’quvchilarning o’z fikrlarini erkin ko’rsata olishi, ijodiy jarayonlarni samarali yaxshilanishiga ta’sir ko’rsatadi.

Muloqotda o‘zaro bir-birini tinglashi, tushunishi, empatiya holatlarini yuzaga kelishi shaxsga o‘zini namoyon qila olishiga psixologik jihatdan ta’siri bo‘lishi mumkin. Psixologiya fanida olimlar tomonidan jumladan, Ye.Melibruda “Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir” deb ushbu muammoni atroflicha ta’kidlagan. Mazkur jarayonda shaxs o‘zining fikr mulohazalarini bayon qilishi, iste’dodi va qobiliyatini namoyon qila olishi mumkin. Ushbu muloqot yuzaga kelishi ularda ham psixologik jihatdan ham shaxslararo munosabatlar natijasida emotsional holatlarida ijobiy natijaga erishilishi mumkin.

O‘quvchilarda o‘zini-o‘zi namoyon qilish psixologiyasi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va hissiy intellektiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonni rivojlantirish, o‘quvchilarni o‘zini anglash, o‘z hissiyotlarini boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni samarali bo‘lish bo‘yicha muhim imkoniyatlar yaratadi.

Kasbiy pozitsiyani shakllantirishda asosiy psixologik shartlar falsafiy dunyoqarashda turlicha talqin qilinadi va asosiy pozitsiya ayni inson psixikasi va hatti-harakati bilan bog‘liq tarzda shakllanadi: masalan, o‘zini-o‘zi shakllantirish qobiliyati “men kimman”, reflektiv-uslubiy “men qanday harakat qilishim mumkin”, psixologik motiv “nima qila olaman” va pedagogik jihatdan “qayerda va kim bilan harakat qila olaman” savollariga javob beradi [9].

G.M.Andreevaga ko‘ra, shaxsning mavqeyi uning ma’lum bir ijtimoiy guruhdagi o‘rnini belgilaydigan ijtimoiy maqom tushunchasiga yaqindir [2]. Aynan yosh avlodni kelajak haqida tasavvurlari, ideal qarashlari, statusga ega bo‘lishga intilishi uning maktab davridan ayniqsa muhim hisoblanadi. Tengdoshlari orasida o‘zini ko‘rsata olishi uning o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqara bilishi ijtimoiy ro‘lini belgilashga xizmat qilishi mumkin.

Demak, o‘quvchilar o‘zini-o‘zi namoyon qilishida pedagogning roli va ta’siri psixologik pozitsiyalari quyidagilarini o‘z ichiga oladi:

- qo‘llab-quvvatlovchi
- ishonch uyg‘otuvchi
- erkinlik, ishonchli muhit tarafdori
- empatiyaga ega, individual yondasha oladigan

Pedagogning faoliyatda o‘quvchilar uchun ta’limda ta’sir qilishi va pedagogik strategiyalari ham mavjud. Pedagog tomonidan erkin fikr bildirishga ruxsat berishi natijasida o‘quvchi o‘z fikrini ochiq aytadigan bo‘lishi, individual yondashuv har bir o‘quvchi o‘zini qadrlagan his qilishi, ijobiy baholash motivatsiyani oshishi, tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish mustaqil qaror chiqarish ko‘nikmasi rivojlanishi, ijodiy toshiriqlar berish o‘quvchi o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rish kuzatiladi.

Pedagogning ta’lim jarayonida loyiha asosida o‘qitishi o‘quvchini ijodiy amaliy ishlarga jalb qiladi. Refleksiya metodlarini qo‘llashi natijasida o‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qilishni o‘rganadi. Ro‘lli o‘yinlar esa shaxsiy fikrni himoya qilish, o‘zini-o‘zi namoyon qilish imkonini beradi. Pedagogning emotsional jihatdan mehribon va ishonchli bo‘lishi o‘quvchining o‘ziga ishonchni shakllantiruvchi shuningdek, ijodiylikning ochilishiga olib keladi.

Xulosa. Demak, o‘quvchining o‘zini namoyon qilishi – bu uning shaxsiy rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanadi. Pedagog bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi, ruhlantiruvchi va shaxsiy salohiyatni ochib beruvchi shaxs bo‘lishi zarur. Bundan tashqari ularda ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zini ifodalashini shakllanishida oilaviy munosabatlar juda ahamiyatli ekanligini ham aytish zarur. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, ishonchli va ijodiy muhit yaratish orqali o‘quvchining o‘zini anglashiga va rivojlantirishiga qulay sharoit yaratishga xizmat qilishini ta’kidlash mumkin. Yuqorida keltirilgan fikr mulohazalardan aytish mumkinki, shaxsni o‘zini namoyon qilishi orqali o‘zini shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorini, hissiyotlarini ifodalashi, munosabatlarni o‘zgartira olishida pedagogning o‘rni ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. Алексеев. Н.Г. Проектирование условий развития рефлексивного мышления: дисс. в виде науч. доклада ... д-ра психол. наук. М., 2002.
2. Андреева. Г.М Социальная психология: учебник // – Издание 5-е, исправленное и дополненное. – Москва: Аспект Пресс, – 2010.
3. Бурмистров С.В., Волочай А.В., Самыгин С.И. Мотивы трудовой деятельности в системе управления персоналом организации // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2019. № 9
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. –Toshkent 2007. - 316 b.
5. Krasnov A. S., Menchikov G. P. The essence of living in the context of neo-classical understanding // QUID: Investigacion, Ciencia y Tecnologia. 2017. No. 1. P. 734-738

6. Маслоу Абрахам Гарольд. Дальние пределы человеческой психики / Перев. с англ. А. М. Татлыдаевой; Научн.ред., вступ. статья и коммент. Н. Н. Акулиной. — Спб.: Издат. группа «Евразия», 1997. — 430 с.
7. Савенков А.И. Психолого-педагогические нарративы разработки концепций и методик цифрового дистанционного сопровождения контактной учебной работы Электронный ресурс / Nominum. 2021. №2. С. 99—111,
8. Слободчиков В.И. Генезис рефлексивного сознания в младшем школьном возрасте / В.И. Слободчиков, Г.А. Цукерман // Вопросы психологии. — 1990. № 3
9. Slobodchikov, V.I. (1994). Razvitie sub’ektivnoj real’nosti v ontogeneze Development of Subjective Reality in Ontogenesis (Doctor of Sciences dissertation). Moscow.
10. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. — T.: Iqtisod dunyosi, 2018. — 170 b
11. Новиков А.М. Структура педагогической деятельности. Является ли деятельность педагога управленческой и почему? / А.М. Новиков // Инновационные проекты и программы в образовании. — 2010. — № 4. — С. 3–8.

Turaxonov Abduraim Eshkuziyevich,
 Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
 Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i
 Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARIDA BOSHQARUV MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv malakasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida maktab rahbarining kasbiy kompetentligi, yetakchilik qobiliyati va boshqaruv uslublari ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda boshqaruv malakasining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar — shaxslararo munosabatlar, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya, emotsional intellekt, stressga chidamlilik va ijtimoiy muhitning roli yoritib berilgan. Shuningdek, rahbar shaxsining individual-psixologik xususiyatlari hamda jamoa bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatining boshqaruv faoliyatidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada pedagogik jamoada ijobiy psixologik iqlimni shakllantirish, demokratik boshqaruv uslublarini qo'llash va rahbarlarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlari uchun boshqaruv malakasini oshirishga qaratilgan psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshqaruv malakasi, ta'lim rahbari, ijtimoiy-psixologik determinantlar, kommunikativ kompetensiya, emotsional intellekt, yetakchilik.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ У РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБЩЕСТВЕННЫХ СРЕДНИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация. В статье рассматриваются социально-психологические детерминанты развития управленческих компетенций руководителей организаций общего среднего образования. В условиях модернизации системы образования эффективность деятельности образовательного учреждения во многом зависит от профессионализма, лидерских качеств и управленческого стиля руководителя. В исследовании анализируются основные социально-психологические факторы, влияющие на формирование управленческих навыков, такие как межличностные отношения, мотивация, коммуникативная компетентность, эмоциональный интеллект, стрессоустойчивость и особенности социального окружения. Особое внимание уделяется роли индивидуально-психологических характеристик личности руководителя и его способности выстраивать эффективное взаимодействие с педагогическим коллективом. В статье обосновывается значимость создания благоприятного психологического климата в образовательной организации, применения демократических методов управления и развития рефлексивных умений у руководителей. Результаты исследования могут быть использованы при разработке программ повышения управленческой компетентности руководителей общеобразовательных организаций и совершенствовании системы их профессиональной подготовки.

Ключевые слова: управленческая компетентность, руководитель образования, социально-психологические детерминанты, коммуникативные навыки, эмоциональный интеллект, лидерство.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF MANAGEMENT SKILLS IN HEADS OF GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract. This article examines the socio-psychological determinants of developing managerial competence among leaders of general secondary education institutions. In the context of educational reform and modernization, the effectiveness of school management largely depends on the professional competence, leadership qualities, and management style of educational leaders. The study analyzes key socio-psychological factors influencing the development of managerial skills, including interpersonal relationships, motivation, communicative competence, emotional intelligence, stress resilience, and the impact of the social environment. Particular attention is paid to the role of individual psychological characteristics of school leaders and their ability to establish effective cooperation within the teaching staff. The article emphasizes the importance of creating a positive psychological climate in educational

institutions, applying democratic management approaches, and developing reflective skills among leaders. The findings of the study contribute to the development of psychological and pedagogical recommendations aimed at improving managerial competence and enhancing the professional development system for leaders of general secondary education organizations.

Key words: managerial competence, educational leadership, socio-psychological determinants, communicative competence, emotional intelligence, leadership.

Kirish. Bugungi globallashuv va ta'lim tizimida kechayotgan islohotlar sharoitida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilayotgan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Ta'lim sifati, pedagogik jarayonning samaradorligi hamda o'quvchi shaxsining har tomonlama rivoji ko'p jihatdan ta'lim muassasasini boshqarish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv malakasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim tashkiloti rahbari nafaqat ma'muriy-boshqaruv vazifalarini amalga oshiruvchi shaxs, balki pedagogik jamoani birlashtiruvchi, ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiruvchi va ta'lim jarayonining strategik yo'nalishini belgilovchi yetakchi sifatida faoliyat yuritadi.

Hozirgi sharoitda ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarish faqat normativ-huquqiy bilimlar yoki tashkiliy ko'nikmalar bilan cheklanib qolmay, balki rahbar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, kommunikativ kompetensiyasi, emotsional intellekti, motivatsion barqarorligi va stressga chidamliligi bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, pedagogik jamoada sog'lom psixologik iqlimni yaratish, o'qituvchilar faoliyatini rag'batlantirish va o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish rahbarning boshqaruv malakasini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, boshqaruv malakasining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-psixologik determinantlarning o'rni va ta'sir mexanizmlarini chuqur o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tashkilotlari rahbarlari faoliyatida yuzaga kelayotgan murakkab vaziyatlar, tezkor qaror qabul qilish zarurati, turli manfaatlar to'qnashuvi hamda jamoa a'zolari bilan samarali muloqotni ta'minlash masalalari rahbar shaxsidan yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Bunday sharoitda rahbarning individual-psixologik xususiyatlari, yetakchilik uslubi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri boshqaruv faoliyatining natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida demokratik boshqaruv tamoyillarining keng joriy etilishi rahbarlardan refleksiv yondashuv, moslashuvchanlik va innovatsion fikrlashni talab etmoqda.

Shu sababli, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv malakasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlarini ilmiy jihatdan asoslash, ularning ta'lim jarayonidagi rolini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ushbu masalalarni yoritishga, ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy asoslarni shakllantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv malakasini rivojlantirish masalasi pedagogika, boshqaruv nazariyasi va ijtimoiy psixologiya fanlarining tutash nuqtasida joylashgan muhim ilmiy muammo sifatida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv faoliyatining samaradorligi rahbarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalariga, balki uning shaxsiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, ta'lim tashkilotlari rahbarlarining yetakchilik salohiyati, kommunikativ kompetensiyasi va jamoa bilan o'zaro munosabatlari boshqaruv jarayonining muhim determinantlari sifatida e'tirof etiladi.

Rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'limni boshqarish jarayonining psixologik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, B.G. Ananyev, A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteynlarining faoliyat nazariyasiga oid ishlari boshqaruv faoliyatini shaxs faoliyatining maxsus turi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, rahbarning boshqaruv malakasi uning faoliyat jarayonida shakllanib, ijtimoiy muhit va shaxslararo munosabatlar ta'sirida rivojlanadi. A.V. Petrovsky va M.G. Yaroshevskiyalar jamoa psixologiyasi doirasida rahbarlik va yetakchilik muammolarini o'rganib, rahbar shaxsining ijtimoiy mavqei va jamoa ichidagi psixologik iqlim boshqaruv samaradorligiga kuchli ta'sir ko'rsatishini asoslab berganlar.

Shuningdek, rus tadqiqotchilari V.A. Kan-Kalik, E.A. Klimov va L.M. Mitinalar pedagogik boshqaruv jarayonida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyatini yoritib, ta'lim tashkiloti rahbarining muloqot madaniyati, empatiya darajasi va refleksiv qobiliyatlari boshqaruv malakasining tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, rahbarning pedagogik jamoa bilan samarali muloqot o'rnatishi ijtimoiy-psixologik muhitni optimallashtirib, ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida esa ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv malakasini rivojlantirish masalasi ko'proq liderlik nazariyalari va emotsional intellekt kontsepsiyasi doirasida o'rganilgan. Jumladan, J. Burns va B. Bass tomonidan ishlab chiqilgan transformatsion liderlik nazariyasi rahbarning ilhomlantiruvchi ta'siri, jamoani umumiy maqsadlar sari yo'naltira olish qobiliyati boshqaruv samaradorligining muhim omili ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim rahbari faqat nazorat qiluvchi shaxs emas, balki pedagoglarni rivojlanishga undovchi va ularning ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlovchi yetakchi bo'lishi lozim.

D. Goleman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt nazariyasi ham ta'lim rahbarlari boshqaruv malakasini tushuntirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Olimning fikricha, rahbarning o'z his-tuyg'ularini anglay olishi, boshqalar hissiyotlarini tushunishi va ularni boshqarish qobiliyati samarali boshqaruvning muhim ijtimoiy-psixologik determinantidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori emotsional intellektga ega bo'lgan ta'lim rahbarlari jamoada ijobiy psixologik iqlim yaratishga va nizoli vaziyatlarni konstruktiv tarzda hal etishga ko'proq moyil bo'ladilar.

Bundan tashqari, P. Drucker va H. Mintzberg kabi xorijiy boshqaruv nazariyotchilari rahbarlik faoliyatini murakkab ijtimoiy jarayon sifatida talqin qilib, boshqaruv malakasining shakllanishida ijtimoiy tajriba, tashkiliy madaniyat va rahbarning shaxsiy qadriyatlari muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Ularning yondashuvlarida boshqaruv kompetensiyasi doimiy rivojlanib boruvchi, muhit ta'sirida takomillashuvchi tizim sifatida qaraladi.

Shunday qilib, rus va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv malakasini rivojlantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, uning asosida ijtimoiy-psixologik determinantlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu determinantlarni kompleks yondashuv asosida o'rganish ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot doirasida olingan nazariy tahlillar va mavjud ilmiy yondashuvlar umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv malakasini rivojlantirish jarayoni murakkab va ko'p omilli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu jarayonda ijtimoiy-psixologik determinantlar rahbarning boshqaruv faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv malakasi faqat tashkiliy-boshqaruv ko'nikmalari bilan emas, balki uning shaxsiy fazilatlarini, jamoa bilan o'zaro munosabatlari va ijtimoiy muhitni boshqarish qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, rahbarlik faoliyatini tahlil qilishda ijtimoiy-psixologik jihatlarni e'tibordan chetda qoldirish boshqaruv jarayonining to'liq manzarasini ochib bera olmaydi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik jamoada shakllanadigan psixologik iqlim rahbarning boshqaruv uslubi bilan bevosita bog'liqdir. Avtoritar yondashuv ustun bo'lgan ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning tashabbuskorligi va ichki motivatsiyasi pasayishi kuzatilsa, demokratik va hamkorlikka asoslangan boshqaruv uslubi jamoada o'zaro ishonch va mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Bu holat, o'z navbatida, rahbarning kommunikativ kompetensiyasi va emotsional intellekt darajasi boshqaruv malakasining muhim tarkibiy qismi ekanligini tasdiqlaydi. Rahbarning o'qituvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ularning ehtiyoj va muammolarini tushunishi boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, muhokama jarayonida rahbarning individual-psixologik xususiyatlari, jumladan, stressga chidamlilik, moslashuvchanlik va refleksivlik qobiliyatlari alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Ta'lim tizimida tez-tez yuzaga keladigan o'zgarishlar, yuqori mas'uliyat va ko'p tomonlama talablar rahbar shaxsidan barqaror psixologik holatni saqlab qolishni talab etadi. Stressli vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qila oladigan rahbarlar pedagogik jamoa uchun ishonchli tayanch vazifasini bajaradi va tashkilot faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, rahbarlarning psixologik tayyorgarligini oshirish boshqaruv malakasini rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaraladi.

Muhokama shuni ham ko'rsatadiki, boshqaruv malakasining rivojlanishi ijtimoiy tajriba va tashkiliy madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim tashkilotida mavjud qadriyatlar, an'analar va me'yorlar rahbarning boshqaruv strategiyasini belgilab beradi. Agar rahbar tashkiliy madaniyatni rivojlantirishga ongli ravishda yondasha, bu jamoaning umumiy maqsadlarga yo'naltirilganligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, rahbarning refleksiv yondashuvi, ya'ni o'z faoliyatini tahlil qila olish va xatolardan xulosa chiqarish qobiliyati boshqaruv malakasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Natijalarni muhokama qilish shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv malakasini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-psixologik determinantlarni kompleks tarzda hisobga olish zarur. Faqat tashkiliy choralar bilan cheklanish rahbarlik faoliyatining samaradorligini to'liq ta'minlay olmaydi. Aksincha, rahbar shaxsining psixologik xususiyatlarini rivojlantirish, kommunikativ va emotsional kompetensiyalarni mustahkamlash orqali ta'lim muassasalarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish

mumkin. Ushbu yondashuv ta'lim sifatini oshirish va pedagogik jamoaning professional rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy tahlillar va ilmiy yondashuvlar umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv malakasini rivojlantirish jarayoni murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik hodisa ekanligini ko'rsatdi. Mazkur jarayonning samaradorligi rahbarning kasbiy bilim va tajribasi bilan bir qatorda, uning shaxsiy-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda pedagogik jamoani boshqarish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari boshqaruv malakasining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-psixologik determinantlar yetakchi o'rin egallashini tasdiqlaydi.

Xulosalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tashkiloti rahbarining kommunikativ kompetensiyasi, emotsional intellekti, yetakchilik salohiyati va refleksiv qobiliyatlari boshqaruv faoliyatining barqarorligi va natijadorligini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Pedagogik jamoada ijobiy psixologik iqlimni shakllantirish, o'qituvchilarning ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash va hamkorlikka asoslangan boshqaruv uslublarini joriy etish rahbarning professional yetukligini namoyon etadi. Ayniqsa, demokratik boshqaruv yondashuvlarining ustuvorligi jamoada o'zaro ishonch va mas'uliyat hissini kuchaytirib, ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida kechayotgan tezkor o'zgarishlar rahbarlardan yuqori darajadagi moslashuvchanlik, stressga chidamlilik va innovatsion fikrlashni talab etmoqda. Bunday sharoitda rahbar shaxsining psixologik tayyorgarligi va o'z faoliyatini tahlil qila olish qobiliyati boshqaruv malakasining uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi muhim shartlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tashkilotida shakllangan tashkiliy madaniyat va ijtimoiy muhit rahbarlik faoliyatining yo'nalishini belgilab, boshqaruv qarorlarining samaradorligini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv malakasini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik determinantlarni kompleks tarzda hisobga olish zarur. Ushbu determinantlarga asoslangan yondashuv rahbarlarning kasbiy salohiyatini oshirish, pedagogik jamoaning samarali faoliyatini ta'minlash va ta'lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim tashkilotlari rahbarlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: –T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021. – 162 b.
2. Айзенк Г., Вильсон Г. Как измерить личность: пер. с англ. — М.: Когито-центр. 2000. – 124 с.
3. Айзенк Г. Структура личности. — СПб.: Ювента; М.: КСП. 2001. – 464 с.
4. Асеев, В.Г. Проблемы мотивации и личности / Теоретические проблемы психологии личности [Текст] / М., 2004. – 124 с.
5. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Л.: ЛГУ, 2008. - 338 с.
6. Агафонова И. Н. Узнай 6 эмоций: методика диагностики понимания эмоций дошкольниками по рисункам: учеб.-методическое пособие / Агафонова И. Н.; Ком. по образованию Правительства Санкт-Петербурга, Санкт-Петербургская акад. постдипломного пед. образования. - Санкт-Петербург: СПбАППО. (СПб. : Ривьера). 2006. – 28 с.
7. Анохин П. К. Избранные труды. Системные механизмы высшей нервной деятельности. СПб: Питер. 2002. – 236 с.

№		bet
		сmp
		page
1	Pirjanov Sarvar Davlatovich	3
	Developing empathy in students as a key competence for social and emotional learning	
	O'quvchilarda empatiyani rivojlantirish ijtimoiy va emotsional ta'limning asosiy kompetensiyasi sifatida	
	Развитие эмпатии у учащихся как ключевой компетенции для социального и эмоционального обучения	
2	G'iyosiddinov Muhridin Qobuljon o'g'li	10
	Talabalarning raqamli diqqat sindromi: sun'iy intellekt algoritmlari bilan bog'liq psixologik muammolar	
	Цифровой синдром внимания у студентов: психологические проблемы, связанные с алгоритмами искусственного интеллекта	
	Digital attention syndrome among students: psychological problems associated with artificial intelligence algorithms	
3	Qo'chkorova Sevara O'ktamboyevna	14
	Talabalarning ichki dunyosi va ma'naviy qadriyatlari	
	Внутренний мир студентов и их духовные ценности	
	The inner world of students and their spiritual values	
4	Каланходжаева Камилахон Ботирходжаевна	19
	Влияние индивидуального профиля функциональной асимметрии на преобладание компонентов сигнальных систем	
	Funksional asimmetriyaning individual profili signal tizimlari komponentlarining ustunligiga ta'siri	
	Influence of the individual profile of functional asymmetry on the predominance of signal system components	
5	Qodirova Madina Elmurod qizi	24
	Talabalarning ijtimoiylashuvida fuqarolarga mos bo'lmagan deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari va ularni nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish	
	Причины возникновения девиантного поведения, не соответствующего нормам гражданского общества, в процессе социализации студентов и совершенствование механизмов его контроля	
	Identifying the causes of deviant behavior unsuitable for citizens in student socialization and improving mechanisms for its control	
6	Rahimova Nigora Shuhrat qizi	29
	Deviant xulq-atvorning mohiyati, turlari va namoyon bo'lish shakllari	
	The essence, types and forms of manifestation of deviant behavior	
	Сущность, виды и формы проявления девиантного поведения	
7	Sharipov Alisher Nuriddinovich	34
	O'smir o'quvchilarda irodaviy sifatlarni rivojlantirish mexanizmlari	
	Механизмы развития волевых качеств у учащихся-подростков	
	Mechanisms for developing will-powering qualities in adolescent students	

8	<i>Sidiqova Dilora Shavkatovna</i>	40
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda germenevtik yondashuvning ahamiyati	
	Значение герменевтического подхода в подготовке будущих учителей начальной школы	
	The importance of the hermeneutic approach in the training of future elementary school teachers	
9	<i>To'rahonova Barno Tursunboy qizi</i>	44
	Zamonaviy maktab ta'limida o'smirlar shaxsining axloqiy psixologik xususiyatlari rivojlanish dinamikasining o'ziga xos jihatlari	
	Специфика динамики развития морально-психологических качеств личности подростков в современной школе	
	Specific features of the dynamics of moral and psychological development of adolescents' personality in modern school education	
10	<i>Tosheva Mohinur Yusupovna, Tolipov Muhammadjon Odilovich</i>	48
	O'smirlarning stressga qarshi kurashish strategiyalarini shakllantirishda oilaviy va maktab muhitining roli	
	Роль семейной и школьной среды в формировании у подростков стратегий противодействия стрессу	
	The role of family and school environments in developing adolescents' stress coping strategies	
11	<i>Toyirova Shahlo Izatovna</i>	52
	O'smirlik yoshi egizaklarda psixologik o'zgarishlar bilan bog'liq motivatsion rivojlanish muammolari	
	Problems of motivational development related to psychological changes in adolescent twins	
	Проблемы мотивационного развития, связанные с психологическими изменениями у близнецов в подростковом возрасте	
12	<i>Tosheva Mohinur Yusupovna, Matyokubova Zilola Zeripbayevna</i>	56
	O'smirlardagi stress holatining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi psixologik xususiyatlar	
	Психологические особенности, влияющие на изменение стрессового состояния у подростков	
	Psychological features that affect the change in stress state in adolescents	
13	<i>Umidullayeva Marjona Ulug'bek qizi</i>	60
	Ijtimoiy identifikatsiya inqirozi - jinoyatchilikka moyillik kelib chiqishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	
	Кризис социальной идентификации – психологические факторы, влияющие на возникновение склонности к преступности	
	Social identification crisis – psychological factors affecting the emergence of criminal inclination	
14	<i>Usmonova Oydin Sherali qizi</i>	65
	Tanqidiy tafakkurning shakllanishida B.Blum taksonomiyasining ahamiyati	
	Значение таксономии Б. Блума в формировании критического мышления	
	The importance of B. Bloom's taxonomy in the formation of critical thinking	

15	<i>Utamuradova Gulchexra Norboyevna</i>	70
	<i>Oilada bolalar xarakterida ma'naviy-axloqiy xislatlarining shakllanishi</i>	
	<i>Формирование духовно-нравственных качеств характера детей в семье</i>	
	<i>The formation of spiritual and moral qualities of children's character in the family</i>	
16	<i>Xamdamova Mohlaroyim Nurxo'ja qizi</i>	75
	<i>O'smirlarda qayg'uni yengishning psixologik xususiyatlari</i>	
	<i>Психологические особенности преодоления печали у подростков</i>	
	<i>Psychological features of overcoming grief in adolescents</i>	
17	<i>Xudayberganov Azizbek Obidjonovich,</i>	80
	<i>Yoshlarning ijtimoiy voqelikka munosabatida shaxsiy xususiyatlarning ahamiyati</i>	
	<i>Значение личностных характеристик в отношении молодёжи к социальной реальности</i>	
	<i>The importance of personal characteristics in the attitude of youth to social reality</i>	
18	<i>Xudoyqulova Shoiri Husanovna</i>	88
	<i>Shaxs etukligi muammosining falsafiy va psixologik talqini</i>	
	<i>Философская и психологическая интерпретация проблемы зрелости личности</i>	
	<i>Philosophical and psychological interpretation of the problem of personal maturity</i>	
19	<i>Xuseynova Abira Amanovna</i>	92
	<i>Yangi O'zbekiston ijtimoiy-madaniy muhitida ayollarni ijtimoiylashuv jarayonining psixologik xususiyatlari</i>	
	<i>Психологические особенности процесса социализации женщин в социокультурной среде нового Узбекистана</i>	
	<i>Psychological features of the process of socialization of women in the socio-cultural environment of new Uzbekistan</i>	
20	<i>Yakubova Nasiba Nigmanjanovna</i>	98
	<i>Mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy konsepsiyalari</i>	
	<i>Theoretical concepts of developing logical and critical thinking</i>	
	<i>Теоретические концепции развития логического и критического мышления</i>	
21	<i>Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna</i>	103
	<i>Talabalarda yolg'izlik hissini shartlovchi ijtimoiy-psixologik determinantlarning tadqiqiy tahlili</i>	
	<i>Анализ социально-психологических детерминант, обуславливающих чувство одиночества у студентов</i>	
	<i>Analysis of socio-psychological determinants conditioning the feeling of loneliness among students</i>	
22	<i>Yunusova Go'zal Sultonovna, Anvarjonova Zulxumor Oxunjon qizi</i>	108
	<i>O'smirlar shaxsiy avtonomiyasi shakllanishida tengdoshlar guruhi ta'sirining psixologik mexanizmlari</i>	
	<i>Психологические механизмы влияния группы сверстников на формирование личной автономии подростков</i>	
	<i>Psychological mechanisms of peer group influence in the formation of adolescents' personal autonomy</i>	

23	<i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна, Махкамова Камила Тахировна</i>	113
	Влияние ситуации развода родителей на состояние ребёнка и её последствия	
	Ota-onaning ajrashishining bola salomatligiga ta'siri va oqibatlarini	
	The impact of parental divorce on a child's health and its consequences	
24	<i>Yunusova Go'zal Sultonovna</i>	118
	O'smir yoshli bolalarda deviant xulq-atvor shakllanishiga oilaning ta'siri	
	Влияние семьи на формирование девиантного поведения у подростков	
	The influence of the family on the formation of deviant behavior in adolescents	
25	<i>Мустафаева Шириной Фарходжановна</i>	122
	Шахс рухий ҳолатларининг кўринишлари, стресс профилактикаси	
	Проявления психических состояний личности, профилактика стресса	
	Appearances of personal mental states, stress prevention	
26	<i>Разыкова Лола Туйчиевна</i>	127
	Психология современной семьи: трансформация ценностей и стратегии адаптации	
	Psychology of the modern family: transformation of values and adaptation strategies	
	Zamonaviy oila psixologiyasi: qadriyatlarining transformatsiyasi va rivojlanish strategiyalari	
27	<i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна, Харитонова Евгения Петровна</i>	133
	Особенности детско-родительских отношений у детей старшего дошкольного возраста	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda ota-ona-bola munosabatlarining xususiyatlari	
	Features of parent-child relationships in children of older preschool age	
28	<i>Nurulloev Laziz Latipovich</i>	137
	Yuqori sinf o'quvchilarining harbiy-sport musobaqalariga tayyorlanish tizimini takomillashtirish yo'llari	
	Пути совершенствования системы подготовки учащихся старших классов к военно-спортивным соревнованиям	
	Ways to improve the system of preparation for military-sports competitions of high school students	
29	<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna</i>	144
	Oliy ta'lim muassasalarida loyihaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kongruentlik qobiliyatini rivojlantirish	
	Развитие конгруэнтных способностей будущих учителей на основе проектного подхода в высших учебных заведениях	
	Developing future teachers' congruence abilities through a project-based approach in higher education institutions	
30	<i>Сафаров Шохрух Саттор ўғли</i>	149
	Олий таълим муассасалари таълим менежментида таълим сифатини таъминлашнинг ривожланган мамлакатлар таърибаси	
	Опыт развитых стран по обеспечению качества образования в образовательном менеджменте высших учебных заведений	
	Experience of developed countries in ensuring the quality of education in educational management of higher education institutions	



31	<i>Axmedov Baxtiyor Tursunovich, Toshpulatova Xilola Bobomurodvna</i>	153
	Sevgi umuminsoniy qadriyat sifatida	
	Любовь как универсальная человеческая ценность	
	Love as a universal human value	
32	<i>Ibodov Murodulla Xoldor o'g'li</i>	157
	Talaba yoshlarning o'zini anglash jarayonida hadis va milliy qadriyatlarning psixologik himoya omili sifatidagi roli	
	The role of hadiths and national values as psychological protective factors in the self-awareness process of university students	
	Роль хадисов и национальных ценностей как психологического защитного фактора в процессе самосознания студенческой молодежи	
33	<i>Turaxonova Mohinur Abdunazar qizi,</i>	163
	Bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion pedagogik tafakkurni shakllantirishning psixologik xususiyatlari	
	Психологические особенности формирования инновационного педагогического мышления у будущих учителей	
	Psychological features of forming innovative pedagogical thinking in future teachers	
34	<i>Xo'shboqov Kamoliddin Abdulatif o'g'li, Umarxanova Xolbibbi Faxriddin qizi</i>	167
	Nizoning shaxslararo munosabatlardagi o'rni	
	Роль конфликта в межперсональных отношениях	
	The role of conflict in interpersonal relationships	
35	<i>Kubayev Ma'ruf Qosim o'g'li</i>	171
	O'smirlarda autodestruktiv xulq-atvor psixoprofilaktikasiga doir yondashuvlar tahlili	
	Анализ подходов к психопрофилактике аутодеструктивного поведения у подростков	
	Analysis of approaches to the psychoprophylaxis of autodestructive behavior in adolescents	
36	<i>Odiljonova Aziza Abduxakimovna</i>	175
	Kreativlik talabalar o'quv motivlarining determinanti sifatida	
	Творчество как фактор, определяющий мотивы обучения студентов	
	Creativity as a determinant of students' learning motives	
37	<i>Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna</i>	179
	Personal characteristics as a factor determining the position in life of representatives of youth subcultures	
	Личностные характеристики как фактор, определяющий позицию в жизни представителей молодежных субкультур	
	Shaxs xususiyatlari yoshlar submadaniyatlari vakillarining hayotdagi mavqeini belgilovchi omil sifatida	
38	<i>Payziyeva Mastura Nigmatullayevna</i>	183
	Talabalarda kasbiy etukligining ijtimoiy - psixologik jihatlar	
	Социально-психологические аспекты профессиональной зрелости у студентов	
	Social-psychological aspects of professional maturity in students	
39	<i>Qodirova Odina Djurabaevna</i>	187
	Bo'lajak mutaxassislarda emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik tahlili	
	Психологический анализ развития эмоционального интеллекта у	

	будущих специалистов	
	Psychological analysis of the development of emotional intelligence in future specialists	
	<i>Xasanova Surayyo Shonazarovna</i>	192
40	Ta'lim faoliyatida o'quvchilar o'zini-o'zi namoyon qilishni rivojlantirishda pedagogning ta'siri	
	Влияние педагога на развитие самореализации обучающихся в образовательной деятельности	
	The influence of the teacher on the development of students' self-realization in educational activities	
	<i>Turaxonov Abdulkarim Eshkuziyevich</i>	197
41	Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv malakasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari	
	Социально-психологические факторы развития управленческих навыков у руководителей общественных средних учебных заведений	
	Social-psychological determinants of the development of management skills in heads of general secondary educational institutions	



Bizning yangilangan saytimizga tashrif buyuring
BUXDU.UZ

Saytimizda maqolalarni o'qishingiz va ularni elektron nusxasini yuklab olishingiz mumkin



PSIXOLOGIYA ilmiy jurnal 4-son (64) Buxoro – 2025. 152 b. PSIXOLOGIYA научный журнал. Выпуск 4. (64) Бухара – 2025. – 152 с.	Jurnal O'zbekiston psixologlarining BuxDU muassisligidagi nashri hisoblanadi. Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar. OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi Qog'oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Sharli bosma tabog'i - 28 Buyurtma №123. Adadi – 50 Bahosi kelishilgan narxda. “BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro sh. Buxoriy ko'chasi, 190-uy.
--	---	--

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK
Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi
201/3-sonli qarori bilan psixologiya
fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari
ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy
maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.*

ISSN 2181-5291



9 772181 529113 11